

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**12/1-son (dekabr 2024)**

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal**  
2001-yildan nashr qilina boshlagan

**Urganch – 2024**

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent **YO'LDOSHEV Ro'zimboy**

**TAHRIR HAY'ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ABDULLAYEV O'tkir**, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ATADJANOV Ilxam**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**ATAYEV Shokir**, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent (UrDU),  
**AHMEDOV Oybek Saporbayevich**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DO'SCHONOV Tangribegan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ERMETOVA Jamila**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, (UrDU),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),  
**JUMANAZAROV Doniyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Zohid Otaboyevich**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, (Ma'mun universiteti),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva unversiteti),  
**KURAMBAYEV Sherzod Raimberganovich**, texnika fanlari doktori, dotsent (UrDU),  
**MADRAXIMOVA Feruza Ruzimbayevna**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (UrDPI),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OTAMURODOV Sa'dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),  
**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**RUZMETOV Surojbek**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),  
**RO'ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zZMU),  
**SADULLAYEVA Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O'zZMU),  
**SALAYEV San'atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),  
**SATIPOV G'oiptazar**, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),  
**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari doktori, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, UrDU),  
**YOQUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),  
**O'ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU),  
**O'ROZBOYEV G'ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU),  
**G'AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul kotib, UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL  
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI• 12/1-son (dekabr 2024)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti •Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan •**GUVOHNOMA № 1131.**

## OGAHIY TAVALLUDINING 215 YILLIGIGA

Abdulla O'rozboyev (filologiya fanlari doktori, dotsent)  
OGAHIYSHUNOSLIK: BUGUNGI MASHAQQAT – ERTANGGI MAHSUL

Bir qarashda, bir adabiy shaxsiyatga bog'liq deb qaralgan ogahiyshunoslik rivoji butun millatimiz, jahon madaniy va ma'rifiy hayoti uchun juda muhim va dolzarb masalalardan biridir. Bu sohadagi ishlar jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olishi va turli yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim. Ogahiyshunoslik alohida fan sohasi emas, balki ijtimoiy fanlar doirasida o'rganish obyekti, muayyan shaxs ijodi va merosi ekanligi bilan farqlanuvchi (navoiyshunoslik, boburshunoslik kabi) sanoqli ixtisosliklardan biridir. Shuning uchun sohaga e'tibor butun ijtimoiy fan tarmoqlari rivojining bir qismi sifatida o'ta muhimdir. Bu borada, nazarimizda, quyidagilarni amalga oshirish zarur:

*Ta'lim tizimining ogahiyshunoslikka oid qismini takomillashtirish.* Xususan, ta'lim muassasalarida ogahiyshunoslikka oid dars soatlarini ko'paytirish va ushbu darslar sifatiga alohida e'tibor qaratish. Oliy ta'lim muassasalarida ogahiyshunoslik bo'yicha mutaxassislar tayyorlash. Talabalar va o'quvchilar uchun ogahiyshunoslikka oid turli xil tanlovlar, konferensiyalar va seminarlar tashkil etish.

Bu ishlarning muayyan qismi amalga oshirilmoqda. Faqat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Ogahiy shoir sifatida adabiyot darsligiga kiritilgan bo'lsa, tarixchi sifatida "O'zbekiston tarixi" darsligiga ham kiritilishi, biografik ma'lumotlar qayd etilishi lozim. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Ogahiy uchun ajratilgan soatlar soni uning ijodiy merosi ko'lamiga munosib emas. Maktab dasturlarida juda qimmatli soatlarning bir qismi o'zbek millatiga Ogahiy darajasida xizmati singmagan figuralarga ajratilgani haqli e'tirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Umuman, endilikda dastur tuzish va soatlar ajratish bo'yicha umum e'tirof etilgan mezonlar ishlab chiqish va rasmiy tasdiqlash vaqti keldi.

Yana bir muhim masala – bu Ogahiy ijodini targ'ib qilishda zamonviy mobil vositalardan samarali foydalanish. Bu borada ilk qadam sifatida umidli tadqiqotchilardan Musobek Rahimboyev tomonidan Abdulla O'rozboyev lingvistik ta'minoti asosida "Ta'viz ul-oshiqin" devoni mobil ilovasi yaratishga kiritildi va uning sinov varianti taqdim qilindi. Haqiqatan, mumtoz adabiyotda qo'llanilgan so'zlar va ularning ma'nolarini hozirgi davr an'anaviy tilshunosligida o'rganish juda muhim amaliyotlardan biri hisoblanadi. Mumtoz elektron lug'atlarni yaratish va o'rganish davomida tabiiy til jarayonlarini tahlil qilish juda ahamiyatlidir. Tabiiy til tushunchasi deganda tilning foydalanish va ijtimoiy o'zaro ta'siri orqali odamlar o'rtasida tabiiy ravishda rivojlangan har qanday til tushuniladi. Tabiiy tillar kundalik muloqot uchun ishlatiladi va og'zaki, yozma shakllarda akslanadi. Odatda, ular vaqt o'tishi bilan insoniyat tomonidan organik ravishda rivojlangan har qanday muloqotni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda til fikrlarini bildirish, his-tuyg'ularni yetkazish va ma'lumot almashishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Murakkabligi, moslashuvi va nozik ma'nolarni yetkazish qobiliyati bilan ajralib turadigan tabiiy tillarda so'zlar grammatika, sintaksis va muayyan matn kabi elementlarga asoslangan holda rivojlanadi.

Tabiiy tillarni qayta ishlash jarayonlarida yana bir tushuncha formal grammatika atamasi keng qo'llaniladi. Formal grammatika matnni yig'ish jarayonlarida manbalardan ma'lumot olish va tabiiy til jarayonini tushunishga yordam beradigan nazariyalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda ma'lumotlar to'plami mumtoz asarlarda qo'llanilgan so'zlar bazalarini o'zida jamlaydi. Formal grammatika tadqiqotchilar va o'rganuvchilar tomonidan til bilan bog'liq muammolardan kelib chiqqan holda, matnni o'rganishda muhokama qilinadigan masalalar yechimiga qaratilgan formulalarini yaratish amaliyotini yuzaga keltiradi. Tilni formallashtirishda grammatika va sintaksis samarali lingvistik vositalardan foydalanish matnni o'rganish va tahlil qilish uchun juda kerakli vosita sifatida xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Tadqiqotchilarga yangi iboralarni ixtiro qilish, metaforalarni qo'llash va mavhum tushunchalarni ifodalash imkonini beradi, bu esa turli xil muloqot uslublarini osonlashtiradi. Ko'pincha, tabiiy tilni formallashtirish ko'plab noaniqlikni keltirib chiqaradi, bu jarayon so'z yoki iboraning talqini atrofidagi muayyan matnga bog'liq holda o'zgarib turadi.

Binobarin, ulardan so'zlashuvchilar iboralarni yaratish va yangi g'oyalarni yetkazish uchun jumlar tuzish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ushbu ijodiy jihat tildan foydalanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tabiiy tillar cheksiz xilma-xil jumalarni yaratish imkoniyatini beradi. Bu esa keng ma'nolar to'plami muloqotini osonlashtiradi. Tabiiy tillar bilan ishlashda mahsuldorlik tilning kommunikativ salohiyatining

<sup>1</sup> Liu, K., Hogan, W.R., & Crowley, R.S. (2011). Natural language processing methods and systems for biomedical ontology learning. *Journal of biomedical informatics*, 44(1), 163 – 179 pp.

muhim jihati hisoblanadi. Turli madaniyatlar va mintaqalarda turli tillar va lahjalar mavjud bo‘lib, madaniy ta’sir tabiiy tillardagi lug‘at, idiomalar, hatto jumla tuzilmalarini shakllantiradi.

Tabiiy tilni o‘rganish tilshunosligi kognitiv fan va sun‘iy intellekt kabi fanlarda muhim ahamiyatga ega. Sun‘iy intellekt sohasida tabiiy tilni qayta ishlash, ayniqsa, kompyuterlar va inson tili o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga e’tibor qaratiladi. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari kompyuterlarni inson tiliga o‘xshash tarzda matn yoki nutqni tushunish, sharhlash va yaratish qobiliyati bilan jihozlashga mo‘ljallangan jarayonlarni shakllantiradi. Tilni o‘rganish inson idroki, muloqot dinamikasini tushunish va qayta ishlashni o‘z ichiga olgan texnologiyalarni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

*Ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish.* Bu jarayon ommaviy axborot vositalari orqali maqolalar, ko‘rsatuvlar va boshqa materiallarni keng yoritish, ijtimoiy tarmoqlarda ogahiyshunoslikka oid ma’lumotlarni tarqatish va muhokama qilish uchun platformalar yaratish kabilarni o‘z ichiga oladi.

*Ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish.* Bu ogahiyshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularning natijalarini amaliyotga joriy etish, olimlar va mutaxassislar o‘rtasida xalqaro aloqalarni yo‘lga qo‘yish va tajriba almashish kabilarni qamrab oladi.

*Davlat siyosatida ogahiyshunoslikka alohida e’tibor qaratish.* Ogahiyshunoslikni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Ogahiyshunoslik sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tashkilotlarga ko‘mak berish va ularni rag‘batlantirish.

Bu masala keyingi yillar o‘zining qanday ijobiy samarasini berganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-martdagi “Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to‘g‘risida”gi 238-qarori ana shunday tarixiy hujjatlar sirasiga kiradi. Chunki ushbu qaror ijrosi sifatida eng muhim ishlardan biri Ogahiy “Asarlar”i ko‘pjildligi dunyo yuzini ko‘ra boshlaganidir.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash uchun Xorazm viloyat hokimligi Ogahiy asarlari nashr xarajatlarini o‘z zimmasiga olgan. Bugunga qadar Ogahiy “Asarlar”ining 9 kitobdan iborat 8 jildi dunyo yuzini ko‘rdi. Rejaga muvofiq loyihaning to‘la ijrosi 20 jildga mo‘ljallangan. Bular:

1-jild. “Ta’viz ul-oshiqin” devoni. F.G‘anixov jayev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn asosida professor D.G‘oyipov hamda dotsent S.Matkarimovalar tomonidan tayyorlandi.

2-jild. Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol”. Nashr 1-kitobi 2019-yilda va 2-kitobi 2023-yilda nashr qilindi.

3-jild. “Zubdat ut-tavorix”. Professor Nurboy Jabborov tabdilida nashr qilindi.

4-jild. “Riyoz ud-davla”. Asarning yangi ilk to‘liq nashri Abdulla O‘rozboyev tomonidan Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 5364/II ashho raqamli qo‘lyozma asosida tayyorlandi. Kitob 2021-yilda Urganchda,<sup>1</sup> 2023-yilda “Asarlar” silsilasida nashr qilindi.

5-jild. “Jome’ ul-voqe’oti” sultoni”. Asarning silsiladagi mazkur jildi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida 9686-ashho raqami ostida saqlanayotgan qo‘lyozma asosida dotsent Is’hoqjon Ismoilov tomonidan tayyorlandi.

6-jild. “Gulshani davlat”. Abdulla O‘rozboyev tabdilida nashr qilindi.

7-jild. “Shohid ul-iqbol”. Professor Nafas Shodmonov tabdilida nashr qilindi.

8-jild. “Axloq ul-Muhsiniy”. Madrahim Safarboyev, Sul-tonmirzo Rahimov, Abdulla O‘rozboyevlar tabdilida nashr qilindi.

9-jild. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari va Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar” asarining Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan qilingan tarjimalari. Subutoy Dolimov va Abdulla O‘rozboyevlar tabdilida nashr qilindi.

10-jild. Joniy Mahmud G‘ijduvoni qalamiga mansub “Miftoh ut-tolibin” asarining Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan qilingan tarjimasi. Erkin Mirkomilov tabdilida nashr qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyobonining ochilishida ilgari surgan tashabbuslariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 24-avgustdagi 502-qarorining “Adiblar xiyobonida haykallari o‘rnatilgan atoqli yozuvchi va shoirlarning ibratli hayoti va ijodini chuqur o‘rganish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha oliy ta’lim muassasalarini birlashtirish”ga oid 2-ilovasiga ko‘ra, Muhammad Rizo Ogahiy ijodini o‘rganish va

<sup>1</sup> Muhammad Rizo Ogahiy. Riyoz ud-davla. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi hamda forsiy matnlarni tarjimoni Abdulla O‘rozboyev. Urganch, “Quvanchbek-Mashhura”, 2021, 429 bet.

targ'ib qilish ishlariga Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti mas'ul qilib belgilangan. Aytish mumkinki, ushbu qaror ijrosiga jiddiy yondashayotgan muassasalardan biri, shubhasiz, Toshkent davlat Sharqshunoslik universitetidir.

2022-yil sentabrda Xorazm viloyatining Xiva shahrida Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan tarjima qilingan ikki asar jamlangan mutarjim qo'lyozmasining topilishi millatimiz ma'naviy hayotida muhim voqea bo'ldi. Bu quvonchli voqea, ayniqsa, ikki jihati bilan tengsiz edi: birinchidan, Muhammad Rizo Ogahiyning shaxsan o'z dastxati bo'lishi, ikkinchidan, unda ikki tarjima asarning biri (Sa'diyning "Guliston"i bilan birga kitobat qilingan) shu kunga qadar topilmagan Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston"ining ona tilimizga tarjimasi ekanidir.

Ogahiy tarjimasidagi "Bahoriston" 2024-yilda "Zamin nashr" nashriyotida Abdulla O'rozboyev va Hilola Nazirova tomonidan tabdil qilindi va professor Gulchehra Rixsiyeva mas'ul muharrirligida nashr qilindi<sup>1</sup>. Kitob annotatsiyasida "2022-yilning sentabr oyida Xiva shahrida Muhammad Rizo Ogahiy tarjima qilgan ikki asar jamlangan qo'lyozmaning topilishi millatimiz ma'naviy hayotida muhim voqea bo'ldi", deya e'tirof etiladi.

Respublikamizda badiiy tarjima sohasida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etildi. Tanlov 2025-yildan boshlab har ikki yilda bir marta o'tkaziladi. G'oliblarga BHMning 300 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti beriladi.<sup>2</sup>

*Jamiyatdagi barcha qatlamlarni jalb qilish.* Fuqarolar jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ogahiyshunoslikni ommalashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish. Yoshlarni Ogahiy ijodiy merosiga qiziqtirish va ularni bu borada faol ishtirok etishga targ'ib qilish.

*Ogahiyshunoslikni rivojlantirishning ahamiyati* esa jamiyatning ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish; odamlarning ongini yuksaltirish va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish; jamiyatdagi turli muammolarni hal qilishga yordam berish; mamlakatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlash kabi o'ta muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar majmuyi ogahiyshunoslikni rivojlantirishga va jamiyatning barcha sohalarida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ogahiyning anglashga eng birinchi yo'l uning asarlari mutolaasi, ularni tafakkur va intilish bilan o'qish orqali bo'ladi. Bu borada galdagi birinchi ish "Asarlar" silsilasi nashrini davom ettirish, to'ldirib borishdan iborat. Bu borada kelgusi jildlar quyidagi ko'rinishda bo'lishi nazarda tutilgan:

11-jild. "Yusuf va Zulayho". "Yusuf va Zulayho" (fors tilidan tarjima, Abdurahmon Jomiy asari) Ogahiy "Asarlar"i 3-jildida (1974-yil, 9–240-betlar) chiqqan, qisqartirishlar bor. 5 ta nusxa Toshkentda, 1 ta nusxa Sankt-Peterburgda. Qo'lyozma hajmi 114 varaq.

"Shoh-u gado". "Shoh-u gado" (fors tilidan tarjima, Badriddin Hiloliy asari) Ogahiy "Asarlar"i 3-jildida chiqqan (241–322-betlar). Qisqartirishlar bor. 1 ta nusxa Toshkentda, 1 ta nusxa Sankt-Peterburgda. Qo'lyozma hajmi 52 varaq.

12-jild. "Tarixi jahongushoyi Nodiriy". Muhammad Mahdiy Astrobodiy (Nodirshohning shaxsiy kоти) asari. Sankt-Peterburgda 2 ta nusxa, Toshkentda 2 nusxa saqlanadi. Qo'lyozma hajmi 294 varaq.

13-jild. "Zubdat ul-hikoyot". Muhammad Voris (Hindistonda yashagan, Avrangzebning zamondoshi) asari. Yagona nusxa Toshkentda.

15-jild. "Badoye' ul-vaqoe'". Zayniddin Vosifiy (Alisher Navoiyning shogirdi) asari. To'liq nashr qilinmadi. Mavjud nashrida xatoliklari ko'p. Yagona nusxa Toshkentda. Qo'lyozma hajmi 270 varaq.

16-jild. "Ravzat us-safo". Mirxondning mashhur tarixiy asari. Toshkentda 6 ta, Sankt-Peterburgda 1 ta nusxa. Qo'lyozma hajmi 431 varaq.

17-jild. "Ravzat us-safoyi Nosiriy". "Nosiriy" Eron shoiri va muarrix Rizoqulixon Hidoyat asari. Yagona nusxa Sankt-Peterburgda. Qo'lyozma hajmi 389 varaq.

18-jild. "Tarixi Muqimxoniy". Muhammad Yusuf munshiy Xoja Baqo asari. Yagona nusxa Sankt-Peterburgda. Qo'lyozma hajmi 154 varaq.

"Qobusnoma". Kaykovusning mashhur pandnomasi. S.Dolimov tomonidan to'la nashr qilingan. Toshkentda 2 ta nusxasi saqlanadi. Qo'lyozma hajmi 108 varaq.

19-jild. "Tabaqoti Akbarshohiy". Nizomiddin Ahmad ibn Muhammad Muqim Hiraviy asari. Hindiston podshohlari tarixi. Yagona nusxa Sankt-Peterburgda. Qo'lyozma hajmi 560 varaq.

<sup>1</sup> Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asari Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasida. Dastxat nusxa. Toshkent, "Zamin nashr", 2014, 152 bet.

<sup>2</sup> lex.uz/docs/ 6951793

20-jild. “Daloyil ul-hayrot”. Ogahiy tarjimalari ichida usmonli turk turkchadan qilingan yagona tarjima. (Qolgan 18 asarni fors tilidan tarjima qilgan edi). Aslida, Abdulla al-Juzuliy tomonidan arab tilida yozilgan. Fasih al-Kasriy usmonli turk tiliga tarjima qilgan. Ogahiy ana shu nusxani o‘zbek tiliga o‘giran. Aqida ilmiga bag‘ishlangan. Yagona nusxa Sankt-Peterburgda. Qo‘lyozma hajmi 514 varaq.

O‘rni bilan Ogahiy ijodiy merosini targ‘ib qilishda “Ilm sarchashmalari” ilmiy-nazariy, metodik jurnalining o‘ziga yarasha xizmatlari kattaligini e‘tibrof etishimiz kerak.

Umid qilamizki, jamiyatimizdagi rivojlanish, ma’naviy-ruhiy o‘sish Muhammad Rizo Ogahiy kabi buyuk shaxsiyatlar muayyan hudud vakiligina emas, butun bani bashar baxti, ularning bugungi va ertangi saodati ekanini anglash darajasiga yetib keldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Liu, K., Hogan, W.R., & Crowley, R.S. (2011). Natural language processing methods and systems for biomedical ontology learning. Journal of biomedical informatics, 44(1), 163 – 179 pp.

(2). Muhammad Rizo Ogahiy. Riyoz ud-davla. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi hamda forsiy matnlar tarjimoni Abdulla O‘rozboyev. Urganch, “Quvanchbek-Mashhura”, 2021, 429 bet.

(3). Abdurahmon Jomlyning “Bahoriston” asari Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasida. Dastxat nusxa. Toshkent, “Zamin nashr”, 2014, 152 bet.

(4). [lex.uz/docs/6951793](http://lex.uz/docs/6951793)

**Bozorov Suxrob Baxodirovich (Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti;  
e-mail: [suxrobbek\\_8912@mail.ru](mailto:suxrobbek_8912@mail.ru))**

**TAQSIMOT VA ZICHLIK FUNKSIYALARI UCHUN SILLIQLANGAN YADROVIY BAHOLAR,  
ULARDA “OYNA KENGLIGI” PARAMETRINI OPTIMAL TANLASH**

***Annotatsiya.** Tanlanma to‘liq bo‘lgan holda, turli taqsimot va zichlik funksiyalari uchun yadroviy baholarni silliqlovchi “oyna kengligi” parametrini optimal tanlash masalalari ko‘rilgan va amaliyot uchun foydali jadval keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** taqsimot funksiyasi, zichlik funksiyasi, silliqlangan yadroviy baholar, optimal oyna kengligi.*

**Бозоров Сухроб Баходирович (докторант, Гулистанский государственный университет, Гулистан,  
Узбекистан; e-mail: [suxrobbek\\_8912@mail.ru](mailto:suxrobbek_8912@mail.ru))**

**СГЛАЖЕННЫЕ ОЦЕНКИ ЯДРА ДЛЯ ФУНКЦИЙ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ И ПЛОТНОСТИ, В  
КОТОРЫХ ОПТИМАЛЬНЫЙ ВЫБОР ПАРАМЕТРА “ШИРИНА ОКНА”**

***Аннотация.** В статье рассмотрены вопросы оптимального выбора параметра “ширина окна”, который сглаживает оценки ядра для различных функций распределения и плотности при полной выборке, и представлена полезная для практики таблица.*

***Ключевые слова:** функция распределения, функция плотности, сглаженные ядерные оценки, оптимальная ширина окна.*

**Bozorov Sukhrob Bakhodirovich (PhD, student, Gulistan State University, Gulistan, Uzbekistan;  
e-mail: [suxrobbek\\_8912@mail.ru](mailto:suxrobbek_8912@mail.ru))**

**PRESMOOTHED KERNEL ESTIMATES FOR DISTRIBUTION AND DENSITY FUNCTIONS,  
IN WHICH THERE IS OPTIMAL CHOICE OF THE “BANDWIDTH” PARAMETER**

***Annotation.** With the complete sample, issues of optimal selection of the “bandwidth” parameter presmoothed kernel estimates for various distribution and density functions have been seen, and a useful table for practice is given.*

***Keywords:** distribution function, density function, presmoothed kernel estimates, optimal bandwidth.*

***Kirish.** Agar kuzatilayotgan  $X_1, X_2, \dots, X_n$  statistik tanlanmaning*

*$F(t) = P(X \leq t)$ ,  $t \in \mathbb{R}$ , taqsimot funksiyasi absolut uzluksiz bo‘lib, uning  $f(t) = F'(t)$  ichlik funksiyasi bo‘lsa [1],*

$$F(t) = \int_{-\infty}^t f(u) du, \quad (1)$$

u holda  $f(t)$  uchun statistik bahoni tuzishda quyidagi funksiya

$$F_n(t) = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^n I(X_j \leq t) \quad (2)$$

tanlanadi. Bu yerda  $I(A)$  orqali  $A$  hodisa indikatorini belgilangan:

$$I(A) = \begin{cases} 1, & A \text{ hodisa ro'y bersa;} \\ 0, & A \text{ hodisa ro'y bermasa;} \end{cases}$$

formula bilan berilgan empirik baho (2) ni yadroviy silliqlash usulidan foydalaniladi. Buning uchun  $f(t)$  funksiya har bir  $X_j$  nuqta atrofida baholanadi. (1) zichlik funksiyaga yaqinlashuv sifatida har bir

$X_j$  nuqtadagi  $K\left(\frac{u - X_j}{h}\right)$  lardan tuzilgan

$$F_n^*(t) = \frac{1}{n} \sum_{j=1}^n K\left(\frac{u - X_j}{h}\right) = \int_{-\infty}^{+\infty} K\left(\frac{u - y}{h}\right) dF_n(y) \quad (3)$$

o‘rtacha arifmetik funksiyani olamiz. Bu yerda  $K(u)$ ,  $u = \frac{y - X_j}{h}$ , yadroviy funksiya (yoki vazn funksiyasi) deb ataladi. U quyidagi (yoki shunga o‘xshash shartlarni qanoatlantiradi):

- a)  $K(u)$  -monoton kamaymaydigan funksiya, qiymatlari  $[0,1]$  kesmada yotadi;
- b)  $K(-u) = 1 - K(u)$  funksiya 0 ga nisbatan simmetrik;
- c)  $\{h = h(n), n \geq 1\}$  ketma-ketlik  $n \rightarrow \infty$  da nolga intiladi:  $h(n) \rightarrow 0$ , va u “oyna kengligi”

parametri deb ataladi (chunki (3) baho (2) empirik bahoning  $(th(n) - X_j; th(n) + X_j)$  oraliqdagi barcha  $X_j$  larning  $n \rightarrow \infty$  (yoki  $h(n) \rightarrow 0$  silliqlangandir).

Agar  $k(u) = \frac{d}{du} K(u)$  hosila mavjud bo‘lsa, u holda  $f(t)$  uchun statistik baho sifatida endi (3)

ning mos hosilasi  $k(u) = K'(u)$  lardan tuzilgan

$$f_n(t) = \frac{d}{dt} F_n^*(t) = \frac{1}{n} \cdot \frac{d}{du} \left[ \sum_{j=1}^n K\left(\frac{u - X_j}{h}\right) \right] =$$

$$= \frac{1}{nh} \sum_{j=1}^n k\left(\frac{u - x_j}{h}\right) = \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{h} k\left(\frac{u - y}{h}\right) dF_n(y)$$
(4)

ni olish mumkin.  $f(t)$  zichlik funksiyasining (4) bahosi, dastlab, Rozenblatt [2] tomonidan taklif qilingan, keyinchalik, Parzen [3] tomonidan ham tadqiq qilingan edi. Hozirda adabiyotlarda (4) baho Rozenblatt-Parzenning yadroviy bahosi deb nomlanadi.

Quyidagi 1-jadvalda amaliyotda qo‘llaniladigan yadroviy funksiyalarga va ularga mos xarakteristikalariga misollar hisoblab keltirilgan:

**1-jadval**

**Yadrolarga misollar**

1	Yadro funksiyasining nomi	k(u) va K(u) yadro funksiyalarining ko‘rinishi:	L <sub>2</sub> = $\int_{-\infty}^{+\infty} k^2(u) du$	J <sub>2</sub> = $\int_{-\infty}^{+\infty} u^2 k(u) du$
<b>1</b>	Tekis yadro funksiyasi	$k(u) = \begin{cases} 1/2, &  u  \leq 1, \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$ $K(u) = \begin{cases} \frac{1}{2}u; &  u  \leq 1, \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$	$\frac{1}{2}$	$\frac{1}{3}$
<b>2</b>	Uchburchakli yadro funksiyasi	$k(t) = \begin{cases} 1 -  u , &  u  \leq 1, \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$ $K(t) = \begin{cases} u - u u /2, &  u  \leq 1, \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$	$\frac{2}{3}$	$\frac{1}{6}$















3	Normal yadro funksiyasi	$k(u) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{u^2}{2}},  u  < \infty$ $K(u) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^u e^{-\frac{t^2}{2}} dt,  u  < \infty$	$\frac{1}{2\sqrt{\pi}}$	1
4	Laplas yadro funksiyasi	$k(u) = \frac{1}{2} \exp(- u ),  u  < \infty$ $K(u) = \begin{cases} \frac{1}{2} \cdot e^u; & u < 0 \\ -\frac{1}{2} \cdot e^{-u}; & u > 0 \end{cases}$	$\frac{1}{4}$	2
5	Kosinusli yadro funksiyasi	$k(u) = \begin{cases} \frac{\pi}{4} \cos\left(\frac{\pi}{2}u\right), &  u  \leq 1; \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$ $K(u) = \begin{cases} \frac{1}{2} \sin\left(\frac{\pi}{2}u\right), &  u  \leq 1; \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$	$\frac{\pi^2}{16}$	$1 - \frac{8}{\pi^2}$
6	Epanechnikov (parabolik) yadro funksiyasi	$k(u) = \begin{cases} \frac{3}{4} \cdot (1 - u^2), &  u  \leq 1; \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$ $K(u) = \begin{cases} \frac{3}{4} \cdot \left(u - \frac{u^3}{3}\right), &  u  \leq 1; \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$	$\frac{3}{5}$	$\frac{1}{5}$
7	Kvadratik yadro funksiyasi	$k(t) = \begin{cases} \frac{15}{16} (1 - u^2)^2, &  u  \leq 1; \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$ $K(t) = \begin{cases} \frac{15}{16} \left(u - \frac{2u^3}{3} + \frac{u^5}{5}\right), &  u  \leq 1; \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$	$\frac{5}{7}$	$\frac{1}{7}$
8	Uch vaznli yadro funksiyasi	$k(u) = \begin{cases} \frac{35}{32} (1 - u^2)^3, &  u  \leq 1; \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$ $K(u) = \begin{cases} \frac{35}{32} \left(u - u^3 + \frac{3u^5}{5} - \frac{u^7}{7}\right), &  u  \leq 1; \\ 0, &  u  > 1. \end{cases}$	$\frac{350}{429}$	$\frac{1}{9}$









9	Logistik yadro funksiyasi	$k(u) = \frac{e^u}{(1+e^u)^2},  u  < \infty$ $K(u) = \frac{-1}{1+e^u},  u  < \infty$	$\frac{1}{6}$	$\frac{\pi^2}{3}$
10	Tti kubik yadro funksiyasi	$k(u) = \begin{cases} \frac{70}{81} \cdot (1- u ^3)^3, &  u  \leq 1 \\ 0, &  u  > 1 \end{cases}$ $K(u) = \begin{cases} \frac{70}{81} \left( \frac{- u u^9}{10} + \frac{3u^7}{7} - \frac{3 u u^3}{4} + u \right), &  u  \leq 1, \\ 0, &  u  > 1 \end{cases}$	$\frac{175}{247}$	$\frac{35}{243}$


2-jadval

## Yadro funksiyasining chizmalari


1	$k(u)$ yadro funksiyasining chizmalari:	$K(u)$ yadro funksiyasining chizmalari:
1	<b>Tekis yadro funksiyasi</b>	
		
2	<b>Uchburchakli yadro funksiyasi</b>	
		
3	<b>Normal yadro funksiyasi</b>	

		
4	<b>Laplas yadro funksiyasi</b>	
		
5	<b>Kosinusli yadro funksiyasi.</b>	
		
6	<b>Epanechnikov (parabolik) yadro funksiyasi</b>	
		
7	<b>Kvadratik yadro funksiyasi</b>	

		
<b>8</b>	<b>Uch vaznli yadro funksiyasi.</b>	
		
<b>9</b>	<b>Logistik yadro funksiyasi</b>	
		
<b>10</b>	<b>Tri kubik yadro funksiyasi</b>	
		



1-rasm.  $k(u)$  -turli yadroviy funksiyalar (Python dasturi qo'llanilgan)



2-rasm.  $K(u)$  turli yadroviy funksiyalar (Python dasturi qo'llanilgan)

Yadro funksiyasi  $k(u)$  va  $h = h(n)$  parametrlarning optimal qiymati

$$J = \int_{-\infty}^{+\infty} \ln(k(t))f(t)dt \quad (5)$$

funksionalning maksimal qiymatga erishishi shartidan aniqlanadi. (5) funksional esa  $k(t) = f(t)$  bo'lganida quyidagi ikki qadamda maksimumga erishishi aniqlanadi [4]. Eksperimental, ya'ni, tajriba orqali olingan tanlanmani  $x_1, x_2, \dots, x_n$  orqali belgilaymiz. 1-jadvaldagi har bir yadroviy funksiya uchun

$\{h_j(n), j = \overline{1, 10}\}$  parametrlarni

$$h_j(n) = \arg \max \left\{ \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \ln \left[ \frac{1}{(n-1)h_j(n)} \sum_{j \neq i}^{n-1} k_j \left( \frac{x_i - x_j}{h_j(n)} \right) \right] \right\}, \quad (6)$$

formula orqali so'ng yadro funksiyalaridan shundayini tanlaymizki,

$$\varphi(h_j) = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n \ln \left[ \frac{1}{(n-1)h_j(n)} \sum_{j \neq i}^{n-1} k_j \left( \frac{x_i - x_j}{h_j(n)} \right) \right] \quad (7)$$

funksiyaning  $h_j(n)$  dagi qiymati maksimal bo'lsin. Ammo  $h_j(n)$  ketma-ketlikni bu usulda tanlanishi  $k(u)$  yadroviy funksiyani, dastlab, qanday tanlanishiga bog'liq bo'lib qoladi [4, 5]. U holda  $n \rightarrow \infty$  intilish bajarilganida,  $h(n) \rightarrow 0$  shart bajarilishi uchun  $h(n)$  ni *asimptotik optimal tanlash* maqsadga muvofiq bo'ladi. Faraz qilamiz,

$$K(u) = \int_{-\infty}^u k(t) dt, \quad u \in \mathbb{R}, \quad (8)$$

vazn funksiyasi taqsimot funksiyasi bo'lsin. U holda  $k(u) = K'(u)$  taqsimot zichlik funksiyasi bo'ladi.  $K(u)$  ni tanlash undan qo'shimcha quyidagi shartlarni talab qilamiz:

I)  $\int_{-\infty}^{+\infty} u dK(u) = 0$ , ( $K(u)$  taqsimotni o'rta qiymati 0 ga teng);

II)  $\int_{-\infty}^{+\infty} u^2 dK(u) < \infty$ , ( $K(u)$  taqsimotni dispersiyasi chekli);

III)  $\int_{-\infty}^{+\infty} |u| dK(u) < \infty$ , ( $K(u)$  taqsimotning boshlang'ich absolyut o'rta qiymati chekli);

(2) formula zina shaklidagi  $F_n(t)$  diskret taqsimotni (1.1-rasm) (3) formulaga asosan, silliqalar ekan va (4) formulaga asosan, uning hosilasi zichlik funksiyasi uchun yadroviy baho bo'lar ekan, natijasida (8) formulaga asosan, silliqalangan empirik bahoga ega bo'lar ekanmiz. Bu baho uchun asimptotik ( $n \rightarrow \infty$  da) siljimaganlik va asoslilik haqidagi quyidagi da'vo o'rinli bo'lar ekan.

**1-teorema.** Faraz qilaylik,  $n \rightarrow \infty$  da (I)-(III) shartlar o'rinli bo'lsin. U holda har bir  $t$  nuqtada:

1)  $MF_n^*(t) = F(t) + O(h^2(n))$ , ya'ni  $n \rightarrow \infty$  da,  $MF_n^*(t) \rightarrow F(t)$ , (*nuqtaviy asimptotik siljimaganlik*);

2)  $DF_n^*(t) = \frac{\sigma_F^2(t)}{n} + O\left(\frac{h(n)}{n}\right)$ , ya'ni  $n \rightarrow \infty$  da,

$$\frac{DF_n^*(t)}{\varepsilon^2} \geq P(|F_n^*(t) - F(t)| \geq \varepsilon) \rightarrow 0, \quad (\text{nuqtaviy asoslilik}),$$

bu yerda  $\sigma_F^2(t) = F(t)(1 - F(t))$ .

Xuddi shu kabi (4) zichlik funksiyasi bahosi uchun quyidagi da'volar o'rinlidir.

**2-teorema.** Tanlanma hajmi  $n \rightarrow \infty$  da va (I)-(III) shartlar bajarilsa, u holda har bir  $X$  nuqtada

$Mf_n(t) = f(t) + O(h^2(n))$ , ya'ni  $n \rightarrow \infty$  da,  $Mf_n^*(t) \rightarrow f(t)$ , (nuqtaviy asimptotik siljimaganlik);

**3-teorema.** Agar “oyna kengligi” parametri  $h(n)$  uchun ixtiyoriy  $\gamma > 0$  sonda qator yaqinlashishi haqidagi

$$\sum_{n=1}^{\infty} \exp(-\gamma n h^2(n)) < \infty \quad (9)$$

shart o‘rinli bo‘lsa, u holda

$$P\left(\Delta_{f_n} \xrightarrow[n \rightarrow \infty]{} 0\right) = 1 \text{ (tekis kuchli asoslilik haqidagi Nadaraya teoremasi bajariladi);}$$

bu yerda  $\Delta_{f_n} = \sup_{|t| < \infty} |f_n(t) - f(t)|$ .

#### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

[1] Abdushukurov A.A, Zuparov T.M. foydalanilgan adabiyotda taqsimot funksiyasi va zichlik funksiyasi xossalari haqidagi ma’lumotlar olingan.

[2] Rozenblatt. M.  $f(t)$  zichlik funksiyasining  $f_n(t)$  bahosi, dastlab, Rozenblatt tomonidan taklif qilingan.

[3] Parzen. E.  $f(t)$  zichlik funksiyasining  $f_n(t)$  bahosini, keyinchalik, Parzen tomonidan ham tadqiq qilingan. Hozirda adabiyotlarda  $f_n(t)$  baho Rozenblatt-Parzenning yadroviy bahosi deb nomlanadi.

[4] Поршнев С.В. Rosenblatt-Parzen usuli, umuman olganda, u bilan topilgan approksimatsiya funksiya va haqiqiy taqsimot funksiyasining yaqinligini kafolatlamaydi. Shu munosabat bilan, nazariy taqsimot qonuni ma’lum bo‘lgan cheklangan uzunlikdagi tasodifiy ketma-ketliklarni taqsimlash funksiyasining Rosenblatt-Parzen usuli bilan tiklanishning aniqligini tahlil qilish amaliy qiziqish uyg‘otadi.

[5] Симахин В.А. Ойна кенглиги  $h(n)$  ketma-ketlikni tanlanishi  $k(u)$  yadroviy funksiyani, dastlab, qanday tanlanishiga bog‘liq bo‘lib qoladi. U holda  $n \rightarrow \infty$  intilish bajarilganida,  $h(n) \rightarrow 0$  shart bajarilishi uchun  $h(n)$  ni asimptotik optimal tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Biz endi “oyna kengligi” parametri  $h(n)$  ni optimal tanlash masalasiga to‘xtalib o‘tamiz. Taqsimot funksiyasi yadroviy bahosining kvadratik risk (kvadratik tavakkallik) funksiyasini matematik kutilmasini bahoning o‘rtacha kvadratik farqi sifatida aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} R_n^F(t) &= M\left(F_n^*(t) - F(t)\right)^2 = M\left(F_n^*(t) - MF_n^*(t)\right)^2 - \\ &- 2M\left(F_n^*(t) - MF_n^*(t)\right) \cdot \left(MF_n^*(t) - MF_n^*(t)\right) + \left(MF_n^*(t) - F(t)\right)^2 = \\ &= DF_n^*(t) + B_n^2(t), \end{aligned}$$

bu yerda

$$DF_n^*(t) = M\left(F_n^*(t) - MF_n^*(t)\right)^2 - \text{bahoning dispersiyasi,}$$

$$M\left(F_n^*(t) - MF_n^*(t)\right) = MF_n^*(t) - MF_n^*(t) \equiv 0, \text{ ixtiyoriy } X \text{ uchun va}$$

$$MF_n^*(t) - F(t) = B(t) - \text{bahoning siljish kattaligi.}$$

Shularni e'tiborga olib, quyidagi integral kvadratik tavakkallik funksiyasi  $R_n^\circ$  ni taqribiy (asimptotik) qiymatini hisoblab olamiz. Yetarlicha katta  $n$  da:

$$\begin{aligned}
R_n^\circ &= \int_{-\infty}^{+\infty} R_n^F(t) dt = \int_{-\infty}^{+\infty} DF_n^*(t) dt + \int_{-\infty}^{+\infty} B_n^2(t) dt = \\
&= \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{1}{n} \left\{ F(t)(1-F(t)) - 2h(n) \cdot f(t) \int_{-\infty}^{+\infty} uK(u) du + \right. \\
&\quad \left. + h^2(n) \cdot \frac{f'(t)}{2} \cdot \int_{-\infty}^{+\infty} u^2 K(u) dK(u) - F(t) \int_{-\infty}^{+\infty} u^2 dK(u) + O\left(\frac{h^2(n)}{n}\right) \right\} dt + \\
&\quad + \int_{-\infty}^{+\infty} \left[ \frac{h^2(n)}{n} \cdot \frac{f'(t)}{2} \cdot \int_{-\infty}^{+\infty} u^2 dK(u) + O(h^2(n)) \right]^2 dt \approx (n \rightarrow \infty, da) \approx \\
&\approx \frac{1}{n} \int_{-\infty}^{+\infty} F(t)(1-F(t)) dt - \frac{2h(n)}{n} \int_{-\infty}^{+\infty} uK(u) dK(u) + \\
&\quad + \frac{h^4(n)}{4} \cdot \int_{-\infty}^{+\infty} (f'(t))^2 dt \cdot \left[ \int_{-\infty}^{+\infty} u^2 dK(u) \right] = \frac{V}{n} - \frac{h(n)\gamma}{n} + \frac{h^4(n)B}{4}, \tag{10}
\end{aligned}$$

bu yerda  $B = B_1 \cdot B_2$ ;  $B_1 = \int_{-\infty}^{+\infty} (f'(t))^2 dt$ ;  $B_2 = [J_2]^2 = \left[ \int_{-\infty}^{+\infty} u^2 dK(u) \right]^2$ ;

$$\gamma = 4 \int_{-\infty}^{+\infty} uK(u) dK(u) \text{ va } V = \int_{-\infty}^{+\infty} F(t)(1-F(t)) dt.$$

$h = h(n)$  ning  $f(t)$  va  $k(u)$  funksiyalar bo'yicha optimal qiymatini  $R_n^\circ$  ga minimal qiymatni beruvchi  $h(n)$  sifatida quyidagicha tanlaymiz:

$$h_{opt}(n) = Arg \min \{ R_n^\circ \},$$

$h_{opt}(n)$  ni ekstremal masalani yechish usuli bilan aniqlaymiz. Buning uchun esa  $h(n)$  bo'yicha quyidagi hosilani olib tuzilgan

$$\frac{dR_n^\circ}{dh(n)} = -\frac{\gamma}{n} + B \cdot h^3(n) = 0$$

tenglamani yechib,  $F$  va  $G$  lar berilganida "oyna kengligi" parametrini optimal qiymatini

$$h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{\gamma}{nB} \right)^{1/3} = k \cdot n^{-\frac{1}{3}}, \quad k = \left( \frac{\gamma}{B} \right)^{1/3},$$

aniqlaymiz.

**1-misol.** Quyidagi  $F$  va  $K$  taqsimotlar berilgan bo'lsa, oyna kengligining optimal qiymati  $h_{opt}^{F,K}(n)$  ni aniqlaymiz:



$$F(t) = \begin{cases} t^a, & t \in [0,1] \\ 0, & t \notin [0,1] \end{cases}; K(u) = \begin{cases} \frac{1}{2} \cdot u; & |u| \leq 1, \\ 0, & |u| > 1. \end{cases}$$

U holda (10) ifodada

$$\gamma = 4 \int_{-\infty}^{+\infty} uK(u)dK(u) = 4 \cdot \int_{-1}^1 u \cdot \frac{1}{2} u d \frac{1}{2} u = \int_{-1}^1 u^2 du = \frac{u^3}{3} \Big|_{-1}^1 = \frac{2}{3}; \text{ va } B = B_1 \cdot B_2, \text{ hamda}$$

$$B_1 = \int_{-\infty}^{+\infty} (f'(t))^2 dt = \int_0^1 \left( (at^{a-1})' \right)^2 dt = \int_0^1 (a(a-1)t^{a-2})^2 dt =$$

$$= a^2 (a-1)^2 \int_0^1 t^{2a-4} dx = a^2 \cdot \frac{t^{2a-3}}{2a-3} \Big|_0^1 = \frac{a^2 (a-1)^2}{2a-3};$$

$$B_2 = [J_2]^2 = \left[ \int_{-\infty}^{+\infty} u^2 dK(u) \right]^2 = \left( \int_{-\infty}^{+\infty} u^2 dK(u) \right)^2 = \left( \int_0^1 u^2 d \frac{1}{2} \cdot u \right)^2 = \frac{1}{4} \left( \int_0^1 u^2 du \right)^2 =$$

$$= \frac{1}{4} \cdot \left( \frac{u^3}{3} \Big|_0^1 \right)^2 = \frac{1}{36};$$

$$B = B_1 \cdot B_2 = \frac{a^2 (a-1)^2}{2a-3} \cdot \frac{1}{36} = \frac{a^2 (a-1)^2}{36(2a-3)};$$

$$h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{\gamma}{nB} \right)^{1/3} = \left( \frac{\frac{2}{3}}{n \frac{a^2 (a-1)^2}{36(2a-3)}} \right)^{1/3} = \left( \frac{2 \cdot 36(2a-3)}{3na^2 (a-1)^2} \right)^{1/3} = \left( \frac{24(2a-3)}{na^2 (a-1)^2} \right)^{1/3}$$

$$\text{Demak, } h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{\gamma}{B} \right)^{1/3} \cdot n^{-\frac{1}{3}} = k \cdot n^{-\frac{1}{3}} = \left( \frac{\gamma}{nB} \right)^{1/3} = \left( \frac{24(2a-3)}{na^2 (a-1)^2} \right)^{1/3} \text{ taqriban optimal oyna}$$

kengligi ekan. Demak, bu yerda  $n$  bo'yicha tartib  $n^{-\frac{1}{3}}$  ga tengdir.

Endi xuddi shu kabi, zichlik funksiyasi bahosi uchun ham oyna kengligi parametrining optimal qiymatini aniqlaymiz. Zichlik funksiyasi yadroviy bahosi uchun ham mos ravishda kvadratik tavakkallik (risk) funksiyasini hisoblaymiz:

$$R_n^\circ = \int_{-\infty}^{+\infty} M(f_n(t) - f(t))^2 dt = \int_{-\infty}^{+\infty} Df_n(t) dt + \int_{-\infty}^{+\infty} b_n^2(t) dt,$$

bu yerda

$Df_n(t) = Mf_n^2(t) - (Mf_n(t))^2$  –bahoning dispersiyasi ifodasida matematik kutilmasi yetarlicha katta  $n$  uchun

$$\begin{aligned}
Mf_n(t) &= \int_{-\infty}^{+\infty} k(u) f(t - h(n) \cdot u) du = \int_{-\infty}^{+\infty} f(t - h(n) \cdot u) dK(u) \approx \\
&\approx \dots \approx f(t) + \int_{-\infty}^{+\infty} \left[ -h(n) \cdot u \cdot f'(t) + \frac{f''(t)}{2} \cdot u^2 \cdot h^2(n) + O(h^2(n)) \right] dK(u) = \\
&\text{(yuqoridagi (I)-(III) shartlarda)} = f(t) + \frac{f''(t)}{2} \cdot h^2(n) + O(h^2(n)),
\end{aligned}$$

bundan esa siljish kattaligi ifodasi taqriban  $b_n(t) = Mf_n(t) - f(t) \approx \frac{h^2(n)}{2} \cdot f''(t)$

va dispersiyaning taqribiy ifodasi esa

$$\begin{aligned}
Df_n(t) &= \frac{1}{nh^2(n)} \cdot \left[ \int_{-\infty}^{+\infty} k^2(u) f(t - h(n) \cdot u) du - h(n) (Mf_n(t))^2 \right] = \\
&= \frac{f(t)}{nh(n)} \cdot \int_{-\infty}^{+\infty} k^2(u) du + O\left(\frac{1}{nh(n)}\right) \approx \frac{f(t)}{nh(n)} \cdot \int_{-\infty}^{+\infty} k^2(u) du.
\end{aligned}$$

ga teng bo'ladi. U holda

$$R_n^\circ \approx \int_{-\infty}^{+\infty} k^2(u) du \cdot \frac{1}{nh(n)} \cdot \int_{-\infty}^{+\infty} f(t) dt + \frac{q^2 h^4(n)}{4} \cdot \int_{-\infty}^{+\infty} (f''(t))^2 dt = \frac{\beta}{nh(n)} + \frac{\alpha \cdot h^4(n)}{4}$$

$$\text{bu yerda } \alpha = \int_{-\infty}^{+\infty} (f''(t))^2 dt, \quad q^2 = \int_{-\infty}^{+\infty} u^2 dK(u) = 1, \quad \beta = L_2 = \int_{-\infty}^{+\infty} k^2(u) du.$$

belgilashlarni kiritib olamiz.

Bu holda ham  $h_{opt}(n)$  ni  $h_{opt}(n) = \text{Arg min} \{R_n^\circ\}$  masala yechishdan aniqlaymiz. Uni topish uchun  $R_n^\circ$  dan  $h(n)$  bo'yicha hosilani olib, quyidagi

$$\frac{dR_n^\circ}{dh(n)} = -\frac{\beta}{nh^2(n)} + \alpha h^3(n) = 0$$

$$\text{tenglamadan, } h_{opt}^{f,k}(n) = \left(\frac{\beta}{\alpha}\right)^{1/5} \cdot n^{-1/5} = \mathbb{C} n^{-1/5} \text{ ko'rinishda aniqlaymiz.}$$

$$\mathbf{2-misol.} \quad f(t) = \begin{cases} at^{a-1}, & t \in [0,1] \\ 0, & t \notin [0,1] \end{cases} \quad \text{va} \quad k(u) = \begin{cases} \frac{1}{2}, & |u| \leq 1, \\ 0, & |u| > 1 \end{cases} \quad \text{bo'lsin, yuqoridagi}$$

$$\alpha = \int_{-\infty}^{+\infty} (f''(t))^2 dt \quad \text{va} \quad \beta = L_2 = \int_{-\infty}^{+\infty} k^2(u) du \quad \text{integralni hisoblab,}$$

$$\begin{aligned}\alpha &= \int_{-\infty}^{+\infty} (f''(t))^2 dt = \int_0^1 \left[ (at^{a-1})'' \right]^2 dt = \int_0^1 \left[ (a(a-1)t^{a-2})' \right]^2 dt = \\ &= \int_0^1 \left[ (a(a-1)(a-2)t^{a-3}) \right]^2 dt = a^2(a-1)^2(a-2)^2 \int_0^1 t^{2a-6} dt = \\ &= a^2(a-1)^2(a-2)^2 \frac{t^{2a-5}}{2a-5} \Big|_0^1 = \frac{a^2(a-1)^2(a-2)^2}{2a-5}; \\ \beta &= L_2 = \int_{-\infty}^{+\infty} k^2(u) du = \int_{-1}^1 \left( \frac{1}{2} \right)^2 du = \frac{1}{4} u \Big|_{-1}^1 = \frac{1}{4} (1+1) = \frac{2}{4} = \frac{1}{2};\end{aligned}$$

$h_{opt}^{f,k}(n)$  ni zichlik funksiyasi bahosi uchun topamiz:

$$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{\beta}{\alpha} \right)^{1/5} \cdot n^{-\frac{1}{5}} = \left( \frac{\beta}{n\alpha} \right)^{1/5} = \left( \frac{2\alpha - 5}{2n\alpha^2(\alpha - 1)^2(\alpha - 2)^2} \right)^{1/5};$$

ko'rinishda aniqlab olishimiz mumkin. Bu yerda esa  $n$  bo'yicha tartib  $n^{-\frac{1}{5}}$  ga teng ekan.

**Tahlil va natijalar.** Quyidagi 3-jadvalda berilgan yetarlicha katta  $n$  uchun zichlik funksiyasi  $f(t)$  va unga mos taqsimot funksiyasi  $F(t)$  uchun yadroviy baholar uchun "oyna kengligi" parametrlari uchun optimal bo'lgan  $h_{opt}^{f,k}(n)$  va  $h_{opt}^{F,K}(n)$  larni hisoblash formulalari keltirilgan (3-jadvaldagi nomerlar yuqoridagi 1-jadvaldagi  $k(u)$  va  $K(u)$  yadro funksiyalarning nomerlariga mos ravishda hisoblangan bo'lib, unda 2 ta taqsimot va 10 ta yadroviy funksiyalar qaralgan):

3-jadval

Oyna kengligini optimal qiymatini hisoblash jadvali

1	$f(t) = \begin{cases} at^{a-1}, & t \in [0,1] \\ 0, & t \notin [0,1] \end{cases}$ $F(t) = \begin{cases} t^a, & t \in [0,1] \\ 0, & t \notin [0,1] \end{cases}$	$f(t) = \begin{cases} ae^{-at}, & a > 0, t \geq 0 \\ 0, & t < 0 \end{cases}$ $F(t) = \begin{cases} 1 - e^{-at}, & a > 0, t \geq 0 \\ 0, & t < 0 \end{cases}$
1	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{2a-5}{2na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{6(2a-3)}{na^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{1}{na^5} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{12}{na^3} \right)^{1/3}$
2	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{2 \cdot (2a-5)}{3na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{4}{3na^5} \right)^{1/5}$

	$h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{84(2a-3)}{5na^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{168}{5na^3} \right)^{1/3}$
3	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{2a-5}{2\sqrt{\pi}na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{2(2a-3)}{n\pi a^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{1}{\sqrt{\pi}na^5} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{4}{\pi na^3} \right)^{1/3}$
4	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{2a-5}{4na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{3-2a}{8na^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{1}{2na^5} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( -\frac{1}{4na^3} \right)^{1/3}$
5	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{\pi^2 \cdot (2a-5)}{16na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{\pi^4 \cdot (2a-3)}{2n(\pi^2-8)^2 a^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{\pi^2}{8na^5} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{\pi^4}{n(\pi^2-8)^2 a^3} \right)^{1/3}$
6	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{3(2a-5)}{5na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{90(2a-3)}{7na^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{6}{5na^5} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{180}{7na^3} \right)^{1/3}$
7	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{5(2a-5)}{7na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{700(2a-3)}{33na^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{10}{7na^5} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{1400}{33na^3} \right)^{1/3}$
8	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{350(2a-5)}{429na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{4410(2a-3)}{143na^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{700}{429na^5} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{8820}{143na^3} \right)^{1/3}$

<b>9</b>	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{2a-5}{6na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{18(2a-3)}{\pi^4 na^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{1}{3na^5} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{36}{\pi^4 na^3} \right)^{1/3}$
<b>10</b>	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{175(2a-5)}{247na^2(a-1)^2(a-2)^2} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{3678(2a-3)}{175na^2(a-1)^2} \right)^{1/3}$	$h_{opt}^{f,k}(n) = \left( \frac{350}{247na^5} \right)^{1/5}$ $h_{opt}^{F,K}(n) = \left( \frac{7356}{175na^3} \right)^{1/3}$

**Xulosa va takliflar.** Shuningdek, taqsimot va zichlik funksiyalari uchun yadroviy baholarini hisoblash formulalari keltirilgan hamda ular uchun optimal “oyna kengligi” va yadro funksiyalarini tanlashning mavjud usullari bayon qilingan. Bular asosida 1-jadvalda turli taqsimot funksiyalari va ularga mos zichlik funksiyalari hamda yadro funksiyalari uchun mos hisoblar natijalari keltirilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Abdushukurov A.A, Zuparov T.M. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika. Toshkent, «Tafakkur bo‘stoni», 2015, 416-bet.
- (2). Rozenblatt. M. Remarks on some nonparametric estimates of a density Sunction. Ann. Math. Statist. 1956, v.27, p. 832–837. <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=1212460>
- (3). Parzen. E. On estimation of probability density and mode. Ann. Math. Statist. 1962, v.33, p. 1065–1076. <https://bayes.wustl.edu/Manual/parzen62.pdf>
- (4). Поршнеv С.В. Использование аппроксимации Розенблатта-Парзена для восстановления функции распределения непрерывной случайной величины с ограниченным одномодальным законом распределения. Научный журнал Куб ГАУ, 2013, №. 92 (08), с. 1–14.
- (5). Симахин В.А. Робастные непараметрические оценки: адаптивные оценки взвешанного максимального правдоподобия в условиях статистической априорной неопределенности//LAMBERT Academic Publishing. LAP, 2011, 292 с.

УДК 532.516

**Mirzoyev Akmal Ahadovich (Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti katta ilmiy xodimi),  
Sharipova Shohista Bekbergan qizi, Aqmonova Laylo Qurbonboy qizi (UrDU fizika-matematika fakulteti  
o‘qituvchilari)**

#### **DEVORI DEFORMATSIYALANUVCHI YASSI KANALDA ELASTIK QOVUSHOQ SUYUQLIKNING PULSLI OQIMI**

***Annotatsiya.** Maqolada devori deformatsiyalanuvchan yassi kanalda elastik qovushoq suyuqliklarning bosim gradiyenti ta’siridagi tebranma oqimi qaralgan. Elastik qovushoq suyuqlikning tebranma harakat differensial tenglamalar sistemasini soddalashtirish usuli berilgan. Masala analitik usulda yechilgan. Yechimda bo‘ylama tezlikning kanal kesimi yuzasi bo‘yicha o‘rtalashtirilgan qiymatlarini va bosimning bo‘ylama o‘q bo‘yicha o‘zgarishlarini aniqlash uchun formulalar keltirib chiqarilgan. Keltirib chiqarilgan formulalar yordamida kanal devorida bosim puls to‘lqinining tarqalish tezligining va uning so‘nish ko‘rsatkichining tebranish chastotasi parametriga bog‘liq ravishda o‘zgarishlari aniqlangan va tadqiqot natijalari bo‘yicha tegishli gidrodinamik xulosalar chiqarilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tebranma oqim, puls to‘lqini, tezlik, bosim, bosim gradiyenti, tebranish chastotasi.*

## ПУЛЬСИРУЮЩЕЕ ТЕЧЕНИЕ УПРУГОЙ ВЯЗКОЙ ЖИДКОСТИ В ПЛОСКОМ КАНАЛЕ С ДЕФОРМИРУЕМОЙ СТЕНКОЙ

**Аннотация.** В статье рассматривается колебательное течение упруго-вязкой жидкости под действием градиента давления в плоском канале с деформируемой стенкой. Приведен метод упрощения системы дифференциальных уравнений колебательного движения упругой вязкой жидкости. Задача решена аналитически. В решении выведены формулы для определения осредненных значений продольной скорости на поверхности сечения канала и изменения давления на продольной оси. С помощью выведенных формул определены изменения скорости распространения пульсовой волны давления по стенке канала и показателя ее затухания в зависимости от параметра частоты вибрации, а по результатам исследований сделаны соответствующие гидродинамические выводы.

**Ключевые слова:** колебательный поток, пульсовая волна, скорость, давление, градиент давления, частота колебаний.

## PULSE FLOW OF ELASTIC VISCOUS FLUID IN A FLAT CHANNEL WITH A DEFORMABLE WALL

**Annotation.** The article examines the oscillatory flow of an elastic-viscous fluid under the influence of a pressure gradient in a flat channel with a deformable wall. A method for simplifying the system of differential equations of oscillatory motion of an elastic viscous fluid is presented. The problem was solved analytically. The solution contains formulas for determining the averaged values of the longitudinal velocity on the cross-sectional surface of the channel and the change in pressure on the longitudinal axis. Using the derived formulas, changes in the speed of propagation of the pulse pressure wave along the canal wall and its attenuation rate depending on the vibration frequency parameter were determined, and according to the research results, the corresponding hydrodynamic conclusions were made.

**Key words:** oscillatory flow, pulse wave, speed, pressure, pressure gradient, oscillation frequency.

**Kirish.** Tibbiyot sohasida ishlatiladigan mikrochip va pnevmatik mikronasos qurilmalarini samarali ishlatishda qonning reologik modelini tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunday holatlarda qonning reologik modeli sifatida elastik qovushoq suyuqlik modeli qaralgani qonning tarkibiy tuzilishlarini aniqroq xarakterlashda muhim sanaladi [1;2-b.]. Ma'lumki, bunday tadqiqotlar inson organizmining ishlash mexanizmini tashxishlashda va davolashda dori-darmonlarni tomirlarga maqsadli yetkazib berishda muhim omil bo'lib kelmoqda [1;6-b.]. Bu qurilmalardagi suyuqlik oqimi ko'ndalang kesimi to'g'ri to'rtburchakdan iborat bo'lgan prizmatik kanallardagi suyuqlikning laminar pulslari oqimi sifatida qaraladi. Afsuski, bunday oqim masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari yetarli darajada emas. Mavjudlari ham mikrokanallardagi qovushoq suyuqlikning pulslari oqimiga bag'ishlangan tajriba natijalaridan iborat [2]. Ushbu [3–5] ilmiy tadqiqot ishlarida quvur va yassi kanallardagi suyuqlikning laminar pulslari oqimi va issiqlik almashinuvi masalalari qaralgan. Bu yerda asosiy tebranishni hosil qiluvchi kattalik sifatida, kanalning ko'ndalang kesimi bo'yicha o'rtalashtirilgan bo'yama tezlikning kanal kirish qismidagi vaqt bo'yicha sinusoidal davriy ravishda o'zgaruchi funksiyasi qabul qilingan. Qo'yilgan masala chekli ayirmalar metodi asosida yechilgan. Yechim natijasi orqali gidrodinamik qarshilikning va devordagi urunma kuchlanishning tebranish amplitudasi va fazasi bo'yicha o'zgarishi tahlil qilingan. Tahlil natijalari [6] ishdagi analitik yechim va tajriba orqali olingan natijalar bilan solishtirilgan va natijalarning bir-biriga mos kelishi aniqlangan. Yuqorida keltirilgan masalalarning barchasi devori qattiq deformatsiyalanmaydigan kanallardagi qovushoq suyuqliklarning pulslari oqim masalalariga bag'ishlangan. Keyingi yillarda devor deformatsiyasini e'tiborga olib, quvurlardagi suyuqlikning pulslari oqim masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari nufuzli jurnallarda nashr qilina boshladi. Jumladan, [6–8] ishlarda arterial tizimdagi qonning pulslari oqimi nyuton suyuqligi shaklida tadqiq qilingan. Devor deformatsiyalarining tenglamalar sistemasi [9;10-b.] ishlarda batafsil keltirilgan. Devori deformatsiyalanuvchi silindrik quvurlarda nyuton suyuqligining pulslari oqimi tadqiqotlariga bag'ishlangan tadqiqot ishlari [6;10-b.] yetarlicha bo'lishligiga qaramasdan, devori deformatsiyalanadigan yassi va ko'ndalang kesimi to'g'ri to'rtburchakdan iborat prizmatik kanallardagi elastik qovushoq suyuqlikning pulslari oqimiga bag'ishlangan ishlar yetarli darajada emas. Ammo bunday tadqiqot ishlari tibbiyotning mikrochip va pnevmatik mikronasos qurilmalarida va boshqa shunga o'xshash tibbiyot apparaturalarida keng qo'llaniladi. Shu boisdan ushbu ilmiy tadqiqot ishida devori deformatsiyalanuvchi yassi kanallardagi elastik qovushoq suyuqlikning pulslari oqimi masalasi yechimlari aniqlanadi va aniqlangan yechimlar tahlil qilindi. Tahlil natijalari asosida yangi gidrodinamik qonuniyatlar keltirilib chiqariladi.

**1. Masalaning qo'yilishi va uni yechish usuli.** Elastik qovushoq suyuqlikning devori deformatsiyalanuvchi yassi kanaldagi pulslari oqimini shakllantirish uchun yassi kanal uzunligini  $L$ , enini  $2h$  - orqali

belgilaymiz va oqim yetarlicha uzun kanalda ro'yi berayotir deb qaraymiz va bunda  $\frac{h}{L} \ll 1$  shartning bajarilishini ta'minlaymiz. Bu shartdan ko'ndalang tezlikning bo'ylama tezlikka nisbati  $\frac{V}{U} \ll 1$  bo'lishligi kelib chiqadi. Kanalning bo'ylama gorizonttal o'qini  $OX$  bilan, vertikal o'qini esa  $OY$  bilan belgilaymiz. Qaralayotgan oqim sekin oqim bo'lganligi uchun, bundan Reynolds sonining birdan yetarli darajada kichik

$$Re = \frac{Ud}{\nu} \ll 1$$

ekanligi kelib chiqadi. Ya'ni:

Yuqoridagi keltirilgan shartlarni inobatga olgan holda, suyuqlik harakatini ifodalavchi Nave-Stoks tenglamasi ba'zi bir, soddalashtirishlardan keyin "kuchlanishlar" ko'rinishida ushbu chiziqshtirilgan tenglamalar sistemasiga keltiriladi [11;12-b.].

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{\partial \tau}{\partial y}, & \frac{\partial p}{\partial y} = 0 \\ \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial v}{\partial y} = 0 \end{cases}, \quad (1)$$

bu yerda:  $p$  – bosim;  $u, v$  – bo'ylama va ko'ndalang tezlik;  $\rho$  – suyuqlik zichligi;  $\tau$  – urunma kuchlanish;  $t$  – vaqt. Endi urunma kuchlanish bilan bo'ylama tezlik orasidagi bog'lanishni aniqlash uchun Maksvell modelining umumlashgan topologik ko'rinishdagi modelidan foydalanamiz [12;13-b.].

$$\tau = \sum_{k=1}^{\infty} \tau_k, \quad (\lambda_k \frac{\partial \tau_k}{\partial t} + \tau_k) e^{i\omega t} = \eta_k \frac{\partial u}{\partial y} e^{i\omega t}$$

Bu yerda:  $\eta_k$  – dinamik qovushoqlik koeffitsiyenti, kichik deformatsiyalar uchun  $\eta_k = \frac{\eta}{\xi(\alpha) k^\alpha}$  deb olinadi;  $\eta$  – boshlang'ich xolatdagi Nyuton suyuqligining dinamik qovushoqlik koeffitsiyenti;  $\xi(\alpha)$  – Riman

dzeta funksiyasi, u  $\xi(\alpha) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{1}{k^\alpha}$  ko'rinishidagi ifoda orqali aniqlanadi;  $\lambda_k$  – relaksatsiya vaqti, kichik de-

formatsiyalar uchun  $\lambda_k = \frac{\lambda}{k^\alpha}$  deb olinadi;  $\lambda$  – relaksatsiya vaqti spektri ichidagi maksimal relaksatsiya vaqti;  $\alpha$  – relaksatsiya vaqti spektri taqsimlanishini xarakterlovchi son.

Pulsi oqim devori deformatsiyalanuvchi kanalda qaralayotgani uchun devorning kichik deformatsiyasini [14] ishda keltirilgan tenglama orqali aniqlamiz:

$$f = f_0 \left( 1 + a \frac{p - p_0}{E} \right) \quad (2)$$

bu yerda:  $f$  – kanal ko'ndalang kesim yuzasi  $f_0$  – kanal kesim yuzasining o'rtacha qiymati,  $E$  – kanal devorining elastiklik koeffitsiyenti,  $p_0$  – o'rtacha o'zgarimas tashqi bosim,  $p$  – o'zgarivchi bosim,  $a$  – kanal o'lchami parametric, yassi kanal uchun bu kattaliklar ushbu qiymatlarga ega bo'ladi [14].

$$f = 2h \cdot b; \quad f_0 = 2h_0 \cdot b; \quad a = \frac{2h_0}{\delta} \quad (3)$$

bu yerda:  $b$  – kanalning uchinchi o'qi bo'yicha xarakterli uzunligi,  $2h_0$  – kanalning o'rtacha eni,  $\delta$  – kanal devorining qalinligi.

Endi (3) formulada aniqlangan qiymatlarni e'tiborga olsak, (2) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$2h \cdot b = 2h_0 b \left( 1 + \frac{2h_0}{\delta E} (p - p_0) \right) \quad (4)$$

$$h = h_0 \left( 1 + \frac{2h_0}{\delta E} (p - p_0) \right) \quad \text{yoki} \quad (5)$$

bu tenglamaning har ikkala tomonidan vaqt bo'yicha hosila olib, ushbu tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\frac{\partial h}{\partial t} = \frac{2h_0^2}{\delta E} \frac{\partial p}{\partial t} \quad (6)$$

Bu yerda aniqlangan (6) tenglama yassi kanal devor deformatsiyasini ifodalovchi tenglama bo'ladi. Bu tenglamani (1) tenglamalar sistemasi bilan birgalikda sistema qilsak, u holda devori deformatsiyalanuvchi yassi kanaldagi qovushoq suyuqlikning pulsli oqimi harakat differensial tenglamalar sistemasini shakllantirgan bo'lamiz. Ya'ni:

$$\begin{cases} \frac{\partial u}{\partial t} = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial p}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{\partial \tau}{\partial y}, & \frac{\partial p}{\partial y} = 0 \\ \tau = \sum_{k=1}^{\infty} \tau_k, & \lambda_k \frac{\partial \tau_k}{\partial t} + \tau_k = \eta_k \frac{\partial u}{\partial y} \\ \frac{\partial u}{\partial x} + \frac{\partial \mathcal{G}}{\partial y} = 0, & \frac{\partial h}{\partial t} = \frac{2h_0^2}{\delta E} \frac{\partial p}{\partial t} \end{cases} \quad (7)$$

Shakllantirilgan (7) tenglamalar sistemasini yechish uchun masalaning qo'yilishga, asosan, quyidagi chegaraviy shartlarni aniqlaymiz. Biz bu yerda suyuqlik oqimni vaqtning boshlang'ich holatidan ancha vaqt o'tgandan keyingi stabilashgan statsionar tebranma oqim shakliga kelgan oqim deb qaraymiz. Bu holda suyuqlik oqimi uchun boshlang'ich shartlar qo'yilmaydi. Chegaraviy shartlar quyidagicha aniqlanadi.

$$y = +h_0 \text{ bo'lganda, } u = 0, \quad \mathcal{G} = \frac{\partial h}{\partial t} \text{ bo'ladi,}$$

$$y = -h_0 \text{ bo'lganda, } u = 0, \quad \mathcal{G} = -\frac{\partial h}{\partial t} \text{ bo'ladi.} \quad (8)$$

Suyuqlik tebranma harakatini vujudga keltiruvchi bosim gradiyenti vaqt bo'yicha davriy funksiya orqali o'zgarish sababli qolgan kattaliklar ham vaqtning davriy funksiyasi bo'yicha o'zgaradi. Bunday ko'rinishdagi masalalar [13;15–17-b.] ilmiy tadqiqot ishlarida devor deformatsiyasini inobatga olmagan holda tadqiq qilingan. Shu sababdan bu tadqiqot ishida ham bo'ylama va ko'ndalang tezliklarning vaqt bo'yicha o'zgarishini ushbu ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\begin{aligned} u(x, y, t) &= u_0(x, y) + \bar{u}(x, y)e^{i\omega t}, & \mathcal{G}(x, y, t) &= \bar{\mathcal{G}}(x, y)e^{i\omega t}, \\ p(x, t) &= p_0 + \bar{p}(x)e^{i\omega t}, & \tau(x, t) &= \tau_0 + \bar{\tau}(x)e^{i\omega t} \end{aligned} \quad (9)$$

U holda (7) differensial tenglamalar sistemasidan  $u(x, y, t)$  va  $\mathcal{G}(x, y, t)$  tezliklarni topish uchun quyidagi tenglamalar sistemasiga ega bo'lamiz:

$$\begin{cases} i\omega \bar{u} e^{i\omega t} = -\frac{1}{\rho} \frac{\partial \bar{p}}{\partial x} e^{i\omega t} - \frac{1}{\rho} \frac{\partial p_0}{\partial x} + \frac{1}{\rho} \frac{d\tau_0}{dy} + \frac{1}{\rho} \frac{d\bar{\tau}}{dy} e^{i\omega t}, \\ \frac{\partial p_0}{\partial y} + \frac{\partial \bar{p}}{\partial y} e^{i\omega t} = 0, & \frac{\partial u_0}{\partial x} + \left( \frac{\partial \bar{u}}{\partial x} + \frac{\partial \bar{v}}{\partial y} \right) e^{i\omega t} = 0, & \bar{\mathcal{G}}_{y=h_0} e^{i\omega t} = \frac{2h_0^2}{\delta E} i\omega \bar{p} e^{i\omega t} \\ \bar{\tau} = \sum_{k=1}^{\infty} \bar{\tau}_k, & \left( \lambda_k \frac{\partial \bar{\tau}_k}{\partial t} + \bar{\tau}_k \right) e^{i\omega t} = \eta_k \frac{\partial \bar{u}}{\partial y} e^{i\omega t}, & \tau_0 = \eta \frac{\partial u_0}{\partial y}, \end{cases} \quad (10)$$

Statsionar holatga mos keluvchi yechimda bosim gradiyenti o'zgarish sababli, bo'ylama tezlik parabolik taqsimotga ega bo'lib, bu oqim Puazeyl oqimini aniqlaydi. Shuning uchun ham biz tebranishlar hosil qiluvchi oqimni qaraymiz. Bu holda quyidagi sistemaga ega bo'lamiz:



$$\begin{cases} i\omega\bar{u} = -\frac{1}{\rho}\frac{\partial\bar{p}}{\partial x} + \frac{1}{\rho}\frac{d\bar{\tau}}{dy}, & \frac{\partial\bar{p}}{\partial y} = 0 \\ \bar{\tau} = \sum_{k=1}^{\infty}\bar{\tau}_k, & (1+\lambda_k i\omega)\bar{\tau}_k = \eta_k \frac{\partial\bar{u}}{\partial y} \\ \left(\frac{\partial\bar{u}}{\partial x} + \frac{\partial\bar{v}}{\partial y}\right) = 0, & \bar{g}_{y=h_0} = \frac{2h_0^2}{\delta E} i\omega\bar{p} \end{cases} \quad (11)$$

Hosil qilingan (11) tenglamalar sistemasidagi uchinchi va to'rtinchi tenglamalardan foydalanib, urunma

$$\bar{\tau} = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\eta_k}{(1+i\omega\lambda_k)} \frac{\partial\bar{u}}{\partial y}, \quad (12)$$

kuchlanishni topish uchun, ushbu ko'rinishdagi tenglamani hosil qilamiz:

Keltirib chiqarilgan (12) tenglamani (11) tenglamalar sistemasining birinchi tenglamasiga qo'yish natijasida, bo'ylama tezlik bilan bosim gradiyentini bog'lovchi ushbu tenglamalar sistemasi hosil qilinadi:

$$\begin{cases} \frac{\partial^2\bar{u}}{\partial y^2} - \frac{\rho i\omega}{\bar{\eta}(i\omega)}\bar{u} = \frac{1}{\bar{\eta}(i\omega)} \frac{\partial\bar{p}(x)}{\partial x}, \\ \frac{\partial\bar{p}(x)}{\partial y} = 0 \end{cases} \quad (13)$$

$$\bar{\eta}(i\omega) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\bar{\eta}_k}{(1+i\omega\lambda_k)}, \quad \bar{\eta}_k = \frac{\eta}{\xi(\alpha)k^\alpha}, \quad \lambda_k = \frac{\lambda}{k^\alpha}$$

$$\bar{\eta}(i\omega) = \eta\eta^*(i\omega) = \eta \sum_{k=1}^{\infty} \frac{1}{\xi(\alpha)(k^\alpha + \lambda i\omega)}$$

Bu yerda

Shakillantirilgan (13) tenglamalar sistemasining yechimi quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{u}(x, y) = \frac{1}{\rho i\omega} \left(-\frac{\partial\bar{p}(x)}{\partial x}\right) \left[1 - \frac{\cos(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}})}{\cos(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \sqrt{\frac{1}{\eta^*(i\omega)} \frac{y}{h}}})\right] \quad (17)$$

$$\alpha_0 = \sqrt{\frac{\omega}{v}} h, \quad \eta^*(i\omega) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{k^\alpha}{\xi(\alpha)(k^\alpha + \lambda i\omega)^2}, \quad v = \frac{\eta}{\rho}$$

Bu yerda

Topilgan (17) yechimni (9) ga qo'yib, quyidagi yakuniy yechimni aniqlaymiz:

$$u(x, y, t) = \frac{h^2}{2\eta} \left[ 2\text{real}\left(-\frac{\partial\bar{p}(x)}{\partial x}\right) \left[ \frac{1}{i\alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\cos\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{y}{h}\right)}{\cos\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right)} \right) \right] e^{i\omega t} \right] \quad (18)$$

Tezlik uchun hosil qilingan (18) yechimni, uning statsionar holatdagi maksimum tezligiga bo'lish natijasida ushbu ko'rinishdagi o'lchamsiz holdagi yechim topiladi:

$$\frac{u(x, y, t)}{u_{0\max}} = 2\text{real}\left(-\frac{\partial\bar{p}_1(x)}{\partial x}\right) \left[ \frac{1}{i\alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\cos\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}} \frac{y}{h}\right)}{\cos\left(i^{\frac{3}{2}}\alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right)} \right) \right] e^{i\omega t} \quad (19)$$

$$u_{0\max} = \frac{1}{2\eta} \left(-\frac{\partial p(x)}{\partial x}\right)_0 h^2$$

bu yerda: – Nyuton suyuqligining devori deformatsiyalanmaydigan holdagi statsionar oqimning maksimal tezligi.

Tezlik taqsimlanishi uchun topilgan (19) formulaning har ikkala tomonini  $-h$ -dan  $h$ -gacha integrallab va uni  $2h$  ga bo'lib, suyuqlikning o'rtacha tezligi uchun quyidagi formulani hosil qilamiz:

$$\frac{\langle u(x,t) \rangle}{\langle u_0 \rangle} = \text{real} \left( -\frac{\partial \bar{p}_1(x)}{\partial x} \right) \left[ \frac{1}{i\alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\sin \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)}{\left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right) \cos \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)} \right) e^{i\omega t} \right] \quad (20)$$

$$\langle u_0 \rangle = \frac{1}{3\eta} \left( -\frac{\partial p}{\partial x} \right)_0 h^2$$

Bu yerda – statsionar Puazeyl oqimidagi o‘rtacha bo‘ylama tezlik. (20) tenglamadan bosim gradiyentini topamiz:

$$\left( -\frac{\partial \bar{p}_1(x,t)}{\partial x} \right) = \langle u_1(x,t) \rangle \left[ \frac{1}{i\alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\sin \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)}{\left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right) \cos \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)} \right) \right]^{-1} \quad (21)$$

$$\bar{Z} = \left[ \frac{1}{i\alpha_0^2} \left( 1 - \frac{\sin \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)}{\left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right) \cos \left( i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left( \frac{1}{\eta^*(i\omega)} \right)^{\frac{1}{2}} \right)} \right) \right]^{-1}$$

Agar bu tenglamada deb belgilash kiritsak (21) tenglama ushbu ko‘rinishga keladi:

$$\left( -\frac{\partial \bar{p}_1(x,t)}{\partial x} \right) = \langle u_1(x,t) \rangle \bar{Z} \quad (22)$$

Hosil qilingan bu tenglamaga devor deformatsiyasini aniqlaydigan tenglamani sistema qilib, bosim gradiyentini va suyuqlikning o‘rtacha tezligini topish uchun tenglamalar sistemasini hosil qilamiz. Ya’ni,

$\bar{g}_{h_0} = \frac{2h_0^2}{\delta E} i\omega \bar{p}$  ekanligidan foydalanib, bunga uzliksizlik tenglamasini qo‘llash natijasida ushbu teng-

$$\frac{\partial \langle u(x,t) \rangle}{\partial x} = \frac{2h_0}{\delta E} i\omega \bar{p}_1(x,t) \quad (23)$$

lamaga ega bo‘lamiz:

(22) va (23) tenglamalardan bosim va o‘rtacha tezlikning taqsimlanishini aniqlash uchun quyidagi tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} \frac{\partial \langle \bar{u}_1(x,t) \rangle}{\partial x} = \frac{2h_0}{\delta E} i\omega \bar{p}_1(x,t) \\ \left( -\frac{\partial \bar{p}_1(x,t)}{\partial x} \right) = \langle \bar{u}_1(x,t) \rangle \bar{Z} \end{cases} \quad (24)$$

Bu tenglamalar sistemasining yechimini topish uchun chegaraviy shartlarni shakllantiramiz. Ya’ni,  $x=0$  bo‘lganda,  $p = \bar{p}_1^0$  bo‘ladi:

$$x=L \text{ bo‘lganda } p = \bar{p}_1^L \text{ bo‘ladi} \quad (25)$$

(25) tenglamalar sistemasida bosimni va bo‘ylama o‘rtacha tezlikni topish uchun quyidagi ikki tengla-

$$\text{malarni hosil qlamiz: } \frac{d^2 \bar{p}(x)}{dx^2} - \frac{i\omega 2h_0}{\delta E} \bar{Z} \bar{p}(x) = 0 \quad \text{va} \quad \frac{d^2 \langle \bar{u}(x) \rangle}{dx^2} - \frac{i\omega 2h_0}{\delta E} \bar{Z} \langle \bar{u}(x) \rangle = 0 \quad (26)$$

(26) tenglamalarning (25) shartdagi yechimlarini quyidagi ko‘rinishda aniqlaymiz:

$$\bar{P}(x,t) = \left[ \frac{p_1^0 \left( \text{Sh} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \left( \frac{L-x}{L} \right) \right) \right)}{\text{Sh} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \right)} + \frac{p_1^L \text{Sh} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} \frac{x}{L} \right)}{\text{Sh} \left( \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \right)} \right] e^{i\omega t} \quad (27)$$

$$\langle \bar{u}(x,t) \rangle = \frac{h_0^2 \sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L}{3\eta h_0} \times P_1^0 \left[ \frac{Ch\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \frac{L-x}{L}\right) - P_1^l Ch\left(\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L \frac{x}{L}\right)}{Sh\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L - P_1^0 Sh\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L} \right] e^{i\omega t} \quad (28)$$

Bu yerda  $K = \frac{\delta E}{2h_0}$ ,  $\bar{Z} = \left[ \frac{1}{\rho i \omega} \left( 1 - \frac{\sin\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right)}{\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right) \cos\left(i^{\frac{3}{2}} \alpha_0 \left(\frac{1}{\eta^*(i\omega)}\right)^{\frac{1}{2}}\right)} \right) \right]^{-1}$  Keltirib chiqarilgan (27) va (28) formulalar bo'ylama o'q va vaqt bo'yicha bosim va o'rtacha bo'ylama tezlik taqsimlanishlarini tadqiq qilish imkoniyatini beradi.

## 2. Yechimining tahlili va mulohazalar. Elastik qovushoq suyuqlik bosmi va o'rtacha bo'ylama tez-

ligining gorizontall o'q bo'yicha taqsimlanishini aniqlaydigan (27) va (28) formulalar  $\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L$  – kattalikka uzviy ravishda bog'langan. Bu kattalik orqali bosim puls to'lqinining tarqalish tezligi va uning to'lqin uzunlik davri bo'yicha so'nish ko'rsatkich qonuniyatlarini aniqlaymiz. Buning uchun ushbu kattalikni

$$\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L = \chi + \beta i \quad (29)$$

haqiqiy va mavhum qismlarga ajratamiz:

$$\beta = \pm \sqrt{\frac{2h_0 \rho}{E \delta}} \omega L \sqrt[4]{A_s^2 + B_s^2} \cos \frac{\varphi}{2}, \chi = \mp \sqrt{\frac{2h_0 \rho}{E \delta}} \omega L \sqrt[4]{A_s^2 + B_s^2} \sin \frac{\varphi}{2} \quad (30)$$

Argument  $\sqrt{\frac{i\omega}{K}} \bar{Z} L$  ning haqiqiy qismi  $\chi$  – puls to'lqinining so'nishini aniqlasa, uning mavhum qismi  $\beta$  – puls to'lqinining tarqalish tezligini aniqlaydigan kattalikdir. Puls to'lqinining tarqalish tezligini quyidagi ko'rinishda aniqlaymiz:

$$C = \frac{\omega L}{\beta} \quad (31)$$

Bu formuladagi  $\beta$  o'rniga (30) formuladagi qiymatini qo'yib, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\frac{C}{C_\infty} = \frac{1}{\sqrt[4]{A_s^2 + B_s^2} \cos \frac{\varphi}{2}} \quad (32)$$

$$C_\infty = \sqrt{\frac{E \delta}{2h_0 \rho}}$$

Bosim puls to'lqini amplitudasining to'lqin tarqalish uzunligiga qarab so'nishi quyidagi formula orqali

$$\frac{\partial \ln p}{\partial x} = \chi, P = e^{-\chi x} \quad (33)$$

topiladi: To'lqin davriy uzunligi, to'lqin tezligini xarakterlovchi  $\beta$  ning to'lqin davriy uzunligiga ko'paytmasi  $2\pi$ -ga teng bo'lgan miqdor orqali aniqlanadi. Ya'ni,


$$\beta \lambda = 2\pi \quad \lambda = \frac{2\pi}{\beta} \quad (34)$$

To'lqin uzunligiga nisbatan bosim puls to'lqini amplitudasining so'nishi quyidagicha aniqlandi.

$$P = P_0 - P_0 e^{-\chi \lambda} = P_0 - P_0 e^{-\frac{2\pi \chi}{\beta}}, \quad P/P_0 = 1 - e^{-\frac{2\pi \chi}{\beta}} = 1 - \frac{P^*}{P_0} \quad (35)$$

$$\frac{p^*}{P_0} = e^{-2\pi \frac{z}{\beta}}$$


Bu yerda  $P_0$  – kattalik to‘lqin so‘nish ko‘rsatkichini aniqlovchi kattalikdir.



1-rasm.

Elastik qovushoq suyuqligi pulslı oqimida, elastiklik koeffitsiyentining  $EL = 0.001; 0.01; 0.1; 0.5$  qiymatlarida, bosim puls to‘lqini tarqalish tezligining, tebranish chastotasi parametrıga bog‘liq ravishda o‘zgarishi

1-rasmda elastik qovushoq suyuqligi pulslı oqimida, elastiklik koeffitsiyentining har xil  $EL = 0.001; EL = 0.01; EL = 0.1; EL = 0.5$  qiymatlarida, bosim puls to‘lqini tarqalish tezligining, tebranish chastotasi parametrıga bog‘liq o‘zgarishi (32) formula asosida tasvirlangan. Rasmlardan ko‘rinadiki, devori deformatsiyalanuvchi yassi kanalda nonyuton suyuqligining pulslı oqimida devorda puls to‘lqini tarqalish tezligi tebranish chastotasi parametrıga bog‘liq ravishda Nyuton suyuqligining tarqalish tezligidan farqli bo‘lib, tebranish chastotasi parametrining kichik qiymatlarida tezlikning o‘sishi Nyuton suyuqligi kabi o‘zgarsa, elastiklik koeffitsiyenti qiymatlarining birga yaqin qiymatlarida tezlikda ko‘tarilish holati ro‘y berar ekan.



2-rasm.

Elastik qovushoq suyuqligi pulslı oqimida, elastiklik koeffitsiyentining  $EL = 0.001; 0.01; 0.1; 0.5$

qiymatlarida, bosim puls to‘lqini amplitudasi o‘zgarishidagi  $e^{-2\pi \frac{z}{\beta}}$  kattalikning, tebranish chastotasi parametrıga bog‘liq ravishda o‘zgarishi.

Elastik qovushoq suyuqligi pulslı oqimida, elastiklik koeffitsiyentining  $EL = 0.001; 0.01; 0.1; 0.5$  qiymatlarida, bosim puls to‘lqini amplitudasi ko‘rsatkichining, tebranish chastotasi parametrıga bog‘liq ravishda o‘zgarishi (33) formula asosida 2-rasmda tasvirlangan. Rasimdan ko‘rinadiki, elastiklik koeffitsiyentining  $EL = 0.001; 0.01; 0.1; 0.5$  qiymatlarida, bosim puls to‘lqini amplitudasi kamayishi ko‘rsatkichi-

ning, tebranish chastotasi parametriga bog‘liq ravishda o‘zgarishi Nyuton suyuqligidagi o‘zgarishlarga qaraganda tebranish chastotasi parametrining birdan katta qiymatlarida o‘shirishini kuzatish mumkin.

**3. Xulosa.** Maqolada devori deformatsiyalanuvchi yassi kanalda elastik qovushoq suyuqliklarning bosim gradiyenti ta’siridagi tebranma oqimi qaralgan. Bunda suyuqlikning devori deformatsiyalanuvchi yassi kanaldagi pulslil oqimini shakllantirish uchun, birinchidan yassi kanal eni uzunligining, bo‘yi uzunligiga nisbati yetarlicha kichik deb olingan. Bu shartdan ko‘ndalang tezlikning bo‘ylama tezlikka nisbati ham kichik bo‘lishligi kelib chiqarilgan. Ikkinchidan, pulslil oqim sekin oqim deb qaralgan, bundan esa Reynolds sonining birdan yetarli darajada kichik bo‘lishligi ta’minlangan. Elastik qovushoq suyuqlikning pulslil harakat differensial tenglamalar sistemasi, yuqorida keltirilgan shartlar asosida soddalashtirilgan chiziqli harakat differensial tenglamalar sistemasi ko‘rinishga keltirilgan va u analitik usulda yechilgan. Yechimda topilgan bo‘ylama tezlikni kanal kesimi yuzasi bo‘yicha o‘rtalashtirish orqali o‘rtalashtirilgan bo‘ylama tezlik aniqlangan. O‘rtalashtirilgan bo‘ylama tezlik va bosimning bo‘ylama o‘q bo‘yicha o‘zgarishlarini aniqlash uchun formulalar keltirib chiqarilgan. Keltirib chiqarilgan formulalar yordamida kanal devorida puls to‘lqinining tarqalish tezligining va uning so‘nish ko‘rsatkichining, tebranish chastotasi parametriga bog‘liq ravishda o‘zgarishlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha tegishli gidrodinamik xulosalar chiqarilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Marx U., Wallis H., Hoffmann S., Linder G., Harland R., Sonntag F., Klotzbach U., Sakharov D., Tonevitskiy A., Lonster R. “Homan-on-a-Chip” developments: a translational cutting-edge alternative to systemic safety assessment and effecting evacuation in laboratory animals and man? ATLA 2012, vol. 40, p. 235–257.
- (2). Inman W., Domanskiy K., Serdy J., Ovens B., Trimper D., Griffith L.G., Dishing modeling and fabrication of a constant flow pneumatic micropump. J.Micromech. Microeng. 2007, vol. 17, p. 891–899.
- (3). Валуева Е.П., Пурдин М.С. Гидродинамика и теплообмен пульсирующего ламинарного потока в каналах. “Теплоэнергетика”, 2015, № 9, с. 24–33.
- (4). Валуева Е.П., Пурдин М.С. Пульсирующее ламинарное течение в прямоугольном канале. “Теплофизика и аэродинамика”, 2015, том 22, № 6, с. 761–773.
- (5). Валуева Е.П., Свиридов В.Г. Введение в механику жидкости. М., Изд-во МЭМ, 2001, 212 с.
- (6). Агеев Р.В., Кузнецова Е.Л., Куликов Н.И., Могилевич Л.И., Попов В.С. Математическая модель пульсирующего слоя вязкой жидкости в канале с упругой стенкой. Вестник ПНИПУ, механика, 2014, № 3, с. 17–35.
- (7). Богаченко С.Е., Устинов Ю.А. Модель движения крови в артериальном сосуде во время систолы и анализ напряженного состояния стенки с учетом винтовой анизотропии. “Российский журнал биомеханики”, 2009, том 13, № 1, с. 29–42.
- (8). Батищев А.Е., Петровская Д.С., Устинов Ю.А. Моделирование спиральных волн в аорте. “Российский журнал биомеханики”, 2013, т. 17, № 1(59), с. 55–63.
- (9). Вольмир А.С., Герштейн М.С. Динамические и статические задачи теории деформируемых оболочек кровеносной системы. “Прикладная механика”, 1969, № 1, с. 3–10.
- (10). Вольмир А.С., Герштейн М.С. О поведении кровеносных сосудов как упругих оболочек. Изв. АН Армении. Вып. 19, 1966, № 1, с. 8–12.
- (11). Лойдянский Л.Г. Механика жидкости и газа. М., “Дрофа”, 2003, 874 с.
- (12). Наврузов К. Биомеханика крупных кровеносных сосудов. Ташкент, “Fan va texnologiya”, 2011, 144 с.
- (13). Navruzov K., Sharipova Sh.B. Tangential Shear Stress in an Oscillatory Flow of a Viscoelastic incompressible fluid in a plane Channel. Fluid Dynamics, 2023, vol. 58, № 3, p. 360–370.
- (14). Navruzov K., Fayziev R.A., Mirzoev A.A. Sharipova Sh.B. Tangential Shear Stress in an Oscillatory Flow of a Viscoelastic Fluid in a Flat Channel. Lecture Notes in Computer Science (including subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics), 2023, p. 1–14.

**Xamroyeva Zilola Qahramonovna (Renessans ta’lim universiteti “Matematika va tabiiy fanlar” kafedresi katta o‘qituvchisi; e-mail: zilolaqaxramonova24@gmail.com)**

#### **IDEAL SUYUQLIKLI QOVUSHOQ-ELASTIK SILINDRIK QOBIQQA XOS TO‘LQIN TARQALISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu ishda silindrik qoplama ichidagi to‘g‘ri va garmonik to‘lqinlar tarqalishini muhokama qilish va yechim metodikasini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. To‘lqinlar tarqalishiga oid tenglamalar Lamé tenglamalari yordamida olingan. Olingan tenglamalar Grin-Lemb transformatsiyasi yordamida yechilgan. Qoplama va to‘ldiruvchi materialning harakat tenglamalari Helmholtz tenglamalariga qisqartiriladi, ularning yechimi Bessel funksiyalari orqali ifodalanadi.*

**Kalit so'zlar:** qobiq, ideal suyuqlik, dispersion tenglama, faza tezligi, to'liq soni.

Хамраева Зилола Кахрамоновна (университет Образование Ренессанс преподаватель кафедры  
“Математика и естественные предметы”; e-mail: zilolaqaxramonova24@gmail.com)

## РАСПРОСТРАНЕНИЕ ВОЛН В ВЯЗКОУПРУГОЙ ЦИЛИНДРИЧЕСКОЙ ОБОЛОЧКЕ С ИДЕАЛЬНОЙ ЖИДКОСТЬЮ

**Аннотация.** В работе рассматривается постановка задачи и разработка методики решения распространения собственных, а также гармонических волн на цилиндрической оболочке с наполнителем. Уравнения распространения волн получены с помощью уравнений Ламе. Полученные уравнения решены с помощью преобразования Грина – Лемба. Уравнения движения оболочки и наполнителя сводятся к уравнениям Гельмгольца, решение которых выражается через функции Бесселя.

**Ключевые слова:** гармонические волны, цилиндрическая оболочка, скорость фазы, количество волн.

Khamraeva Zilola Kakhramonovna (University of Education Renaissance, lecturer of the Department of  
Mathematics and Natural Sciences; e-mail: zilolaqaxramonova24@gmail.com)

## WAVE PROPAGATION IN AN IDEAL LIQUID ALLOY-ELASTIC CYLINDRICAL SHELL

**Annotation.** The paper considers the formulation of the problem and the development of a technique for solving the propagation of natural and harmonic waves on a cylindrical shell with a filler. The wave propagation equations are obtained using the Lamé equations. The resulting equation is solved using the Green-Lemb transformation. The equations of motion of the shell and filler are reduced to Helmholtz equations, the solution of which is expressed in terms of Bessel functions

**Key words:** harmonic waves, cylindrical shell, phase velocity, number of waves.

**Kirish.** Bu ishda ideal suyuqlikli qovushoq-elastik silindrik qobiqga xos to'liq tarqalishi masalasi qo'yilgan va yechilgan. Sonli natijalar olinib tahlil qilingan. Qobiq yupqa bo'lib, Krixgof-Lyav gipotezasini qanoatlantiradi. Dispersion tenglama olinib, sonli Myuller usuli bilan xos to'liq faza tezligi, chastotasi va to'liq soni orasidagi munosabat topiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Qovushoq elastik to'ldiruvchili silindrik qobiqa xos to'liq tarqalishi va majburiy tebranishlar masalasining matematik qo'yilishi va yechish metodikasi keltirilgan. Qobiq va to'ldiruvchi orasida (kontaktida) qattiq mahkamlanganlik (yoki sirpanuvchanlik) sharti qo'yildi. Masalalari elastiklik nazariyasining ko'chish potentsiallari orqali Grin Lemb usuli bilan ko'chish potentsiallari orqali kompleks koeffitsiyentli to'liq tenglamasiga olib kelindi. To'ldiruvchi va silindrik qobiqlarning harakat differensial tenglamasi Gelmgols (yoki Bessel) tenglamasiga olib kelindi va yechimi Bessel hamda Xankel funksiyalari orqali topildi. Kompleks parametirli dispersion tenglama olindi. Myuller usuli bilan yechish algoritimi keltirildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Faraz qilaylik, silindrik qobiq ideal siqilmaydigan va uyurmasiz suyuqlik bilan to'ldirilgan bo'lsin. Shu silindrik qobiqa xos to'liqni tarqalishini ko'ramiz. U holda silindrik qobiqni tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned}
 & (1 - \Gamma^*) \left( \frac{\partial^2}{\partial z^2} + \frac{1 - \tilde{\nu}_n}{2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} \right) u_z + (1 - \Gamma^*) \frac{1 + \tilde{\nu}_n}{2} \frac{\partial^2 u_\theta}{\partial \theta \partial z} + (1 - \Gamma^*) \tilde{\nu}_n \frac{\partial u_r}{\partial z} = \\
 & \quad - \frac{1 - \tilde{\nu}_n^2}{E_n h} R^2 q_z + \frac{1 - \tilde{\nu}_n^2}{E_n} \rho \frac{\partial^2 u_z}{\partial t^2}; \\
 & (1 - \Gamma^*) \frac{1 + \tilde{\nu}_n}{2} \frac{\partial^2 u_z}{\partial \theta \partial z} + (1 - \Gamma^*) \left( (1 + a) \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} + \frac{1 - \tilde{\nu}_n}{2} (1 + 4a) \frac{\partial^2}{\partial z^2} \right) u_\theta + \\
 & + (1 - \Gamma^*) \left( \frac{\partial}{\partial \theta} + a(2 - \tilde{\nu}_n) \right) \frac{1}{R^2} \frac{\partial^3}{\partial z^2 \partial \theta} - a \frac{\partial^3}{\partial \theta^3} u_r = - \frac{1 - \tilde{\nu}_n^2}{E_n h} R^2 q_s + \frac{1 - \tilde{\nu}_n^2}{E_n} R^2 \rho \frac{\partial^2 u_\theta}{\partial t^2}, \\
 & - (1 - \Gamma^*) \tilde{\nu}_n \frac{\partial u_z}{\partial z} + (1 - \Gamma^*) \left( - \frac{\partial}{\partial \theta} + a(2 - \tilde{\nu}_n) \right) \frac{1}{R^2} \frac{\partial^3}{\partial z^2 \partial \theta} + a \frac{\partial^3}{\partial \theta^3} u_\theta + \\
 & + (1 - \Gamma^*) \left( -1 - a \left( \frac{\partial^4}{\partial z^4} + 2 \frac{\partial^4}{\partial z^2 \partial \theta^2} + \frac{\partial^4}{\partial \theta^4} \right) \right) u_r = - \frac{1 - \tilde{\nu}_n^2}{E_n h} R^2 q_n + \frac{1 - \tilde{\nu}_n^2}{E_n} R^2 \rho \frac{\partial^2 u_r}{\partial t^2}.
 \end{aligned} \tag{1}$$

Bunda  $\Gamma_0 = i\Gamma^C(\omega_R) + \Gamma^S(\omega_R)$ ,

$$\Gamma_{\lambda k}^C(\omega_R) = \int_0^{\infty} R_{\lambda k}(\tau) \cos \omega_R \tau d\tau, \quad \Gamma_{\lambda k}^S(\omega_R) = \int_0^{\infty} R_{\lambda k}(\tau) \sin \omega_R \tau d\tau$$

- material relaksatsiya yadrosining mos ravishda, kosinus va sinus Fur'e tasvirlari,  $E_0$  – Yung moduli;  $\vec{u} = \vec{u}(u_r, u_\theta, u_z)$  – qobiq o'rta sirtini ko'chish vektori (Kirxgof – Lyav gipotezalari o'rinli bo'lganda), ko'pincha, quyidagicha belgilash kiritiladi ( $u_r = u$ ;  $u_\theta = \mathcal{G}$ ;  $u_z = w$ ). Timoshenko S.P. gipotezasi o'rinli bo'lganda ko'chish vektori  $\vec{u}$  o'lchami beshga teng bo'ladi. Timonenko S.P. gipotezasi o'rinli bo'lsa, silindrik qobiqning o'qi, yoyi va normal bo'yicha yo'nalgan ko'chishlardan tashqari, o'rta sirt normalini buralish burchagi o'qi va yoy yo'nalishida olingani ham qo'shiladi. Bu yerda silindrik qobiqning  $\{u \ v \ w\}^T$  – ko'chish vektori  $R_{\lambda k}(t - \tau)$  – yadro relaksatsiyasi;  $E_0$  – niy elastiklik moduli. Agar qobiq ideal siqilmaydigan va uyurmasiz suyuqlik bilan to'ldirilgan bo'lsa, u holda suyuqlikning potentsialli harakati quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{\partial^2 \phi}{\partial z^2} + \frac{\partial^2 \phi}{\partial r^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial \phi}{\partial r} + \frac{1}{r^2} \frac{\partial^2 \phi}{\partial \varphi^2} = 0 \quad (2)$$

Suyuqlik va qobiqning kontaktida quyidagicha shart qo'yiladi:

$$\left[ \frac{\partial \phi}{\partial r} \right]_{r=R} = \frac{\partial w}{\partial t} \quad (3)$$

Yuqoridagi (3) tenglamani yechimini quyidagicha izlaymiz:

$$\phi(z, \varphi, r, t) = \sum_m \phi_m(r) e^{i\lambda z - i\omega t} \cos(m\varphi) \quad (4)$$

U holda quyidagicha Bessel tenglamasini olamiz:

$$\frac{d^2 \phi_m(r)}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{\partial \phi_m(r)}{\partial r} - \left( \lambda^2 + \frac{m^2}{r^2} \right) \phi_m(r) = 0 \quad (5)$$

Uni yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$\phi_m(r) = C_{1m} I_m(\lambda r) + C_{2m} Y_m(\lambda r)$$

Bunda:  $C_{1m}$  va  $C_{2m}$  – ixtiyoriy o'zgarmas kattaliklar;  $I_m(r\lambda)$  va  $Y_m(r\lambda)$  – Besselning modifitsirlangan funksiyasi. Potensial tezlikni  $r \rightarrow 0$  chearalangan qiymatga ega bo'lishidan  $C_{2m} = 0$  bo'ladi, u holda yechim quyidagicha bo'ladi:

$$\phi_m(r) = C_{1m} I_m(\lambda r)$$

Ixtiyoriy o'zgarmas  $C_{1m}$  ni topish uchun (3.31) shartdan foydalanamiz:

$$\left[ \frac{\partial \phi_m}{\partial r} \right]_{r=R} = \frac{\partial w}{\partial t},$$

$$w(z, \theta, t) = \sum_m W_m(R) e^{i\lambda z - i\omega t} \cos(m\varphi), \quad (6)$$

yoki  $\phi'_m(r) \Big|_{r=R} = -i\omega W_m$ , bundan ixtiyoriy o'zgarmasni aniqlaymiz:

$$C_{1m} \frac{\partial I_m(r\lambda)}{\partial r} = -i\omega W_m, \text{ ili } C_{1m} = \frac{-i\omega W}{\frac{\partial I_m(r\lambda)}{\partial r} \Big|_{r=R}}.$$

Binobarin,

$$\phi_m(R) = \frac{-i\omega W I_m(r\lambda)}{\left. \frac{\partial I_m(r\lambda)}{\partial r} \right|_{r=R}}$$

va suyuqlikni qobiq devoriga beradigan bosimi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} p_m &= -\sum_m \phi_m(R) \rho_0 \frac{\partial}{\partial t} (e^{i\lambda x - i\omega t} \cos(m\varphi)) = \\ &= \sum_m \omega^2 \rho_0 \frac{W_m I_m(\lambda R)}{\left[ \frac{\partial I_m(\lambda r)}{\partial r} \right]_{r=R}} (e^{i\lambda x - i\omega t} \cos(m\varphi)) \end{aligned}$$

Bu yerda:  $\rho_0$  – suyuqlik zichligi. U holda (6) ning o'ng tomoni o'zgaradi va quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} &\sum_m \frac{(1-v^2)R^2}{Eh} \omega^2 \rho_0 \frac{W_m I_m(\lambda R)}{\left[ \frac{\partial I_m(\lambda r)}{\partial r} \right]_{r=R}} (e^{i\lambda x - i\omega t} \cos(m\varphi)) = \\ &= \sum_m \Omega^2 \rho_0 \frac{R}{\rho h} \frac{I_m(k)}{\left[ \frac{\partial I_m(k\tilde{r})}{\partial \tilde{r}} \right]_{\tilde{r}=1}} W_m (e^{k\xi - i\omega t} \cos(m\varphi)), \end{aligned} \quad (7)$$

bunda  $\tilde{r} = r/R$ ,  $\Omega = \sqrt{\rho \frac{1-v^2}{E}} R\omega$  - keltirilgan chastota. U holda qiyin bo'lmagan oddiy almash-tirishlar natijasida quyidagi matritsali tenglamani olamiz:

$$L^* \vec{U}_m = 0, \quad (8)$$

bunda  $\vec{U}_m = (U_m \ V_m \ W_m)^T$  qobiqning ko'chish amplitudasi,  $L^*$  matritsaning ko'rinishi quyida-gicha:

$$L^* = \begin{pmatrix} -(k^2 + \frac{1-v}{2}m^2)\Gamma^* + \Omega^2 & \Gamma^* \frac{1+v}{2}km & v k \Gamma^* \\ -\frac{1+v}{2}km\Gamma^* & \Gamma^* (\frac{1-v}{2}(1+4a)k^2 - (1+a)m^2) + \Omega^2 & \Gamma^* (-m + a(2-v)k^2m - am^3) \\ -\Gamma^* vk & \Gamma^* (m - a(2-v)k^2m + am^3) & -\Gamma^* (1 + a(a^2 + m^2)^2) - \Omega^2 \left( 1 + \frac{\rho_0 R}{\rho h} \frac{I_m(k)}{\left[ \frac{\partial I_m(k\tilde{r})}{\partial \tilde{r}} \right]_{\tilde{r}=1}} \right) \end{pmatrix}$$

$$\Gamma^* \varphi = [1 - \Gamma_j^C(\omega_R) - i\Gamma_j^S(\omega_R)] \varphi, \quad \tilde{r} = r/R, \quad \Omega = \sqrt{\rho \frac{1-v^2}{E}} R\omega, \quad a = \frac{h^2}{12R^2}.$$

Agar  $R(t)=0$  bo'lsa, u holda [1] keltirilgan  $L^*$  olamiz.

Asosiy aniqlovchini  $L^* = 0$  bo'lishidan dispersion tenglama olinadi. Ideal suyuqlikning qobiq devorlariga beradigan bosimi quyidagicha bo'ladi [2]

$$P(R) = \omega^2 \rho_\infty \frac{I_n(\beta R)}{\beta I_n'(\beta R)} U_3, \quad \beta^2 = \left(\frac{\pi}{L}\right)^2 - k^2, \quad k = \frac{\omega}{c_\infty},$$

$I_n$ -Besselning modifitsirlangan funksiyasi.

U holda ifoda uchun  $I_n(\beta R)/\beta I_n'(\beta R)$  quyidagi munosabatlardan foydalanamiz ([1],[2]):

a) argumentning kichik qiymatlarida


$$\frac{I_n(\beta R)}{\beta I_n'(\beta R)} = \begin{cases} \frac{2R}{(\beta R)^2} \left( 1 + \frac{(\beta R)^2}{8} \right) + 0 \left[ \left( \frac{\beta R}{2} \right)^4 \right], & n = 0, \\ \frac{R}{n} \left[ 1 - \frac{(\beta R)^2}{2n(n+1)} \right] + 0 \left[ \left( \frac{\beta R}{2n} \right)^4 \right], & n > 0, \end{cases}$$

b) argumentning katta qiymatlarida




$$\frac{I_n(\beta R)}{\beta I_n'(\beta R)} = \frac{1}{\beta} \left( 1 + 0 \left[ \left( \frac{1}{\beta R} \right) \right] \right),$$

yoyilmaning bosh hadlarini tarkibiy ifoda ko'rinishida olamiz, lekin inersiya kuchlari ta'sirini ifodalovchi hadlarni hisobga oladi. Bu ifodalardan suyuqlikli qobiqqa statsionar va turg'un bo'lmagan jarayonlar sodir bo'lsa, foydalanish mumkin.



1-rasm. Chastota  $\Omega$  ning  $\lambda'$  parametrga bog'liq o'zgarishi. ( $n=0$  bo'lganda). Rasmda to'rt xil natija solishtirilgan. 1- tutash chiziq-suyuqliksiz qobiq; 2-yuliy chiziq aniq qo'yilishda (suyuqlikli qobiq) dissertatsiyada ishlab chiqilgan uslubiyot asosida; 3-nuqtalar bilan berilgan chiziq ideal suyuqlikli qalin devorli silindr [4]; yuliy nuqtali chiziq tajriba natijalari (suyuqliksiz) [2].

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida keltirilgan asosiy aniqlovchini  $L^* = 0$  bo'lishidan dispersion tenglama  $R_E(t - \tau) = 0$  ancha soddalashadi. Quyidagi ko'rinishdagi belgilashlar kiritamiz  $\lambda = \pi/L$ . Agar qobiq ichidagi suyuqlik hisobga olinmasa, u holda dispersion tenglama chastotaga nisbatan sakkizinchi darajali algebraik tenglamaga keladi. Agar suyuqlikni siqilishi ham e'tiborga olinsa, u holda chastotani oshkor bo'lmagan funksiyasi ko'rinishdagi dispersion tenglamani yoki transendent tenglamani olamiz. (7) matritsani aniqlovchisi nolga tenglashtirib olingan tenglama «quruq» qobiq uchun sakkizinchi tartibli bo'ladi. Barcha hollarda ham yechimni (6) yuguruvchi to'lqin sifatida mavjud bo'lishi uchun (8)ning hech bo'lmaganda bitta haqiqiy ildizga ega bo'lishi kerak. Yuqorida keltirilgan (7) matritsani asosiy aniqlovchisini nolga teng bo'lishidan qobiq uchun to'lqinli harakatni xarakterlovchi  $\lambda$  parametrga bog'liq dispersion tenglama ildizlarini tahlil qilishga imkon tug'iladi.



2-rasm. Chastota  $\Omega$  ning  $\lambda$  parametrga bog'liq o'zgarishi. Rasmda to'rt xil natija solishtirilgan. 1-tutash chiziq-suyuqliksiz qobiq; 2-yuliy chiziq aniq qo'yilishda (suyuqlikli qobiq) dissertatsiyada ishlab chiqilgan uslubiyot asosida; 3-nuqtalar bilan berilgan chiziq ideal suyuqlikli qalin devorli silindr [4]; yuliy nuqtali chiziq tajriba natijalari (suyuqliksiz) [2].

Boshqa tomondan tahlil etiladigan chastotani o'zgarish oralig'i ham chegaralangan. Bu chegaralanish qobiq nazariyasini qo'llash oralig'i bilan izohlanadi. Turli xil soddalashtirishlarni qo'llash natijasida olingan qobiq tenglamasidan foydalanib, olingan faza tezligi, chastotasi va boshqa parametrlarni olinishi, turli xil soddalashtirishlarni qo'llash chegarasini topib beradi. Dispersion tenglamaning eng kichik musbat ildizi ko'proq egilish formasiga mos keladi (kichik chastotalar sohasida). Qobiq uchun asosiy parametrlarga baho berishimiz mumkin. Faraz qilamiz, silindrik qobiq ichida gaz yoki suyuqlik bor deb, ularni bosimi orqali hisobga olamiz. Olingan natijalar 1 va 2-rasmlarda keltirilgan. Chastotani quyidagicha sohada

o'zgarishi ( $0 < \Omega = \omega R \sqrt{\rho/E} < 1$ ) ko'rilgan. Bu sohada qobiq qalinligini o'zgarishi  $\lambda$  parametriga kam ta'sir o'tkazadi (qobiqning qalinligi yupqa hisoblanadi, ya'ni  $h/R < 0,01$ ). Praktiki masalalarni yechishda qobiq qalinligini o'lchamsiz kattaligi, ko'pincha,  $\frac{h}{R}$  ishlatiladi. Uning o'zgarish diapozoni  $\left[ \frac{1}{100} \quad \frac{1}{50} \right]$  oraliqda bo'ladi. Sonli hisoblashlar uchun quyidagi parametrlar olindi [21]:

$$h/R=1/300, \nu=0,34, \rho_{\infty} / \rho=4,3 \cdot 10^{-3}, C_{\infty} \sqrt{E/\rho}=0,062.$$

$$\Omega = \sqrt{\rho \frac{1-\nu^2}{E}} R \omega \text{ o'lchamsiz chastota.}$$

**Xulosa va takliflar.** Qovushqoq elastik to'ldiruvchili silindrik qobiqqa xos va majburiy to'ldiruvchilarning tarqalishi masalasining matematik qo'yilishi va yechish metodikasi keltirilgan. Qobiq va to'ldiruvchi orasida (kontaktida) qattiq mahkamlanganlik (yoki sirpanuvchanlik) sharti qo'yildi. Masalalari elastiklik nazariyasining ko'chish potentsiallari orqali Grin-Lemb usuli bilan ko'chish potentsiallari orqali kompleks koeffitsiyentli to'ldiruvchi tenglamasiga olib kelindi. To'ldiruvchi va silindrik qobiqlarning harakat differensial tenglamasi Gelmgols (yoki Bessel) tenglamasiga olib kelindi va yechimi Bessel hamda Xankel funksiyalari orqali topildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Луговой П.З. Динамика тонкостенных конструкций при нестационарных нагрузках (обзор). Прикл. механика, 2001, 37, № 5, с. 44 – 74.
- (2). Skosarenko Y.V. Natural Vibrations of Ribbed Cylindrical Shell Interaction with Elastic Foundation. Int. Appl. Mech. 2014, 50, № 5, p. 111 – 128.
- (3). М.Б.Бозоров, И.И.Сафаров, Ю.И.Шокин. Численное моделирование колебаний диссипативно однородных и неоднородных механических систем СО РАН, Новосибирск, 1966, 188 с.

**Gulyamov Gafur (fizika-matematika fanlari doktori, professor),**

**Umarov Kudiratulla Bekboyevich (fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent),**

**Soliyev Alisher Zokirjonovich (doktorant; szalisher2002@gmail.com; Namangan Muhandislik-qurilish instituti)**

### YARIMO'TKAZGICHLI DIODLARNING ELEKTROFIZIK XOSSALARIGA MAGNIT MAYDONI TA'SIRI

**Annotatsiya.** Yarimo'tkazgichli magnitodiodga doimiy magnit maydonning ta'siri natijasida uning volt-ampere xarakteristikasi (VAX), kuchlanishning o'zgarish qiymatlari uchun magnit maydon induksiya vektorini tok kuchiga bog'iqqligi, tok kuchining o'zgarish qiymatlari uchun magnit maydon induksiya vektorini kuchlanishga bog'iqqligi, tok sezgirligi va kuchlanish sezgirligi kabi xossalari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** magnitodiod, volt-ampere xarakteristikasi, tok sezgirligi, kuchlanish sezgirligi, injeksiya, maydon induksiya vektori, potentsial to'siq balandligi, baza qarshiligi.

**Г.Гулямов, К.Б.Умаров, А.З.Солнцев (Наманганский инженерно-строительный институт)**

### ВЛИЯНИЕ МАГНИТНОГО ПОЛЯ НА ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ДИОДОВ

**Аннотация.** В результате воздействия постоянного магнитного поля на полупроводниковый магнитодиод, его вольт-амперную характеристику (ВАХ), зависимость вектора индукции магнитного поля от тока при постоянных значениях напряжения, зависимость магнитного поля исследован вектор индукции поля от напряжения при постоянных значениях таких свойств тока, как чувствительность, чувствительность по току и чувствительность по напряжению.

**Ключевые слова:** магнитодиод, вольт-амперная характеристика, токовая чувствительность, чувствительность по напряжению, инъекция, вектор индукции поля, высота потенциального барьера, сопротивление базы.

**G.Gulyamov, K.B.Umarov, A.Z.Soliyev (Namangan Engineering-Construction Institute)**

### INFLUENCE OF MAGNETIC FIELD ON ELECTROPHYSICAL PROPERTIES OF SEMICONDUCTOR DIODES

**Annotation.** As a result of the action of a constant magnetic field on a semiconductor magnetodiode, its volt-ampere characteristic (VAC), dependence of the magnetic field induction vector on the current at

constant voltage values, dependence of the magnetic field the field induction vector on voltage at constant values of such current properties as sensitivity, current sensitivity and voltage sensitivity are studied.

**Key words:** magnetodiode, volt-ampere characteristic, current sensitivity, voltage sensitivity, injection, field induction vector, potential barrier height, base resistance.

**Kirish (Introduction).** Magnitoelektronika qattiq jismlı elektronikaning ilmiy-texnik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u magnit maydon ta‘sirı bilan bog‘liq bo‘lgan yarimo‘tkazgichli strukturalardagi hodisalardan foydalanishga asoslangan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** O‘tkazuvchanligi xususiy o‘tkazuvchanlikka yaqin, yuqori omli yarimo‘tkazgich joylashgan va baza kengligi  $d$  zaryad tashuvchilarning diffuziya uzunligi  $L$  dan bir necha marta katta ( $d/L \gg 1$ ) bo‘lgan  $p-n$  o‘tishli yarimo‘tkazgichli qurilmalarda  $p-n$  o‘tishining qarshiligi magnit maydon ta‘sirida keskin oshadi. Bunga sabab magnit maydoni ta‘sirida zaryad tashuvchilar harakatining sezilarli kamayishi va ular diffuzion uzunligining qisqarishi hisoblanadi [1;5-b.]. Bu ishlarda tokning kamayishini magnit maydoni ta‘sirida asosiy zaryad tashuvchilar harakatchanlikning kamayishi va noasosiy zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi o‘zgarishi hisobiga magnitoqarshilikning paydo bo‘lishi orqali tushuntirilgan.

[6] ishda, diodlarda muvozanatda bo‘lmagan zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining pasayishi tufayli potensial to‘siq baladligini o‘shiri natijasida tokning pasayishi ko‘rsatilgan [7,14] ishlarda, yarimo‘tkazgichli  $p-n$  o‘tishli diodlarning tashqi ta‘sirga sezgirligini o‘rganilgan. Bu ishlarda tashqi ta‘sir temperaturasi, mikroto‘lqinlar va yorug‘liklar diodning VAXni ideallikdan chetlanishi ko‘rilgan [15–18] ishlarda, doimiy magnit maydonning VAX noideallik koeffitsiyentiga hamda kuchlanishga ta‘sir o‘rganilgan. Bunda, magnit maydon ta‘sirida kuchlanishning ortishini Xoll kuchlanishi va noideallik koeffitsiyentini diffuziya uzunligi orqali tushuntirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu ishda yarimo‘tkazgichli KD304G diodning volt-ampere xarakteristikasiga (VAX) magnit maydonning ta‘sirini, volt-tesla xarakteristikasini, amper-tesla xarakteristikasini, kuchlanish sezgirligi va tok sezgirligi xossalari o‘rganish vazifa qilib olingan.

Olingan tok kuchining kuchlanishga bog‘liqligi grafigidan foydalanib, tok kuchining o‘zgarish qiyamati uchun kuchlanishni magnit maydon induksiya vektoriga bog‘liqligi (volt-tesla xarakteristikasi) grafigi chizildi. Bundan tashqari, shu olingan tok kuchining kuchlanishga bog‘liqligi grafigidan foydalanib, kuchlanishning o‘zgarish qiyamati uchun tok kuchini magnit maydon induksiya vektoriga bog‘liqligi (amper-tesla xarakteristikasi) grafigi chizildi.

Diodlarning turli magnit maydonlari uchun aniqlangan VAXlaridan foydalanib, magnit maydonning tok sezgirligini aniqlash mumkin:

$$\gamma_I = \left( \frac{\Delta I}{\Delta B} \right)_{U=const} = \left( \frac{I_0 - I_B}{\Delta B} \right)_{U=const} \quad (4)$$

Diodlarning turli magnit maydonlari uchun aniqlangan VAXlaridan foydalanib, magnit maydonning kuchlanish sezgirligini ham aniqlash mumkin:

$$\gamma_U = \left( \frac{\Delta U}{\Delta B} \right)_{I=const} = \left( \frac{U_B - U_0}{\Delta B} \right)_{I=const} \quad (5)$$

Yuqorida bayon etilgan tartibda tajribalar o‘tkazilishi va olingan natijalar asosida quyida tajribalar tahlili amalga oshirish mumkin.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tajribalar asosida olingan natijalarga ko‘ra, 1-rasmda diodlarning volt-ampere xarakteristikasi va ularga magnit maydonning ta‘sirı keltirilgan. 1-rasmdan ko‘rinadiki, diodlarning VAX magnit maydon induksiya vektorining ortishi natijasida o‘ngga surilishi kuzatiladi, ya‘ni diodlarning qarshiligi ortadi.

$p-n$  o‘tishli diodlarning ideal holati uchun volt-ampere xarakteristikasi Shokli formulasi bo‘yicha hisoblash mumkin:

$$j = j_n + j_p = en\mu_n E + eD_n \frac{dn}{dx} + en\mu_p E - eD_p \frac{dp}{dx} \quad (1)$$


$p-n$  o‘tishli diodlarning noideal holati uchun volt-ampere xarakteristikasi quyidagicha ko‘rinishda bo‘ladi [19]:

$$j = j_s \left( e^{\frac{eU}{ckT}} - 1 \right) \quad (2)$$

$p$ - $n$  o'tishli diodlarga magnit maydon ta'sir qilganda qo'shimcha Xoll kuchlanishi hosil bo'lishi  $p$ - $n$  o'tishli diodlarning volt-ampere xarakteristikasini o'zgarishlariga sabab bo'ladi, unda VAX uchun quyidagi ifoda kelib chiqadi [20]:


$$j = j_s \left( e^{\frac{e\phi_0}{ckT} - \frac{e}{ckT} \left( \phi_0 - U + J \left( R_b + \frac{R_x B}{l} \right) \right)} - 1 \right) + \frac{U}{R_x} \quad (3)$$

[21] ishda  $p$ - $n$  o'tishli diodlarning volt-ampere xarakteristikasini magnit maydon ta'sirida o'zgarishini noideallik koeffitsiyenti orqali tushuntiruvchi ifoda hosil qilingan va u tajriba bilan mos tushgan:



**1-rasm. Diodlarning VAX va ularga magnit maydonning ta'siri.**


1-rasmdagi olingan tok kuchining kuchlanishga bog'liqligi grafiklaridan foydalanib, kuchlanishning o'zgarish qiyamati uchun tok kuchini magnit maydon induksiya vektoriga bog'liqligi (ampere-tesla xarakteristikasi) grafigi chizildi. Olingan natijalar 2-rasmda keltirilgan.



**2-rasm. Kuchlanishni o'zgarish qiyamatlari uchun tok kuchini magnit maydon induksiya vektoriga bog'liqligi.**

2-rasmdan quyidagicha xulasa qilish mumkin. Kichik kuchlanishlar berilganda tashqi magnit maydonning qiyamati tok kuchini kuchsiz o'zgartiradi. Kuchlanishning ortib borishi bilan tashqi magnit maydoni tok kuchini kuchli o'zgartira olishini ko'rishish mumkin. Bundan tashqari, magnit maydonning kichik qiyamatlari tok kuchini kuchsiz kamaytiradi, magnit maydonning katta qiyamatlarida tok kuchi kuchli kamayishini kuzatildi.


Tok kuchining kuchlanishga bog'liqligi grafigidan foydalanib, tok kuchining o'zgarmas qiymati uchun kuchlanishni magnit maydon induksiya vektoriga bog'liqligi (volt-tesla xarakteristikasi) grafigi chizildi. Olingan natijalar 3-rasmda keltirilgan.



**3-rasm. Tok kuchini o'zgarmas qiymatlari uchun kuchlanishni magnit maydon induksiya vektoriga bog'liqligi.**

3-rasmdan quyidagicha xulosa kelib chiqadi. Tok kuchining o'zgarmas kichik qiymatlarini hosil qilish uchun tashqi magnit maydonning o'zgarishi bilan kuchlanishni kichik qiymatga o'zgartirish yetarli bo'ladi. Tok kuchining o'zgarmas katta qiymatlarini hosil qilish uchun tashqi magnit maydonning o'zgarishi bilan kuchlanishni keskin orttirish kerak bo'ladi.

Diodlarning turli magnit maydonlari uchun aniqlangan VAXdan foydalanib, magnit maydonning tok sezgirligini ham anqlandi va 4-rasmda ko'rsatilgan grafik hosil qilinadi.




**4-rasm. Diodlarning tok sezgirligi.**

4-rasmdan quyidagicha xulosa qilish mumkin. Magnit maydonning ortib borishi bilan  $\gamma_I$  ning turli qiymatlarini hosil qilish mumkin. Lekin magnit maydon induksiya vektorining biror qiymatida  $\gamma_I$  ning eng katta qiymatiga ega bo'linadi. Bu qiymatni o'zgarmas kuchlanish uchun magnit maydonning eng samarali qiymati deb atash mumkin. Kuchlanishning ixtiyoriy qiymati uchun shunday  $\gamma_I$  ning eng katta qiymatlarini hosil qilish mumkin. Lekin kuchlanishning ortib borishi bilan magnit maydonning eng samarali qiymati kamayishini tajribada hosil qilindi.

Yuqoridagi kabi diodlarning turli magnit maydonlari uchun aniqlangan VAXdan foydalanib, magnit maydonning kuchlanish sezgirligini ham anqlandi va 5-rasmda ko'rsatilgan grafik hosil qilindi.

5-rasmdan quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Magnit maydonning ortib borishi bilan tok kuchining o'zgarmas qiymatlari uchun  $\gamma_U$  ning qiymatlari ham ortib boradi. Magnit maydonning biror qiymatidan boshlab,  $\gamma_U$  ning qiymatini kamayib borishini kuzatiladi. Magnit maydon induksiya vektorining  $\gamma_U$  ni eng katta qiymatini hosil qilgan qiymati magnit maydon induksiya vektorining o'zgarmas tok kuchi uchun effektiv qiymati deb atash mumkin. Tok kuchining ortib borishi bilan ushbu effektiv qiymat magnit maydon induksiya vektori qiymatining kamayish sohasiga suriladi.



### 5-rasm. Diodlarning kuchlanish sezgirligi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Baza uzunligi diffuziya uzunligidan katta diodlarda ( $d/L \gg 1$ ) zaryad tashuvchilarning taqsimlanishi va diod qalinligining qarshiligi (baza) muvozanatsiz zaryad tashuvchilarning diffuziya uzunligi bilan belgilanadi.  $L$  ning kamayishi bazada muvozanatsiz zaryad tashuvchilar konsentratsiyasining pasayishiga, ya'ni, uning qarshiligining oshishiga olib keladi. Bu bazadagi kuchlanish tushuvining oshishiga va  $p-n$  o'tishdagi kuchlanish tushuvining pasayishiga olib keladi (qo'llaniladigan kuchlanish doimiy bo'lganda).  $p-n$  o'tishdagi kuchlanishning pasayishi injeksiya tokining pasayishiga va baza qarshiligining qo'shimcha ortishiga, shuningdek,  $p-n$  o'tishdagi kuchlanishning yana pasayishiga olib keladi va hokazo.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- [1]. G.A.Egiazaryan and V.I.Stafeev, Magnetodiodes, Magneto-306, transistors and their Application (Radio and Communication, Moscow, 1987).
- [2]. G.Gulyamov, G.N.Majidova, F.R.Mukhitdinova, A.X.Suvanov, J.Optoelectron. Laser 41, 451 (2022).
- [3]. G.Gulyamov, U.Erkaboev, N.Y.Sharibaev, A.G.Gulyamov, Fiz. Tekh. Poluprovodn 53, 396 (2019).
- [4]. Z.Luo and X.Zhang, AIP Adv. 7, 055920 (2017).
- [5]. L.Botsch, I.Lorite, Y.Kumar, P.Esquiazzi, T.Michalsky, J.Zajadacz, K.Zimmer, arXiv preprint arXiv: 1705.08124 (2017).
- [6]. Альперович В.Л., Мищенко С.П., Терехов А.С. Механизмы влияния магнитного поля на баллистические фототоки. ФТТ, 1983, т. 25, в. 9, с. 2780–2782.
- [7]. Gulyamov, G., and K.B. Umarov. Semiconductors. 29.1 (1995), с. 17–19.
- [8]. Гулямов, Г., Умаров К.Б. ФТП 29.1 (1995). 33–38 с.
- [9]. Gulyamov G., Umarov K.B., Soliyev A.Z., Rom. J. Phys. 68, 613 (2023).
- [10]. Gulyamov, G., and Umarov K.B. Semiconductors 28.4 (1994): 409–411 p..
- [11]. Gulyamov G. and Gulyamov A.G. Semiconductors 49, 819 (2015).
- [12]. Shamirzaev S.H., Gulyamov G., Dadamirzaev M.G., and Gulyamov A.G., Semiconductors 45, 1035 (2011).
- [13]. Gulyamov G., Gulyamov A.G., Erkaboev U.I., Appl. Sol. Energy 54, 338 (2018).
- [14]. S.H.Shamirzaev, G.Gulyamov, M.G. Dadamirzaev, and A. G.Gulyamov, Semiconductors 43, 47 (2009).
- [15]. Gulyamov, G., Umarov, Q.B., & Soliyev, A.Z. (2023). Romanian journal of physics, 68, 613.
- [16]. T.Wang, M.Si, D.Yang, Z.Shi, F.Wang, Z.Yang, S.Zhou, and D.Xue, Nanoscale 6, 3978 (2014).
- [17]. L.H.Wu, X.Zhang, J.Vanacken, N.Schildermans, C.H.Wan, and V.V.Moshchalkov, Appl. Phys. Lett. 98, 112113 (2011).
- [18]. J.Panda, P.Banerjee, and T.K.Nath, J.Phys. D 47, 415103 (2014).
- [19]. G.E.Pikus, Principles of the Theory of Semiconductor De-320 vices ("Nauka", Moscow, 1965).
- [20]. G.Gulyamov, G.Majidova, & F.Muhitdinova, Journal of Applied Science and Engineering, 27(1). Page 1911–1917 (2022).
- [21]. G.Gulyamov, F.Mukhitdinova, & G.Majidova, e-Journal of Surface Science and Nanotechnology. Volume 21, Issue 4. Pages 273–277 (2023).

O'ktamova Muniraxon Komiljon qizi (Namangan muhandislik-qurilish instituti fizika kafedrasida dotsenti;  
umk9391@gmail.com)

## NOTT VA DE-MASSA NAZARIYASIGA ASOSAN O'TA YUQORI CHASTOTALI ELEKTR MAYDON TA'SIRIDA TUNNEL DIODIDAGI DIFFUZIYA SIG'IMINI KUCHLANISHGA BOG'LIQLIGI

**Annotatsiya.** Nazariy jihatdan o'rganilganda, elektronlar haroratining keskin oshishi tunnel diodining diffuziya sig'imining kuchlanishga bog'liqligiga kuchli ta'sir qiladi. O'ta yuqori chastotali maydon ta'sirida bo'lgan tunnel diodining diffuziya sig'imining oshishi, differensial qarshilikning pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, diffuziya sig'imining oshishi tunnel diodining sifat omilining pasayishiga olib kelishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** Tsu-Yesaki modeli, sifat faktori, differensial qarshilik, diffuziya sig'imi.

### ЗАВИСИМОСТЬ ДИФФУЗИОННОЙ СПОСОБНОСТИ ТУННЕЛЬНЫХ ДИОДОВ ОТ НАПРЯЖЕНИЯ ПОД ДЕЙСТВИЕМ СВЕРХВЫСОКОЧАСТОТНОГО ЭЛЕКТРИЧЕСКОГО ПОЛЯ НА ОСНОВЕ ТЕОРИИ НОТТА И ДЕ-МАССЫ

**Аннотация.** При теоретическом исследовании выявлено, что резкое повышение температуры электронов сильно влияет на зависимость диффузионной способности туннельного диода от напряжения. Увеличение диффузионной способности туннельного диода под действием поля очень высокой частоты приводит к уменьшению дифференциального сопротивления. Кроме того, установлено, что увеличение диффузионной емкости приводит к снижению добротности туннельного диода.

**Ключевые слова:** модель Тсу-Эсаки, фактор качества, дифференциальное сопротивление, диффузионная ёмкость.

### DEPENDENCE OF THE DIFFUSION CAPACITY OF TUNNEL DIODES ON THE VOLTAGE UNDER THE ACTION OF A MICROWAVE ELECTRIC FIELD BASED ON THE THEORY OF KNOTT AND DE-MASS

**Annotation.** It has been theoretically studied that a sharp increase in the electron temperature greatly affects the current-voltage characteristic of a tunnel diode, causing a decrease in the area with negative differential resistance in the current-voltage characteristic at high temperatures and causing an increase in the diffusion capacitance. In addition, it has been observed that an increase in the diffusion capacitance leads to a decrease in the quality factor of the tunnel diode.

**Keywords:** Tsu-Yesaki model, quality factor, differential resistance, diffusion capacitance.

**Kirish.** Tunnel diodlarining tokni kuchlanishga bog'liqlik xarakteristikalarini, tunnel tokini, tunnel diodining juda yuqori haroratlarda ham ishlash qobiliyatini, tunnel diodining ichki tuzilishiga bog'liqligini, ya'ni, uni turli xil kimyoviy yelementlar va geterostruktura usuli bilan tayyorlashni o'rganish juda muhim omil hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan ishlarning tahlili va mavjud adabiyotlar [1] asosida, Nott va De-Massa nazariyasi va Tsu-Yesaki modeli bo'yicha tahlil qilingan. Tunnel toki, diffuziya sig'imi va differensial qarshilikka qarab, turli haroratlarda vaqt o'tishi bilan ortadi. Diffuziya sig'imi tunnel diodga ta'sir qilayotgan maydon turiga qarab, tunnel tokini orttirishi ham kamaytirishi ham mumkin. p-n o'tishli tunnel diodida diffuzion sig'im kattaligi asosiy bo'lmagan zaryad tashuvchilarning yashash vaqtiga proporsional [1;2-b.].

**Adabiyotlar tahlili va metadalogiya.** Tunnel diodidagi diffuziya sig'imini aniqlashda Nott va De-Massa nazariyasidan foydalanamiz. Tunnel diodlarida sifat faktori tushunchasi ham mavjud bo'lib, bu tunnel diodining samaradorlik ko'rsatgichi sanaladi. Bu faktor, o'z navbatida, diffuziya sig'imiga hamda tunnel diodining yeng yuqori tokning qiymatiga bog'liq bo'ladi. Nott De-Massa nazariyasiga [2] asosan, o'ta yuqori chastotali maydon ta'siridagi tunnel diodi uchun to'liq tok ifodasini yozib olamiz:

$$I = I_P \left( \frac{V}{V_P} \right) \exp \left( 1 - \frac{V}{V_P} \right) + I_V \exp(A_2(V - V_V)) + I_0 \left( \frac{T}{T_0} \right)^3 \times \exp \left( \frac{E_g q}{kT_0} \left( 1 - \frac{T_0}{T} \right) \right) \left( \exp \left( \frac{q\phi}{kT} - \frac{q(\phi - V)}{kT_e} \right) - 1 \right) \quad (1)$$

bu yerda,  $\phi$  – potensial to'siq balandligi,  $E_g$  – taqiqlangan zona kengligi,  $T$  – panjaraning harorati,  $T_e$  – qizigan yelektron harorati,  $T_0$  – panjaraning boshlang'ich harorati,  $I_0$  – to'yinish toki.

Yuqorida keltirilgan (1) ifoda va quyidagi diffuziya sig'imini qarshilikka bog'liqlik (2) va (3) ifodalardan foydalanib, tunnel diodining diffuzion sig'imi uchun quyidagi (4) ifodani keltirib chiqaramiz:

$$C = R^{-1} \frac{\tau}{2} \quad (2)$$

bu yerda

$$R = \left( \frac{dI}{dV} \right)^{-1} \quad (3)$$


Bunda Nott va De Massa nazariyasiga asosan, [2] tunnel diodidagi to'la tok ifodasidan quyidagi ifodani keltirib chiqaramiz:

$$C_1 = \left( I_p \left( 1 - \frac{V}{V_p} \right) \exp \left( 1 - \frac{V}{V_p} \right) + A_2 I_V \exp(A_2(V - V_V)) - I_0 q \exp \left( \frac{-qV}{kT} \right) \right)^{-1} \frac{\tau}{2} \quad (4)$$

Tajriba asosida olingan 1-rasmda keltirilgan Ge asosli tunnel diodining volt-ampere xarakteristikasini olishda qo'llanilgan parametrlardan (1-jadval) foydalangan holda (4) ifoda yordamida Ge asosli tunnel diodining diffuzion sig'imini kuchlanishga bog'liqligini keltiramiz (2-rasm).

Ge asosli tunnel diodining sifat faktori "K<sub>1</sub>"ni quyidagicha aniqlanadi [3]:

$$K_1 = \frac{I_p}{C_1} \quad (5)$$



1-rasm. Tajriba asosida olingan Ge va GaAs asosli tunnel diodining volt-ampere xarakteristikasi [4].

1-jadval

Yarimo'tkazgich	$I_p$ (mA)	$V_p$ (Volt)	$I_V$ (mA)	$V_V$ (Volt)	$E_g$ (yeV)	$f$	$V$ (Volt)
Ge	0.0035	0.2	0.002	0.6	0.72		0.5


**Asosiy natija va xulosalar.** Yuqorida keltirilgan Nott va De Mass uchun yozilgan (4) ifodadagi  $I_{diff}$  -diffuzion tok ifodasi o'rniga o'ta yuqori chastotali maydon ta'siri ostida qizigan yelektron uchun diffuzion tok ifodasini qo'llagan holda to'liq tok quyidagi ifodani keltiramiz:

$$C_2 = \frac{\tau}{2} \left( \frac{I_p}{V_p} \left( 1 - \frac{V}{V_p} \right) \exp \left( 1 - \frac{V}{V_p} \right) + A_2 I_V \exp(A_2(V - V_V)) + \left( \frac{T}{T_0} \right)^3 \frac{I_0 q}{kT_e} \exp \left( \frac{E_g q(T - T_0)}{kTT_0} + \frac{q\phi}{kT} - \frac{q(\phi - V)}{kT_e} \right) \right)^{-1} \quad (6)$$


Tunnel tokining-parametrlari  $I_p$ ,  $V_p$ ,  $I_V$ ,  $V_V$  larni 1-rasmda keltirilgan tajriba grafigidan foydalanib topamiz va uning qiymatlari asosida (6) ifodadan foydalangan holda diffuzion sig'imni kuchlanishga bog'liqlik grafigini 3-rasmda nazariy tomondan ko'rib solishtirdik. Bu yerdan ko'rinadiki, qizigan yelektronlar



hisobiga diffuzion sig'imning keskin ortishi kuzatildi. Bundan tashqari, tajriba va nazariy keltirilgan natija grafiklarini sifat jihatdan mosligini kuzatishimiz mumkin.



2-rasm. (4) ifoda yordamida aniqlangan sig'imni kuchlanishga bog'liqlik grafigi. 1.  $T=300K$  2.  $T=350K$  3.  $T=400K$ .



3-rasm. (6) ifoda yordamida o'ta yuqori chastotali maydon ta'sirida Ge asosli tunnel diodi uchun diffuzion sig'imni kuchlanishga bog'liqlik grafigi uch o'lchovli fazodagi holati.

Ge asosli tunnel diodining sifat faktori " $K_2$ " ni (7) ifoda yordamida aniqlasak bo'ladi:

$$K_2 = \frac{I_P}{C_2} \quad (7)$$

#### Xulosa

Ushbu ishda tunnel diodidagi to'liq tokning diffuziya sig'imiga bog'liqligi o'rganildi. Tunnel diodidagi to'liq tokni hech qanday maydon ta'sirlarsiz Nott va De-Massa nazariyasiga asosan diffuziya sig'imini kuchlanishga bog'liqlik grafigi olindi. Nott va De-Massa nazariyasiga asosan tunnel diodiga o'ta yuqori chastotali maydon ta'sirida diffuziya sig'imini kuchlanishga bog'liqligi o'rganildi. Bunda o'ta yuqori chastotali maydon ta'sirida tunnel diodining diffuziya sig'imining ortishi aniqlandi. Bu yesa sifat faktori  $K$ -ning kamayishiga olib kelishi keltirib chiqarildi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Sze S.M. Physics of Semiconductor Devices. John Wiley & Sons, Inc. 2007, 3, pp. 418–480.
- (2). Chynoweth A.G., Feldman W.L., Logan R.A. Excess Tunnel Current in Silicon  $p-n$  Junctions. Phys. Rev. 1961, vol. 121, pp. 684–694.
- (3). J.Karlovsky. Simple Method for Calculating the Tunneling Current of an  $p-n$  Diode. Popov Research Institute of Radio Communications, Praha, Czechoslovakia (Received January 3, 1962).
- (4). Yevan O. Theory of Tunneling. Semiconductor Materials Department, Hughes Research Laboratories. 1960, vol. 6, pp. 79–88.
- (5). Fistul I., Shvarts N.Z. Uspekhi Physicheskikh Science 77, pp. 109–160 (1962).

Болтаев Хабибжон Хамитович (Ташкентский государственный Педагогический университет имени Низами; bkhabibzhan2020@mail.ru)

#### СВЯЗЬ МЕЖДУ ПОНЯТИЯМИ ПАРНОЙ КОНСТАНТЫ НЕЙМАНА-МЮРРЕЯ ДЛЯ ВЕЩЕСТВЕННЫХ И КОМПЛЕКСНЫХ ПОДФАКТОРОВ

**Аннотация.** В статье рассмотрен вещественный аналог парной константы Неймана-Мюррея для вещественных подфакторов. Доказаны аналогичные свойства парной константы. Используя конечный коммутант и единственные точные нормальные следы, доказан вещественный аналог парной константы Неймана-Мюррея.

**Ключевые слова:** парная константа Неймана-Мюррея, коммутант, вещественный фактор, инвариант, представления, вещественный,  $W$ -алгебра.

Boltayev Habibjon Hamitovich (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti;  
bkhabibzhan2020@mail.ru)

## HAQIQIY VA KOMPLEKS QISM FAKTORLAR UCHUN NEYMAN-MYURRE JUFTLIGI KONSTANTASI TUSHUNCHALARI ORASIDAGI BOG‘LANISH

*Annotatsiya.* Maqolada haqiqiy qism faktorlar uchun Neumann-Myurrey juftligining haqiqiy analo-gi ko‘rib chiqilgan. Juftlik konstantasiga o‘xshash xossalari isbotlangan. Chekli kommutant va yagona aniq normal izlardan foydalanib, biz Neyman-Myurrey juftlik konstantasining haqiqiy analogini isbotlangan.

*Kalit so‘zlar:* Neumann-Myurrey juft konstantasi, kommutant, haqiqiy faktor, invariant, tasvirlar, haqiqiy  $W$ -algebra.

Boltaev Khabibjon Khamitovich (Tashkent State Pedagogical University named after Nizami;  
bkhabibzhan2020@mail.ru)

## RELATIONSHIPS BETWEEN THE CONCEPTS OF THE PAIRED NEUMANN-MURRAY CONSTANT FOR REAL AND COMPLEX SUB-FACTORS

*Annotation.* The paper considers the real analogue of the Neumann-Murray pair constant for real subfactors. Similar properties of the pair constant are proved. Using the finite commutant and the unique faithful normal traces, we prove the real analogue of the Neumann-Murray pair constant.

*Key words:* Pair constant Neumann-Murray, commutant, real factor, invariant, representations, real  $W^*$ -algebra.

**Введение.** Алгебру всех ограниченных линейных операторов, действующих в комплексном гильбертовом пространстве  $H$ , обозначим через  $B(H)$ . Пусть  $M$  – \*-подалгебру в  $B(H)$ . Коммутантом  $M$  называется подмножество  $M' = \{a \in B(H) : ba = ab, \forall b \in M\}$ . Если  $M = M''$ , то  $M$  называется алгеброй фон Неймана, где  $M'' = (M)'$ . Известно (теорема о бикоммутанте), что  $M$  – алгебра фон Неймана тогда и только тогда, когда  $M$  –  $W^*$ -алгебра, т.е.  $M$  – слабо замкнута и  $1 \in M$ . Линейное отображение  $\alpha : M \rightarrow M$  называется \*-автоморфизмом (соответственно \*-антиавтоморфизмом), если  $\alpha(x^*) = \alpha(x)^*$  и  $\alpha(xy) = \alpha(x) \cdot \alpha(y)$  (соотв.  $\alpha(xy) = \alpha(y) \cdot \alpha(x)$ ), ( $\forall x, y \in M$ ), инволютивным, если  $\alpha^2(x) = \alpha(\alpha(x)) = x$ ,  $\forall x \in M$ . Пусть  $R \subset B(H)$  – вещественная \*-подалгебра. Коммутант вещественной \*-алгебры  $R$  определяется аналогично комплексному случаю:  $R' = \{a \in B(H_r) : ba = ab, \forall b \in R\}$ . Непосредственно проверяется, что  $(R + iR)' = R' + iR'$ . Если  $R = R''$ , то  $R$  называется вещественной алгеброй фон Неймана. Пусть  $R$  – вещественная  $W$ -алгебра. Наименьшую  $W$ -алгебру  $U(R)$ , содержащую  $R$ , называем обертывающей  $W$ -алгеброй для алгебры  $R$ . Тогда  $U(R) = R + iR$ . В дальнейшем всякую вещественную  $W$ -алгебру  $R$  мы отождествим с парой  $(M, \alpha)$ . Заключая, напомним, что вещественная  $W^*$ -алгебра  $R$  называется вещественным фактором, если её центр совпадает с  $1 \cdot \mathbb{R} = \{\lambda 1, \lambda \in \mathbb{R}\}$ ;  $R$  имеет тип  $I_n, I_\infty, II_1, II_\infty$  или  $III$ , если её обертывающая  $W^*$ -алгебра имеет соответствующий тип в смысле обычной классификации  $W^*$ -алгебры.

**Анализ литературы по теме.** В теории алгебр фон Неймана имеется понятие парной константы – отношение значений следов  $\tau$  и  $\tau'$  на канонических проекторах, впоследствии, которое получило название «парная константа Неймана-Мюррея». Используя именно это понятие, В.Джонс определил понятие индекса конечных подфакторов. В данной работе аналогично комплексному случаю для вещественных подфакторов определяются и изучаются свойства парной константы Неймана-Мюррея.

Пусть  $M (\subset B(H))$  – конечный фактор с конечным коммутантом  $M'$  и пусть  $\tau$  и  $\tau'$  – их точные нормальные канонические следы, соответственно. Для  $\xi$  ненулевого вектора на  $H$  рассмотрим следующие проекторы:

$$e_\xi : H \rightarrow \overline{M'\xi}, \quad e'_\xi : H \rightarrow \overline{M\xi}$$

Легко показать, что  $e_\xi \in M$ ,  $e'_\xi \in M'$ . Известно, что число  $\tau(e_\xi)/\tau'(e'_\xi)$  называется *парной константой Неймана – Мюррея*, причем это число не зависит от вектора  $\xi$  и обозначается через  $\dim_M(H)$  (см. [1], [2], см. также [3]). Мы напомним некоторые свойства парной константы.

(a)  $\dim_M(L^2(M)) = 1$ ;

(b)  $\dim_M(H) \cdot \dim_{M'}(H) = 1$ ;

(c) если  $\{\pi, H\}$  и  $\{\pi', H'\}$  – точные невырожденные  $W^*$ -представления алгебры  $M$ , то  $\dim_M(H) = \dim_M(H')$  тогда и только тогда, когда  $\{\pi, H\} \cong \{\pi', H'\}$ , т.е. если эти  $W^*$ -представления пространственно-изоморфны;

(d) если  $\{\pi_i, H_i\}_{i \geq 1}$  – последовательность точных невырожденных  $W^*$ -представлений алгебры  $M$ , то  $\dim_M\left(\sum_i H_i\right) = \sum_i \dim_M(H_i)$ ;

(e) если  $\{\pi, H\}$  – точное невырожденное  $W^*$ -представление алгебры  $M$ , то алгебра  $\pi(M)'$  – конечна тогда и только тогда, когда  $\dim_M(H) < \infty$ ;

(f)  $\dim_M(H) \geq 1$  (соот.  $\leq 1$ ) тогда и только тогда, когда  $M$  обладает отделяющим (соот. циклическим) вектором.

**Методология исследования. Определение 1.** Пусть  $M$  – конечный фактор и пусть  $\alpha$  – инволютивный  $*$ -антиавтоморфизм алгебры  $M$ . Предположим, что  $\{\pi, H\}$  – точное невырожденное  $W^*$ -представление алгебры  $M$  такое, что  $\pi \circ \alpha = \tilde{\alpha} \circ \pi$ , где  $\tilde{\alpha}$  – инволютивный  $*$ -антиавтоморфизм алгебры  $\pi(M)$ . Тогда число

$$\dim_{(M, \alpha)}(H_r) = \text{Tr}'_{H_r}(\mathbf{1})$$

называется *парной константой* между  $(\pi(M), \tilde{\alpha})$  и  $(\pi(M), \tilde{\alpha})'$  относительно  $H_r$ .

**Определение 2.** Число  $\dim_{(M, \alpha)} = \text{tr}'_H(\mathbf{1})$  называется *парной константой* между вещественными  $W^*$ -алгебрами  $(\pi(M), \tilde{\alpha})$  и  $(\pi(M), \tilde{\alpha})'$  относительно  $H$ .

Из вышеизложенного легко следует следующее отношение между числами  $\dim_{(M, \alpha)}(H_r)$ ,  $\dim_{(M, \alpha)}(H)$  и  $\dim_M(H)$ .

**Теорема 1.** Верны равенства:

$$\dim_M(H) = \dim_{(M, \alpha)}(H_r) = \frac{1}{2} \dim_{(M, \alpha)}(H).$$

Теперь, используя теорему 1 и свойства (a) - (f), докажем аналогичные свойства вещественной парной константы.

**Анализ и результаты. Теорема 2.** Пусть  $M(\subset B(H))$  – конечный фактор и пусть  $\alpha$  – инволютивный  $*$ -антиавтоморфизм  $M$ . Тогда имеют место следующие свойства:

2.a)  $\dim_{(M, \alpha)}(L^2(M)) = 2$  и  $\dim_{(M, \alpha)}(L^2(M, \alpha)) = 1$ ;

2.б)  $\dim_{(M, \alpha)}(H) \cdot \dim_{(M, \alpha)'}(H) = 4$  и  $\dim_{(M, \alpha)}(H_r) \cdot \dim_{(M, \alpha)'}(H_r) = 1$ ;

2.с) если  $\{\pi, H\}$  и  $\{\pi', H'\}$  –  $\alpha$ -инвариантные точные невырожденные  $W^*$ -представления алгебры  $M$ , то  $\dim_{(M, \alpha)}(H) = \dim_{(M, \alpha)}(H')$  тогда и только тогда, когда эти представ-

ления пространственно \*-изоморфны через некоторый унитарный оператор  $W$  с  $\pi(\alpha(w)) = \widehat{\alpha}\pi'(w) = \pi'(w)^*$ ;

2. г) Если  $\{\pi_i, H_i\}_{i \geq 1}$  – последовательность  $\alpha$ -инвариантных точных невырожденных  $W^*$ -представлений алгебры  $M$ , то  $\dim_{(M, \alpha)}\left(\sum_i H_i\right) = \sum_i \dim_{(M, \alpha)}(H_i)$ ;

2. д) если  $\{\pi, H\}$  –  $\alpha$ -инвариантное точное невырожденное  $W^*$ -представление алгебры  $M$ , то следующие условия эквивалентны:

1) вещественная  $W^*$ -алгебра  $(\pi(M), \widehat{\alpha})'$  – конечна;

2) след  $Tr'_H$  – конечный;

3)  $\dim_{(M, \alpha)}(H) < \infty$ ;

2. е)  $\dim_{(M, \alpha)}(H) \geq 2$  (соответственно  $\leq 2$ ) только и только тогда, когда  $(M, \alpha)$  обладает отделяющим (соответственно циклическим) вектором.

**Доказательство.** Свойства, 2. а) и 2. б) следуют из теоремы 1 и из свойств (а) и (б), соответственно. По теореме 1 следует эквивалентность условий  $\dim_{(M, \alpha)}(H) = \dim_{(M, \alpha)}(H')$  и  $\dim_M(H) = \dim_M(H')$ . В силу (с) условия  $\dim_M(H) = \dim_M(H')$  и  $\{\pi, H\} \cong \{\pi', H'\}$

эквивалентны. Существует унитарный оператор  $w$  с  $\pi(\alpha(w)) = \widehat{\alpha}\pi'(w) = \pi'(w)^*$ , который осуществляет этот пространственный-изоморфизм  $\{\pi, H\} \cong \{\pi', H'\}$ , что и доказывает свойство

(2. в). Из (д) получим свойство (2. г). Из теории вещественных  $W^*$ -алгебр известно, что вещественная  $W$ -алгебра  $(\pi(M), \widehat{\alpha})'$  – конечна только и только тогда, когда  $W^*$ -алгебра  $\pi(M)'$  – конечна (см. [4]). Тогда, по (е), получим доказательство свойства (2. д). Легко видеть, что  $(M, \alpha)$  обладает отделяющим (соответственно, циклическим) вектором тогда и только тогда, когда  $M$  обладает отделяющим (соответственно, циклическим) вектором. Поэтому, в силу (ф) и по теореме 1, мы получим доказательства свойства (2. е).

Основным результатом работы является следующая теорема, которая показывает, что определенное выше понятие парной константы согласуется с аналогичным определением Неймана-Мюррея.

**Теорема 3.** Пусть  $R$  – конечный вещественный фактор, действующий на вещественном гильбертовом пространстве  $H$  с конечным коммутантом  $R'$  и пусть  $\tau$  и  $\tau'$  – единственные точные нормальные следы на  $R$  и  $R'$ , соответственно. Тогда рассмотрев проекции  $e_\xi : H \rightarrow \overline{R'\xi}$  и  $e'_\xi : H \rightarrow \overline{R\xi}$ , для любого вектора  $\xi (\neq 0) \in H$ , получим:

1) число  $c_R = \frac{\tau(e_\xi)}{\tau'(e'_\xi)}$  не зависит от выбора вектора  $\xi$ ;

2)  $c_R = \dim_R(H)$ ;

3)  $e_\xi \in R$ ,  $e'_\xi \in R'$ .

**Выводы и предложения.** Автор благодарен научному руководителю профессору А.А. Рахимову, тщательная работа которого содействовала существенному улучшению текста статьи.

#### Список использованной литературы:

- (1). Murray F., von Neumann J. On rings of operators. I Ann. Math., 1936, Vol. 37, p. 116–229.
- (2). Murray F., von Neumann J. On rings of operators. II Trans. Amer. Math. Soc., 1937, Vol. 41, p. 208–248.
- (3). Kosaki H. Extension of Jones' Theory on index to arbitrary factors, J.Funct. Anal. 66 (1986), p. 123–140.
- (4). Li B.R. Real operator algebras. World Scientific Publishing Co. Pte. Ltd. 2003, 241 p.

Abdullayeva Nasiba Bo'ronovna (O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Falsafa va ma'naviyat asoslari"  
kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari doktori)

### ADABIYOT FALSAFASIDA METODLARNING TASNIFI

***Annotatsiya.** Maqolada adabiyot falsafasida metodlar va ularning tasnifiga e'tibor qaratilgan. Metodologiyada tadqiqotni ta'minlovchi vositalar tamoyil, qoida, ko'rsatmalar, kategoriyalar, ontologik muammolarni aks ettirishida adabiyot va falsafa metodlarining o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Metod bilish va amaliyotning muayyan usullari, qoidalari, algoritmlari va normalariga bog'lanibgina qolmasdan, balki u yoki bu sohada muayyan vazifani hal qilishga va ma'lum natijaga erishishga subyektini yo'naltirishi lozim bo'lgan ko'rsatmalar, tamoyillar, talablar tizimi ekanligi ko'rsatilgan.*

***Kalit so'zlar:** metod, metodologiya, yondashuv, kategoriya, tamoyil, muallif, badiiy asar.*

#### КЛАССИФИКАЦИЯ МЕТОДОВ В ФИЛОСОФИИ ЛИТЕРАТУРЫ

***Аннотация.** Статья посвящена методам и их классификации в философии литературы. Проанализированы типы и классификация методов. Инструменты методологии, обеспечивающие проведение исследований, изучаются принципы, правил и ориентиров, категорий, специфических аспектов методов литературы и философии при отражении онтологических проблем. Исследования метода как система инструкций, принципов, требований, которые должны ориентировать субъекта не только на определенные методы, правила, алгоритмы и нормы познания и практики, но и на решение конкретной задачи в той или иной области и достижение определенного результата.*

***Ключевые слова:** метод, методология, подход, категория, принцип, автор, художественное произведение.*

#### CLASSIFICATION OF METHODS IN THE PHILOSOPHY OF LITERATURE

***Annotation.** The article is devoted to methods and their classification in the philosophy of literature. The types and classification of methods are analyzed. The methodological tools that ensure the conduct of research are studied in the form of principles, rules and guidelines, categories, specific aspects of methods of literature and philosophy in reflecting ontological problems. It is shown that the method is a system of instructions, principles, and requirements that should orient the subject not only to certain methods, rules, algorithms, and norms of cognition and practice, but also to solve a specific task in a particular area and achieve a certain result.*

***Keywords.** method, methodology, approach, category, principle, author, artwork.*

**Kirish.** Adabiy tadqiqotlar natijalari nafaqat zamonaviy yozuvchilar uchun, balki to'g'ridan to'g'ri adabiyot fanining keyingi rivojlanishi uchun, shuningdek, faylasuflar, estetiklar, tarixchilar, sotsiologlar, psixologlar uchun, bir so'z bilan aytganda, ma'naviy soha vakillari uchun zarurdir. Bu fanlarning hech biri boshqasiz rivojlana olmaydi, adabiyot falsafasi adabiy tanqid, falsafa, estetika, sotsiologiya, tarix, psixologiya yutuqlaridan foydalanganidek, bu fanlarning har biri adabiyot falsafasi yutuqlariga murojaat qiladi. Adabiy tadqiqotlar ushbu barcha bilim sohalariga hissa qo'shadi, ularsiz ijtimoiy fan to'liq bo'lmaydi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida ma'naviy ijodning eng boy sohasi adabiy-badiiy faoliyatni o'rganish nafaqat adabiyot falsafasi, balki shaxsni tarbiyalash jarayonlariga va butun jamiyatning madaniy rivojlanishiga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatishning imkoniyatlarini ochib beradi. Adabiyot xalqqa tegishli, binobarin, adabiyot falsafasining maqsadi ham adabiyot haqida to'g'ri ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish va ularni omma orasida tarqatishdir. Boshqa gumanitar ilmiy fanlar qatorida adabiyot falsafasi zamonaviy insonning yuksak intellektual talablarini qondirishga mo'ljallangan. Bu esa adabiyotda metod va metodologiyani taqozo etadi. Zero, metodologiya har bir fanning zarur, tarkibiy qismga aylandi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

–metodlarning ko'rinishlari va o'ziga xos jihatlari ko'rsatish;

–adabiyot falsafasi metodologiyasiga zamonaviy yondashuvlar tasnifini ko'rsatish;

–adabiyot falsafasida metod vositalarini tahlil qilish;

–metodlarning adabiyot falsafasida tutgan o'rnini ochib berish;

–adabiyot falsafasida metodlar tasnifini o'rganishda mantiqiylik, analiz va sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi usullardan foydalanilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Adabiyotda metod va metodologiya masalasiga oid zamonaviy olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda tahlil qilingan va ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan,

M.Baxtin, Y.Boreyev, D.Mixilev, V.Averyanov, N.Avtonomova, I.Andreyeva, A.Kolesnikov, A.Usachov ilmiy tadqiqotlarida adabiyot falsafasi, unda metod va metodologiya masalalarini tadqiq etishgan.

O'zbekistonda faylasuf olimlardan Q.Nazarov, V.Alimasov, filolog olimlardan A.Rasulov, Q. Yo'ldoshev, B.Karimovlar, U.Jo'raqulov adabiyotshunoslikda metodologiya va metodlar tasnifiga oid tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. Ammo, adabiyot falsafasida metod va uning falsafiy jihatlari yetarlicha tahlil etilmagan. Ushbu maqolada adabiyot falsafasida metodlar, ularning tasnifi, o'zbek adabiyotda na-moyon bo'lishiga e'tibor qaratiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Inson faoliyatining yuqorida zikr etilgan rang-barang turlari doim metodlarning rangbarang majmuiyni belgilaydiki, ularni turli asoslar (mezonlar)ga ko'ra tasniflash mumkin. Eng avvalo, ma'naviy, ideal (ilmiy) metodlarni va amaliy, moddiy faoliyat metodlarini ajratish lozim. Metodning asosiy vazifasi – bilish yoki muayyan obyektни amalda o'zgartirish jarayonini ichdan tashkil etish va tartibga solish. Shu bois metod bilish va amaliyotning muayyan usullari, qoidalari, algoritmlari va normalariga bog'lanibgina qolmasdan, balki u yoki bu sohada muayyan vazifani hal qilishga va ma'lum natijaga erishishga subyektни yo'naltirishi lozim bo'lgan ko'rsatmalar, tamoyillar, talablar tizimi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, adabiyot falsafasida metodlar tasnifi haqida gapirilganda bir qancha yondoshuvlar mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, nemis olimi Mariyen Krisebax quyidacha tasniflaydi: pozitivistik metod, ijtimoiy-tarixiy metod, fenomenologik metod, ekzistensial metod, morfologik metod, sotsiologik metod, statistik metod, sturktural metod. Y.Borev, sotsiologik yondashuv, gnoseologik yondashuv, tarixiy-madaniy yondashuv, qiyosiy-tarixiy yondashuv, biografik yondashuv, ijodiy-genetik yondashuv, ontologik yondashuv kabi metodlarni ko'rsatadi (1;47–66-b.).

O'zbek adabiyotshunos olimi Abdug'afur Rasulov badiiy asarga "tarixiy-biografik" hamda "tarixiy-funksional" yondashuvni o'zbek adabiyoti manbalari asosida yoritadi [2;43–47-b.].

Qozoqboy Yo'ldoshev badiiy asarga filologik, estetik, formal, biografik, tarixiy-madaniy, qiyosiy-tarixiy, sotsiologik, tarixiy-genetik, tarixiy-tipologik va boshqa yondashuv usullari keng qo'llaniladi. Hozirgi davrda metodlar salmog'i ortib bormoqda, deb ta'kidlaydi [3;67–78-b.].

Adabiyotshunoslik metodologiyasi bilan barcha fan sohalari uchun umumiy bo'lgan falsafiy metodologiyadan o'z spetsifik xususiyatiga, xususiy metodlariga ko'ra ham farqlanadi. Chunki, dunyo adabiyotshunosligida badiiy asarga filologik, estetik, formal, biografik, tarixiy-madaniy, qiyosiy-tarixiy, genetik, sotsiologik, ijtimoiy-genetik, tarixiy-funksional, statistik, lingvistik, psixologik, immanent va boshqa qator yondashuv usullari ishlab chiqilgan. Shu asosda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Filolog olim B. Karimov "Adabiyotshunoslik metodlarini qat'iy chegaralash ham, masalan, bir metod tadqiq yo'llarining boshqasida uchramasligi tarzida qo'yish ham to'g'ri bo'lmaydi deydi" [4;57–60-b.].

**Tahlil va natijalar.** Metod va metodologiya masalasi o'zbek adabiyotida ham tadqiq etilgan, ammo uning falsafiy jihatlari tahlil qilish adabiyot va falsafani boytadi, rivojlantiradi. Negaki, falsafa va adabiyot o'zaro chambarchas bog'liq va umumiy mezonlarga ega. Falsafaning dialektika, sofistika, eklektika, analitik (hozirgi zamon analitik falsafasi), intuitiv, fenomenologik, sinergetik, germeneytik (tushunish) metodlari muayyana darajada adabiyot falsafasida amal qiladi. Endilikda turli metodlarni birlashtirish jarayoni ham ro'y bermoqda.

Metodologiyaga faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta'minlovchi boshqa vositalarni ham o'rganish xos. Tamoyil, qoida va ko'rsatmalar, shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Adabiyot falsafasi ham falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalaridan foydalanadi, lekin, shu bilan birga, o'zining boshqa vosita va metodlari bilan uyg'unlashtiradi. Masalan, adabiyot falsafasida kuzatish natijalari ko'p jihatdan kuzatuvchining shaxsiga, uning hayotiy qarashlariga va boshqa subyektiv omillarga bog'liq bo'ladi. Unda oddiy (odatdagi) kuzatish (faktlar va hodisalar chetdan turib qayd etiladi) va ishtirokchilikka asoslangan (ichdan turib) kuzatish (bunda tadqiqotchi ma'lum ijtimoiy muhitga qo'shiladi, unga moslashadi va hodisalarni «ichdan» tahlil qiladi) farqlanadi. Kuzatishning o'z-o'zini kuzatish (introspeksiya) va empatiya (boshqa odamlarning ruhiy kechinmalariga kirib borish, ularning ichki dunyosi–sezgilari, fikrlari, xohish-istaklarini tushunishga intilish va h.k.) farqlanadi.

Falsafa va adabiyot o'zaro yaqin va ayrim hollarda ularning usullari bir-biriga o'tishini kuzatish mumkin. Falsafa adabiyot kabi pyesa, komediya, fojia kabi janr xususiyatiga ega emas. U tushuncha, kategoriyalardan iborat bo'lib, ko'pincha, fan bilan bog'liq va kundalik hayot, zamonaviy voqelikni tushuntirishda materiallarni komparativistik, retrospektiv kontekstda bayon qiladi. Shu orqali badiiy matn va falsafiy matn bir-biridan farqlanadi. Shu bilan birga, bilan birga badiiy matnda fikr yoki ma'noni aniqroq umumlashtirish, bir qator nazariy masalalarni hal qilishda rivoyatga ustunlik beriladi. Agar falsafiy matn g'oyani

taqdim etish va uni isbotlash masalasini hal qilsa, badiiy matn, odatda, biron-bir belgi yoki sujetga bog'langan psixologik, xarakterli, mafkuraviy tarkibiy qismlarni kengroq taqdim etishning o'ziga xos xususiyatiga ega.

Adabiyot va falsafa metodlari mohiyati ontologik muammolarni aks ettirishida ham ko'rinadi. Birinchisi, hayot, o'lim, urush, tinchlik, najot, shaxsiyat va boshqalar kabi ontologik masalalarni ochib berishdek murakkab vazifani o'z zimmasiga oladi. Ikkinchisi, ongning ayrim hodisalarini psixologik ochishga qaratilgan. Shu bilan birga, adabiyot falsafa bilan "subyektiv bilim" nuqtayi nazaridan yaqindir. Falsafani ham har doim mantiqiy asoslash va faktlar bilan qo'llab-quvvatlash, empirik va amaliyot bilan sinovdan o'tkazib bo'lmaydi. U har doim va hamma vaqt uchun ham yagona va haqiqiy, eng yuqori va obyektiv bo'la olmaydi. Nihoyat, u faqat o'zi uchun har doim ham qat'iy belgilangan hayotda va bilim sohasida yashamaydi. Xuddi shu narsa adabiyot uchun ham amal qiladi. Ammo falsafa o'zining maxsus sohasidan tashqari yashay olsa, adabiy ijodda ham bu o'ziga xos hayot, "o'zini yuqorida tan olgan qonunlarga ko'ra", mavjud bo'ladi.

Falsafa va adabiyotga xos umumiy metodologik jihat yozuvchi, muallifning an'anaviy ilmiy bilimlarga asoslangan keng intuitsiyasida ham namoyon bo'ladi. muallifning hodisalar va jarayonlar, uning "qamrovi" ularning tabiati va namoyon bo'lishi haqida xabardorligi, taxmindan farqli o'laroq, sezgi barqarorlikni bildiradi. Yana bir metodologik tushuncha muallifning bayoni, avvalo, sezgi shaklida paydo bo'ladi va undan kelib chiqadi. Bu, odatda, hamma uchun emas, balki faylasuf ijodkorlarga xosdir. Masalan, rus adabiyotida Dostoyevskiy, Tolstoy kabi yozuvchilarning ayrim qarashlari, tezislarni misol keltirish mumkin va ba'zan bugun ular aforizmga ham aylanib ketdi. Bu kitobxonlar, tadqiqotchilar-talqin etuvchilardan, uslubiy vositalarning butun to'plami – taxminlar, sezgi, so'z va xayolotni yaxlit tushunish, shuningdek, muallifning inson tabiati, tarixi haqidagi bilimlarini tushunish va tahlil qilish kerak bo'ladi.

Adabiyot falsafasida mavjud metodologiyalardan farqli boshqa ko'rinishdagilari ham bo'lishi mumkin, muallif turli badiiy falsafani ham biriga bog'lashi shu asosda mavjud falsafiy nazariya yoki uning asosida falsafiy muammolarni shakllantirish mumkin. Bu olamning tuzilishi, unda insonning o'rni va maqsadi, insonning tabiati va uning mavjudligining ma'nosi haqidagi, hayot va o'lim, sevgi va nafrat, yaxshilik va yomonlik, go'zalik va xunuk, qo'rqqoqlik va qahramonlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Adabiyot tomonidan qo'yilgan bu savollarning ontologiyasi, epistemologiyasi va metodologiyasi mavjud bo'lib, har bir alohida holatda aniqlanishi, oydanlashtirilishi kerakki, chunki bu savollar har bir noyob muallif-mutafakkir tomondan tug'iladi.

Pushkinning "Pikovaya dama" asarida "inson uchun inson har doim maqsad bo'lishi kerak va hech qachon vosita emas" g'oyasi va Kantning kategorik imperativini yaqinligini ko'rish mumkin. Adabiyotning falsafasi sifatidagi ikkinchi xususiyati muallifning pozitsiyasi. Bu pozitsiya chuqur tushunish, kuzatish, aralashmaslik, ya'ni, ba'zi holda, adabiyot falsafaning obrazli qilib aytganda, nusxasiga aylanishi kerak. Ayniqsa, bugun modern adabiyotida bu ko'zga tashlanadi. Muallif "voqealar rivojiga, qahramonlar ishiga aralashmaydi". Uchinchi o'ziga xos xususiyat bu muallifning to'g'ridan to'g'ri falsafiy masalalarga yondashuvi, masalan, hayot va o'lim, hurlik va qullik, taqdir, a'mol kabi. Albatta, bu holda muallif-ijodkor falsafiy terminlarga, lug'atga murojaat qilmaydi, lekin muayyan falsafiy tushuncha, pozitsiyani ifodalaydi.

Shuningdek, adabiyot falsafasining metodologiyasi haqida gapirilar ekan dunyoqarash, milliy ruh haqida gapirmaslik mumkin emas. Badiiy asarlar muallif dunyoqarashi bilan birgalikda milliy ruhni ifodalaydi. O'zbek adabiyoti Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she'rlari, Shukur Xolmirzayev hikoyalarida milliy ruhning ifodasini ko'rish mumkin. Hozirgi kunda esa bu yondashuv usullari (metodlar)ning soni, salmog'i yanada ortdi. O'rni kelganda aytib o'tish kerakki, dunyo adabiyotshunosligi psixoanalitik, struktural, mifologik, ekzistensial, germevntik, psixokritik, semiotik, lingvostatistik, sinergetik, lingvopoetik, kompleks analiz, fenemologik kabi bir qancha metodlardan foydalanadi. Bu metodlar falsafada falsafiy oqimlar sifatida ko'riladi va ayrimlarining asoschilari faylasuflar, psixologlar ayrimlariniki esa adabiyotshunos-tilshunos olimlar ekanligini ta'kidlash mumkin.

Ayrim metodlarni xususiyatiga e'tibor qaratamiz. Masalan, biografik metod ijodkorning shaxsiy hayoti, yashagan ijtimoiy muhiti, ruhiy-psixologik holati, qiziqishlari kabi individual masalalarga e'tibor beradi. Sotsiologik metod badiiy adabiyotga ijtimoiy hodisa sifatida yondoshadi. Tarixiy-tipologik usul tipologik jihatdan o'xshash, ammo bog'liq bo'lmagan hodisalarning umumiylikini ochib beradi va ularning o'xshashligi rivojlanish sharoitlarining mos kelishi natijasida paydo bo'lgan. Tarixiy va genetik usul-taq-qoslangan hodisalarning umumiylikini umumiy kelib chiqishi bilan izohlanadi.

Mifologik metod. Ko'p hollarda, mifo-she'riy usul barcha adabiy asarlarning afsonalarni sof shaklda ifodalashidan yoki bu asarlarda ko'plab afsona elementlari mavjudligidan kelib chiqadi (J.Freyzer va C.G. Yung asarlari bilan bog'liq (arxetiplar doktrinasi). Formal usulda adabiyot badiiy texnikaning yig'indisi

sifatida qabul qilinadi. Adabiyot falsafasida formal metod badiiy, shakliy kompozitsion unsurlarga eng muhim nazariy-estetik kategoriya sifatida qaraydi. Badiiy adabiyotning individual xususiyati shaklda o'z ifodasini topadi, degan fikrni ilgari suradi.

Strukturalizm metodi. Bu "tuzilmalar"ning o'zaro ta'sirini (matnning turli darajalari va elementlari, shuningdek matnga nisbatan "tashqi" elementlar) ko'rib chiqadigan yondashuv. Struktural metod asosida badiiy asar o'rganilar ekan, uning yozilgan muhiti, davri, yozuvchining biografiyasi kabi masalalarga diqqat qaratilmaydi. Tadqiqotchi muayyan matn doirasi bilan cheklanadi va toza "ichki analiz" bilan shug'ullanadi.

Semiotik metod bu matnni belgilar tizimi sifatida ko'rib chiqish. Semiotika doirasidagi belgilarning semantikasi, sintagmatikasi va pragmatikasi o'rtasidagi farq katta ahamiyatga ega. O'rganilayotgan matndagi mumkin bo'lgan semantik o'zgarishlar va funksiyalarni o'rganishga e'tibor qaratadi. Semantik va pragmatik axborotni o'zida mujassam qilgan san'at asari o'sha axborotni yetkazib berishga ham mo'ljallangan. Ana shu san'atning belgi bilan bog'liq tomonini, kommunikativ-vositachilik jihatini semiotik metod tomonidan tahlil etiladi.

Germenevtik usul zamonaviy adabiyotshunoslikda asar ma'nosini tushunish va matnni talqin qilishning falsafiy va estetik nazariyasidir. Tafsiurning vazifasi badiiy asarni badiiy qiymatiga ko'ra qanday tushunish kerakligini o'rgatishdan iborat bo'lib, bu metodologiya kelajakda avlodlar tomonidan yaratiladigan har qanday ijod mahsulini o'zining tadqiqot obyektiga aylantira oladi. Demak, falsafiy hermenevtikaning asosiy tushunchalari va tadqiqot doirasi ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning nazariy asoslangan amaliy yo'nalish ekanligini isbotlaydi.

Adabiyotshunoslikda keng qo'llanadigan metodlardan biri "qiyosiy", "qiyosiy-tarixiy" deb nomlanadi. Bu metodda ikki yoki undan ortiq adabiy hodisalar taqqoslanadi, ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqariladi. Komparativistika adabiyot falsafasida ham keng qo'llaniladi. Ayniqsa, bugungi kunda adabiyot falsafasida psixoanalitik metodga qiziqish ortib borayotganini ko'rish mumkin. Ruhiy tahlil metodi bu san'atni inson ichida sodir bo'ladigan muayyan ruhiy jarayonlar natijasi sifatida ko'rib chiqish. Estetik hodisalar muallif va o'quvchining aqliy jarayonlari bilan bog'liq. Bunda adabiy asarlarni Zigmund Freyd konsepsiyasi asosida, muallif tomonidan bolalik jarohatlari natijasida shakllangan ongsiz, psixologik komplekslarning aksi sifatida ko'rib chiqiladi. Xayolotni fantaziyaning Froyd badiiy ijodning asosi deb hisoblaydi. Onglanmaganlikning siqib chiqarilgan intilishlari onga urib ketib, oddiy asabiy xasta nevrotik odamda ruhiy jarohat paydo qiladi. San'atkor esa undan farqli o'laroq, bu intilishlarni osongina xayolotga o'tkazib yuboradi.

Psixologizm yo'nalish vakillari ijodkorga, yozuvchining emotsiyalariga, ijodning psixologik jihatlarga, eng muhimi, avtorning ruhiy-ma'naviy dunyosi hamda ijod jarayoniga va bu jarayondagi psixologik holatlarga e'tibor lozim, deb hisobladilar. Shuningdek, badiiy asar o'quvchisi – retsepiyentning ruhiy olami ham bu yo'nalish tadqiqotchilari uchun muhim sanaladi. Chunki badiiy asarni o'zlashtirish ham bevosita insonning tasavvuri, bilim darajasi, dunyoqarashi kabi omillarga tegishlidir. San'atda insonning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari, ruhiy olami, individual "men"i, his-tuyg'ulari in'ikos etadi [5;56–58-b.].

Adabiyotshunoslikdagi psixoanaliz shunday tadqiqot usuliki, unda badiiy asar, ongsizlik psixologiyasi bilan birlikda talqin etiladi. Psixoanalizda badiiy ijod inson psixikasidagi qandaydir ongsiz, ongosti jarayonlaridan olingan impuls, inersiyaning ramziy mahsuli sifatida qaraladi. Psixoanaliz adabiyot tarixida bir qator sujet sxemalarini ajratib ko'rsatadiki, bunda muallif muayyan darajada qahramon dunyosiga ko'chgan bo'ladi va u muallif o'zining ongosti istaklarini yoki ijtimoiy muhit va axloqiy mezonlar bilan tragik to'qnashuvlarini tasvirlaydi. Psixoanalitiklar Sofoklning "Shoh Edip", V.Shekspirning "Hamlet", M.F. Dostoyevskiyning "Aka-uka Karamazovlar" asarlarida "edip kompleksi"ga aloqadorlikda padarkush-otasinini o'ldiruvchilar motivini ko'radilar.

Psixoanaliz adabiyot yoki adabiy asar subyekti deyilganda, ikki holatni diqqat markazida tutish lozim. Birinchi holatda adabiy asar muallif ijodiy jarayoni (ilhom onlari)dagi murakkab ongosti oqimini o'zida muhrlagan vosita o'laroq namoyon bo'ladi. Bunda muallif ham, asar qahramoni ham, asar voqeligi ham shu holat hukmi, boshqaruvi ostida harakat qiladi. Ayni holatning badiiy asar uchun universal mohiyat kasb etish-etmasligi ikki narsa bilan bog'liq: a) muallifdagi haqiqiy ijod jarayonining davomiyligi, iste'dod darajasi; b) asarning zamon nuqtayi nazaridan maydonga kelish ko'lamini, uning qaysi adabiy tur yoki janrda yozilganligi [6;56–58-b.].

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, adabiyot falsafasida metodlar hali to'la tasniflanmagan bo'lib oqim, yo'nalish va uslublardagi tamoyil, qoida, falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalaridan foydalanadi, lekin, shu bilan birga, o'zining boshqa vosita va metodlari bilan foydalanadi.



Adabiyot falsafasi metodlari muallif pozitsiyasi, badiiy asarning mohiyatini ifodalashda eng ilg'or nazariy-falsafiy mezonlarni uyg'unlashtiradi.

Muayyan badiiy asarning badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotidagi o'rni, konkret asarning o'ziga xos jihatlari, tasvirdagi yutuq va kamchiliklar hamda ularning sabablarini o'rgatish bilan birga, kitobxonda badiiy-falsafiy tafakkur rivojida metodlarning o'rni muhim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. М., 1981, с. 47–66.
- (2). Жўракулов У Худудсиз жилва. Тошкент, «Фан», 2006, 123-бет.
- (3). Karimov.X. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. Toshkent, "Muharrir", 2011, 9-бет.
- (4). Усачев А.В. Литературная форма философствования. "Культура и искусство", 2019, № 9, 58-бет.
- (5). Nazarov.Q. Adabiyot falsafasi. "Jahon adabiyoti", 2016, 7-son, 45–47-бетлар.
- (6). Rasulov A. Badiiy asarga yondashuv asoslari. T., 2003.

**Tursunova Shahnoza Bekchanovna (TATU Urganch filiali "O'zbek tili va ijtimoiy fanlar" kafedrasini dotsenti; tursunovashahnoza534@gmail.com; UDC-159.955:366.636; Orcid: 0009-0008-9812-308X)**  
**AXBORIY XURUJ VA TAHIDDLARDAN HIMOYA QILISHDA G'OYAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASH**

***Annotatsiya.** Maqolada bugungi globalizatsiya yoshlar ongini axborot ta'sirlaridan himoya qilish bugungi dolzarb muammo sifatida qaralayotganligi, bu esa jamiyat oldiga yanada hushyor va ogoh bo'lishni, yosh avlodning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashni taqozo qiladi. Bu borada axborot xavfsizligini ta'minlash ko'lamini oshirish to'g'risida alohida to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** buzg'unchi g'oyalar, mafkuraviy tahdid, g'oyaviy-mafkuraviy immunitet, psixologik xavfsizlik, kompyuter o'yinlar, kiberxavfsizlik.*

#### **УКРЕПЛЕНИЕ ИДЕЙНО-ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА В ЗАЩИТЕ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ АТАК И УГРОЗ**

***Аннотация.** В данной статье рассматривается эффективная и надежная защита сознания молодежи от вредных идей и влияний, проникающих через интернет, в эпоху современной насильственной глобализации, которая становится все более актуальной проблемой. Это подчеркивается тем фактом, что от учителей, пропагандистов духовности, родителей требуется быть более бдительными, еще больше расширять масштабы работы по укреплению мировоззренческого и идеологической неустойчивости подрастающего поколения.*

***Ключевые слова:** деструктивные идеи, идеологическая угроза, идейно-идеологический иммунитет, психологическая безопасность, компьютерные игры, кибербезопасность.*

#### **STRENGTHENING IDEA AND IDEOLOGICAL IMMUNITY IN DEFENSE AGAINST INFORMATIONAL ATTACKS AND THREATS**

***Annotation.** In this article, the effective and reliable protection of the consciousness of youth from harmful ideas and influences coming through the internet in the era of today's violent globalization is becoming an increasingly pressing issue. This is highlighted by the fact that teachers, promoters of spirituality, parents are required to be more alert and alert, to further expand the scope of work on strengthening the ideological and ideological immunity of the younger generation.*

***Keywords:** destructive ideas, ideological threat, ideological-ideological immunity, psychological security, computer games, cybersecurity.*

**Kirish (Introduction).** Globallashuv jarayonida axboriy tahdidlar aholining yoshlar qatlamiga turli xil aldovchi ta'sirlarni ortishini ko'rishimiz mumkin. Tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatila-yotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, axboriy qarama-qarshiliklar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar sifatida aholini tashvishga solmoqda. Ayni paytda axborot texnologiyalarning taraqqiyoti bilan birgalikda jamiyatga yoshlarga salbiy jarayonlarni keltirib chiqarmoqda. Bular turli xil ko'rinishda bo'lib, jamiyat har tomonlama xavfsizlikka ega bo'lmasa, millatning ma'naviy boyligiga xavf tug'diravedi. Bu esa ma'naviyatimiz kushandasidir.

Jamiyatga salbiy ta'siri bo'lgan kimsalar maqsadlarini amalga oshirishda yoshlarni tuzog'iga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O'zlarini jamiyatga "yaqin do'st" sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan og'dirmoqda. Aslida, ularning din va shariat haqida, umuman, ilmlari yo'q bo'lsa-da, o'zlarini din peshvosi sifati ko'rsatishadi. Bugunning haqiqati bo'lmish bunday jarayonlar jamiyatning sodda yoshlari kimlarningdir nayranglariga o'ynayotganini bilishmaydi. Bunday insonlar avval e'tiqot, imon, ibo-

dat haqida turli jozibali va ishonarli tarzda gapirib, yoshlarni yoʻldan ogʻdirib, oxir-oqibatda ularning hayoti tahdidlardan iborat boʻlib qolmoqda [1].

Dunyodagi murakkab jarayonlar yoshlar tarbiyasiga yanada eʼtiborli boʻlishni talab etadi. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ongi internet orqali kirib kelayotgan zararli axborot, gʻoya va taʼsirlardan samarali, ishonchli himoyalash tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu esa taʼlim muassasalari, maʼnaviyat targʻibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh boʻlishni, yoshlarimizni gʻoyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash va doimiy ravishda ishlar koʻlamini yanada samaradorligini oshirish talab qilmoqda. Haqiqatan, internet olamida turli kuchlarning xatarli, keraksiz va salbiy axborotlardan iborat ekanligini bilish, ulardan saqlanish qiyin boʻlsa-da, yosh avlodni har qanday xavfga tayyorlash muhimdir.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Axborot texnologiyalari bugungi kunda shaxsning axborot va psixologik xavfsizligiga asosiy tahdiddir. Shu jumladan, Y.M.Kuznesova va N.V. Chudovalar, xorijiy mutaxassislardan M.Libiski, U.Shvartau, Dj.Shteyn mazkur masalaga, asosan, axborot urushi masalalarini ilgari surib, ularni tadqiq etganlar.

**Natijalar va muhokama (Results and Discussions).** Tahlillar natijasiga koʻra, ayni kunda kompyuter oʻyinlarining 49 foizi axboriy tahdidlar, zoʻravonlik va yovuzlik, axloqsizlik koʻrinishiga ega boʻlib, 41 foizi jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) oʻyinlarda esa oʻyin qahramoni oʻz maqsadiga yetishish uchun har qanday zoʻravonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz oʻyinlarda ana shu zoʻravonlik va yovuzlikning oʻzi bosh maqsadi hisoblanib, turli jangovar, qadriyatlarimizga mos boʻlmagan, baʼzan qahramonlik vahshiylikka oʻtib ketadigan bu kabi oʻyinlar farzandlarimizning axloqiy-estetik tarbiyasiga notoʻgʻri taʼsir koʻrsatishi barchamizga ayyon. Hech qanday xavf solmaydigandek koʻringan oʻyinlar, aslida, juda koʻp salbiy oqibatlarga olib kelayotganligi toʻgʻrisida hayotiy misollar talaygina [2].

Jamiyat kelajagi ongiga turli taʼsir etuvchi turli axborotlar, yot gʻoyalar (diniy ekstremizm va terrorchilik gʻoyalari, millatchilik kabilar)ni, gʻarb dunyosi qarashlariga xos, oʻzbek millati mentalitetiga qarama-qarshi boʻlgan axloqiy qarashlarini, jumladan, kiyinishi, odatlarini targʻib qiluvchi ijtimoiy tarmoqlardan kirib kelayotgan axborotlarda namoyon boʻlayotganligi sir emas. Shuning uchun mamlakatimizda bu kabi salbiy omillarning oldini olish choralari koʻrilayotganligi axboriy xavfsizlikni taʼminlashdagi asosiy mezondir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 26-martda qabul qilingan «Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori bilan jamiyatda sogʻlom dunyoqarash, oila, taʼlim tashkilotlari, mahallalarda maʼnaviy tarbiyaning uzviyligini taʼminlash, internetdan foydalanish madaniyatini oshirish borasidagi ustuvor yoʻnalishlar belgilandi.

Qonunlarimizning ustuvorligi millatimiz gʻururi sifatida qadriyatlarimizni asrab-avaylash, jamiyatimiz barqarorligini saqlab qolish har bir fuqaroning burchi va iftixoridir. Shundagina bu gʻurur va iftihar bizni hech kim, hech narsa tanlagan yoʻlimizdan qaytara olmaydi.

Axborot-psixologik xavfsizlik yangi, nihoyatda kerak boʻlgan ijtimoiy va ilmiy yoʻnalishdir. Bunday xavfsizlikni taʼminlashning bir qator muhim yoʻnalishlari bor (ilmiy, huquqiy, siyosiy, texnologik, iqtisodiy, harbiy, ekologik va boshqa). Zamonaviy dunyo ilmida axborot xavfsizligining bir qator yoʻnalishlari tez surʼatlarda rivojlanib bormoqda. Bularning ayrimlariga qisqacha tavsif beraylik. Oʻz-oʻzidan maʼlumki, har bir ijtimoiy soha paydo boʻlishi va rivojlanishi, eng avvalo, huquqiy asoslarga bogʻliq. Yaʼni, mazkur yoʻlanishni jamiyatga taqdim etadigan va uning samarali faoliyatini taʼminlaydigan qonun va qonunosti aktlar boʻlmasa, mazkur sohada samarali ish yuritishning iloji boʻlmaydi. Shuningdek, texnologik xavfsizlik ham eng zarur yoʻnalishlardan biri. Bugungi kunda texnologiyalar shu qadar muhim ahamiyatga ega boʻldiki, axborot xavfsizligi sohasida har bir mamlakat, oʻz axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirmaskan, boshqa davlatlarga qaram boʻlib qolaveradi. Buni ayrim davlatlar tomonidan mazkur mamlakat hududiga axborot oqimlari oʻpirilib, yogʻilib kelishidan koʻrsa ham boʻladi.

Axborot xavfsizligining jamiyatdagi mavqeyini, davlat siyosatidagi oʻrni va ahamiyati haqida gapirar ekanmiz, axborot xavfsizligi shu tarzdagi oʻz siyosiy maqomiga ega boʻlmaskan, uni mutaxassislar tanimaydi va tan olmaydi.

Koʻp narsa mamlakatning iqtisodiy quvvatiga ham bogʻliq. Agar davlat iqtisodiy jihatdan kuchli boʻlsa, uning ekonomikasi rivojlangan boʻlsa, u oʻzini tez oʻnglab oladi, chunki axborot xavfsizligini taʼmiylash uchun unda yetarli darajadagi moddiy iimkoniyatlar boʻladi. Oʻzbekiston esa mazkur nuqtayi nazardan unikal davlatdir. Respublika aholisining 80 foizidan koʻpini oʻzbeklar tashkil etadi, qolganlarning asosiy qismi esa tub xalqlardir. Oʻzbekiston bir necha ming yillik, noyob madaniyatga ega. Mahalliy xalqlarning milliy qadriyatlari, urf-odatlarini, rasm-rusumlari shu qadar keng, koʻp qamrovli va chuqurki, dunyoning uncha-muncha xalqlari bunday tarixga ega emas [3].

Shuning uchun, fikrimizcha, fuqarolik jamiyatini qurish nuqtayi nazaridan, ma'naviy komponent axborot xavfsizligining yetakchi xususiyati bo'la oladi. Milliy ma'naviyatimizning kosmopolitizmdan farqi shundaki, u umuminsoniy qadriyatlarni milliy qadriyatlardan ustun qo'yamay, ularning tengligi va garmoniyasini ta'minlaydi.

Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizga kirib kelishi bilan davlatlararo axborot chegaralari ham buzib o'tildi. Natijada axborot almashish tezligi va hajmini ming marotabadan ziyod oshirish imkoniyati paydo bo'ldi. O'z o'rnida, hozirgi vaqtda axborotga egalik qilish, zamonaviy tizimining shakllanganligiga har qanday davlatning salohiyati va taraqqiyot omillarini belgilovchi vosita sifatida qaralmoqda.

Jamiyatning bugungi kunda qanchalik axborotga ega bo'lishi, uning milliy manfaatlariga xizmat qiladigan axboroti shunchalik ustuvor darajaga ega bo'lmoqda. Bunday axborot o'zga axborotlar ta'sirini pasaytiradi, vaholanki uni yo'qqa chiqaradi. Axborot oqimining xilma-xilligi keng omma ruhiyati, tafakkuri va siyosiy saviyasini shakllantiruvchi kuch sifatida baholangan bo'lsa, axborot sohasi shaxs, jamiyat va davlat hayotining muhim jihatlari sanaladi. Ayni kunda ijtimoiy tarmoqlardan har qanday talqindagi axborotlarga chegara qo'yish juda mushkul. Bunday tahlikali vaziyatdan foydalangan ayrim kimsalar o'zining g'arazli maqsadlarini internet orqali amalga oshirishi juda oson va qulay imkoniyatdir. Ularning har tomonlama uyushtirayotgan ma'naviy tahdidlari yoshlarga har soniyada jiddiy xavf-xatarni keltirishi mumkin.

Shu jumladan, axborot xurujlarning asosiy xususiyatlari:

–axborot urushida, odatda, psixofaol moddalarni ishlatish, qo'rqitish, pora berib sotib olish va boshqa kabi harakatlar qo'llanilmaydi (lekin bu harakatlar axborot xuruji bilan birgalikda olib borilishi mumkin), ya'ni g'oyaviy tahdid hisoblanadi;

–jamiyat qabul qilayotgan axborotlariga turli yo'llar bilan ta'sir doirasini kengaytirishga harakat qilinadi;

–yot g'oya va maqsadlarni zo'rlab o'tkazish. Bu harakat targ'ibot emas, aynan axborot xuruji amalga oshirilayotganini anglatadi;

–axborot xurujini olib borish vositalariga ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, jamiyatda mavjud jarayonlar, harakatlar va boshqa axborot almashish vositalari kiradi;

–axborot ta'sir buzilgan, voqealar, hodisalar, faktlarni o'z ichiga olishi yoki ta'sir o'tkazuvchiga maqbul holatga zo'rlab o'tkazishi mumkin [4].

Shuningdek, dunyoda ba'zi davlatlarda yadro quroli ishlab chiqarish harakatlari davom etayotgan bo'lsa, ma'lumotlarga qaraganda, 120 ga yaqin mamlakatda axborot ta'sirlar uyushtirilayotgani insoniyatga tashvishli holatlarni tug'dirayotgani oddiy jarayon bo'lib qolmoqda. Bu axborot kushlar millat ruhiga, jamiyat taraqqiyotiga ta'sir qilayotganini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Texnologik xavfsizlik ham eng zarur yo'nalishlardan biri. Bugungi kunda texnologiyalar shu qadar muhim ahamiyatga ega bo'ldiki, axborot xavfsizligi sohasida har bir mamlakat, o'z axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirmaskan, boshqa davlatlarga qaram bo'lib qolaveradi. Buni ayrim davlatlar tomonidan mazkur mamlakat hududiga axborot oqimlari o'pirilib, yog'ilib kelishidan ko'rsa ham bo'ladi.

Siyosiy yo'nalish deganda biz axborot xavfsizligining jamiyatdagi mavqeyini, davlat siyosatidagi o'rni va ahamiyatini nazarda tutmoqdamiz. Axborot xavfsizligi shu tarzda o'z siyosiy maqomiga ega bo'lmaskan, uni mutaxassislar tanimaydi va tan olmaydi. Ko'p narsa mamlakatning iqtisodiy kuvvatiga ham bog'liq. Agar davlat iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lsa, uning ekonomikasi rivojlangan bo'lsa, u o'zini tez o'nglab oladi, chunki axborot xavfsizligini ta'minlash uchun unda yetarli darajadagi moddiy imkoniyatlar bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatni ko'p mutaxassislar (jumladan, D.Bell, E.To'ffler) bilimlar jamiyati deb nomlamoqda. Yaponiya esa to'rt yildan beri mamlakat bo'yicha umumiy oliy ta'lim dasturini amalga oshirmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Bitta avtomatik ishlab chiqarish liniyasi yuzlab va minglab ishchilar o'rnini bosadi. Aynan ilmiy ixtirolarni keng joriy qilganligi sababli, AQSH, G'arbiy Yevropa va Yaponiya ishlab chiqarish sohasida dunyoda yetakchilik qilmoqda. Ilm-fan doimo inson faoliyatining eng oson, qulay, tezkor, arzon, sifatli usullarini topib bergan.

Axborot ta'hdidlar, axborot xuruji, avvalo, odamlar, ayniqsa, yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, jamoatchilik fikrini chalg'itadi. Bunday ta'hdidlar, o'z navbatida, yurt osoyishtaligiga va jamiyat barqarorligiga putur yetkazadi. Aholi ongiga ta'sir ko'rsatadigan axborotlar ularning yashash holatiga, oilasi va atrofidagi insonlarga ham ta'hdidlarni keltirib chiqaradi. Ayni damda bu jarayon davlat taraqqiyotiga hamda ma'naviyatiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi [5].

Bugungi kunda axboriy xuruj shaxsga nisbatan tor doirani qamrab oladigan bo'lsa, aynan jamiyatga qilingan tahdid butun bir mamlakat, xalq osoyishtaligiga xavf tug'diradigan juda katta muammoni yuzaga keltiradi. Shunday ekan, aholi orasida vahimaga soluvchi fitna-fasod axborotlarning keng tarqalayotganligi ko'pchilikni xavotirga solishi, tabiiy [6].

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xo'sh, bugungi kunning jiddiy muammosi bo'lmish axboriy xurujlariga qarshi kurashishda nimalarga e'tiborimizni qaratishimiz lozim? degan savolni o'z oldimizga ko'ndalang qo'yishimiz zarur. Ta'kidlash joizki, o'zbek yoshlari orasida mafkuraviy immuniteti yuqori yigit-qizlar kam emas, afsuski, ba'zi yoshlar haqida bunday deyish qiyin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasiga e'tiborli bo'lishda axboriy savodxonlikni o'rnatish lozim. Biroq virtual olamda axboriy xurujlar, tahdidlar bizga har doim, har daqiqada ro'baro' kelishi tayin. Vaholanki, yoshlarimiz axboriy xavfsizlik madaniyatiga ega bo'lishi va axborotni to'g'ri anglay olish qobiliyatini shakllantirishi lozim. Bugun farzandlarimiz kelajagi yorqin bo'lishini xohlaydigan har bir ota-ona tarbiya borasida mas'uliyatni his qilmog'i lozim. Bolalar tarbiyani, eng avvalo, ota-onalarimiz, bobo-momolarimizning pand-u nasihatlaridan, ezgulikka, yaxshilikka chaqiruvchi nodir asarlardan olishi zarur.

Haqiqatan, milliy qadriyatlarimizga monand harakatda bo'lmog'imiz har qanday tahdidlarga xavfsizligimizni ta'minlaydi. Ushbu jarayonda internetdan to'g'ri foydalanish, internet xavfsizligi, inson ruhiyatiga, tafakkuriga ta'siri masalasi har qachongidanda dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Shunday ekan, jamiyatimiz axborotni qabul qilishda axborot iste'moli madaniyatini bilishlari muhim hisoblanadi. Bu borada yoshlarning ma'naviy yetukligini yanada boyitishga yordam berdigan oila, mahalla, ta'lim maskani o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, yoshlarning qiziqish va intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini yanada oshirish masalalari yuzasidan tadbirlar ko'lamini oshirish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):**

- (1). Yaxyo, Muxammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o'quv qo'llanma. "Movarounahr", 2016, 672-bet.
- (2). Castells, M. (2012). G'azab va umid tarmoqlari. Internet asridagi ijtimoiy harakatlar. Kembrij: Siyosat Matbuot.
- (3). Ахметова Л.С. Медиаобразование и медиаграмотность: теория, методология, практика. Учебное пособие, КазГУ, 2016.
- (4). Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. 2010.
- (5). Судич Ю.В., Проказин В.В. Роль социальных сетей в жизни молодежи. М., 2019; Почтачи, Н. (1993). Технополиа. Madaniyatning texnologiyaga taslim bo'lishi. Nyu-York, Amp Kitoblar.
- (6). Meyer, M., & Stoecker, J. (2017). Kiberxavfsizlik va axborot urushi muammosi: yagona yondashuvning ahamiyati. Xalqaro kiberurush va terrorizm jurnali, 7 (2), 29–45-betlar.

**Xamdamov Erkin Ibodullayevich (Alfraganus University "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi;  
e-mail: hamdamoverkin5@gmail.com)**

#### **ZIYO GO'KALPNING TA'LIM HAQIDAGI QARASHLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Turkiyaning ta'limdagi e'tibori, o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limdagi islohoti, Turkiya ijtimoiy mafkurasining shakllanishiga katta hissa qo'shgan, jamiyat uchun zarur g'oyalarni targ'ib etishga uringan mashhur turk shoiri, faylasufi, jamiyatshunosi va davlat arbobi Mehmet Ziygo Kalpning ta'lim haqidagi ilmiy-falsafiy merosi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim falsafasi, tanzimat, Sharq va G'arb, oliy ta'lim, xalq ta'limi, davlat, siyosat.

**Хамдамов Эркин Ибодуллаевич («Alfraganus University») преподаватель кафедры «Социальных наук»  
e-mail: hamdamoverkin5@gmail.com)**

#### **ВЗГЛЯДЫ ЗИЯ ГОКАЛПА НА ОБРАЗОВАНИЕ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается внимание Турции к образованию, реформа образования учителей и учащихся, научно-философское наследие Мехмета Зии Гокалпа, известного турецкого поэта и философа, социолога и государственного деятеля который внес большой вклад в формирование турецкой общественной идеологии, пытался пропагандировать необходимые обществу идеи.

**Ключевые слова:** философия образования, развлечения, Восток и Запад, высшее образование, народное образование, государство, политика.

**Khamdamov Erkin Ibodullaevich (Alfraganus University teacher of the department “Social sciences”; e-mail: hamdamoverkin5@gmail.com)**

### **ZIYA GOKALP'S VIEWS ON EDUCATION**

***Annotation.** This article discusses Turkey's attention to education, the reform of teacher and student education, the scientific and philosophical heritage of Mehmet Ziya Gokalp, a famous Turkish poet and philosopher, sociologist and statesman who made a great contribution to the formation of Turkish social ideology, tried to promote the ideas necessary for society.*

***Key words:** philosophy of education, entertainment, East and West, higher education, public education, state, politics.*

**Kirish (Introduction).** XIX asr oxiri–XX asr boshlarida Turkiyada oliy ta'lim kengashi qonunchiligini isloh qilish qizg'in tus oldi. Islohot zarurligini himoya qilganlar, universitetlarda ilmiy, hatto siyosiy taraqqiyotga to'sqinlik qildi. Boshqa tarafdin, oliy ta'lim kengashi qonunida tub islohotga muhtoj bo'lmaganligini, u o'zining ilmiy xulosasini huquqiy emas, balki ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillarga asoslaydi. Bir narsani e'tirof etish mumkinki, oliy ta'lim tizimida hozirgi vaziyat ham unchalik quvonarli emas. Bu davom etayotgan bahsdan, keling, bir zum orqaga chekinib, turkiy tafakkur tarixidagi yetakchi nomlardan biri bilan bir xil muammoga qaraylik.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Ziya Go'kalpning hayoti va ilmiy-falsafiy faoliyati hozirga qadar bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, turk tadqiqotchilaridan Celkan Hikmet [1], Göksele Ali Nüzhet [2], Heyd Uriel [3] kabilar ushbu olimning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, siyosiy fikrlari borasida bir qator ilmiy ishlar yozganlar. Ushbu tadqiqotlar bilan tanishish Go'kalpning talaba, yozuvchi va pedagog sifatidagi shaxsiy tajribalari, uning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarini yaxshiroq tushinishga yordam beradi. Ziya Go'kalpning hayot yo'liga nazar tashlaydigan bo'lsak, u 1876-yilda Diyarbakirda tug'ilgan. Boshlang'ich maktabdan so'ng, harbiy o'rta maktab (1886–1870) va Mulkiye o'rta maktabida (1891–1894) tahsil olgan. O'sha vaqtda u amakisi Hosip afandidan arab, fors va islom falsafasidan saboq olgan. Yunon falsafasi va tabiatshunoslik fanlarini ustozini yunon doktori Yorgidan o'rgandi [1; 32-b.].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Ushbu maqolada tadqiq etilayotgan mavzuning mazmun-mohiyatini yanada teranroq ochib berish uchun ilmiy tadqiqotning ijtimoiy fanlar sohasida qo'llaniladigan germeneytik tahlil, qiyoslash, analish, sintez kabi metodlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Go'kalpning ta'lim falsafasi, madaniyat va sivilizatsiya o'rtasidagi farq hisoblanadi. [4;28-b.] Bu jamiyat tomonidan o'z a'zolarida amalga oshiriladigan sotsializatsiya jarayoni. Bu ijtimoiylashuv tufayli shaxs jamiyat tili, adabiyoti, axloqi va estetikasiga moslashadi va uning mantig'i bilan tanishadi. Shu munosabat bilan, ta'limning maqsadi “milliy shaxslarni” himoya qilishdir. Boshqa tomondan, taqdir – bu insonning kosmik muhitga moslashishi. Bu moslashuv insonning tabiiy fanlar bilan tanishishi natijasida yuzaga keladi. Shu tufayli shaxs moddiy kuchlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu farqdan tashqari, Go'kalp bilimlarni avloddan avlodga o'tkazishning ikki yo'li borligini ta'kidlaydi. Birinchisi, tabiiy, o'z-o'zidan va dinamik. Ikkinchisi, rejalashtirilgan, tizimli va statikdir. Jamiyatda norasmiy ta'lim joriy va jonli bilimlarni taqdim etadi, boshqa tomondan, rasmiy ta'lim ko'proq beradi, oldingi avlodlarning to'plangan aqliy mahsulotlarini uzatadi, asosan, kitoblarda nima yozilligini o'rgatadi [2;19-b.].

Go'kalpning fikricha, intizom milliy yoki madaniy, ta'lim xalqaro yoki universal bo'lishi kerak. Go'kalp, Tanzimat kabi oldingi ta'lim islohotlarini qo'llab-quvvatladi. Tanzimatchilar Sharq va G'arb ta'lim-tarbiyasini aralashtirib yuborishadi. Ikkita turli tipdagi maktablar paydo bo'ldi: an'anaviy diniy ta'lim beruvchi madrasalar va yevropacha uslubli ta'lim beradigan maktablar. Ilm-fan va texnologiyani turk ta'limiga olib kirib, muvaffaqiyatli moslashtirish mumkinligini dalil sifatida, bu maktablarni ta'limdagi islohotlar uchun namuna sifatida ko'rsata oldi [3;81-b.].

Go'kalpning ta'lim haqidagi qarashlari nuqtayi nazaridan, bizni qiziqtirgan yana bir jihat, tabiiy fanlarning Turkiya ta'lim tizimi doirasida qonuniylashtirilishi bo'ldi. Musulmonlar Vizantiyadan mantiq, falsafa, fizika, matematika, tilshunoslik va estetik sohalarida katta natijalarga erishganliklarini bildirishdi. Xuddi shunday, metafizika, etika va siyosatshunoslikning ildizlari Aristotelga borib taqaladi. O'rta yosh butun davr mobaynida Sharq va G'arbda sxolastik tafakkur hukmronlik qildi, lekin keyinroq G'arb sxolastik tafakkurdan voz kechdi va barcha sohalarida katta yutuqlarga erishdi. Fanning yangi tarmoqlarini yaratdi.

Go'kalp milliy maorif haqida fikr yuritar ekan, "Milliy maorif, universitetlardan tortib, o'qituvchilar tayyorlash maktablari va bu sultonlarga (o'rta maktablar) va ulardan boshlang'ich maktablarga tushadi", deb ta'kidlaydi [4;189-b.].

Islohotlar harakati shoshilinch ehtiyojlar, shuningdek, ta'limning uzoq muddatli rejalari bilan bog'liq edi. U ham davrning umumiy ta'lim yondashuvidan kelib chiqqan va o'zida aks etgan. Usmonli imperiyasi harbiy va fuqarolik byurokriyasi uchun yaxshi tayyorlangan edi. U askarlarga, shifokorlarga, muhandislarga va menejerlarga juda muhtoj edi. O'sib kelayotgan avlodlarga yaxshi bilim berish uchun o'qituvchilar kerak edi. Universitetlar va pedagogik maktablarning ana shu maqsadga xizmat qilishi islohot uchun yagona darcha edi. Dastlab, madrasa bitiruvchilari maktablar uchun yetarli malakaga ega edi. Ular malakali o'qituvchilar hisoblansa-da, asta-sekin o'qituvchilar tayyorlaydigan maktablar malakali mutaxassislarni chiqara boshladi. Pedagoglar o'rini madrasa bitiruvchilaridan oliy ta'limni tugatgan muallimlar egallay boshladi.

Go'kalp fikricha, universitet eng muhim ta'lim muassasasidir. Mukammal universitetsiz umumta'lim maktablari va boshlang'ich maktablarda ilg'orlik yo'qligi ko'rinib turgan edi. Go'kalp bilimni ikkiga ajratadi: ijodiy bilim va yaratilgan bilim. Go'kalpning fikricha, ijodiy bilim "haqiqatlarni tadqiq qilishda fan tomonidan qo'llaniladigan faol usullardir" [4;181-b.].

Yaratilgan bilim esa ijodiy bilim orqali kashf etilgan bilimlarni anglatadi. Yaratilgan bilimlar boshqa xalqlardan olinsa, o'zlashtirish qiyin bo'lishi mumkin va ilmiy masalalarda mustaqillikni cheklaydi. Shuning uchun o'quvchilarning ijodiy bilim qobiliyatini rivojlantirish uchun o'qitilishi kerak. Go'kalp yodlashdan ko'ra ijodiy bilimga katta ahamiyat beradi. Go'kalp turk maktablarida ijodiy bilim mavjud emas deb o'ylaydi. Kitoblarni yodlashga haddan tashqari e'tibor berish tufayli davrdagi ta'lim tizimini qattiq tanqid qiladi. Uning fikricha, ijodkorlikni yaxshilaydigan ba'zi bir shartlar mavjud. Bu shartlarning eng muhimi – universitetlarning avtonomiyasi. Go'kalp siyosat va madaniyat o'rtasida muvozanat o'rnatilishi kerakligini ilgari surgan, bu muvozanat buzilganda, har bir tomon bir-biriga ustunlik qilishga harakat qilishi mumkin. Ta'lim madaniyati eng nozik sohalardan biri bo'lgani uchun siyosatdan osongina ta'sirlanadi. Ilgari hukumat malakasi bo'lmagan shaxslarni ma'rifiy lavozimlarga ishlatgan. Tayinlash boshlanganda uni ma'qullash uchun ba'zi olimlar atalmish kishilar kelishdi. Vaqt o'tishi bilan taniqli sharaflar beshikdagi chaqaloqlarning oilaviy ahvoriga qarab taqsimlanadi. Bu fojining oldini olishning yagona yo'li universitetga muxtoriyat berish edi. Universitet ilmiy masalalarda davlatdan mustaqil bo'lishi, professor-o'qituvchilarga to'liq o'qitish erkinligini berish orqali amalga oshirish mumkin.

Go'kalp Istanbul universitetiga tayinlangach, Ittifoq va taraqqiyot qo'mitasiga a'zo bo'ldi. Uning ba'zi a'zolari universitetdagi boshqa professor-o'qituvchilar, jamiyat mafkurasiga sodiq, deb hisoblashadi. Bu unga tegishli saboqlar berishga ta'sir qiladi, deb umid qildi. Go'kalp bu gapdan boshqa narsa emasligini aniq aytdi [4;188-b.].

Go'kalpning aytishicha, ma'muriy boshqaruvchilardan iborat boshqaruv kengashi boshqaruv bilan bog'liq ishlarni universitet professorlaridan iborat oliy ta'lim kengashiga u faqat ta'limni qoldiradi. Universitet mutaxassislarni tayyorlab beradi, qo'mitalar boshqaruvni ham, ta'limni ham o'z zimmasiga oladi [4;188-b.].

Go'kalpning asosiy maqsadi haqiqiy olimlarni himoya qiladigan va qo'llab-quvvatlaydigan universitet yaratishdir. Universitetning avtonomiyasi malakasiz odamlar uchun ajratilmagan. Professorlar tayinlanganidan keyin universitet professorlari orasida to'sqinlik qilinsa-da, akademik mavqeyini oshirish uchun zarur motivatsiyani ta'minlay olmasligi mumkin.

**Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations).** Go'kalp butun hayotni ta'lim jarayoni deb hisoblaydi va ishonadi. Ta'limning kosmik va madaniy muhitga bog'liqligini asoslab berishga harakat qiladi. U buni moslashish vositasi deb hisoblaydi. Go'kalp ta'limga bo'lgan qiziqishini hech qachon yo'qotmadi: turli auditoriyalarda nutq so'zlad. Maltada bo'lgan vaqtlarida ham u do'stlariga repetitorlik qilishni davom ettirdi va xatlar orqali qizlarining o'qishini qo'llab turdi. Go'kalpning barcha sa'y-harakatlari ilm va hayot orasida edi. Shu jihatdan uning tarbiyaviy falsafasi uning pragmatik jihati bor, deyish mumkin. Boshqa tomondan, oliy ta'limda erkinlikka bergan ahamiyati va u tasavvur qilgan raqobat tizimi uning ta'limi edi. U falsafadagi liberal yo'nalishni ifodalaydi. Uning boshqa masalalar bo'yicha fikrlari kabi ta'limda haqiqat bilan qadr, nazariya bilan amaliyot va mas'uliyat bilan erkinlik o'rtasidagi muvozanatni topishga harakat qildi. Shuning uchun ham uning tarbiyaviy falsafasi, sintetik tuzilishga ega. Go'kalp turk ta'lim tizimining muammolarini tushuntiradi. Bu tashxisda muammolarning aksariyati, ayniqsa, universitetlarda ta'lim ijodiy va tanqidiy emas, balki yodlashga asoslangan. Afsuski, hozirgi imtihon tizimi bu

yodlashni kuchaytiradi. Oradan qariyb yuz yil o'tdi. Biroq Go'kalpning qarashlari bu muammolarni bartaraf etishda hali ham ta'lim tizimiga yorug'lik berishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Celkan Hikmet. Ziya Gokalp'in Egitim Sosyolojisi. Ankara, Milli Egitim Bakanligi, 1989, 132 s.
- (2). Goksel Ali Nuzhet. Ziya Gokalp: Hayati-Eserleri. Istanbul, Ahmet Halil Kitabevi, 1949, 98 s.
- (3). Heyd Uriel. Ziya Gokalp Turk Milliyetchiliginin Temelleri. çev. Cemil Meric. Istanbul, Sebil Yayınevi, 1980, 258 s.
- (4). Ziya Gokalp. Terbiyenin sosyal va kulturel temelleri. Istanbul, 1992, 221 s.
- (5). Ziya Gokalp. Turkçülüğün Esaslari Anadolu Universitesi'ne aittir. Eskişehir, 2019, 76 s.
- (6). [http://www.wikipedia.tr/ziya\\_gokalp\\_bioyografi.Ali.C](http://www.wikipedia.tr/ziya_gokalp_bioyografi.Ali.C)
- (7). [http://www.turktarihi.tr/ziya\\_gokalp\\_nutklere/Ercan.B](http://www.turktarihi.tr/ziya_gokalp_nutklere/Ercan.B)

**Xolikov Yuldosh Tuycheyevich (O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislarini tayyorlash markazi)**

### **O'ZBEKISTONDA HARBIY XIZMATCHILARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI KUCHAYTIRISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY OMILLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish masalalari, ularning ma'naviy-ma'rifiy jihatlari tahlil qilingan. Maqolada harbiy xizmatchilarning mafkuraviy tarbiyasi, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish va milliy qadriyatlarini mustahkamlash masalalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** mafkuraviy immunitet, harbiy xizmatchi, ma'naviy-ma'rifiy omillar, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, harbiy tarbiya.*

#### **ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ФАКТОРЫ УКРЕПЛЕНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В УЗБЕКИСТАНЕ**

***Аннотация.** В данной статье проанализированы вопросы укрепления идеологического иммунитета военнослужащих, проходящих службу в Вооруженных Силах Республики Узбекистан, их духовно-просветительские аспекты. В статье освещаются вопросы идеологического воспитания военнослужащих, формирования патриотических чувств и укрепления национальных ценностей.*

***Ключевые слова:** идеологический иммунитет, военнослужащий, духовно-воспитательные факторы, патриотизм, национальные ценности, воинское воспитание.*

#### **SPIRITUAL AND EDUCATIONAL FACTORS OF STRENGTHENING THE IDEOLOGICAL IMMUNITY OF MILITARY PERSONNEL IN UZBEKISTAN**

***Annotation.** This article analyzes the issues of strengthening the ideological immunity of servicemen serving in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, their spiritual and educational aspects. The article covers the issues of ideological education of military personnel, the formation of patriotic feelings and the strengthening of national values.*

***Keywords:** ideological immunity, military personnel, spiritual and educational factors, patriotism, national values, military education.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish davlat xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-farmoni asosida harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu masalaning turli jihatlarini o'rganilganligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Aliev [2] o'zining "Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi" nomli monografiyasida harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasining nazariy asoslarini tadqiq etgan. Muallif harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishning zamonaviy usullarini taklif etgan va bu jarayonning uzluksizligini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqqan. Shuningdek, tadqiqotchi harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlarining o'rni va ahamiyatini alohida ta'kidlagan.

Rus tadqiqotchilaridan Petrov [3] harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tarbiyasi masalalarini chuqur o'rgangan. Uning tadqiqotlarida harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning

zamonaviy usullari va vositalari tahlil qilingan. Petrov harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tarbiyasida tarixiy xotirani mustahkamlash va harbiy an'analarni rivojlantirishning ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Nikolaev [9] o'z tadqiqotlarida harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini mustahkamlash masalalarini o'rgangan. Muallif harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini yaxshilashning kompleks dasturini ishlab chiqqan va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini taklif etgan.

G'arb tadqiqotchilaridan Johnson [4] harbiy xizmatchilarning mafkuraviy tayyorgarligi masalalarini NATO davlatlari tajribasi asosida o'rgangan. Uning tadqiqotlarida harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishning zamonaviy texnologiyalari va usullari tahlil qilingan. Johnson harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda psixologik omillarning rolini alohida ta'kidlagan. Smith [5] harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini mustahkamlash yo'llarini kompleks tadqiq etgan. Uning ishlarida harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatiga ta'sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilingan va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan.

Karimov [6] harbiy xizmatchilar ma'naviyatini yuksaltirish masalalarini o'rgangan. Muallif harbiy xizmatchilarning ma'naviy kamolotini ta'minlashning milliy modelini ishlab chiqqan va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini taklif etgan. Ahmedov [7] harbiy tarbiya asoslarini o'rganib, harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishning pedagogik jihatlari va ta'lim texnologiyalarini tadqiq etgan. Muallif harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyatini asoslagan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, uni kompleks o'rganish talab etiladi. Tadqiqotchilar tomonidan mavzuning turli jihatlari o'rganilgan bo'lsa-da, zamonaviy sharoitda harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishning ma'naviy-ma'rifiy omillari masalasi yanada chuqurroq tadqiq etilishi zarur. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar ta'siri sharoitida harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tarixiy, mantiqiy, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va rasmiy statistik ma'lumotlar tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishning ma'naviy-ma'rifiy omillarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilish maqsadga muvofiq:

Birinchi yo'nalish – harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi tizimini takomillashtirish masalasi. Bugungi kunda harbiy qismlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning yangi tizimi shakllantirilmoqda. Bu tizim harbiy xizmatchilarning intellectual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini kengaytirish va ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning muntazamligi va samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Ikkinchi yo'nalish – milliy qadriyatlarni mustahkamlash orqali harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar harbiy xizmatchilarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [6]. Milliy qadriyatlar asosida tarbiya berish harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlaydi va ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytiradi.

Uchinchi yo'nalish – harbiy an'analarni rivojlantirish va ularni zamonaviy talqin etish masalasi. Harbiy an'analar harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi [3]. Harbiy an'analarni zamonaviy sharoitda rivojlantirish va yoshlarga yetkaza bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchi yo'nalish – harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holatini mustahkamlash masalasi. Smith [5] ta'kidlaganidek, harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy holati ularning jangovar tayyorgarligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek sog'lom turmush tarzi harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi [8]. Bu borada sport musobaqalarini tashkil etish, sog'lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish va zararli odatlardan voz kechishni targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishda ma'naviy-ma'rifiy omillar muhim rol o'ynaydi. Bu omillarning samaradorligini oshirish uchun tizimli yondashuv va zamonaviy usullarni qo'llash talab etiladi [10]. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda harbiy xizmatchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini inobatga olish zarur.



**Xulosa va takliflar.** Harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalasi davlat xavfsizligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi tizimli yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, harbiy an'analar va zamonaviy innovatsion yondashuvlarning uyg'unligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash masalasi muhim o'rin tutadi. Bu borada zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish va turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Harbiy qismlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning zamonaviy tizimini joriy etish, bu tizimning samaradorligini muntazam monitoring qilib borish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

2. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida milliy va harbiy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim.

3. Harbiy xizmatchilarning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlash bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish va ularning ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2018-yildagi PQ-4038-qarori, <https://lex.uz/docs/-4084926>
- (2). Aliyev, B.M. (2020). Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. Toshkent. "Fan".
- (3). Петров В.А. (2019). Современные проблемы военно-патриотического воспитания. М., "Наука".
- (4). Johnson M.R. (2018). Military Personnel Ideological Training. London: Military Press.
- (5). Smith J.K. (2019). Strengthening Military Personnel Mental State. New York: Defense Publishers.
- (6). Karimov A.A. (2021). Harbiy xizmatchilar ma'naviyati. Toshkent. "Ma'rifat".
- (7). Ahmedov, S.M. (2020). Harbiy tarbiya asoslari. Toshkent. "O'qituvchi".
- (8). Wilson R.T. (2018). Military Values and Training. Washington: Military Review
- (9). Николаев И.С. (2019). Духовно-нравственное воспитание военнослужащих. Санкт-Петербург, Воениздат.
- (10). Yusupov, E.Y. (2021). O'zbekistonda harbiy islohotlar. Toshkent, "Adolat".

#### **Сеитова Зухрахон Пиржановна (доктор социологических наук (DSc), НГПИ им.Ажинияза) ТЕОРИЯ Г.СПЕНСЕРА О ГЕНДЕРНОМ РАВНОПРАВИИ**

**Аннотация.** Автор статьи освещает вопросы гендера в трудах английского философа и социолога Герберта Спенсера. Как менялись его взгляды относительно женского мышления. Он подробно изложил свои размышления, выводы, физические и психические различия между мужчинами и женщинами на основе человеческой эволюции.

**Ключевые слова:** гендер, Г.Спенсер, женщина, мужчина, равноправие, принцип равенства, социологические исследования.

**Seitova Zuhraxon Pirjanovna (sotsiologiya fanlar doktori (DSc), Ajiniyoz nomidagi NGPI)**

#### **G.SPENSERNING GENDER TENGLIK NAZARIYASI**

**Annotatsiya.** Maqolaning muallifi ingliz faylasufi va sotsiologi Gerbert Spenserning asarlarida uning fikrlari, xulosalari, inson evolutsiyasi asosida erkaklar va ayollar o'rtasidagi jismoniy va aqliy farqlarni batafsil bayon qilgan.

**Kalit so'zlar:** gender, G.Spenser, ayol, erkak, tenglik, tenglik tamoyili, sotsiologik tadqiqot.

**Seitova Zuhraxon Pirzhanovna (Doctor of Sociological Sciences (DSc),**

**Azhiniyaz National State Pedagogical Institute)**

#### **G.SPENCER'S THEORY OF GENDER EQUALITY**

**Annotation.** The author of the article highlights gender issues in the works of the English philosopher and sociologist Herbert Spencer. How his views on women's thinking changed. He outlined in detail his thoughts, conclusions, physical and mental differences between men and women based on human evolution.

**Key words:** Gender, H.Spencer, woman, man, equality, principle of equality, sociological research.

**Введение.** Гендерные различия являются основой для гендерного неравенства, которое в настоящее время на уровне Организации Объединенных Наций рассматривается как глобальная проблема и важнейшая часть обеспечения прав человека. Гендерное равенство трактуется как равенство

прав и возможностей мужчин и женщин. Гендерная социология является одним из крупнейших направлений в социологической науке и включает в себя теорию и исследования, которые критически исследуют социальную конструкцию гендера, то, как гендер взаимодействует с другими социальными силами в обществе и как гендер соотносится с социальной структурой в целом. Гендер в его современном понимании, равно как понятие гендерного равенства, появилось сравнительно недавно, исследование социальных функций мужчины и женщины имеет длительную историю.

В условиях столкновения традиционных представлений о роли женщины и утверждаемых на глобальном уровне и законодательно закрепленных на уровне страны положений о равенстве прав женщин и мужчин обостряются вопросы реализации заложенных в современном праве норм, изучения того, как на практике происходит выбор и принятие решений современными мужчинами и женщинами, насколько удается преодолеть проявления гендерного неравенства, которые встречаются во всех областях нашей жизни.

Актуальным представляется изучение того, насколько эффективными являются выбранные подходы и стратегии для осуществления принципа равенства вместо традиционного приспособления к существующим условиям. Социологические исследования проблем обеспечения гендерных прав касаются вопросов решения проблем женщин, находящихся в сложной жизненной ситуации, обеспечения их занятости, ограждения женщин от притеснения и насилия, предотвращения семейно-бытового насилия, укрепления семейных ценностей и т.д. Аналитической части исследования предшествует методология исследования, с помощью определенных методов выполняется анализ собранных данных.

**Литературный обзор.** Термин «гендерные исследования» появился в 1980-е годы с открытием в университетах США и странах Западной Европы соответствующих кафедр и факультетов. В это же время стали появляться научно-исследовательские центры, занимающиеся гендерной проблематикой. Гендерные исследования, взяв свое начало из «женских исследований» (Women's Studies), «переместили акцент с изучения неравноправного специфического положения женщины, обсуждения и осуждения патриархата на исследование более широкого социального контекста - на анализ гендерной системы» [1;89–100 с.].

На сегодня исследования в гендерной сфере теоретических основ, принципов и механизмов осуществления ведутся в целом ряде научно-исследовательских центрах и высших учебных заведениях мира. Например, Women in German Society (Германия), French-Australian Business Womens Association (Франция), University of Nottingham (Великобритания), Western Michigan University, Golden Gate University, Office of Global Womens Issues, University of Maryland (все – США), University of Mataram (Индонезия), Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ), Международная организация труда (МОТ), Институт социологии АН России и других.

Выделим университет Голден Гейт (США), где на регулярной основе проводятся научные исследования по указанной тематике, проводимые в сфере изучения социальных, политических и культурных факторов, оказывающих воздействие на обеспечение гендерного равенства в системе высшего образования изучаются в университете западного Мичигана (США), политика борьбы в отношении женщин в университете Мэриленд (США), исследование процессов миграции и бытового насилия в университете Ноттингем (Англия) путем наблюдений, исследований, проводимых в университете Матарам (Индонезия) по основам борьбы с насилием в отношении женщин.

Проблемы вопроса гендера исследовали классики социологии к которым относятся работы таких авторов, как Г.Спенсер, который рассматривал положение мужчины и женщины в контексте эволюционной теории Э.Дюркгейм, Г.Зиммель, П.Сорокин, которые также затрагивали проблемы положения мужчины и женщины в обществе, Т.Парсонс, раскрывший гендерные вопросы сквозь призму структурно-функционального анализа, а также относятся работы зарубежных ученых, которые рассматривали отдельные теоретические аспекты проблемы. В частности, Б.Андерсон, М. Фуко изучали гендерное равенство в гармонии с социальными проблемами в культурной жизни людей. Ж.Тернер, Э.Смит, Т.Кун связывали данный вопрос с религиозной верой. Э.Эриксон, М.Мид и Р. Миллс изучали гендерные вопросы в рамках ментальных свойств. П.Бергер и Т.Лукман – рассматривали гендерное равенство в качестве части единого социального организма.

**Методология исследования.** Гендерное равенство в этом небольшом исследовании – это единая глобальная институциональная система. Статья основана на принципах научности, логики, социологического подхода и историзма, использованы комплексный, сравнительный, метод анализа документов, анализ социологического анкетирования, методы сравнения, актуальные для данной

области, а также анализ, основанный на обзоре литературы и другие.

**Анализ и результаты.** В XIX веке следует отметить работы классика социологии Герберта Спенсера. Он считал, что нет никаких оснований для дискриминации женщин по сравнению с мужчинами. Он указывал на отсутствие интеллектуальных различий между мужчинами и женщинами, что необходимо принять как основу для признания их равноправия.

Однако точка зрения Г. Спенсера достаточно быстро изменилась, и уже в 1855 г. в своей работе «Основания психологии» он писал о существенных различиях в мышлении женщин и мужчин, которое различается так же, как «дикари» от «цивилизованных» людей, но в меньшей степени. Женщинам, по его мнению, присуще упрямство в следовании однажды сформировавшимся верованиям и быстрые умозаключения [2;357с.].

В работе «Социология как предмет изучения» [3;351 с.], опубликованной в 1871 г., Г.Спенсер подробно изложил свои размышления, выводы о физических и психических различиях между мужчинами и женщинами на основе человеческой эволюции, поскольку мужчины и женщины должны были адаптироваться к отцовскому и материнскому долгу. Различия между мужчинами и женщинами проявляются и на интеллектуальном и эмоциональном уровне.

Г.Спенсер указывал на естественно-природные физические различия, и для него относительно меньший размер тела и мозга женщины должен свидетельствовать об их сравнительной интеллектуальной слабости. Г.Спенсер считал, что взаимоотношения мужчины и женщины исторически выстраивались как отношения между сильным и слабым, что сказалось на их социальных ролях. В «варварских племенах» мужчины, чтобы выжить, должны были быть сильными, храбрыми, агрессивными, жестокими и эгоистичными. Женщины, со своей стороны, не могли конкурировать с ними, и, чтобы иметь шансы на выживание, развивали способности подстраиваться к мужчинам, угадывать их настроения и исполнять их желания.

Лидеры-мужчины жестко обращались с женщинами, которые, несмотря на это, руководствуясь принципами выживания, не только терпели жестокое обращение, но и предпочитали именно таких мужчин для лучшей физической защиты себя и своих детей. Г.Спенсер подчеркивал, что такие исторические формы взаимодействия часто можно наблюдать и в современном, «цивилизованном» мире, поскольку эволюция привела к развитию у женщин чувствительности, интуиции и других аналогичных качеств, которые позволяли ей по одному намеку или движению угадывать в «дикаре-муже» его желание или страсть [4;351 с.].

Тем самым, как отмечал Г.Спенсер, в ходе эволюции и естественного отбора те женщины, у которых были лучше развиты «женские» качества, получали больше шансов выжить. Преклонение женщины перед властью и ее готовность подчиняться стала естественным следствием подобного естественного отбора. Вывод, который делал Г.Спенсер, заключался в необходимости исключать женщин из общественной жизни, поскольку их качества являются естественной основой «диктаторских» режимов. Более того Герберт Спенсер рекомендовал ограничивать их влияние на воспитание сыновей или характеры своих мужей. Моногамия для него выступала венцом эволюции, высшей и последней формой брачных отношений. При моногамии, в период развитых общественных отношений, уже отсутствуют прежние жесткие brutальные властные взаимодействия, женщина пользуется полным уважением как жена и как мать. Однако женщина, по мнению Г.Спенсера, эволюционным путем должна быть исключена из трудовых отношений и ее роль должна ограничиваться только семьей [5;25–51 с.].

**Заключение и предложения.** В заключении можно сделать вывод, что отношение и взгляды на положение женщин в обществе всегда были неоднозначными. «Положение женщины», и именно о положении женщины, а не о «положении мужчины» в обществе принято говорить. История свидетельствует о неоднозначности отношения общества к женщине, в определении её места и роли в обществе и семье. В целом, идеи Герберта Спенсера отличает характерное для своего времени представление о неравенстве в отношении прав и возможностей мужчин и женщин, однако он впервые представил эволюционную модель развития взаимоотношений мужчины и женщины, основанной на выполнении ими тех или иных функций. Взаимоотношения мужчины и женщины стали для Г. Спенсера органичной частью его социал-дарвинистских представлений о развитии общества.

Научная значимость и практические рекомендации результатов исследования могут быть использованы для дополнения современных теоретических концепций социологического осмысления будущих трансформаций общественных процессов, совершенствования методологии и инструментария социологических исследований, обогащения общетеоретических аспектов таких дисциплин,

как социология гендера, социология семьи, этносоциология, культурология, антропология, социальная работа, геронтология, а также при проведении дальнейших научных исследований по данной теме.

#### Список использованной литературы:

- (1). Чикалова И.Р. Гендерный подход в науках о человеке и обществе: смещение исследовательских парадигм. Минск, БДУ, 2007, с. 89–100.
- (2). Спенсер Г. Основания психологии. Ч. 1–5. Сочинения Герберта Спенсера. Полные переводы, исправленные по последним английским изданиям. СПб., Т-во И.Д.Сытина, 1897, с. 357.
- (3). Спенсер Г. Социология как предмет изучения. СПб., Тип. А.Якобсона, 1896, с. 351.
- (4). Спенсер Г. Основания социологии. Т. 2, Сочинения Герберта Спенсера. Полные переводы, исправленные по последним английским изданиям. СПб., Т-во И.Д.Сытина, 1898, с. 351.
- (5). Спенсер Г. Основания социологии. Т. 2, Сочинения Герберта Спенсера. Полные переводы, исправленные по последним английским изданиям. СПб., Т-во И.Д.Сытина, 1898, с. 25–51.

**Saidkulov Nuriddin Akramkulovich (Associate Professor of Gulistan State Institute of Pedagogy Orcid: <https://orcid.org/0009-0002-7400-7451>; E-mail: [nuriddinsaidkulov89@gmail.com](mailto:nuriddinsaidkulov89@gmail.com))**  
**YOUTH AND HUMAN CAPITAL: ISSUES OF PROTECTING THE INTERESTS OF YOUTH**

***Annotation.** This article is devoted to the importance of human capital today, ways and factors of its development, youth and human capital problems. It is known that young people define the future of the country, especially the creators of the foundation of the Third Renaissance. In this regard, their comprehensive support is the need of the hour. In addition, this article researched and analyzed that youth is the main subject that develops human capital.*

***Key words:** youth, education, upbringing, capital, human capital, youth organization, youth interests, youth needs.*

#### **YOSHLAR VA INSON KAPITALI: YOSHLAR MANFAATLARINI HIMOYA QILISH MASALALARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola inson kapitalining bugungi kundagi ahamiyati, uni rivojlantirish yoʻllari va omillari, yoshlar va inson kapitali muammolariga bagʻishlangan. Maʼlumki, yoshlar mamlakatertasini belgilovchi, xususan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratuvchilari hisoblanadi. Shu jihatdan, ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash davr talabidir. Bundan tashqari, ushbu maqolada yoshlar inson kapitalini rivojlantiruvchi asosiy subyekt ekanligi tadqiq va tahlil etilgan.*

Gap tarkibidagi komponentlarning morfologik xususiyatlarini komponent modelda aks ettiramiz, sintaktik aloqalarini aniqlash uchun yunksion modeldan foydalanamiz:

(1) ... the gang would come ... for ... sausage and mash					
$\underline{NP_1}$	$\cdot$	$\underline{NP_2}$	$\cdot$	$\underline{HND} \cdot \underline{HND}$	K.M.
S		mVinf		prS S	
					Yu.M.

Gapning yunksion modelida ko'rinadiki, uyushiq final sintaksema (*for sausage and mash*) ikki sintaktik aloqaga kirishmoqda, ya'ni, *for sausage* va *mash* elementlari o'zaro koordinativ aloqa bilan bog'langan va ular birgalikda *would come* sintaktik birlik bilan subordinativ aloqaga kirishgan. Demak, *for... sausage and mash* komponentlari ikki valentli sintaktik birliklar hisoblanadi.

Gap tarkibidagi *sausage and mash* sintaktik birliklar implitsit tarzda obyekt sintaksemmani ham ifodalaydi, bu hol yuqorida keltirilgan transformatsiya hosilasida o'z aksini topadi, ya'ni, qo'shimcha qilingan *eating* o'timli fe'lining obyekti bo'lib xizmat qiladi:

(1) ... the gang would come to Fatty's for his famous sausage and mash → ... the gang would come to Fatty's for the purpose of eating his famous sausage and mash → ...the gang would come and eat ...sausage and mash.

Sintaksem tahlil natijasida ushbu gap quyidagi sintaksemlardan tarkib topganligi ma'lum bo'ladi:

... the gang would come to Fatty's for his famous sausage and mash – SbAg . PrAcMdlTcs . SbLc . SbPs . QlfQlt . SbFnOb . SbFnOb.

Shunday qilib, substansial final obyekt sintaksemaning tayanch komponenti (*would come*) protsessual aksional modal iterative kausal sintaksema hisoblanadi, sababi *would come* birligida voqelangan harakat takroriy (iterativ) va implitsit ifodalanuvchi *eat* harakatiga nisbatan sabab semalariga ega.

Noyadroviy predikativ 2 –  $\tilde{NP}_2$  (cA) komponent o'rnida maqsad ma'nosi voqelanishi mumkin:

2. He wanted them to be different (PAPT, 54).

Ushbu gap tarkibida *to be different* birikmasida final sintaksema mavjud bo'lib, u *want* fe'li ta'siri ostida yuzaga chiqadi. Bu holatni almashtirish transformatsiyasidan foydalanib aniqlashimiz mumkin:

2) He wanted them to be different → His purpose was their being different.

Final sintaksema noyadroviy predikativ 2 komponent ( $\tilde{NP}_2$ ) o'rnida kelib, noyadroviy predikativ aloqa asosida noyadroviy tobe predikativ 1 ( $\tilde{NDP}_1$ ) bilan bog'lanmoqda. Gap tarkibidagi *them* ( $\tilde{NDP}_1$ ) va *to be different* ( $\tilde{NP}_2$ ) birikmalari o'rtasida predikativ aloqa mavjudligini gapga aylantirish transformatsiyasi yordamida aniqlaymiz:

(2) He wanted them to be different → ... them to be different → ... they are different.

Gap tarkibidagi komponentlarning morfologik xususiyatlari va ular o'rtasidagi sintaktik aloqalarini komponent va yunksion modellarda quyidagicha ifodalaymiz:

<i>(2) He wanted them to be different</i>							
$\tilde{NP}_1$	$\cdot$	$\tilde{NP}_2$	$\cdot$	$\tilde{NDP}_1$	$\cdot$	$\tilde{NP}_2$	K.M.
Pnp		Vf		Pnp		cA	
							Yu.M.

Ushbu gapda final sintaksema bir valentli sintaktik birlik hisoblanadi, chunki u faqat bir sintaktik aloqa asosida gap qurilmasida voqelanmoqda. Morfologik xususiyatiga ko'ra, u sifat turkumidagi so'zning obyekt kelishidagi kishilik olmoshiga bog'lama fe'l bilan bog'lanishi orqali namoyon bo'ladi.

Noyadroviy tobe predikativ 2 –  $\tilde{NDP}_2$  (VinfA) komponent o'rnida kelishi kuzatiladi:

3. He looked back to make sure (PAPT, 52)

Mazkur gap qurilmasida final sintaksema infinitiv va sifat (*to make sure*) birikmasi yordamida ifodalangan bo'lib, u noyadroviy tobe predikativ 2 komponenti o'rnida ikki sintaktik aloqa asosida voqelanmoqda: 1) yadro predikativ 2 (*looked*) komponentiga tobe bo'lib, u bilan subordinativ aloqa; 2) yadro predikativ 1 (*He*) komponenti bilan predikativ munosabatga kirishib, noyadroviy predikativ aloqa asosida bog'langan. Gapping komponent va yunksion modellari quyidagicha bo'ladi:

<i>3) He looked back to make sure</i>							
$\tilde{NP}_1$	$\cdot$	$\tilde{NP}_2$	$\cdot$	$\tilde{ND}$	$\cdot$	$\tilde{NDP}_2$	K.M.
Pnp		Vf		Adv		VinfA	
							Yu.M.

Ushbu gapda agentiv sintaksema *He* va final sintaksema *make sure* o'rtasida predikativ munosabat borligini gapga aylantirish transformatsiyasi usulidan foydalanib isbotlaymiz:

3) He looked back to make sure → He ... to make sure → He makes sure.

Final sintaksemaning *looked* – protsessual aksional kausal sintakseмага tobe munosabatini savol qo'yish usuli yordamida aniqlashimiz mumkin:

(3) He looked back to make sure → Why did he look back?

Yuqoridagi misollar tahlilida aytilganidek, bu gapda ham *to make sure* komponenti final semaga ekanligini *in order* yoki *for the purpose of* birikmalarini qo'shimcha qilish orqali isbotlashimiz mumkin:

(3) He looked back to make sure → He looked back in order to make sure yoki He looked back for the purpose of making sure.

Noyadroviy tobe bo'lak –  $\tilde{ND}$  (Vinf) o'rnida kelib, infinitiv bilan faollashadi:

4. Mabel had smuggled it out to show ... (PAPT, 50).

Navbatdagi gap tarkibida final sintaksema o‘timli harakat fe’lining infinitiv shakli (*to show*) bilan ifodalaniib, noyadroviy tobe (ÑD) sintaktik o‘rinda kelmoqda. ÑD o‘rnidagi final sintaksema NP<sub>2</sub> komponent o‘rnidagi o‘timli harakat fe’lining Past Perfect shakli bilan ifodalangan (*had smuggled*) sintaktik birlikka tobe bog‘langan, NP<sub>1</sub>(*Mabel*) komponenti bilan noyadroviy predikativ aloqa asosida bog‘langan. Final sintaksemani transformatsiya metodi orqali quyidagicha izohlash mumkin:

4) *Mabel had smuggled it out to show* → *Mabel had smuggled it out in order to show* → *Mabel’s purpose was to show it.*

Gapning komponent tarkibi, morfologik xususiyatlari va sintaktik aloqalari quyidagicha ifodalanadi:

<i>(4) Mabel had smuggled it out to show</i>					
NP <sub>1</sub>	NP <sub>2</sub>	ÑD	ÑD	ÑD	K.M.
S	auxVp <sub>2</sub>	Pnp	Adv	Vinf	
					Yu.M.

Yunksion modeldan ko‘rinadiki, final sintaksemani voqelantiruvchi *to show* elementi ikki sintaktik aloqaga kirishganligi uchun ikki valentli birlik hisoblanadi.

Noyadroviy tobe komponent o‘rnida kelgan maqsad holi ÑP<sub>2</sub>ga tobe, ÑDP<sub>1</sub>ga noyadroviy predikativ aloqa asosida bog‘lanadi:

5. *He saw an ugly spectre stretching out its arms to seize Eva* (RJ, 32).

Ushbu gap tarkibida final sintaksema sifatdoshli obyektiv qurilma komponentlariga bog‘lanib kelgan. Bunda sifatdoshli qurilmada predikativ aloqaning mavjudligini va maqsadning voqelanishini transformatsiya metodi yordamida aniqlashimiz mumkin:

5) *He saw an ugly spectre stretching out its arms to seize Eva* → *Spectre was stretching out its arms to seize Eva*;

(5) *He saw an ugly spectre stretching out its arms to seize Eva* → *spectre ... to seize Eva* → *spectre seized Eva*;

(5) *He saw an ugly spectre stretching out its arms to seize Eva* → *Spectre’s aim is to seize Eva.*

Transformatsiya hosilasi shuni ko‘rsatadiki, ushbu gapda *stretching out* maqsadning amalga oshishiga olib keluvchi kauzal sintaksema hozirgi zamon sifatdoshi bilan, *arms* maqsadning amalga oshishidagi vosita – instrumental sintaksema ko‘plik shaklidagi aniq ot va *to seize* – final sintaksema infinitiv shaklidagi harakat fe’li bilan ifodalangan. Gapning komponentlari va morfologik xususiyatlarini quyidagicha modelashtiramiz:

<i>He saw an ugly spectre stretching out its arms to seize Eva</i>									
1	2	3	4	5	6	7	8	9	K.M.
NP <sub>1</sub>	NP <sub>2</sub>	ÑD	ÑDP <sub>1</sub> P <sub>1</sub>	ÑP <sub>2</sub>	ÑD	ÑD	ÑDP <sub>2</sub>	ÑD	
Pnp	Vf	A	S	Vp <sub>1</sub>	Pnps	S	Vinf	S	
									Yu.M.

Mazkur gap tarkibida to‘qqizta komponent mavjud bo‘lib, ular o‘rtasidagi sintaktik aloqalar yunksion modelda ko‘rgazmali namoyon etilgan. Buni quyidagicha izohlashga harakat qilamiz: gapdagi yettita komponent (1,2,3,5,6,7,9) bir valentli, chunki ular bir sintaktik aloqa asosida voqelanmoqda. Sakkizinchi komponent ikki valentli, to‘rtinchi komponent esa uch valentli hisoblanadi. NP<sub>1</sub> va NP<sub>2</sub> komponentlar o‘zaro yadro predikativ aloqaga kirishgan; *ugly* (3), *its* (6) va *Eva* (9) tobe komponentlar subordinativ aloqa asosida boshqa tobe bo‘laklarga bog‘langan. Bunda faqatgina *its* bog‘langan bo‘lak noyadroviy tobe element bo‘lib (*arms*), noyadroviy predikativ 2 (*stretching out*) unsuriga tobelanib kelgan. *Ugly* unsuri tobelangan *spectre* (4) so‘zi uch sintaktik aloqaga ega: 1) NP<sub>2</sub> o‘rnidagi *saw* (2)ga subordinativ, ÑP<sub>2</sub> o‘rnidagi *stretching out* (5) va ÑDP<sub>2</sub> o‘rnidagi *to seize* (8)ga noyadroviy predikativ aloqalar bilan bog‘langan. Shuning uchun mazkur sintaktik birlik noyadroviy tobe ikki karra predikarlanuvchi komponent deb nomlanadi. Sakkizinchi, final sintaksemani ifodalovchi, element *to seize* beshinchi komponentga subordinativ, to‘rtin-



chi komponentga esa noyadroviy predikativ aloqa bilan bog‘langanligi uchun noyadroviy tobe predikativ 2 komponenti bo‘lib, ikki valentli hisoblanadi.

**Xulosa.** Final sintaksemalar qatnashgan gap tarkibidagi komponentlar va ularning sintaktik aloqalari yunksion model yordamida ochib berildi. Gap tarkibida maqsadni ifodalovchi birliklar turli sintaktik o‘rinlarda kelishi mumkin va ularning morfologik xususiyatlari bu birliklarning sintaktik aloqalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tahlil natijalari tilshunoslikda final kategoriyaning tushunilishi va tadqiq etilishida yangi yo‘nalishlarni ochib beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Austin J.L. 1962. *How to Do Things with Words*. Oxford, Clarendon Press; 1981. Dummett M. *Frege: Philosophy of Language*. Cambridge, Cambridge University Press.
- (2). Searle J.R. 1968. Austin on Locutionary and Illocutionary Acts. *Philosophical Review*. Vol. lxxvii, № 4.
- (3). Searle, J.R. et Vanderveken D. *Foundations of Illocutionary Logic*. Cambridge: Cambridge University Press, 1985.
- (4). Droste F.G. Intention, Meaning, Interpretation. *Lingua*, Amsterdam. 1968. V. 21, p. 126–134.
- (5). Бондарко А.В. Грамматическая категория и контекст. Л., 1971, 112 с.
- (6). Леонтьев А.А. Деятельность, сознание, личность. М., Изд-во полит. лит., 1975, 303 с.
- (7). Строссон П.Ф. Намерение и конвенция в речевых актах. М., 1986, вып.17, Теория речевых актов, с. 131–150.
- (8). Казыдуб Н.Н. Системно-функциональное исследование интенциональных глаголов (на материале современного английского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, Санкт-Петербург, 1991, 17 с.
- (9). Левонтина И.Б. Целевые слова и наивная телеология. Дисс. ... канд. филол. наук, М., 1995, 224 с.
- (10). Сон Мен Гон. Выражение смысла «цель» средствами синтаксиса. “Русский язык в школе”, 1998, № 2, с. 89–95.
- (11). Смурова Л.И. Вариантность финальных целевых синтаксем. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, Санкт-Петербург, 1995, 21 с.
- (12). Усмонов У.У. Компонентный и синтаксемный анализ неполных предложений и их применения в сравнительной типологии. Общелингвистические проблемы романских и германских языков. Научные труды СамГУ, Самарканд, 1992, с. 213–216.
- (13). Асадов Р.М. Инглиз тили содда гап курилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтаксем тахлили. Фил.фан бўйича фал.док. (PhD). дисс. автореф., Тошкент, 2018, 27-бет.
- (14). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Jizzax, “Sangzor”, 2006, 92-bet.
- (15). Brandom R.B. Intentionality and Language. A Normative, Pragmatist, Inferentialist Approach. *The Cambridge Handbook of Linguistic Anthropology*. 2011, 19 p.
- (16). Candida de Sousa Melo. Intentionality and Meaning in Natural languages. *The Journal of Intercultural Studies*. 2014, p. 75–91. <http://doi.org/10.18956/00005389>
- (17). Самойлова Н.Л. Смысловые функции обстоятельства в структуре предложения (на материале современного английского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, М., 1982, 21 с.
- (18). Смурова Л.И. Вариантность финальных целевых синтаксем. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 1995, 21 с.
- (19). Ниссен Ф.Х. Семантико-синтаксический анализ интенциональных конструкций (на материале английских текстов экономической тематики). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук, Самара, 2000, 26 с.

**Bobojonova Nargiza Jumaniyozovna (BuxDU 2-bosqich tayanch doktoranti;  
nargizabobojonova93@gmail.com)**

### **O‘ZBEK TILIDA MUROJAAT KATEGORIYASINING GESTALT, SKRIPT VA FREYM NUQTAYI NAZARIDAN LINGVOKOGNITIV TAHLILI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqola murojaat kategoriyasini kognitiv tilshunoslik doirasida Gestalt, Skript va Freym nazariyalari nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Murojaat (undalma) lingvistik hodisa sifatida, insonlar o‘rtasidagi muloqotda kommunikativ vazifalarni bajaradi va uning kognitiv jarayonlarda qanday shakllanishi mazkur nazariyalar orqali tushuntiriladi. Gestalt nazariyasida murojaat butunlikda idrok qilinib, uning hissiy va kontekstual jihatlari muhim rol o‘ynaydi. Skript nazariyasi murojaatning ma‘lum stsenariy doirasida shakllanishini ochib beradi, ya‘ni muayyan vaziyatlarda kutilgan ketma-ketliklarga asoslanadi. Freym nazariyasida esa murojaat ijtimoiy freymlar ichida shakllanib, suhbatdoshlarning ijtimoiy roli va mavqeini aks ettiradi. Har bir nazariyaning murojaatni tahlil qilishdagi o‘rni misollar bilan tushuntirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kategoriya, undalma, kognitiv tilshunoslik, gestalt, skript, freym, konsept.

Бобожонова Наргиза Жуманиёзовна (докторант, Бухарский государственный университет;  
nargizabobojonova93@gmail.com)

## ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ ОБРАЩЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ГЕСТАЛЬТА, СКРИПТА И ФРЕЙМА

*Аннотация.* Данная статья анализирует категорию обращения с точки зрения теорий Гештальта, Скрипта и Фрейма в рамках когнитивной лингвистики. Обращение (призыв) как языковое явление выполняет коммуникативные функции в общении между людьми, и через эти теории объясняется, как оно формируется в когнитивных процессах. В теории гештальта обращение воспринимается в целом, и его эмоциональные и контекстуальные аспекты играют важную роль. Теория скрипта раскрывает формирование обращения в рамках определенного сценария, т.е. основывается на ожидаемых последовательностях в определенных ситуациях. В теории фреймов обращение формируется внутри социальных фреймов и отражает социальную роль и статус собеседников. Роль каждой теории в анализе обращения объясняется на примерах.

**Ключевые слова:** категория, обращение, когнитивная лингвистика, гештальт, скрипт, фрейм, концепт.

**Bobojonova Nargiza Jumaniyozovna (PhD student, Bukhara state university;  
nargizabobojonova93@gmail.com)**

## LINGUOCOGNITIVE ANALYSIS OF THE CATEGORY OF ADDRESS IN THE UZBEK LANGUAGE FROM THE PERSPECTIVE OF GESTALT, SCRIPT, AND FRAME

*Annotation.* This article analyzes the category of address from the perspective of Gestalt, Script, and Frame theories within the framework of cognitive linguistics. Appeal, as a linguistic phenomenon, performs communicative functions in communication between people, and how it is formed in cognitive processes is explained through these theories. In Gestalt theory, the appeal is perceived as a whole, and its emotional and contextual aspects play an important role. Script theory reveals the formation of an appeal within a specific scenario, that is, it is based on the expected sequences in specific situations. In frame theory, an address is formed within social frames and reflects the social role and status of the interlocutors. The role of each theory in the analysis of the appeal is explained by examples.

**Key words:** category, address, cognitive linguistics, gestalt, script, frame, concept.

**Kirish.** Murojaat (undalma) – bu tilshunoslikda o‘ziga xos kommunikativ hodisa bo‘lib, so‘zlovchi tomonidan suhbatdoshga yoki boshqa bir shaxsga qaratilgan so‘z yoki ibora sifatida ishlatiladi. Murojaat turli kontekstlarda, ijtimoiy vaziyatlarda va hissiy holatlarda turlicha qo‘llaniladi, bu esa uni alohida tahlil qilishni talab etadi. Kognitiv tilshunoslikda murojaat insonning mental jarayonlari orqali qanday idrok qilinishini va kommunikatsiyada qanday rol o‘ynashini aniqlashda muhim tushunchalardan biri hisoblanadi.

Bu maqolada murojaatning Gestalt, Skript va Freym nazariyalari nuqtayi nazaridan tahlilini ko‘rib chiqamiz. Har bir nazariya murojaatning qanday shakllanishi va qabul qilinishini o‘ziga xos usulda tushuntiradi, bu esa til birliklarining kognitiv jarayonlardagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kognitiv tilshunoslikda murojaatga oid nazariy tahlillar bir necha yondashuvlarda o‘rganilgan. “Gestalt nazariyasi” – bu psixologik tamoyil bo‘lib, til birliklari alohida qism emas, balki bir butun holda idrok qilinishi kerakligini ta’kidlaydi. Bu nazariya 20-asrning boshida germaniyalik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va tilshunoslikda uning lingvistik hodisalarni tushunishga qo‘shgan hissasi katta.

“Skript nazariyasi” A.I.Shank tomonidan ishlab chiqilgan va insonning muloqotdagi odatiy stsena-riylari asosida qanday harakat qilishini tushuntiradi. Skript nazariyasida insonlar ma’lum bir muloqot vaziyatida oldindan shakllangan tajribalarga asoslanadi, bu esa murojaatlarni belgilashda muhimdir.

“Freym nazariyasi” esa 1970-yillarda E.Goffman va M.Minskiy tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ijtimoiy vaziyatlar va insonlar o‘rtasidagi muloqotni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Freym orqali murojaatlar ijtimoiy kontekstlar va rollar asosida shakllanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqola kognitiv tilshunoslik doirasida murojaatni Gestalt, Skript va Freym nazariyalari orqali tahlil qilish uchun sifatli tadqiqot usuliga asoslanadi. Ushbu nazariyalar asosida til hodisalarini tahlil qilishning kognitiv jarayonlarga ta’siri o‘rganiladi. Misollar asosida turli lingvistik hodisalar Gestalt, Skript va Freym doirasida qanday idrok qilinishi o‘rganiladi. Maqolada tilshunoslikda keng qo‘llaniladigan nazariy tadqiqot usullari (qiyosiy tahlil, kontent tahlili va kontekstual tahlil) qo‘llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Gestalt nazariyasi – bu butunlik va yaxlitlikka asoslangan tushuncha bo‘lib, insonlar biror narsani uning alohida qismlaridan ko‘ra umumiy shaklda idrok qiladi. Bu nuqtayi nazardan

murojaatni tahlil qilishda uning lingvistik qismidan tashqari, butun kommunikativ hodisani hisobga olish kerak.

1-misol. Murojaat: “Aziz o‘quvchilar, bugungi darsni boshlaymiz”.

Gestalt tahlili. Bu yerda “Aziz o‘quvchilar” nafaqat suhbatdoshga qaratilgan ibora, balki o‘quvchilarga nisbatan hurmat va samimiyatni ifoda etuvchi yaxlit murojaatdir. Gestalt nuqtayi nazaridan bu murojaat dars konteksti va o‘qituvchining ijtimoiy roli bilan birgalikda tushuniladi. Murojaatning ma’nosi faqat lingvistik jihatdan emas, balki hissiy va kontekstual jihatlari bilan ham butunlikda qabul qilinadi.

2-misol. Murojaat: “Ey do‘stim, qani bir yonimga kel”.

Gestalt tahlili. Bu misolda “Ey do‘stim” faqatgina murojaat shaklida ishlatilmagan, balki samimiy va yaqin do‘stlik munosabatlarini o‘zida mujassamlashtirgan bir butun til hodisasidir. Bu yerda murojaatning ohangi, suhbatdosh bilan aloqasi va hissiy jihatlari bilan birgalikda tushuniladi. Gestalt nazariyasida bu ibora alohida so‘zlar orqali emas, balki butun suhbatning asosiy qismi sifatida idrok qilinadi.

Gestalt nazariyasida murojaat butun kommunikativ hodisaning bir qismi sifatida, hissiyotlar va kontekst bilan birgalikda idrok qilinadi. Bu yondashuvda murojaat til birligi sifatida mustaqil ravishda emas, balki suhbatning umumiy shaklida qabul qilinadi.

Skript nazariyasi insonlarning odatiy yoki doimiy bo‘lgan vaziyatlarda qanday muloqot qilishi haqida oldindan shakllangan tajribalarni aks ettiradi. Skriptlar muayyan ssenariylarga asoslanadi, bu esa ma’lum ijtimoiy vaziyatlarda qanday murojaatlar ishlatilishini belgilaydi.

1-misol. Murojaat: “Do‘stlar, hammangizni kutib oldik, marhamat, dasturxoniga!”

Skript tahlili. Bu murojaat “uy mehmonlari” skriptining bir qismidir. Bunday ssenariyda, mehmonlarni kutib olish va ularga dasturxon atrofida joy ko‘rsatish odatiy harakatdir. “Do‘stlar” murojaati bu ssenariyda umumiy samimiyat va mehmondo‘stlikni ifodalaydi. Skriptga ko‘ra, bunday vaziyatlarda shu turdagi murojaat ishlatiladi, bu esa suhbatdoshlar tomonidan kutiladi.

2-misol. Murojaat: “Hurmatli janoblar, sizlar bilan muhim masala haqida gaplashmoqchiman”.

Skript tahlili. Bu yerda “hurmatli janoblar” murojaati “rasmiy yig‘ilish” skriptining bir qismidir. Rasmiy uchrashuvlarda, masalan, ishbilarmonlik uchrashuvlarida bunday murojaatlar odatiy hisoblanadi. Ushbu skriptga mos ravishda so‘zlovchi o‘zining rasmiy pozitsiyasini va suhbat davomida hurmat qilish zaruriyatini bildiradi. Skript nazariyasi murojaatni ma’lum ssenariylarga asoslab tushuntiradi. Bu yondashuvda murojaat odatiy vaziyatlarda qanday amalga oshirilishi oldindan belgilangan bo‘ladi, va muloqot jarayoni bu ssenariy doirasida shakllanadi.

Freym nazariyasi dunyoni aqliy struktura orqali idrok qilishni anglatadi. Har bir freym ma’lum bir ijtimoiy yoki kognitiv doiraga mos keladi va shu asosda muloqotning qanday kechishini belgilaydi. Freymlar insonlarning ijtimoiy rollarini, ularning o‘zaro munosabatlarini tushuntiradi va murojaatning qaysi shaklda bo‘lishini belgilaydi.

1-misol. Murojaat: “Professor, savolingga javob bersangiz”.

Freym tahlili. Bu murojaat “ta’lim” freymiga mos keladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotda o‘quvchining o‘qituvchiga murojaati hurmat bilan amalga oshiriladi. “Professor” murojaati bu freymda o‘qituvchining yuqori mavqeyi va uning suhbatdoshga nisbatan ijtimoiy rolini ko‘rsatadi. Ushbu freym orqali murojaat ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi.

2-misol. Murojaat: “O‘rtoq mayor, buyruq bo‘lsa tayyorman”.

Freym tahlili. Bu misolda “harbiy” freymi ishlatilgan. Harbiy tizimda yuqori lavozimli shaxsga murojaat qilish ma’lum qoidalarga asoslanadi va u oddiy suhbatdan ko‘ra ko‘proq hurmat va itoatni bildiradi. “O‘rtoq mayor” murojaati shu ijtimoiy freym doirasida shaxsiy maqomlarni ifodalaydi va muloqotda harbiy intizomni aks ettiradi. Freym nazariyasida murojaat ma’lum ijtimoiy va kognitiv kontekstlar ichida shakllanadi. Har bir freymda murojaatning qanday bo‘lishi va uning qanday qabul qilinishi oldindan belgilangan va bu ijtimoiy rollar orqali ifodalanadi.

**Xulosa va takliflar.** Maqola tahlillari shuni ko‘rsatadiki, murojaat til hodisasi sifatida murakkab ijtimoiy, kognitiv va lingvistik jarayonlarning bir qismi hisoblanadi. Gestalt nazariyasi murojaatni butunlikda idrok qilishning ahamiyatini ta’kidlaydi, Skript nazariyasi esa muloqot ssenariylariga asoslanib, murojaatning shakllanishini tushuntiradi. Freym nazariyasi esa murojaatning ijtimoiy vazifalari va muloqotda o‘zaro munosabatlarining qanday tashkil etilganini ko‘rsatadi. Bu uch yondashuvning birgalikdagi tahlili murojaatning kommunikativ hodisa sifatida chuqurroq tushunilishiga olib keladi. Kelgusida murojaatlarni ijtimoiy guruhlar va madaniy kontekstlar doirasida kengroq o‘rganish kognitiv jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Goffman, E. (1974). *Frame Analysis: An Essay on the Organization of Experience*. Harvard University Press.
- (2). Schank, R.C., & Abelson, R.P. (1977). *Scripts, Plans, Goals, and Understanding: An Inquiry into Human Knowledge Structures*. Psychology Press.
- (3). Wertheimer, M. (1923). *Gestalt theory*. In: Ellis, W.D. (Ed.), *A Source Book of Gestalt Psychology*. Routledge.
- (4). Crystal, D. (1997). *The Cambridge Encyclopedia of Language*. Cambridge University Press.
- (5). Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.

Ibragimova Nayira Anvarovna (dotsent, f.f.d. (PhD); nayira@inbox.ru)

### AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DISKURSIDAGI AUTENTIK MATNLARNING KOGNITIV TAHLILI

**Annotatsiya.** AKT sohasiga oid matnlarning kognitiv tahlili nafaqat matnning uslubini o'rganish, balki matnning ta'sir qobiliyati, ohangi, o'quvchida qoldiradigan umumiy taassuroti kabilarni aniqlash uchun ham xizmat qiladi. Kognitiv tahlil matnda qo'llangan terminlarning nafaqat ma'nosini aniqlashga, balki ularni to'g'ri tushunishga imkon beradi.

**Kalit so'zlar:** AKT diskursi, kognitiv tahlil, autentik matn, kognitiv-semantik yondashuvlar.

Ибрагимова Найира Анваровна (доцент, к.ф.н. (PhD, nayira@inbox.ru)

### КОГНИТИВНЫЙ АНАЛИЗ АУТЕНТИЧНЫХ ТЕКСТОВ В ДИСКУРСЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация.** Когнитивный анализ текстов, относящихся к сфере ИКТ, служит не только для изучения стиля текста, но и для определения эффективности текста, его тона и общего впечатления, которое он оставляет у читателя. Когнитивный анализ позволяет не только определить значение терминов, используемых в тексте, но и правильно их понять.

**Ключевые слова:** ИКТ-дискурс, когнитивный анализ, аутентичный текст, когнитивно-семантические подходы.

Ibragimova Nayira Anvarovna (PhD, Associate Professor; nayira@inbox.ru)

### COGNITIVE ANALYSIS OF AUTHENTIC TEXTS IN THE DISCOURSE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES

**Annotation.** Cognitive analysis of texts related to the field of ICT serves not only to study the style of the text, but also to determine the effectiveness of the text, its tone, and the general impression it leaves on the reader. Cognitive analysis allows not only to determine the meaning of the terms used in the text, but also to understand them correctly.

**Key words:** ICT discourse, cognitive analysis, authentic text, cognitive-semantic approaches.

**Kirish.** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hozirgi kunda hayotning deyarli barcha sohalarida qo'llanilayotgan ko'plab kompyuter tizimlari va ilovalarini birlashtiradi. Bu soha jadal rivojlanib borayotgani tufayli, AKT diskursidagi texnik atamalar doimiy ravishda yangilanadi va o'zgaradi. Shu munosabat bilan, AKT diskursidagi matnlarning kognitiv va semantik xususiyatlarini tahlil qilish tadqiqot uchun dolzarb hisoblanadi. AKTda qo'llaniladigan terminologiya har qanday ilmiy bilim sohasida asosiy element hisoblanadi. AKT diskursida texnik terminologiya sohaning nisbiy yoshligi va uning tez evolutsiyasi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, AKT diskursida ko'plab atamalar ingliz tilidan o'zlashtirilgani tufayli atamalarni tushunish va ishlatishda qo'shimcha cheklovlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ushbu ma'lumotlar massasidan kerakli ma'lumotlarni olish uchun stilistik xususiyatlarni aniqlash uchun AKT diskursida matnlarni tahlil qilish imkonini beradigan turli xil usul va yondashuvlardan foydalanish zarurati tug'iladi. Shuni ta'kidlash joizki, kognitiv va semantik yondashuvlardan foydalanish nafaqat AKT matnlarining uslubini o'rganish, balki hissiy ohang, ishontirish qobiliyati va matnning o'quvchida qoldiradigan umumiy taassuroti kabi qo'shimcha omillarni aniqlash uchun ham xizmat qiladi [1;198 c.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Kognitiv tilshunoslik rivojlanishining asosiy va hal qiluvchi omillaridan biri kognitiv semantika hisoblanadi. Buning sababi, lingvokognitiv tadqiqotlar asosan lingvistik semantika muammolarni o'rganishga qaratilganligidadir. Kognitiv semantikaga xos usullar, odatda, Leonard Talmi [2;145 p.], Jorj Lakoff, Dirk Ghirers va Bryus Ueyn, Xokins, Sh.Safarov kabi olimlar tomonidan leksikologik tadqiqotlarda qo'llanilgan.

Kognitiv tahlil yordamida turli madaniy, ijtimoiy va professional guruhlardagi o'quvchilar tomonidan atamalarni idrok etilish jarayonini ham o'rganish mumkin. Jumladan, AKTda atamashunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim atamalar yashash joyi, yosh guruhlari yoki kasblarga qarab turlicha qabul qilinadi, bu esa kompyuter dasturlari va interfeyslarini lokalizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, AKTda terminologiyaning kognitiv tahlili ushbu sohada yangi termin va iboralarni shakllantirish xususiyatlarini aniqlashga, shuningdek, kelajakda texnik terminologiyada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bashorat qilishga yordam beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada tavsiflash, chog'ishtirish, tasniflash, komponent tahlil, kognitiv-konseptual, lingvokognitiv va kross-madaniy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Matnlarni semantik tahlil qilish usullaridan biri bu kompyuter dasturlari-analoglardan foydalanishdir [3;164 c.].

Matnlarni muayyan kalit so'zlar va xususiyatlar bo'yicha tahlil qila oladigan maxsus dastur mavjud. Bunday dastur muallifga matn mazmunining eng muhim elementlarini aniqlashga va ulardan uslubni tahlil qilishda foydalanishga yordam beradi.

*“...Use Just Ping to determine if a particular website is accessible from other countries....*

*... If you like to know the contact address, email and phone number of the website owner, this free whois lookup service will help.*

*...Enter the URL of any website and this online service will show you the name of the company where that website is hosted».*

Yuqoridagi matnda “sayt” termini mavhum (umuman saytlar haqida), tavsiflovchi (har qanday aniq sayt) yoki umumiy (shu jumladan, barcha turdagi veb-sahifalar) ma'nolarida ifodalangan.

AKTda terminologiyaning kognitiv va semantik jihatlarini tahlil qilish, bizga autentik matnlarning yozilish usullarini tekshirish va bu sohada qo'llaniladigan o'ziga xos uslub va tilni tushunish imkonini beradi. Matnda muayyan terminlar va tillardan foydalanish o'quvchida ma'lum fikr, g'oyalar yoki his-tuyg'ularni uyg'otib, maqsadli auditoriyaga ta'sir o'tkazish va ishontirish instrumentlaridan biri hisoblanadi. O'z mahsuloti yoki xizmatlari bilan ijobiy ma'no yoki assotsiatsiyaga ega bo'lgan terminlarni ehtiyotkorlik bilan tanlash va qo'llash orqali marketing kompaniyalari iste'molchilar ongida kerakli idrok yoki tasvirni yaratadilar. Bu yo'nalishda ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ulardan biri hissiy jozibalar, ritorik vositalar va ramka yaratish kabi ishonchli til texnikasi iste'molchilarning munosabati va afzalliklariga qanday ta'sir qilishi mumkinligiga e'tibor qaratdi [4;21–134 p.]. Masalan: “Bugungi raqamli asrda kiberjino-yatlar ham jismoniy shaxslar, ham korxonalar uchun tobora ortib borayotgani tashvish uyg'ot-moqda. Sizing kompyuteringizga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan eng xavfli zararli dasturlardan biri ZBot yoki Wsnpoem nomi bilan ham tanilgan Zeus troyanidir. Ushbu zararli dastur klavishlarini bosish va ekran tasvirlarini olish orqali bank hisob ma'lumotlari va shaxsiy ma'lumotlar kabi nozik ma'lumotlarni o'g'irlash uchun mo'ljallangan. Yaxshiyamki, kompyuteringizni ushbu tahdiddan himoya qilish uchun yechim bor: Zeus Trojan Remover. Ushbu kuchli xavfsizlik dasturi Zeus troyanining barcha ma'lum variantlarini aniqlaydi va yo'q qiladi, bu sizning tizimingizni kiberjino-yatchilardan xavfsiz saqlashni ta'minlaydi”. Ushbu misolda *Zeus Trojan Remover* antivirus dasturi haqida ma'lumot keltirish bilan bir qatorda, muallif ushbu dasturning afzalliklarini ham bayon etgan.

Kognitiv yondashuv deganda tavsifiy matnlarni tahlil qilish maqsadida bilish nazariyasidan foydalanish tushuniladi. Bunday yondashuv matn yaratishda muallif tafakkurining xususiyatlarini aniqlashdir. AKT matnlarini tahlil qilishda kognitiv yondashuvni qo'llash usullaridan biri bu “o'qish strategiyalari”, “savol-javob” va “tezis-antitezis” strategiyalari hisoblanadi. Misollarni ko'rib chiqamiz. Savol-javob strategiyasida matnning semantik ma'lumotlariga yo'naltirilgan savollar va ularga javoblarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Masalan, yangiliklar matnini tahlil qilishda ushbu yondashuvdan foydalanish mumkin. Savollar quyidagicha bo'ladi: “Matnda qanday yangiliklar yetkazildi?”, “Matnning asosiy ma'nosi nima?”, “Matnda tasvirlangan u yoki bu holatga qanday voqealar sabab bo'ldi?” va hokazo.

Tezis-antitezis stretegiyasidan qaysidir masala yuzasidan bahs yuritilayotgan matnlarni tahlil qilishda foydalaniladi. Misol uchun, ilmiy jurnal maqolasida olimlar o'rtasidagi ma'lum bir qarama-qarshilik yoki nizo tasvirlanishi mumkin. Bunday holda mualliflarning pozitsiyalarini aniqlash va ularning fikrlarini solishtirish uchun ushbu tahlil usulidan foydalanish mumkin.

Murakkab texnik ma'lumotlarni taqdim etish uchun texnik atamalar va rasmiy taqdimotlardan foydalanishga asoslangan analitik matn uslubidan foydalanish samarali bo'lish bilan birga, boshqa tomondan, katta auditoriya uchun qiziqarli va tushunarli maqolalar yaratish uchun sodda tildan foydalanish va texnik

atamalardan qochish muhimdir. Masalan, “Ijtimoiy tarmoqlar qanday ishlaydi?” nomli maqola nomi sodda soʻzlar bilan ifodalangan.

Katta auditoriyani qamrab olish va ijtimoiy tarmoqlarning murakkab texnologiyasini yetkazish uchun tushunarli til va grafik illustratsiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, “Python da dasturlash” maqolasida murakkab texnik maʼlumotlarni dasturchilar auditoriyasiga yetkazish uchun texnik atamalar va rasmiy taqdimotlardan foydalaniladi.

AKT terminologiyasining kognitiv va semantik tahlili AT kompaniyalari uchun noyob brend va tanish matn uslubini yaratishga yordam beradi. Apple va Google maqolalarida koʻpincha taniqli uslub va brendni yaratadigan noyob terminlar va umumiy qisqartmalardan foydalaniladi. Ingliz olimlarining fikricha, ushbu lingvistik strategiya branding tili yoki brendga xos til sifatida tanilgan [5;317–337 p.].

AKT diskursidagi matnlarda kognitiv semantik yondashuvni qoʻllashda konseptual metaforalar va obrazli tasvir sxemalaridan foydalaniladi. Konseptual metafora nazariyasi ilk bor Lakof va Jonson tomonidan ilgari surilgan [6;112 p.]. Olimlarning fikricha, konseptual tizim, insonlarning dunyo bilan oʻzaro munosabatda boʻlish jarayonida shaxsiy hamda jismoniy tajribalar orqali rivojlanadi. Ushbu yondashuv axborot texnologiyalari haqidagi tushunchamizni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etib, olamning lisoniy manzarasini qaysi shakllari til orqali faollashganligini koʻrsatadi.

AKT diskursidagi autentik matnlarda konseptual metaforalarning bir necha turlarini koʻrib chiqamiz.

1. “*cyberspace*” (kibermakon) soʻzining matndagi metaforalari.

Internet va kompyuter tarmoqlari paydo boʻlishining dastlabki kunlarida “cyberspace” (kibermakon) metaforasi ommalashib, u kompyuter va kompyuter tarmoqlaridagi virtual dunyo tashunchasini aks ettirdi. Ushbu metafora raqamli soha va real makon oʻrtasida, yaʼni, foydalanuvchi va uning kompyuteri oʻrtasida kontseptual aloqani yaratadi. Masalan,

a) “Cyberspace has completely revolutionised our ways of life, disrupted our economies, and allowed for important progress in our societies. But the advantages of the digital revolution are now threatened by the use of cyberspace for war purposes...”

Ushbu matnda kibermakon atamasi virtual boʻlishiga qaramay, insonlarning hayot tarzlarini oʻzgartirayotgani, mamlakat iqtisodiyotini izdan chiqarib yuborgani, raqamli inqilobdan urush maqsadida foydalanayotganligi haqida yozilgan. Yaʼni, bu yerda “kibermakon” foydalanuvchilari (virtual tarzda) va real insonlarning moddiy hayotlari oʻrtasida konseptual aloqa koʻrsatilgan;

b) Automatically optimize your battery life while maintaining the outstanding graphics performance you expect, whether you're watching a movie, surfing the web, or playing a 3D game.

Yuqorida keltirilgan matnda *cyberspace* soʻzining boshqa metaforasi gavdalangan. Internet foydalanuvchilari orasida ommalashgan “*surfing the web*” (internetda kezmoq) iborasi foydalanuvchilarning maʼlumotlar maydoni boʻylab jismoniy harakatlanishlarini anglatadi. Bu metafora tilda ham gavdalangan boʻlib, bunda boʻshliq orqali tana harakatining harakatli tasvir sxemasi faollashadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, AKT diskursidagi autentik matnlar turli xil kognitiv-semantik xususiyatlarga ega boʻlib, ularni bilish, ushbu sohada matnlarni tuzishda mazkur xususiyatlarni inobatga olish, matn sifatini va aniqligini taʼminlaydi. Shuningdek, matnlarni kognitiv-semantik tahlil qilish ushbu sohaning oʻziga xos xususiyatlarini tushunish uchun muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Bu madaniy va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda kontekstdagi soʻz va iboralarning maʼnolarini tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, internet olamidagi insoniy munosabatlar xususiyatlarini chuqurroq tushunish, aniq va foydali matnlar yaratish va aloqalarni oʻrnatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- (1). Кондратюкова Л.К. Становление и развитие терминологии вычислительной техники в английском языке. Дисс. ... канд. филол. наук, Омск, 1984, с. 198.
- (2). Talmy, Leonard. (2012). Toward a cognitive semantics, Vol. 1: Concept structuring systems. Language, speech, and communication. P. 145.
- (3). Ларина Ю.Е. Прагматика термина как семиотическое свойство (на материале русской лингвистической терминологии). Дисс. ... канд. филол. наук, Ростов-на-Дону, 2007, с. 164.
- (4). Berger, Jonah & Schwartz, Eric. (2011). What Do People Talk About? Drivers of Immediate and Ongoing Word-of-Mouth. 34 (2), p. 121–134.
- (5). Luna, David & Lerman, D.B. & Morais, Robert. (2018). The Language of Branding: Theory, Strategies, and Tactics, p. 317–337.
- (6). Lakoff G. & Johnson M. (1980). Metaphors we live by. Chicago, IL. The University of Chicago Press, p. 112.

Isakjanova Shahodat Muxamedovna (O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti;  
E-mail: isakjanovashahodat@gmail.com)

**SHE'R NAZARIYASI: MA'NO DIAPAZONI VA GENEZISI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada she'r haqidagi nazariy qarashlarning ildizi, she'r genezisi, shuningdek, lug'aviy va istilohiy ma'nolari borasidagi mulohazalar o'rin olgan. She'rning kelib chiqishi haqidagi qarashlar umumiylik mezonlari asosida tahlilga tortilgan. Maqolani yozishda qiyosiy, sotsiologik, psixologik kabi tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Kalit so'zlar:** modifikatsiya jarayoni, ijodkor tafakkuri, lirika, spetsifik xususiyat, poeziya, kechinma-ning voqelanishi, estetik ta'sir, til va nutq hodisasi.

**ТЕОРИЯ ПОЭЗИИ: СМЫСЛОВОЙ ДИАПАЗОН И ГЕНЕЗИС**

**Аннотация.** В данной статье содержатся комментарии об истоках теоретических взглядов на стихотворение, генезисе стихотворения, а также его лексическом и терминологическом значениях. Мнения о происхождении стихотворения анализируются по общим критериям. При написании статьи использовались такие аналитические методы, как как сравнительный, социологический и психологический.

**Ключевые слова:** процесс модификации, творческое мышление, лирика, специфика, поэзия, реализация опыта, эстетический эффект, язык и речевой феномен.

**THEORY OF POETRY: MEANING RANGE AND GENESIS**

**Annotation.** This article contains comments on the root of the theoretical views on the poem, the genesis of the poem, as well as its lexical and terminological meanings. Opinions about the origin of the poem are analyzed based on general criteria. Analytical methods such as comparative, sociological, and psychological were used in writing the article.

**Key words:** modification process, creative thinking, lyric, specific feature, poetry, realization of experience, aesthetic effect, language and speech phenomenon.

**Kirish.** Adabiyotshunoslik ilmida she'r haqidagi nazariy qarashlarning paydo bo'lishi, adabiy tur sifatida izohlanishi Arastuning "Poetika" asariga borib taqaladi. O'tgan ikki yarim ming yildan ziyodroq davr mobaynida she'rga bo'lgan munosabat, uning mazmunan va shaklan o'zgarishlarga uchrashi, xilma-xil modifikatsiya jarayonlarini boshdan kechirishi, mavjud voqelik, davr taqozosi, qolaversa, shu omillarga bevosita bog'liq holda ijodkor tafakkuridagi siljishlar lirika borasidagi nazariy qarashlarga ham ma'lum ma'noda o'zgartirishlar kiritdi. Lekin shunga qaramay, adabiy turlarga, xususan, lirikaga Arastu tomonidan berilgan spetsifik ta'rif deyarli o'zgarishsiz qoldi: "Yo avtor voqealarga aralashmay hikoya qilishi...yoki butun hikoya davomida avtor o'zligicha qolishi, yoxud barcha aks ettiriluvchi shaxslarni gavdalantirishi mumkin" [1;10-b.].

**Adabiyotlar tahlili.** Arastudan boshlangan lirik turga doir nazariy qarashlar, keyinchalik, jahon va rus adabiyotshunosligida Gegel, V.G.Belinskiy, N.A.Dobrolyubov, A.N.Veselovskiy, K.Byuxer, I.Bexer, A.Gornfeld, M.Epshteyn, M.Xaydegger va boshqa olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan.

O'zbek adabiyotshunosligida A.Fitrat, A.Sa'diy, I.Sulton, N.Mallayev, V.Abdullayev, O.Sharafiddinov, G'.Karimov, A.Hayitmetov, A.Qayumov, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, L.Qayumov, H.Abdusamatov, U.Normatov, B.Valixo'jayev, A.Hojiahmedov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, N.Xudoyberganov, N.Shukurov, S.Mirzayev, E.Karimov, N.Karimov, U.To'ychiyev, H.Umurov, A.Ulug'ov, E.Xudoyberdiyev, I.G'afurov, Q.Yo'ldoshev, N.Rahimjonov, J.Kamol, D.Quronov, U.Hamdammov, B.Sarimsoqov singari olimlarning darslik va tadqiqotlarida lirikaga oid muhim nazariy qarashlar tadqiq qilingan.

Deyarli barcha adabiyotshunoslar lirikaga mansub asarlarning, ya'ni, har qanday she'rning ta'sirchanligini ta'min etadigan, uning adabiy-estetik hodisa ekanligini tavsiflaydigan bosh omil sifatida dispozitsiyaga – real voqelikka subektiv o'laroq yondashilishi, aniqroq aytganda, muallif "men"i nuqtayi nazardan baho berilishini nazarda tutadilar.

Nazariy adabiyotlarda, adabiyotshunoslikka doir lug'atlarda she'r istilohi, asosan, ikki ma'noda kelishini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Adabiyotshunoslik lug'ati"da she'rga shunday ta'rif berilgan: 1) muayyan o'lchov asosidagi ritmga ega nutq shakli, nazm; 2) she'riy yo'lda yozilgan kichik hajmli asar, lirik she'r [8;358-b.].

Lug'at mualliflari she'r terminining ikkinchi ma'nosi birinchisiga qaraganda ommalashganligi va keng qo'llanishini ta'kidlashar ekan, aynan shu keyingi ma'no she'r so'zining etimologiyasiga ko'proq ya-

qinlashishini, ya'ni, dastlab yunon adabiyotida vujudga kelgan lirika va poeziya atamaları bilan bir xil mazmunda ekanligini eslatib o'tishadi. Demak, bundan shunday xulosa qilsak bo'ladi: she'r atamasining birinchi ma'nosi keng ma'noda olingan bo'lib, umuman, har qanday she'riy yo'lda yaratilgan asarlarga nisbatan (she'riy dostonlar, she'riy romanlar, she'riy yo'lda yaratilgan drama ham shuning ichiga kiradi) ishlatiladi. She'ning mazkur ma'noda qo'llanishi asarning qaysi turga mansubligidan ham ko'ra ko'proq, qanday usulda yozilganligi (she'riy yoki nasriy) bilan izohlanadi. Yuqorida keltirib o'tganimiz – antik davrga mansub epopeyalar ham aynan she'ning keng ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, badiiy adabiyotning tamal toshi lirik tur emas, balki she'riy shakl ekanligi ayonlashadi.

Ko'rinadiki, she'r keng ma'nosida inson zotining badiiy adabiyotdek mo'jizaviy olamni kashf etishiga sababchi bo'ldi. Tor ma'nosida esa qadim zamonlardan to hozirga qadar odamzodning borliqdagi eng asosiy fazilati – ruhiy dunyosini ochishda tramplin vazifasini bajarib kelmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** She'r tushunchasiga umumiy tavsif berishda, uning genezisi, tur sifatidagi xususiyatlari borasida nazariy xulosalar berishda o'tmish zamonlardan to hozirga qadar tadrijiylik asosida shakllanib kelayotgan jahon va o'zbek olimlarining ilgari surgan nazariy qarashlari asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Lekin, shuni ham ta'kidlash kerakki, ba'zi xulosalarda turlicha rakurslarning muayyanlashuvi yuzaga kelgan bo'lib, bu holat, ayniqsa, she'ning kelib chiqishi xususidagi masalalarda yaqqol aks etadi. Quyidagi genezis masalasidagi ayrim mulohazalarga e'tibor qaratamiz.

**Tahlillar va natijalar.** She'riyatning o'z tabiatiga ko'ra, qanday xususiyatlardan tarkib topganligi, boshqa adabiy turlardan ajralib turuvchi belgilari borasida mulohaza yuritishdan oldin, umuman, she'r qanday paydo bo'lgani va insoniyat taraqqiyotining shakllanish pallalarida nechog'lik ahamiyatga ega ekanini aniqlab olishimiz zarur.

Nemis filologi Vilgelm Gumbolt she'riyat nazariyasining boshlang'ich nuqtasi sifatida uning, avvalo, til hodisasi o'laroq, yuzaga kelganligini ta'kidlagan edi. Ammo, bizningcha, she'ning vujudga kelishida dastlabki omil vazifasini til emas, nutq bajargan. Vaholanki, tilshunos olim Ferdinand de Sossyur tadqiqotlarida to'g'ri qayd etganidek, til va nutq hodisalar orasida zidlanishlar borligi, ularning tamoman boshqa-boshqa hodisalar ekanligi, biz hozirgacha tilning paydo bo'lishiga taqab keladigan taqlidlar, undovlar nazariyalari aslida nutqning genezisiga doirligini nazardan soqit qilsakkina, she'ning paydo bo'lishini til hodisasiga bog'lashimiz mumkin bo'ladi.

F.Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida voqelanishi, shuningdek, nutq ayni paytda faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til ekanligini qayd etib, til va nutq tushunchalarining umumiylik – xususiylik; imkoniyat – voqelik; mohiyat – hodisa; aloqa material – aloqa shakli; turg'unlik – o'zgaruvchanlik; hajm noaniqligi – hajm aniqligi jihatlaridan farqlaydi.

Mazkur farqlanishlarning har birini she'ning genezisiga bog'liq holda talqin qilishga urinsak, ya'ni she'r aslida til hodisasi o'laroq, yuzaga kelganmi yoki nutq hodisasimi ekanligini har bir ziddiyat asosida isbotlashga harakat qilsak, mavzudan uzoq tushishimizni e'tiborda tutib, tafovutlar orasida birgina mohiyat va hodisa aloqasini oydinlashtirishga qaror qildik. Nutqning ritmik-intonatsion tomoni rivojlana boshlagan ibtidoiy jamoa davrida insonlar g'ayrihuuriy ravishda tovushga asoslangan turli qichqiriqlar, chug'urlashlarni ifoda qila boshlashgan. Mazkur tovushlarning inson tomonidan ifoda etilishiga odamlarning mehnat qurollarini ishlatilishini o'rganishi, xo'jalikda ishlab chiqarishga asoslangan amaliy harakatlarning yo'lga qo'yilishi natijasida ish unumdorligining ortishi hamda aynan shu asnoda mehnat jarayonlari bilan bog'liq holda sinkretik tarzda bo'lsa ham, san'at turlarining yuzaga kelishi kuzatiladi. Demak, dastlabki she'rlar, ashulalar, raqs va rassomchilik aynan ibtidoiy insonlarning mehnat jarayonlari tufayli yuzaga kelgan. Aytish joizki, mazkur sinkretik san'at vositalarining hech biri ixtiyoriy anglanganlik prinsiplarini aks ettirmas edi. Holbuki, mohiyatga ega bo'lmagan hech bir san'at turi til hodisasiga aylanib ulgurmagan bo'ladi. Irlandiyalik buyuk yozuvchi Jeyms Joys asarlaridan birida qahramonlari tilidan badiiy adabiyot xususiyatlari borasida mulohaza yuritar ekan: "Lirik tur – bu mohiyatan ehtirosli lahzaning oddiy so'zlarga o'rab berilgan ko'rinishi, ming yillar burun, qadim zamonda odam mashaqqat chekib, eshkak eshib yoki tog'da tosh tashib, o'ziga-o'zi dalda berib, bexosdan aytib yuborgan xirgoyisi" [9;63-b.], deganda ham ongosti qatlamlaridagi beixtiyor yuzaga kelgan xirgoyini ko'zda tutadi. She'rlarning vujudga kelishiga asos bo'lgan mehnat qurollaridan, shuningdek, tabiatdan chiqadigan boshqa tovushlar odamlar ongida faqat hodisa sifatida namoyon bo'lganligi uning, avvalo, nutq hodisasi ekanligini ko'rsatadi.

Inson ongi to'xtovsiz rivojlanishi asnosida she'r ham asta-sekinlik bilan til hodisasiga aylana boradi. Keyinchalik chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik bilan bog'liq tarzda yaralgan mehnat qo'shiqlarining negizida til hodisasi yotganligini til bilan bog'liq imkoniyat, umumiylik, mohiyat, turg'unlik xususiyatlariga ega ekanligida ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Aytishimiz kerakki, nutq hodisasi o'laroq zaminga



kelgan she'r tushunchasi, umuman, san'atning har qanday turi hali to'la ma'noda estetik voqelikka aylani-shi uchun ibtidoiy jamoa davridan boshlab, inson idrokining nisbatan takomillashgan davrida yaratilgan xalq og'zaki ijodi namunalarigacha bo'lgan ko'plab tafakkur dovonlarini bosib o'tishiga to'g'ri keldi.

**Xulosa.** She'r haqidagi nazariy qarashlar Arastu davridan tortib, hozirgi kunimizgacha hamisha diq-qat markazida bo'lib keldi. Inson ongi takomillasha borgani sari, lirikaga bo'lgan mislsiz ehtiyojning orti-shi, she'rning odamzod ruhi bilan uzviy bog'liq hodisa ekanligi u haqidagi qarashlar, mulohazalar, mezon-lar doimiy ekanligini ko'rsatadi. Ana shu ma'noda biz ilgari surgan she'rning ma'no diapazoni, shuningdek, genezisiga doir ba'zi nazariy xulosalarimiz ham hali uzoq davom etuvchi bahslarning debochasi bo'lishi, shubhasiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Аристотель. Поэтика. Маҳкам Маҳмудов ва Уммат Тўйчиев таржимаси. Тошкент, Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980, 10-бет.
- (2). Гегель. Эстетика в 4-томах. М., "Искусство", 1968; Белинский В.Г. Танланган асарлар. Ўзбекистон ССР давлат нашриёти, Т., 1955.
- (3). Белинский В.Г. Мақолалар. Тошкент, 1948.
- (4). Белинский В.Г. Адабий орзулар. Адабий-танқидий мақолалар. Т., Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977.
- (5). Веселовский А.Н. Историческая поэтика. Л., Москва, "Высшая школа", 1989; Бюхер К. Работа и ритм. М., 1923.
- (6). Бехер И. Любовь моя, поэзия. М., 1965.
- (7). Михаил Эпштейн. Шеърят ва суперпоэзия. Ижодий оламларнинг хилма-хиллиги ҳақида. Санкт-Петербург, "Азбука", 2016.
- (8). Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, "Академнашр", 2010, 358-.
- (9). Jeysms Joys. Navqiron san'atning siyrati. Roman, "Jahon adabiyoti" jurnali, 2007, 4-son, 63-бет.

**Davletova Shalola Bahodir qizi (Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti, Toshkent, O'zbekiston; E-mail: shaloladavletova96@gmail.com)**

#### **NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA INSON RUHIYATINING AKS ETISHI: HAYOT MOHIYATI VA INSON TAQDIRI MASALALARI**

*Аннотация.* Inson ruhiyati, ongida kechadigan kechinmalar badiiy asarlarning tarkibiy qismi hisoblanib, asar personajlarining ruhiy tahlili asarga ko'proq hayotiylik baxsh etadi, uni yanada o'qishli bo'lishiga yordam beradi. Zamonaviy o'zbek nasri vakili Nazar Eshonqulning asarlarida ham qahramonlarning ruhiy manzaralari o'quvchini idrokka undaydi; hayot mohiyati va inson taqdiri masalalari ustida o'ylarga cho'g'ndiradi. Maqolada adibning bir nechta hikoyalari tahlili berilgan.

**Калит so'zlar:** ruhiyat, ong oqimi, fabula, psixologizm, tugun, roviy, tushkunlik, kompozitsiya.

#### **ОТРАЖЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПСИХИКИ В РАССКАЗАХ НАЗАРА ЭШОНКУЛА: ВОПРОСЫ СУЩНОСТИ ЖИЗНИ И ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ СУДЬБЫ**

*Аннотация.* Психика человека, переживания в сознании считаются составной частью художественного произведения, а психологический анализ персонажей произведения придает произведению большую живость, помогает сделать его более читабельным. В произведениях представителя современной узбекской прозы Назара Эшанкула мысленные пейзажи героев побуждают читателя к восприятию; автор размышляет над вопросами сущности жизни и судьбы человека. В статье представлен анализ нескольких рассказов писателя.

**Ключевые слова:** психика, поток сознания, басня, психологизм, узел, рассказчик, депрессия, композиция.

#### **THE REFLECTION OF THE HUMAN PSYCHE IN THE STORIES OF NAZAR ESHANKUL: QUESTIONS OF THE ESSENCE OF LIFE AND HUMAN DESTINY**

*Annotation.* The human psyche, experiences in the mind are considered as a component of artistic works, and the psychological analysis of the characters of the work gives more vitality to the work, helps to make it more readable. In the works of Nazar Eshankul, a representative of modern Uzbek prose, the mental landscapes of the heroes encourage the reader to perceive; ponders over the issues of the essence of life and human destiny. The article provides an analysis of several stories of the writer.

**Key words:** psyche, stream of consciousness, fable, psychologism, knot, narrator, depression, composition.

**Kirish.** Inson ruhiyati tahlili juda uzoq zamonlardan beri olimlar-u faylasuflar, diniy ulamolar, jumladan, adabiyotshunoslar tadqiqotining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Insonni anglash, umuman, borliqni anglashga bo‘lgan intilishlar inson ruhiyati tushunchasini yanada dolzarblashtirgan omillardan hisoblanadi. Ruhiyat fenomeni, unga dunyo olimlari tomonidan berilgan ko‘plab tasniflarga qaramay, o‘zining konkret izohli lug‘atiga ega emas. Buni uning mavhumligi, moddiyatdan ustun turishi va har bir individual shaxsda turli ko‘rinishga egaligi singari xususiyatlari bilan izohlash mumkin.

Adabiyotshunoslikdagi tayanch tushunchalardan biri hisoblanuvchi ruhiyat tushunchasi har bitta nasriy hamda lirik asar yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijodkor o‘z badiiy asarini yaratarkan, unga o‘z ruhiyatidagi inja tuyg‘ular vositasida hayotiylik baxsh etadi, o‘zi yaratgan lirik qahramoni yordamida xayolot olami tubida yashirinib yotgan his-tug‘ulari, orzu-armonlari, quvonch-shodliklari, qayg‘u-iztiroblari, alamlarini ozodlikka chiqarib, asarining estetik jozibali bo‘lishini ta‘minlaydi. Shu yerda bir savol tug‘iladi: bunday asarlarni yozilishidan yoki o‘qilishidan kimga ne foyda? Inson ruhiyatiga chuqur kirib borishga undovchi omillar qaysi?

Javob juda oddiy. Insoniyat yaratilibdiki, uning har bir a‘zosi bu olamda umrguzaronlik qilar ekan, aslida, “hayot mohiyati nimada?” degan savolga javob izlab yashaydi, zero, oliy mavjudot hisoblanmish biz, insonlarning boshqa tirik mavjudotlardan farqimiz ham aynan shundadir. Hayot mazmunini qidirish, yomonlikka qarshi kurashib, ezgulikka intilish, ilm olish, yaxshilik qilish va shunga o‘xshagan barcha yuksak amallar har qanday insoniy ta‘limotlar va badiiy asarlardagi bosh mavzular hisoblanadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha omillar inson ruhiyati va inson taqdiri masalalarini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish, tadqiq etish ishlarini oldimizda turgan badiiy-estetik vazifalar ekanligidan darak beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Tadqiqotga doir adabiyotlar o‘rganib chiqildi. Bunda Qobilova N.S. muallifligidagi ruhiy tahlil masalalariga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasi, “Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm” hamda asarlar tahlilida D.Quronovning “Adabiyot nazariyasi asoslari” darsligidan foydalanildi. Shuningdek, D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyevalar muallifligidagi “Adabiyotshunoslik lug‘ati”dan ham nazariy ma‘lumotlardan foydalanildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot kontekstual tahlil asosida amalga oshirildi. Bunda muallif hikoyalarga yuklagan badiiy mazmun qisman uning biografiasiga asoslangan holda biografik metod orqali, badiiy asar hamda real hayot voqeligi munosabatlari esa [3;325-b.] sotsiologik tahlil metodi orqali amalga oshirildi. Shuningdek, psixologik hamda psixoanalitik tahlil metodlaridan ham unumli foydalanildi.

**Natijalar va munozara.** Psixologizmning turli prinsiplaridan foydalanib, inson ruhiyatining tub-tubiga kirib borgan, uning ko‘plab ochilmagan qirralarini qahramonlari ruhiyati tasviri vositasida kashf qila olgan yozuvchi Nazar Eshonqul ko‘plab hikoyalarda hayot tashvishlaridan ezilgan, turfa qiyin vaziyatlarga tushib qolgan, baxtsiz va pushaymon kishilarning ruhiyatini musavvir singari mohirona chizadi. Real hayotda biz, insonlar his qila turib, ta‘riflay olmagan murakkab qalb tug‘yonlarimizni yozuvchi o‘z hikoyalari va boshqa epik asarlarida aniq va turfa ranglarda ko‘rsatib beradi. Yozuvchining qahramonlari oddiy odamlar: o‘z-o‘zini tahlil qilish, tafakkur qilish, afsuslanish kabi xususiyatlari ularga haqiqiy insoniy qiyofa baxsh etgan. Umuman olganda, “...inson o‘ylaydigan va his etadigan mavjudot, demak, ruhiyatda kechadigan jarayonlar tasvirisiz uning obrazi ham noqis bo‘ladi” [3;74-b.]. Yozuvchining to‘lig‘icha ruhiyat tasviri asosiga qurilgan hikoyalari, ayniqsa, e‘tiborga molik. Jumladan, “Sharpa”, “Istilo”, “Sibizg‘a volasi”, “Og‘riq lazzati” singari hikoyalarda voqealar rivoji ong oqimi va personajlarning ruhiy kechinmalari asosiga unchalik katta ahamiyat kasb etmaydi, zero, yozuvchi qahramonlar o‘y-xayollaridagi jadallik va buri-lishlarni shunchalik mohirona va hayotiy tasvirlaydiki, o‘quvchi “keyin nima bo‘lganligini” kutib sabrsizlanadi, katarsis jarayoni tabiiy ravishda ro‘y beradi: lirik qahramon bilan birgalikda qayg‘uga tushadi, quvonadi, qo‘rquvni his etadi, yig‘laydi yoki hayajonlanadi.

Kompozitsion jihatdan, ko‘pincha, tugun bilan boshlanuvchi adibning hikoyalarda qahramonlar ruhiyati psixologizmning bevosita monolog vositasi orqali tasvirlanadi. Bu bilan bilvosita tasvir usulidan, umuman, foydalanmaydi deyolmaymiz, lekin yozuvchi personajlarining psixologik holatini ko‘p hollarda ochiqdan ochiq tasvirlab, istiora va mohirona o‘xshatishlardan ham foydalanadi. Nazar Eshonqulning “Istilo” hikoyasi lirik qahramonning 3 kundan buyon ovqat yemaganligi va jismoniy jihatdan azoblanganligi tasviri bilan boshlanadi. Hikoya boshidagi tugun kitobxonlarda qiziqish uyg‘otadi: u nega och? Nimadan azoblangan? Hikoyani mutolaa qilayotgan kitobxon savollariga hikoyaning yarmini o‘qiganida, javob topa boshlaydi. Hikoya sujeti voqealar rivojiga emas, balki lirik qahramonning ruhiy kechinmalari asosiga qurilgan desak, adashmaymiz, zero, biz uning azoblariga sabab bo‘lgan barcha voqealarni uning psixologik holati, ya‘ni tushi orqali bilib olamiz. Tush ko‘rish motivi juda ko‘plab katta va kichik epik asarlarda uch-

raydi. “Nazar Eshonqul hikoyalarida tush motiviga bot-bot murojaat qilinadi. Ularda ma’lum vazifa bor ekanligi yaqqol seziladi. Folklor asarlarida tush motivining qo’llanishi ko’proq bashorat, kelajakka ishorat tarzida bo’lsa, Nazar Eshonqul hikoyalarida ham shu kabi ma’no bilan bir qatorda, ruhiy tahlil, ong anglay olmagan voqelikni, ongosti sezimlari bilan ramziy ko’rsatilganiga guvoh bo’lamiz” [6]. “Istilo” hikoyasida esa ushbu ruhiy holat orqali hikoyaning kulminatsion nuqtasi ochib beriladi. G’animlardan qochib, “o’tirg’ichning tagiga” yashiringan lirik qahramon charchoq va ochlikdan o’sha yerda uxlab qoladi va tush ko’radi. Tushdagi voqealar ochib berilishidan oldin tushga murojaat qilinadi: “O, tush kemasi, sen qaylarga suzib bormaysan, sening yelkanlaring qaysi yurtlarda hilpiramaydi, ...Menga eslatish va ko’nglimda to’nib qolgan bo’ronlarni qo’zg’atish senga shartmidi? Senga zarurmidi meni ul vahm orollariga boshlab borish, meni uyquda ham ta’qib etish ey, ulug’ tush!” Aynan shu murojaatdan bilish mumkinki, bu tush qahramonning eng ayanchli xotiralari haqida edi. Dushman tomonidan otasi va bobosining vahshiylarcha o’ldirilishi manzarasini aynan shu psixologik holat orqali chizgan adib keyingi o’rinlarda xayoliy uydirmalar va boshqa vositalar orqali asar sujetini boyitib boradi. Badiiy psixologizmining analitik prinsipidan foydalangan holda yozuvchi bosh qahramonning (hikoyadagi qochoqning) qo’rquvi, anduhlari, jismoniy og’riqlarini o’quvchiga yuqtiradi. U muttasil dushmandan qochib yurar ekan, o’tgan umrini tahlil qilar, ajdodlarini xotirlab avlodlari bo’lmasligidan iztirob chekardi. Dushman qo’l ostidagi o’z yurti, undagi o’zgarishlar lirik qahramon ruhiyatini tipologik prinsip vositasida ham yoritilganligini ko’rsatadi: “...rostan ham shahar unga g’irt yot va chiroyli qilib qurilgan qatl maydoniga o’xshab qolgandi” [2;47-b.].

“Istilo” hikoyasida muallifning badiiy niyati yaqqol ko’zga tashlanmaydi. Buni hikoyaning sujeti “yechim”ga ega emasligi bilan izohlash mumkin. Hikoya so’ngida bosh qahramon taqdiri nima bo’lishi yoritilmagan: u yashirinib yurgan joyidan ta’qib etiladi va shahar ichidagi bir uyga yashirinadi. U yashiringan uydan ta’qibchilar qochoqni emas, bir qo’zichoqni topib chiqishlari bilan hikoya yakunlanadi. Yechimning mavjud emasligi o’ziga xos uslubiy vazifa bajarib, o’quvchining ijodiy faolligini oshirib, qahramon taqdirini hal qilish ular ixtiyoriga topshiriladi. Hikoyada yurtdan judo bo’lish, yaqinlaridan ayrilish, hayot mazmunini yo’qotib qo’yish kabi baxtsizliklar qahramonning ruhiy va jismoniy holati orqali ochib beriladi.

Adib muallifligidagi “Og’riq lazzati” hikoyasida ham asirlikka tushgan ruhan ozod kimsalarning achchiq alamli taqdiri xususida so’z boradi. Hikoyaning sarlavhasiyiq kishida savol uyg’otadi: “Og’riqdan lazzatlanish mumkinmi?” Mumkin, agar inson ezgulik uchun kurashsa-yu mag’lub bo’lsa, vatan uchun jang qilsa-yu shahid ketsa, yoxud asir tushsa. Shahidlarcha o’lim topish yoki asirlikda ham dushmanga bosh egmaslikdan kelgan azob lazzatli bo’ladi, albatta. Ko’rinib turibdiki, asarda ijtimoiy-tarixiy, diniy asoslar chuqur singdirilgan. Badiiy adabiyotning aytmay turib aytish xususiyati bilan uyg’unlikdagi kinoyali bayon usuli o’quvchida qiziqish uyg’otadi.

Asar fabulasi yana tugun bilan boshlanadi. Asardagi dominant tugun asar yakunida ham yechimini topmaydi: asirlarning tutqundalıkları va azoblanishlarining sababi nimada? Muallifning bu arxip (zolim va mazlum)ni yaratishdagi badiiy niyati yuqorida sanab o’tilgan qaysidir sabablarga ko’ra ruhan va jismonan shafqatsizlarcha azob berilayotgan avtologik obraz-mahkum vositasida jamiyatdagi ruhan barkamol insonlarning portretlarini chizish hamda qiynoqqa solinayotgan va o’lim topayotgan asirlar azoblarini ko’rib “hordiq” chiqaradigan, ba’zi insoniylik tuyg’ularidan ko’ra hayvoniy hirslar bilan umr kechirayotgan “inson”larga achinish kayfiyatini berishdir. Hikoyadagi roviy oddiy talaba. U ham shu mahkumlarning azoblariga “ishqiboz”lardan. Asarda muallif nuqtayi nazari ochiq berilmasa-da, uning kinoyali kayfiyati yaqqol sezilib turadi. Tutqunlarga azob berishni san’at deya nomlab, uni “ravnaq” toptirish masalasi ko’plab munozaralarga sabab bo’lgani haqida bayonchi shunday deydi: “Fidoyilar gazetlarda bu san’atning ravnaq topishi haqida bahs, munozaralar uyushtirishardi: “Insonni xo’rlash mumkin emas, deb yozishardi ular munozaralarda, inson faqat ulug’lanishi kerak. Chunki u ulug’ narsalarga qodirdir”. Keyingi oylarda og’riq san’ati bilan shug’ullanuvchi tadqiqotchilar ham paydo bo’lgandi. Ular bu san’at inson yaratgan eng ulug’ san’atlardan biri ekanligini e’tirof etishar, ammo bu san’at tafakkur mahsulimi yoki tana degan masala yuzasidan hech kelisha olmasdilar”. “Og’riq san’ati”ning “ustasi faranglari” o’z ishlarini bajarayotgandagi mahkum “To’rtinchi”ning ruhiy holati bilvosita uning yuz ifodalari va fiziologik holati bilan ochib beriladi: “Mahkum g’oz qotib o’tirar, arra suyaklarini kesib o’tayotgandagina ko’zlarini yumib olar, yuzlari qopqora ter aralashib burishib ketar, biroq tezda ko’zini ochar va o’sha siniq tabassum bilan olomonga qarab jilmayib qo’yardi”. Mahkumning ko’zlarini yumib olishi va yuzlari qopqora ter aralashib burishib ketishi unda kechayotgan kuchli og’riqdan darak bersa, tezda ko’zini ochib va o’sha siniq tabassum bilan olomonga qarab jilmayib qo’yishi so’nggi soniyalarini yashayotgan mard shaxsiyat egasining g’ururi, hatto o’limga ham egilmaganligini ko’rsatadi. Asarda xalqimizning mustamlaka davridagi hayotiga nozik ishora borli-

gini sezish mushkul emas. Darhaqiqat, sobiq sho‘ro tuzumining sodda xalqimiz qo‘ynini soxta shiorlar bilan puch yong‘oqqa to‘ldirganligi, vatanga muhabbati kuchli, ozodlikka intiluvchan insonlarga turli tuhmat toshlarini yog‘dirib, “Xalq dushmani” va boshqa ayblovlar ostida asirga olib, ularda turli “tajribalar” o‘tkazgan, tomoshalar uyushtirib, azoblab, o‘z fikriga, shuuriga ega bo‘lgan, irodasi mustahkam insonlarni xalq orasidan yoqotishga qaratilgan missiyalari hech kimga sir emas. Dastlab, fikr yuritilgan “Istilo” hikoyasida ham shiorbozlikka asoslangan mustamlakachi hokimiyat haqida: “G‘animlar, aftidan, bu shaharni shiorlar saltanatiga aylantirmoqchiga o‘xshardi-shiorlardagi har bir so‘zda nafrat va g‘azab ufurib turar, u shiorlarni o‘qiyverib, boshi aylanar, o‘zini o‘ta ojiz va mahkum his etar, bu so‘zlar uning yurak bag‘ini pora-pora qilib tashlar, shiorlardagi yopishqoq va shilqim so‘zlarga asir tushayotganligini anglab qolardi”. Qolaversa, hikoyadagi bosh obraz – qochoqning otasi va bobosida o‘tkazilgan tajriba ham butun dahshati bilan yoritilgan. “Og‘riq lazzati” asarining bosh qahramoni “to‘rtinchi” siymosida ham ana shunday mard ajdodlarimiz prototipini ko‘rishimiz mumkin. Go‘yo bu ikki hikoya bir-birining mantiqiy davomidek yang-raydi.

Hikoyalarda inson ruhiyatidagi jismoniy azoblar orqali berilgan bilvosita tasvir asosida zimdan o‘tmishga, qora kunlarga qilingan ishora o‘quvchida beixtiyor xo‘rlangan, azoblangan qahramonlarga nisbatan achinish hissi, hozirgi kunga nisbatan shukronalik tuyg‘ularini uyg‘otadi. Inson taqdiri, hayot mohiyatini anglash kabi masalalarga jiddiy qaray boshlaydi. Bu tarzda katarsis yozuvchining yutug‘i bo‘libgina qolmay, bu asarlarni abadiylikka muhrlaydi.

Nazar Eshonqulning “Sharpa” hikoyasi ham ruhiyatida jadal kurashuvlar kechayotgan insonning kechmishlari haqidadir. Hikoya muallif tilidan ikkinchi shaxsga murojaat tarzida yozilgan bo‘lib, bu hikoyaning ta‘sir kuchini oshirgan omillardan biri deyish mumkin. Inson psixikasida ibtidoiy davrlardanoq paydo bo‘lgan abstakt tafakkurga ko‘ra ruhlari yaxshi va yovuz ruhlarga bo‘lingan. Ong oqimida kechadigan voqealar rivojida ham asar qahramoni o‘zidan boshqa hech kimning ko‘ziga ko‘rinmas sharpa bilan kurashadi. Sharpani yenga olmagan lirik qahramon u bilan birga yashashga mahkum bo‘ladi. Hikoyadagi sharpa obrazi simvolik obraz bo‘lib, uni kitobxonlar saviyasidan kelib chiqqan holda, turlicha talqin qilishlari mumkin. Sharpa yozuvchining o‘y-xayollari (“u kitobdan kitobga o‘tib yuraverardi”) yoki oddiy insonning o‘tmishdagi xatolari ramzi bo‘lishi mumkin. Bir tadqiqotda bu meatforik obraz quyidagicha izohlanadi: “Insoniyatning ichki dunyosida va nafs hamda imon o‘rtasidagi azaliy kurash” [1]. Bizningcha, hikoyadagi sharpa obrazi yuqoridagi hikoyalardagi singari mustabid hukumatning sharpasidir. U yozuvchining ijod erkinligi o‘g‘irlab, tinmay ta‘qib etadi. Adibning mustaqillikdan oldin ijod olamiga kirib kelganini hisobga oladigan bo‘lsak, bu haqiqatga juda ham yaqin talqindir. Hikoya so‘nggidagi: “...yo sen sharpani yo sharpa seni butkul yengmaguncha ta‘qib va vahm og‘ushida, u chizib bergan zulmatga g‘arq etilgan yulduzsiz osmon ostida yashashga mustahiq etilganding” jumalari fikrimizni dalillashga yordam beradi. Yulduzsiz osmon-erksiz vatan, ta‘qib qilish esa sobiq mustamlakachi hukumatning xalqni qo‘l ostida saqlab turuvchi asosiy qurollaridan biri edi. Bunday zulmdan, ta‘qibdan eng ko‘p aziyat chekkan, shubhasiz, ilm ahli, adabiyot olami ustunlari edi.

Yozuvchining mahorati ham aynan shu kabi simvolik obrazlarni inson ruhiyatida kechadigan evrilishlar vositasida yanada uyg‘unlashtirishdadir. Asarlarini o‘qir ekanmiz, adib zamonaviy jahon adabiyoti yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda, ularni asrlar mobaynida xalqimizning milliy mentalitetini ko‘rsatib beruvchi e‘tiqod aqidalari bilan hamohanglikda yoritib berganligiga guvoh bo‘lamiz.

Tarixiy rivoyatlarga asoslangan, buyuk jahongir Iskandar Zulqarnayn shoxi borligi haqidagi afsona asosida yozilgan “Sibizg‘a volasi” hikoyasida ham ong oqimida kechadigan psixologik holatlar: qo‘rquv, hayajon, nafrat, tushkunlik kabilar hikoya sujetining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Hikoyadagi roviy Iskandar saltanatidagi oxirgi sartarosh. Hikoyaning fabulasi “uchta soqchi va oqsoq darbon”ning sartaroshxonaga yaqinlashib kelayotganligi tasviri bilan boshlanadi. Yozuvchi hikoya boshidanoq qahramonlar ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni dinamik prinsip orqali tasvirlaydi: “Go‘yo o‘z qilmishlarini quyoshdan yashirmoqchiday qalqonlari bilan yuzlarini oftobdan to‘sgancha nayzalarini quyosh nurida yaltillatib.... Erinchoqlik bilan kelayotgan uchta soqchi va oqsoq darbon” tasvirlarida roviyning taqdiri borasidagi bashorat aks etadi. Iskandar saroyiga kirib borishar ekan, saroy tasviri bilan o‘ziga xos bir butunlik hosil qilgan roviyning ichki dunyosi tasviri hikoyaning sujet chiziqlarini yanada jadallashtirib saroy ichkarisida uni nima kutyotganini taxmin qilishga yordam beradi: “Faqat ortiqcha hasham va salobat meni lol qilib qo‘ygandi. Har bir qadamda xuddi yerosti ilohlari manzilidek sovuq ruhiyat va sarob kabi jimgina to‘shalib yotardi”. Sartaroshning Iskandar boshidagi shoxlarni ko‘rib, keyin unga “jim” yurishi kerakligi haqidagi tahdidlardan so‘nggi ruhiy holati tasviri shunchalik jonli tasvirlanganki, uni o‘qiganimizda beixtiyor katarsisga tushib qolamiz: “Jim yurish aqldan ozdirardi, telba qilardi. Xuddi ichimga jin kirib olganday edi. Bu jin erta-yu

kech xayolimni Iskandarning boshida turgan shox bilan band qilar, u haqda kimgadir aytish, bu sirni ochib fosh qilish istagini uyg'otar, ko'ringan har bir odamga "Ayt, ayt" deytoganday tuyular, bu istak ba'zida meni shunchalik qistovga olardiki, butun badanim qaqshay boshlar, boshimga og'riq kirar, paylarim tortishib, xuddi tutqanoq tutayotganday qaltiroq va azobdan bukilib qolar...". Bundan tashqari, hikoyadagi ruhiy holat tasvirlari o'ziga xos uslubiy vazifa bajarib, bu orqali hikoyaning ta'sir kuchi yanada oshgan desak, adashmaymiz.

**Xulosa va takliflar.** Demak, inson ruhiyati, taqdiri va hayot mazmuni kabi masalalar real hayotdagi singari badiiy asarlarda ham markaziy tushunchalardan hisoblanar ekan. Yuqoridagi tahlil natijalariga asoslanib shunday xulosaga kelamiz:

a) "Istilo" hikoyasida bosh qahramonning ruhiy holati orqali uning butun hayoti va o'tmishi yoritiladi, bu o'ziga xos badiiy-estetik vazifa bajarib, asar voqealari kechayotgan zamon va makon haqida to'liq tushunchaga ega bo'lishga yordam beradi;

b) ruhiy holat manzaralari bilvosita qahramonlarning yuz ifodalari va fiziologik holati bilan ochib berilishining go'zal na'munalardan biri "Og'riq lazzati" hikoyasidir. Bunda bosh qahramonlarning o'y-xayollari (ong oqimi) bilvosita ulardagi tashqi ta'sir yordamida yoritiladi va o'quvchidagi badiiy faoliyat: fikrlashni kuchaytiradi;

d) "Sharpa" hikoyasida inson ruhiyatidagi kurashuvlar aks etadi. Insonning o'z o'zini tahlil qilish, gunohlari sababli vijdon azobida yonish kabi psixologik holatlar hikoyaning asosini tashkil qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Bo'riboeva M.Z. Zamonaviy hikoyalarda sharpa obrazi talqini (Vol. 1 No. 4 (2024): O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya).

(2). N.Eshonqul. Maymun yetaklagan odam. Hikoyalar. Toshkent, "Yangi nashr", 2019.

(3). Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, "Noshir" nashriyoti, 2019, 74-bet.

(4). Qobilova N.S. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. F.f.n. diss., Toshkent, 2020.

(5). Suvonov Z.N. Tog'ay Murod nasrida obrazlar poetikasi. F.f.n. diss., Toshkent, 2019.

(6). Umarova A.A. Tush motivining zamonaviy hikoyalardagi stilizatsiyasi (Nazar Eshonqul hikoyalari misolida), scholar ISSN, 2181-4147, Volume 1, Issue 14. 2023.

(7). Xoldorov D.E. Hozirgi o'zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo'tayev va Nazar Eshonqul qissalari misolida). F.f.n. diss., Toshkent, 2017.

(8). XX asr oxiri – XXI asr boshlari rus va o'zbek adabiyotida hikoya janri poetikasining rivoji. F.f.n. diss., Toshkent, 2016.

**Nizomova Shokhista Shodiyevna (Buxoro davlat universiteti Sport faoliyati va pedagogik ta'lim fakulteti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi dotsenti, f.f.d (PhD))**

### **ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATIDA SUV HAVZALARI VA INSHOOTLARINING IFODALANISHI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida suv havzalari va inshootlarining ifodalanishi xususida fikr yuritilgan. Unda okean, ummon, dengiz, bahrning turli talqinlari tahlilga tortilgan. Maqola, asosan, zamonaviy shoirlarning suv manbalariga bo'lgan munosabatini, suv havzalari va inshootlarining obrazlarining ma'naviy yukini o'rganadi. Shuningdek, maqolada suv havzalari va inshootlarining o'zbek she'riyatidagi hayotiy va badiiy ahamiyati, shuningdek, ularning ekologik muammolar bilan bog'liq tasvirlanishi ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** she'riyat, marosim, oilaviy-maishiy marosim, tasvir, tabiat hodisalari.

### **ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВОДНЫХ ОБЪЕКТОВ И СООРУЖЕНИЙ В СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ**

**Аннотация.** Данная статья исследует выражение водных объектов и сооружений в современной узбекской поэзии. Она анализирует различные интерпретации океана, моря и обширных водоемов, изучая разные способы их изображения в поэзии. Статья фокусируется на взаимоотношениях современных поэтов с водными ресурсами, исследуя духовный груз, который несут образы водоемов и сооружений. Автор также углубляется в жизненное и художественное значение водных объектов и сооружений в узбекской поэзии, а также в их изображение в связи с экологическими проблемами.

**Ключевые слова:** поэзия, церемония, семейная церемония, образ, природные явления.

## THE REPRESENTATION OF WATER BODIES AND STRUCTURES IN MODERN UZBEK POETRY

**Annotation.** This article explores the expression of water bodies and structures in modern Uzbek poetry. It analyzes various interpretations of the ocean, sea, and vast bodies of water, exploring the different ways they are portrayed in poetry. The article focuses on the relationship between modern poets and water sources, examining the spiritual weight carried by the imagery of water bodies and structures. It also delves into the vital and artistic significance of water bodies and structures in Uzbek poetry, along with their portrayal in relation to environmental issues.

**Keywords:** poetry, ceremony, family-life ceremony, image, natural phenomena.

**Kirish.** Zamonaviy o'zbek ijodkorlari, shoirlar makoniy va tabiiy hodisalarni ruhiy talqinlar uchun obrazlantirishga harakat qilishar ekan, bunda bevosita suv va uning analoglariga ham keng murojaat qilganliklarini kuzatish mumkin. Bu jihatdan ularning suv havzalariga bag'ishlangan she'rlari alohida e'tiborni tortadi. Jumladan, bunga Zulfiyaning «Okeanda», «Balxash oqshomi», E.Vohidovning «Qubbon ko'liga», «Buloq», «Chashma», «Daryo oqshomi», Omon Matjonning «Hovuz», Muhammad Alining «Irmoq», «Tinch okean sohilida Cho'lponni o'ylaganim», «Vashington ko'lida» singari she'rlarini misol qilish mumkin.

**Okean** suv havzalari orasida eng ulkani va qudratlisidir. She'rlarda u o'z ma'nosida ham, ko'chma ma'noda ham talqin etilgani kuzatiladi. Quyida u o'z ma'nosida ulkan suv havzasini anglatib kelmoqda:

*Okean, kema, qardosh, do'st,*

*Xurmolarida maymunlar.*

*Kun dengizda ming-ming ko'z,*

*Nurday ravshan ko'ngillar.*

**Ummon** okean so'zining uslubiy ma'nodoshi bo'lib, she'riy asarlarda, ko'pincha, «ummon» so'zi uchraydi:

*Siz – ummon, mehrda misli yo'q dengiz,*

*Bir so'z bilan aytsam, «Ona!» edingiz.*

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Muhammad Alining «O'zbekiston» she'ridan olingan ushbu misralarda ona yurtning turfa boylklarga kon keng bag'ri ko'chma ma'noda ummonga o'xshatilgan.

Ko'pchilik shoirlar sirlarga to'la hayotni sinoatlarga to'la ummonga o'xshatishadi:

*Vatanim kemasini dolg'alardin omon qil,*

*Bu poyonsiz ummonda o'zing qo'lla, Ollohim.*

Xayol va orzu-umidlarning cheksizligini hududsiz ummonga o'xshatuvchi misralarga ham duch kelish mumkin:

*Ummonday xayoling aylayman e'zoz,*

*Orzu-umidlaring xo'p avaylayman.*

*Dilingda junbushga tushsa ehtiros,*

*Men ham yuragimni shunga shaylayman.*

Ayrim shoirlar ilm-ma'rifat olishning cheki-chegarasi yo'qligini inobatga olib, uni bevosita ummonga mengzashadi:

*Ul Vatan yelkanlarini*

*Ma'rifat ummonida*

*Qiblai imon sari*

*Burmoqni istaydir ko'ngil.*

**Tadqiqot metodologiyasi.** **Dengiz** yiriklikda ummondan keyin turuvchi ulkan suv havzalaridan biridir. Xorazmlik shoir Sotim Avaz «Huquq» deb nomlangan to'plamiga kiritgan «Chol va dengiz» she'rida «Orol» muammosiga nisbatan munosabatini badiiy aks ettirish maqsadida zaminimizdagi bu ko'hna suv havzasi nomiga talmeh sifatida murojaat qilib yozadi:

*Odamlar suvsiz,*

*ular ilojsiz,*

*kim beradi*

*ularga suvni...*

*deya qurib bormoqda Orol.*

Orolning quriy boshlashi nafaqat yurtimiz, balki Markaziy Osiyo mintaqasida sodir bo'layotgan eng yirik ekologik xavf, katta fojia edi.

O'tgan asrning 60-yillari boshidan Amudaryo va Sirdaryoning suvini paxta va boshqa ekinlarga hisobsiz sarflayverish tufayli Orol dengiziga bu daryolarning suvi kelib quyilishi keskin kamayib ketdi. Oqibatda katta dengiz qurib, kichraya boshladi. Orol qurishi suv tarkibida zararli kimyoviy moddalar miqdorining ko'payishiga olib keldi. Bu esa odam sog'lig'iga ham zarar edi. Yuqoridagi misralarda aynan shu haqiqatga ishora qilinayotir. *Bahr* so'zi dengiz so'zining uslubiy ma'nodoshidir. She'riyatda bu so'z juda ko'p qo'llanadi. Dengiz obrazi ummon obrazi singari ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda uchraydi. Bu jihatdan quyidagi misralar fikrimiz dalili bo'la oladi:

*Yotib yuvosh qayg'u komida  
Yurak bildim, kichrayding cheksiz.  
«Dengizman» deb o'yla kamida,  
Dovullarni yutguvchi dengiz.*

A.Oripov «Ruhim» she'rida dengiz obrazini «dayr dengizi» deya ko'chma ma'noda qo'llasa, «O'zbekiston» she'rida uni hududdagi yagona dengiz, qomusiy olim Beruniy tug'ilib o'sgan yurtdagi «Orol» suv havzasiga nisbatan o'z ma'nosida qo'llaydi.

Shoirning «Ruhiyat» she'rida to'liqib, tin olayotgan Yapon dengizi haqida so'z yuritiladi, ammo bunda shoir Yapon dengizi haqida ochiq aytmasa-da, Yapon ohanglari deyishidan bu o'rinda Yapon dengizini nazarda tutayotgani oydinlashadi.

Shoirilar, ko'pincha, ijodni dengizga o'xshatishadi:  
*Ijod dengizimning ma'sud jo'shqinin  
Qo'msab, dil bisotin ochayotirman.*

Ijodkorlar suv, suv havzalari va inshootlarini jonlantirish uchun gohida ularga nisbatan insonning oyoq, qo'l, lab, bosh singari tana a'zolarini poetik somatizm sifatida qo'llashlari namoyon bo'ladi. Jumladan, shoira Zulfiya bir she'rida shunday yozgan:

*Men dengizning labida turdim,  
Dengiz bo'lib chayqaldi yurak,  
Men dengizning labida turdim,  
Unut o'zim, unut tevarak.*

Bunda «dengizning labi» metafora bo'lib, albatta, uning qirg'og'i tushunchasiga ishora qiladi.

She'riyatda **daryo** (nahr) obrazi ham eng ko'p qo'llanuvchi suv havzalari timsollaridan biridir.

Har bir hududdagi suv havzalari o'sha hududning faxri va iftixoriga, milliy boyligiga aylanadi. Hatto ularning nomidanoq, she'r nima va qayer haqida ekanligini oson ilg'ab olish mumkin.

*Nil qudratin jo'shib kuylar bir shoir,  
O'zgasi Gang misol qilar zamzama.*

Nil va Gang daryosi Hindiston hududiga tegishli. Shundan she'rda Hindiston haqida so'z yuritilayotganini payqash mumkin.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, xalqimiz orasida qadimdan suvga va u bilan bog'liq joylarga, narsalarga nisbatan inonch va irimlar vositasida munosabatda bo'lib kelingan. Qizig'i shudaki, bunday talqinlar zamonaviy she'riyatda ham folklorizm, postfolklor hodissi sifatida uchraydi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy o'zbek she'riyati nazardan o'tkazilsa, ayrim shoirlar ijodida suv va uning okean (ummon), dengiz (bahr), daryo (nahr), ko'l, soy, irmoq, ariq, irmoq, hovuz, quduq, buloq, chashma, shabnam, shudring, tomchi (qatra), qor, muz, yomg'ir, xalqob, girdob, ko'lmak, sharshara, favvora va boshqa analoglari obrazlantirilgani kuzatiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Т., Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007, 276-бет.
- (2). Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. Т., «Ўқитувчи», 1994, 312-бет.
- (3). Жўраев М., Нарзикулова М. Миф, фольклор ва адабиёт. Т., Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006, 184-бет.
- (4). Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. Т., «Фан», 2008, 290-бет.

Artikova Yulduz Akmalovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti "Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar" kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi; ortiqovayulduz@gmail.com)  
**AUDIOVIZUAL SPORT JURNALISTIKASINING SPETSIFIK XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada televideniya sport jurnalistikasining o'rni, ahamiyati va spetsifik xususiyatlari tadqiq etiladi. Jumladan, sport mavzusida axborot tayyorlash, yangiliklar dasturini ishlab chiqish hamda sport o'yinlari sharhlovchiligi bo'yicha mulohazalar yurutuladi. Maqolada sport mavzusida material tayyorlashning o'ziga xosligi tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** sport, efir, muxbir, jurnalistika, janr, tahlil, ma'lumot, telekanal, sportchi, murabbiy, muloqot, axborot.*

### **ОСОБЕННОСТИ АУДИОВИЗУАЛЬНОЙ СПОРТИВНОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ**

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются роль, значение и особенности спортивной журналистики на телевидении. В частности, есть мнения по подготовке информации на тему спорта, разработке новостных программ, комментированию спортивных игр. В статье анализируется уникальность подготовки материала по теме спорта.*

***Ключевые слова:** спорт, эфир, репортер, журналистика, жанр, анализ, информация, телеканал, спортсмен, тренер, общение, информация.*

### **SPECIFIC FEATURES OF AUDIOVISUAL SPORTS JOURNALISM**

***Annotation.** This article examines the role, importance and features of sports journalism on television. In particular, there are opinions on the preparation of information on the topic of sports, the development of news programs, and commentary on sports games. The article analyzes the uniqueness of preparing material on the topic of sports.*

***Keywords:** Sports, broadcast, reporter, journalism, genre, analysis, information, TV channel, athlete, coach, communication, information.*

**Kirish.** Sport olamida bo'layotgan eng muhim voqealarni izlash, tahlil qilish va efirga uzatish o'ziga xos malaka va mahoratni talab etadi. Bunda muxbir jurnalistika janrlari, tili, uslubini bilishi bilan birga, tahlil qilinayotgan sport turi bo'yicha ma'lumotga ham ega bo'lishi zarur. Odatda, sportga ixtisoslashgan kanallar muxbirlari u yoki bu sport turini chuqur o'rgangan, terma jamoaning yetakchi sportchilari, bosh murabbiylari bilan doimiy muloqotda bo'lib turadilar. Sportchining natijalari haqida batafsil axborotni bilib, qachon, qaysi musobaqada qanday natijaga erishgani, uning kelgusidagi rejalaridan boxabar bo'lishadi. Bunday ma'lumotga ega bo'lish muxbirning tezkor xabarlar tayyorlashi uchun zamin hozirlaydi. Chunki televideniyaning o'ziga xos texnikaviy talablari mavjud bo'lib, suratga olish va montaj qilish jarayonlari ma'lum bir malaka va mahorat egasi bo'lishni taqozo etadi. Masalan, musobaqani suratga olishga kelgan tasvirchi doimiy harakatdagi jarayonni tasvirga tushiradi. Voqea va hodisalar daqiqa va soniya sayin o'zgarib turadi. Bunda muxbir tasvirchiga to'g'ri yo'nalishni tushuntira bilib, ma'lum vazifa berib, zarur ma'lumotlarni to'play bilishi, kerakli respondentlarni suhbatga chorlashi zarur.

**Mavzu doirasida adabiyotlar sharhi.** Sport jurnalistikasi mavzusida yurtimizda va jahonda qator ilmiy risolalar chop etilgan. Jumladan, yurtimizda bu borada sport mavzusidagi internet saytlarining tahlili bo'yicha E.Boborajabovning "O'zbekistonda sport saytlarining paydo bo'lishi va rivojlanish tendensiyalari" nomli monografiyasi chop etildi. Mazkur ilmiy ish elektron OAV sport jurnalistikasining namoyon bo'lishi tahlil etilgan. Shu bilan birga, mazkur izlanish muallifi tomonidan 2016-yilda "Sport jurnalistikasi" o'quv qo'llanmasi chop etilgan. Mazkur mavzu jurnalistika bo'yicha 2019-yil nashdan chiqqan 10 tom dan iborat to'plamning "Ixtisoslashgan jurnalistika" jildiga alohida sport jurnalistika bo'limi kiritilgan. Mavzu doirasida, shu bilan birga, jurnalistika ixtisosligidagi qator bitiruv malakaviy ishlar, magistrlik dissertatsiyalarida ham o'z aksini topgan.

**Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar.** Muhim ijtimoiy, siyosiy mavzudagi anjumanlarga borgan muxbirga o'tkazilayotgan tadbirning asosiy maqsad va vazifalari, ishtirokchilar ro'yxati, ko'rilayotgan masalalar mavzusi aniq ko'rsatilgan press reliz beriladi. Anjuman oxirigacha bu ma'lumotlar deyarli eskir-maydi va ularga o'zgarishlar kiritilmaydi. Sport musobaqalarida ishtirokchi atletlar ro'yxati ham o'zgar-maydi, ammo natijalar kutilmagan bo'ladi. Kimdir finalga chiqadi, boshqasi jarohat olib o'yindan chiqib ketishi mumkin. Voqea-hodisalar shu joyning o'zida, gohida, kutilmagan ravishda sodir bo'ladi. Ayniqsa, bunda, jonli efirda ishlash nihoyatda mas'uliyatli va o'ziga xos mahorat talab etadigan masaladir. Asosiysi, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi jarayon natijalari ertaga ham o'zining dolzarbiligini yo'qotmasligi mumkin,



ammo sport yangiliklari hozir, ayni daqiqalarda tayyorlanishi va efirga uzatilishi kerak. Sport jurnalistikada ijob qilish, ayniqsa, audiovizual material tayyorlash mashaqqati va o'ziga xosligi ham shundan iborat.

Sport yangiliklari mavzusidagi lavha 30 soniya, eng ko'pi bilan 3,5 daqiqa davom etishi mumkin. Har bir lavha o'rtaicha 1,5–2 daqiqani tashkil etib, matnni o'qish tempi tez bo'ladi. Shuning uchun kadr ortidagi matn aniq va lo'nda faktlar, yaxshi tahlil qilingan holda tayyorlanishi zarur. Sport jarayonlari harakatiga mos ravishda muxbir ham ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazadi. Voqea-hodisa sodir bo'lish jarayonlarning kulminatsion nuqtalari: masalan, futbol to'pining darvozaga kelib tushishi yoki sportchi kuragi gilamga tegish jarayonlarini tasvirga mos tarzda kadr ortidan ma'lumot berilsa, lavha ta'sirchanligi oshadi. Voqea-hodisa sodir bo'layotgan joydagi ovoz shovqinlari—"intershum"ning lavhada berilishi sport yangiliklari ta'sirchanligini belgilaydi. Bu suv havzasining ovoz shovqini, sportchi gilamga taklif qilinganda ism-sharifi bilan chaqirilishi yoki kimdir g'olib bo'lganda, ishqibozlarining xursandchilik ovozlari bo'lishi mumkin. Mazkur daqiqalarda muxbir ovoz ohangini, intonatsiyasini shunga moslab talaffuz qiladi. Jamoa yoki sportchilarning reyting natijalari aks etgan jadvallar maxsus tez tempdagi musiqa ohanglari bilan efirga uzatiladi. Bunday jadvallarni muxbir yozib bersa-da, kompyuter mutaxassisi efirga chiroyli lavha ko'rinishida bezatib, ketma-ketlikni tasvirlagan holda tayyorlaydi. Sport xabarlari efirga uzatilish jarayonida ekranning pastki qismida yugurik qatorga ko'z tushishi mumkin. Bu yozuvlarda, asosan, kunning eng muhim sport yangiliklariga oid natijalar raqam va so'zlar yordamida qisqacha beriladi. Qator harakatda bo'lishi uni tezkor ravishda o'qish va kerakli ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi. Xorij telekanallar amaliyotida xabarlar asosan jonli tarzda efirga uzatilgani uchun yugurik qator doimiy ravishda yangilanib, biror ma'lumot takroran efirga chiqmaydi. Ana shunday ko'z ilg'amas, ammo sport jurnalistikasi amaliyotida juda muhim xususiyatlar sport yangiliklar ta'sirchanligini oshiradi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Yurtimizga oid lavhalar boshlanishi bilan uch soniya ichida muxbir va tasvirchi ism-sharifi ko'rsatiladi. Xorij xabarlarida sharhlovchi nomi yoziladi. Ba'zan atletlarimiz natijalari matn tarzida tasvir ketma-ketligisiz boshlovchi tomonidan o'qib eshittiriladi. Bunday xabarlarida ayni damda, shu kuni qo'lga kiritilgan natijalar, sportchilarimiz erishgan yutuqlari haqida ma'lumotlar beriladi. Sportchilarning g'alabaga erishayotgan daqiqalari, ularning yaqinlari va jamoadoshlari tomonidan xalqaro aeroportdan kutib olish jarayonlari aks etgan lavhalar yangiliklar dasturining o'ziga xos qiziqarli va hayajonli daqiqalarini tashkil etadi.

Markaziy telekanallar yangiliklar blokida, odatda, sport xabarlari bilan ko'rsatuv yakunlanadi. Shu yo'nalishdagi dolzarb mavzular yoritilgan yangiliklar, bundan mustasno. Masalan, yetakchi atletlarimiz nufuzli xalqaro bellashuvlarda g'olib bo'lishiga oid tafsilotlar. "O'zbekiston-24" telekanalining "Axborot" informatsion dasturi misolida oladigan bo'lsak, o'zbek va rus tilidagi kechki dasturlarining aksariyatida sport xabarlari bloki mavjud. Asosiy yangiliklar tafsilotlarini efirga taqdim etgan boshlovchi tomoshabinlar bilan hayrlashib, navbatni soha mutaxassisiga beradi. U kunning muhim voqeasiga to'xtalib, mavzuga oid yangiliklar bilan tomoshabinlarni tanishtirishni boshlaydi. "Axborot" informatsion dasturining sport yangiliklari yo'nalishi va mavzusi telekanalning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan. Unda yurtimizda sodir bo'lgan muhim yangiliklar, terma jamoamiz a'zolarining qo'lga kiritgan yutuqlari muxlislar e'tiboriga havola qilinadi. Barcha faktlar aniq va eng so'nggi natijalarga asoslangan bo'ladi. Lavhalarda respondentlardan olingan intervyular ham beriladi. "Axborot" informatsion dasturining sport yangiliklarida to'g'ridan to'g'ri efirga uzatish amaliyoti samarali qo'llanilmoqda.

"Yoshlar" telekanali informatsion dasturi bo'lgan "Yangi davr" dasturida boshlovchi navbatni soha mutaxassisiga bermaydi. Sport xabarlari navbati berilganidan keyin, turli musobaqalar tafsilotlariga bag'ishlangan yangiliklar bloki efirga uzatiladi. Bu telekanalda yangiliklar, asosan, jahon sportida ro'y bergan muhim xabarlar tafsilotlaridan iborat bo'ladi. Ba'zan yurtimizga oid muhim voqealar tahlili ham ko'rsatuv tarkibidan joy oladi. Mazkur yo'nalishdagi xabarlar hajmi ham, lavhalar soni ham nisbatan kam. Ba'zan yangiliklar dasturi sport xabarlarisiz efirga chiqadi. Bunday holatda studiyadagi boshlovchi xayrlashib, navbat ob-havo yangiliklariga keladi. Umuman olganda, "Yangi davr" informatsion dasturining sport xabarlari blokidagi tayyorlanadigan yangiliklar, oddiy tomoshabinning jahon sportiga oid xabardorligini oshirishda, havaskor va professional sportga oid ma'lumotlarni auditoriyaga muntazam yetkazib berishi bilan ahamiyatlidir.

**Xulosa.** Ma'lum hududga mo'ljallangan, auditoriya qamrovi ham cheklangan telekanallar misolida, "Toshkent" teleradiokanali DUK ijodkorlari tomonidan taqdim etiladigan informatsion dasturini tahlil qilishimiz mumkin. Odatdagidek, kunning eng muhim voqealar tafsilotlaridan keyin dastur so'ngida navbat sport xabarlariga beriladi. Bu dastur doirasidagi mazkur mavzudagi xabarlarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, Toshkent va Toshkent viloyatida o'tkazilgan nufuzli musobaqalaridan tortib, ommaviy

sportga tegishli barcha tadbirlari ko'rsatuv tarkibidan joy olishi mumkin. Xorij sportiga oid yangiliklar ham beriladi. Yangiliklar tarkibida intervyular tayyorlanishi ham kuzatiladi. kichik auditoriya qatlamiga mo'ljallangan hududiy telekanallar dasturlarida mazkur yo'nalishdagi xabarlarini efirga uzatish muhim ijtimoiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Bir qarashda oddiy, 2–3 daqiqadan oshmaydigan lavhalar ta'sirchanligi yuqori bo'lishi mumkin. Umuman olganda, har qanday sport xabari yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangiliklar blokida berilishi aholini ushbu yo'nalishdagi yangiliklarga qiziqтира olishi bilan, ishqibozlarni jahon sportiga oid ma'lumotlariga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. Sportga ixtisoslashmagan kanallar auditoriyasi qamrovi keng. Shuning uchun bu yerda berilgan ma'lumotlar katta hajmdagi auditoriyaga taqdim etilishi bilan muhimdir. Tayyorlanadigan lavhalar hajmi kam bo'lsa-da, tomoshabinlar sonining ko'pligi va efir soatlarining qulayligi bu telekanallar faoliyatining sportni ommalashtirishdagi ijtimoiy ahamiyati yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). Boborajabov E. O'zbekistonda sport saytlarining paydo bo'lishi va rivojlanish tendensiyalari. T., "Grand kondor print", 2024, 140-bet.

(2). Донской Д. Роль и место спортивной журналистики в СМИ. Диссерт. к.ф.н., М., 2008.

(3). Ro'ziyev F., Jo'rayeva X. Telejurnalistga tavsiyalar. T., «Sharq», 2013.

(4). Xurshid Do'stmuhammad. Axborot–mo'jiza, joziba, falsafa. "Yangi asr avlodi", 2013.

(5). www.olimpic.org

**Jarimbetov Erpolat Qurbanbaevich (Qoraqalpoq davlat universiteti "Jurnalistika" kafedrasida katta o'qituvchisi; jarimbetoverpolat@gmail.com)**

#### **"ERKIN QARAQALPAQSTAN" GAZETASIDA YUBILEY SANALARGA BAG'ISHLANGAN MAQOLALAR TALQINI**

***Annotatsiya.** Maqolada muallif o'z e'tiborini Qoraqalpoq istondagi asosiy ijtimoiy-siyosiy gazetalari hisoblangan "Erkin Qaraqalpaqstan" gazetasida respublikaga taniqli adibi O'zbekiston Qahramoni Ibrohim Yusupovning yubiley sanalarga bag'ishlab chop etilgan maqolalarga qaratgan. Ta'kidlash kerakki, qoraqalpoq matbuotida adabiy jarayonlar, qoraqalpoq adabiyoti masalalari har xil rakurslarda yoritilishi masalalari birinchi bor tadqiq qilinmoqda. Muallif "Erkin Qaraqalpaqstan" gazetasida yubiley sanalarga bag'ishlangan maqolalarni kuzatish asnosida, qoraqalpoq matbuotida adabiyotga taalluqli bo'lgan bir qator maqolalarning globallashtiruv jarayonida auditoriyaning ma'naviy va ma'rifiy rivojlanishiga, ularning bilim darajasini oshirishga qanday ta'sir etayotganligi ham tadqiq qilingan, ya'ni, adabiyot mavzusidagi maqolalarning jurnalistikaning ta'sirchan yo'nalishi ekanligiga urg'u beradi.*

***Kalit so'zlar:** adabiyot, maqola, yubiley sanalar, shoir, muallif, adabiyotshunoslik, maxsus rukn, adabiy janrlar, adabiy tanqid.*

**Жаримбетов Ерполат Курбанбаевич (старший преподаватель кафедры журналистики**

**Каракалпакского государственного университета; jarimbetoverpolat@gmail.com)**

#### **ОСВЕЩЕНИЕ В ГАЗЕТЕ "ЕРКИН КАРАКАЛПАКСТАН" СТАТЕЙ, ПОСВЯЩЕННЫХ ЮБИЛЕЙНЫМ ДАТАМ**

***Аннотация.** В статье автор уделил особое внимание статьям, опубликованным в социально-политической газете «Erkin Karakalpakstan», по случаю юбилейных дат видного поэта, героя Республики Узбекистан Ибраима Юсупова. Стоит отметить, что в каракалпакской прессе вопросы развития литературных процессов, литературоведения анализируются в таком ракурсе в первый раз. В ходе анализа таких статей в газете «Erkin Karakalpakstan» автор отмечает что литературная тематика в процессе глобализации помогает аудитории глубоко интерпретировать понятие духовно-нравственного характера, к тому же автор всесторонне проанализировал статьи, освещавшие литературный процесс в аспекте журналистской эффективности.*

***Ключевые слова:** литература, статья, юбилейные даты, поэт, автор, литературоведение, специальная рубрика, литературные жанры, литературная критика.*

**Jarimbetov Erpolat Kurbanbaevich (Senior Lecturer, Department of Journalism, Karakalpak State University; jarimbetoverpolat@gmail.com)**

#### **COVERAGE IN THE NEWSPAPER "ERKIN KARAKALPAKSTAN" OF ARTICLES DEDICATED TO THE ANNIVERSARY DATES**

***Annotation.** In the article, the author paid special attention to the anniversary dates of the prominent poet, hero of the Republic of Uzbekistan Ibrahim Yusupov, published in the socio-political newspaper*

*“Erkin Karakalpakstan”*. It is worth noting that in the Karakalpak press, the development of literary processes, the issues of literary studies are analyzed from this perspective for the first time. The author, in the course of analyzing the anniversary dates covered in the newspaper *“Erkin Karakalpakstan”*, notes that the literary theme in the process of globalization helps the audience to interpret the concept of spiritual and moral character globally, in addition, he interpreted the articles covering the literary process in the aspect of journalistic effectiveness.

**Key words:** literature, article, anniversary dates, poet, author, literary criticism, special category, literary genres, literary criticism.

**Kirish (Introduction).** “Erkin Qaraqalpaqstan” gazetasi jamiyat hayotining oynasi sifatida ijtimoiy-siyosiy, xalq turmushining har xil sohalari, madaniyat va sport, san’at kabi mavzularni muntazam va tezkor aks ettirib boradi. Ushbu gazetada doimiy aks ettiriladigan mavzularning biri badiiy adabiyot masalasi. Gazeta sahifalarida jurnalistlar, yozuvchilar, shoirlar, adabiyotshunos olimlar gazetxonlarni adabiyot maydonida sodir bo‘layotgan yangiliklar, har xil qiziqarli masalalar bilan tanishtirib boradi.

Gazeta adabiyot mavzusiga aloqadar materiallarni e‘lon qilganida, ko‘pincha, maxsus ruknlardan foydalanadi. Bu narsa adabiyot mavzusidagi materiallarga o‘quvchilarning e‘tiborini qaratishda muayyan rol o‘ynaydi. Masalan, “Adabiyot sahifasi”, “Adabiy tahlil”, “Adabiy aloqalar”, “O‘qidik, fikrimizni ayta-miz”, “Kitoblar yangiligi”, “Kitoblar olamida” v.b. gazetaning doimiy rubrikalaridan sanaladi. Shuning bilan birga, gazetada mavsumli mavzularga bog‘liq rubrikalar ostida ham adabiyot materiallari e‘lon qilina-di. Mavsumlik mavzulardan biri bu adabiy yubiley marosimlariga, tantanalariga bag‘ishlangan maqolalar bo‘lib topiladi. Ularda taniqli yozuvchi-shoirlarning, atoqli adabiyotshunos olimlarning tavallud sanalari nishonlanadi, ularning adabiyot maydonida ko‘rsatgan xizmatlari baholanadi, ardoqlanadi. Yubiley qahra-monini faqat yozuvchilar yoki adabiyotshunoslar tabriklab qo‘ymasdan, uni har xil kasb egalari ham tab-riklaydi. Yubileyga bag‘ishlangan maqolalarda yubilyar to‘g‘risida qiziqarli ma‘lumotlar beriladi, shuning-dek, yubilyar va adabiyot, yubilyar va adabiy jarayon, yubilyar va adabiy janrlar, yubilyar va kitobxonlar, yubilyar va adabiy tanqid, adabiyotshunoslik haqida qiziqarli, ayrim paytlarda o‘tkir masalalar yoritiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Umuman olganda, adabiyot masalalari talqi-ni olimlar tomonidan kam tahlil qilingan. Shunga qaramastan maqolada jurnalistika teoriyasi bo‘yicha tad-qiq qilingan qator olimlar ilmiy ishlariga e‘tibor qaratdik. Ulardan, Y.Proxorov, V.Voroshilov, F.Mo‘mi-nov, M.Xudoyqulov va boshqalar. Bundan tashqari, tadqiqot ishining asosini shakllantirish uchun Qoraqal-pog‘istonda chop etiladigan «Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasi sonlariga e‘tibor berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Maqolada, asosan, tipologik analiz, kontent, tarixiy analiz metodlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** «Erkin Qaraqalpaqstan» gazetasida yetarli darajada yori-tilgan yubiley mavzularning biri O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibrohim Yusupovning (1929–2008) 70, 80, 90 yillik yubileylariga bag‘ishlangan materiallar hisoblanadi. Biz ushbu maqolada 2000-yillarda chop etilgan shu mavzudagi materiallarning ayrimlarini tahlil qilamiz.

Shoir I.Yusupov ijodining qoraqalpoq adabiyotida alohida o‘rni bor ekani hammaga ma‘lum. Shoir-ning hayoti, ijodi, adabiyotimizning rivojiga qo‘shgan hissasi va boshqa xizmatlari haqida matbuotda ye-tarli darajada yoritilgan [1].

Biroq yubiley mavzusidagi ayrim maqolalarda shoir ijodiga bog‘liq avval aytilmagan faktlar ham beriladi. Masalan, “Poeziya podshohligining sultoni” rubrikasi ostida adabiyotshunos T.Mambetniyozov-ning “XX asr qoraqalpoq adabiyotining buyuk cho‘qqisi” [2] deb nomlangan shoir I.Yusupovning 70 yillik yubileyiga bag‘ishlangan maqolasida quruq ma‘lumotlardan ko‘ra shoirning ijodi to‘g‘risida muammoli masalalarga e‘tibor beradi. 1955-yili shoirning “Baxt lirikasi” deb nomlangan dastlabki she‘rlar to‘plami chop etilgan edi. Muallif maqolada o‘sha davr adabiyotidagi bahsli-munozarali masalalarni yodga oladi. “I. Yusupov she‘rlarining badiiyligi va sujetligi bilan ko‘zga tusha boshlaydi. Shu yillari ayrim adabiyotshu-noslar, tanqidchilar lirikada sujet bo‘lmaydi, deb yozib ham yurdi, men bu tushunchaga avvaldan qarshi-man. Lirik sujet bu epik sujet emas, ularning farqini tushunish kerak”. Munaqqid “lirikada sujet bo‘lmay-di”, degan noto‘g‘ri fikrni shoir I.Yusupovning sujetini foydalangan yaxshi lirik asarlari bilan inkor etadi. Maqolada shunday bahsli nazariy masalalarni yanada uchratish mumkin. Gazeta o‘quvchilari o‘tgan asr-ning 50-yillardagi adabiy jarayonni yoritadigan maqolalarning, shu jumladan, mazkur maqolaning, dast-lab, jurnalistika materiali sifatida kun talabiga (ya‘ni shoir I.Yusupovning 70 yillik yubileyi sanasiga) javob beradiganini, shoir ijodini targ‘ibot qilish, uni keng kitobxonlarga tanishtirish vazifalarining bajarilganini ko‘radi. Qolaversa, ma‘lum darajada adabiyotshunoslik masalalari ham so‘z bo‘ladi. Muallif o‘z fikrlarini

o'tgan asrning 50-yillardagi adabiy jarayon kontekstida aytadi. Bu esa maqolaning tarixiy ahamiyatini ko'taradi.

Adabiyotshunos J.Esenov shoir I.Yusupovning 80 yillik yubileyi oldidan "Mámelek oy" (Mamalak pastligi) dostonining teranligi" nomli taqriz janridagi adabiy-publitsistik maqolasini e'lon qilgan [3]. Dostonda, asosan, ayrim hozirgi odamlarning mol-dunyo, boylik ketidan quvlab, insoniylik fazilatlarini yo'qotib barayotgani haqida so'z boradi. Shoir o'z asarida odam va uning mol-dunyoga, insoniylik vazifalarga munosabatlarini personajlarining aytishlari, suhbatlari, dialoglari shaklida beradi. Tanqidchi maqolada ushbu dialogning dramatismga to'la qizg'in joylaridan misollar keltiradi va ularni talqin qiladi. Maqola o'quvchining diqqat-e'tiborini tortib, mazkur dostonga qiziqishini uyg'otadi.

Yuqorida eslatib o'tilganidek, yubiley mavzusidagi maqolalarda faqat yubilyar haqida iliq so'zlar, ma'lumotlar, faktlarni bayonlash bilan cheklanmaydi, ularda adabiy jarayonda, adabiyotshunoslikda yoritilgan ahamiyatli, dolzarb masalalar, nazariy fikr-mulohazalar haqida ham qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Bu narsa yosh kitobxonning adabiy qiziquvchanligini uyg'otib, badiiy didini shakllantiradi, adabiy bilimni teranlatadi. Masalan, yosh kitobxonlar o'tgan asrning 60, 70, 80-yillardagi adabiy jarayonni kam bilishi, u davrdagi asarlarni o'qimagan bo'lishi ham mumkin. Biroq ular yubiley maqolalari tufayli yubilyar yashab va ijod qilgan davrning tarixiy-madaniy sharoitlari, adabiy muhiti va adabiy jarayoni to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishi va yubilyar asarlarini o'qishga ishtiyoqi uyg'onishi mumkin. Bu narsa yosh avlodning ruhiy-madaniy tarbiyasida katta ahamiyatga egadir.

Fikrimizning dalili sifatida taniqli shoir B.Genjemuratovning "Uztozning yuraklarin nurga to'ldirgan marsiyalari" [4] nomli maqolasini keltirish mumkin. Maqolada I.Yusupovning "Tinmay yomg'ir yog'ar Pyarnu yo'lida" degan marsiyasi talqin qilinadi. She'r qoraqalpoq adabiyoti tarixida o'z o'rniga ega taniqli shoir Xo'jamurod Turimbetovning (1922–1968) fojiali o'limiga bag'ishlangan. Maqoladan bir parcha keltiramiz: "Pyarnu qalasini qarakok tas jollarinda (Estoniyada) sirkiregen sezimlerin duniyaga kelgen qosiq... Talantli shayir X.Turimbetov Qaraqalpaqstan alis jerde tosattan 46 jasinda qaytis bolganda jazilgan qosiq... Bul qaygili xabardi Ustaz (shoir I.Yusupov–E.J.) tuwilgan ulkeden alista jurip esitken. Bunday mazmundaqi qosiqlardi Yevropada elegiya, arab-parsi adebiyatinda marsiya, qaraqalpaq adebiyatinda joqlaw degen termin menen ataydi". Ushbu ma'lumotlar bilan muallif maqolada marsiya terminiga nazariy tushuncha berib ketadi. Adabiy janrlar haqida to'la ma'lumotlarga ega bo'lmagan oddiy gazeta o'quvchisi ushbu maqola orqali marsiya janri xususiyatlarini bilib oladi va taniqli qoraqalpoq shoiri Xo'jamurod Turimbetov haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. B.Genjemuratovning ushbu maqolasi I.Yusupovning 80 yillik yubileyi arafasida yozilgan, lekin muallif maqolada shoirni dabdabali maqtashdan tiyilib faqat uning bir janrdagi, ya'ni, marsiya janridagi she'rlarini talqin qilishni ma'qul ko'rgan va shoirlik mahoratini ochib bergan. Bu bilan shoir gazetxonlarning qiziquvchanligini va hurmat-izzatini uyg'otgan.

I.Yusupov marsiya janrida qator she'rlar yozgani ma'lum. Masalan, dunyodan vaqtdan burin o'tgan mashhur azamatlarning, o'zining umr yo'ldoshining, xalq shoiri Abbaz Dabilovning, akademik Marat Nurmuhamedovning xotiralariga bag'ishlangan she'rlari ushbu marsiya janrida yozilgan. Har bir marsiya she'ri qisqa syujetlar, faktlar bilan boyitilgan va janr xususiyatiga qarab tasvirlash vositalari qo'llanilgan. Mazkur asarlar asosan kun talablariga moslashtirilib yozilgan. Ularda, bir tomondan, shoirning obyektga jurnalistik yondashuvi ko'rinsa, ikkinchi tomondan, shoirning badiiy mahorati bilan gazetxonning yurak tuyg'ularini uyg'otgani kuzatiladi.

Filologiya fanlari doktori, professor Q.Orazimbetovning "Poeziya saroyining sardori" [5] deb nomlangan maqolasida qoraqalpoq xalqining ulug' shoirdan (I.Yusupovdan) judo bo'lganini teran qayg'u hislari bilan eslaydi. Muallif ulug' shoirning qator mashhur she'rlarini sharhlagan, ularning qoraqalpoq adabiyotini va adabiy tilini boyitganini dalillar bilan ko'rsatib beradi. Shoirning xalq xarakterining xususiyatlarini mahorat bilan ochib berganini, bunday mahorat boshqa shoirlarda kam uchrashini ochiq aytadi.

Shoir I.Yusupovning zamondoshi, yozuvchi G.Esemuratovning "Qoraqalpoq adabiyotining ustuni edi" [6] deb nomlangan essesi gazetaning ikki sonida chop etilgan. Essening boshida shoir I.Yusupovning dafn etilishiga bag'ishlangan so'nggi marosim reportaj janrida yoritilgan. Muallif voqealarni ketma-ket tasvirlaydi. Har bir voqeaga, epizodga izohlar beradi va badiiy tasvirlaydi. Masalan, I.Yusupovning umr yo'ldoshi Bibizoda bilan yoshlik chog'ida qanday uchrashganini kinofilmdagidek tasvirlaydi. Esseda "Bibizodaning akasi (otasi–E.J.) Qaraqalpaqstan Respublikasi Joqari Ke'nesi Prezidumi baskichi, kimse'n M'ateke Jumanazarov, xalqning aqsagali. Al, Ibarayim bolsa Ke'nes hukimetini'n dushpani dep qaralgan Yusup axunni'n balasi. Bulardn shig'isi bir-birine putkilley qarama-qarsi, qiz benen jigitti'n qosilip baxitli bolwina ruxsat joq". G.Esemuratova o'z essesinde totalitar davrning qattiq hukmronligi faqat siyosiy tomonlardan emas,

hattoki shaxsiy yurak tuyg'usi bo'lgan muhabbat masalasiga ham to'siq bo'lganini badiiy tasvir va aniq faktlar asosida ko'rsatadi.

Mazkur gazetada chop etilgan yubiley maqolalarning ayrimlari I.Yusupovning 85 yilligiga bag'ishlangan. Ulardan yozuvchi va jurnalist Sh.Usnatdinovning "Sarqilmas bulaq" (Mangu buloq) [7] maqolasida shoirning qator she'rларini sharhlagan va uning tug'ilgan joyi, otasi Yusup oxun hakida avval ma'lum bo'lmagan yangi ma'lumotlar beradi. Ilgari I.Yusupov haqida maqolalarda, ilmiy tadqiqotlarda uning otasi haqida deyarli so'z etilmas edi. Sababi, Yusup oxun "xalq dushmani" sifatida repressiya qurboni bo'lgan edi. Shu tufayli shoirning hayoti to'g'risida so'z borganda uning otasi Yusup oxun tilga olinmas edi. Sh. Usnatdinov tekshirish ishlarini olib borgan va shoirning yoshligi, shu jumladan, uning otasi Yusup oxun haqida qator yangi ma'lumotlar to'plagan va gazeta o'qivchilarga taqdim etgan.

**Xulosa** qilib aytganda, yubiley marosimiga bag'ishlangan maqolalar har xil mavzularda va mazmunida yozilgan. Shu jumladan, I.Yusupov yubileyariga bag'ishlangan maqolalarda shoirning asarlarini hozirgi kitobxonlarga targ'ibot qilish, ularning badiiy estetik xususiyatini ko'rsatish, kitobxonlarning ulug' shoirga degan hurmat-izzat tuyg'ularini uyg'otish, shuning bilan birga, kitobxonlarda yuqori badiiy-estetik didlarni tarbiyalash maqsadlari mo'ljallanadi. Yubiley maqolalari mazmuni, janriy xususiyatlari bo'yicha yubiley qahramonini faqat quruq maqtovdan, xushomadgo'ylikdan iborat emas, balki yubileyning yaxshi insoniylik fazilatlarini, adabiy faoliyatini, yaxshi asarlarini ommaga tanishtirishdan, ularning badiiy va ma'naviy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Adabiyot masalalariga bag'ishlangan yubiley maqolalari, bir tomondan, vaqtning, kunning, mavsumning talablariga binoan jurnalistik vazifani bajarsa, ikkinchi tomondan, adabiyot tanqidchiligini, adabiyotshunoslik ilmini teranlatishga, rivojlantirishga ma'lum darajada hissa qo'shadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Ш.Уснатдинов. «Ибрайым Юсупов». Нукус, «Билим», 2019, 18-бет.
- (2). «Еркин Қарақалпақстан». 11.03.2000.
- (3). «Еркин Қарақалпақстан». 17.03.2009.
- (4). «Еркин Қарақалпақстан». 18.04.2009.
- (5). «Еркин Қарақалпақстан». 21.04.2009
- (6). «Еркин Қарақалпақстан». 04.04.2009; 07.04.2009.
- (7). «Еркин Қарақалпақстан». 09.05.2014.

**Orazalieva Gulxayya Temirgaliy qizi (Qoraqalpoq davlat universiteti jurnalistika mutaxassisligi doktoranti; gulhaya\_19@mail.ru)**

#### **JURNAL NASHRINING O'ZBEKISTON JURNALISTIKASIDA O'RGANILISHI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jurnallarning O'zbekistonda shakllanishi bosqishlari va rivojlanish tendentsiyalari tahlilga olinadi. O'zbekistonda jurnallarning rivojlanish tendentsiyalarining o'zbek olimlari tomonidan tadqiq qilinishi masalalari har tomonlama o'rganiladi.*

***Kalt so'zlar:** jurnal nashri, Turkiston, jadidchilik harakati, ommaviy axborot vositalari, madaniy tarix.*

**Orazalieva Gulxayya Temirgaliy kizi (doktorant kafedra Jurnalistika Karakalpakskogo gosudarstvennogo universiteta; gulhaya19@mail.ru)**

#### **ИЗУЧЕНИЕ ЖУРНАЛЬНОЙ ПРЕССЫ В ТЕОРИИ ЖУРНАЛИСТИКИ УЗБЕКИСТАНА**

***Аннотация.** В статье анализируется формирование и тенденция развития журнальной периодики в Узбекистане. К тому же всесторонне изучены исследования узбекскими учеными развития журнальной периодики в Узбекистане.*

***Ключевые слова:** журнальная периодика, Туркистан, движение жадидизм, средства массовой информации, история культуры.*

**Orazalieva Gulxayya Temirgali qizi (Doctoral student at the Department of Journalism, Karakalpak State University)**

#### **STUDYING THE MAGAZINE PRESS IN THE THEORIES OF JOURNALISM IN UZBEKISTAN**

***Annotation.** The article analyzes the formation and development trends of journal periodicals in Uzbekistan. In addition, the development of journal periodicals in Uzbekistan has been comprehensively studied by Uzbek scientists.*

***Key words:** magazine periodicals, Turkistan, jadidism movement, mass media, cultural history.*

**Kirish.** O‘zbekistonda jurnal nashrlari rivojlanish tendensiyalarini o‘rganishi, shu yo‘sinda Qoraqalpog‘istonda jurnal nashrining kelib chiqishi va rivojlanishi masalalari tadqiqot obekti sifatida kam o‘rganilgan. Shuning bilan birga, jurnal nashrining tadqiq qilinishi masalalarini har tomonlama o‘rganish, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni qaysi yo‘nalishda olib borish kerakligi va qanday masalalari tahlilga olib olinishi lozimligi masalasidagi savollarga ham har tomonlama javob berishga imkoniyat yaratadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Jurnal, shu qatorda, O‘zbekiston jurnalistikasi, ommaviy axborot vositalari rivojlanish masalalari qator olimlar tomonidan tadqiqot obekti sifatida o‘rganilgan. Ular qatorida B.Do‘stqorayev, N.Abduazizova, M.Xudoyqulov, Y.Mamatova va boshqalar. Bundan tashqari, qoraqalpoq jurnal nashrlari tarixi va rivojlanish bosqichlari quyidagi olimlar tomonidan umumiy qoraqalpoq jurnalistikasi rivojlanish tendensiyalari qatorida o‘rganilgan (S.Nurjanov, D. Bekbauliyev, R.Arziyevlar).

**Tadqiqotning maqsadi.** Tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri O‘zbekistonda tadqiqotchilar tomonidan jurnal nashrlari tarixi, rivojlanish tendensiyalari va bugungi holati bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlarini tahlil qilish orqali tadqiqot yo‘nalishi qay darajada ekanligini aniqlash.

#### **Tadqiqotning vazifalari.**

1. O‘zbekistonda jurnal nashrlari masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarini tahlil qilish va ularga baho berish;
2. O‘zbekistonda jurnal nashrlari tadqiqoti darajasini aniqlash va bu bo‘yicha xulosalarni berish.
3. Qoraqalpog‘iston jurnal nashrlari mavzusida olib borilgan tadqiqotlarni tahlil qilish va baho berish.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston jurnal, takidlab o‘tganda bosma ishining paydo bo‘lishiga jamiyatdagi siyosiy o‘zgarishlar bilan shu davrdagi ayrim noto‘g‘ri tendensiyalarning ta‘siri bo‘ldi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyoga o‘zining ta‘sirini o‘tkazish maqsadida bu hududlarda o‘z o‘g‘it-nasihatlarini singdirishga harakat qildi. Turkiston o‘lkasi fuqarolarining, shu yerda o‘z xizmat burchini bajarayotgan askarlarni ideologiyalik tarafdin tarbiyalash uchun shu vaqtda katta general-gubernatori Fon Kaufmanning boshchiligida birinchi gazeta bosib chiqarildi. O‘lka bosma ishi tarixida chuqur e‘tibor qaratgan B. Do‘stqorayev bu voqealar haqida shunday yozadi: “Turkistonda bosma ommaviy axborot vositalarining tarixi. Dastlabki kundalikli nashr – “Turkiston vedemosti” gazetasining birinchi soni Turkiston general-gubernatori Kaufmanning farmoniga binoan 1870-yili 28-aprel (10-mayda) Toshkent shahrida bosilib chiqdi. 1870-yili gazetaning 17-soni bosilib chiqdi. 1871-yildan haftasiga bir marta, 1903-yildan haftasiga uch marta, 1907-yildan haftasiga tort marta, 1907-yildan iyul oyidan boshlab har kuni chiqa boshladi. Bu gazetaning so‘nggi soni 1917-yili 15-dekabr kuni chiqadi.” Bundan tashqari, ta‘kidlangan Turkistonda birinchi o‘zbek tilida bosib chiqarilgan gazetada to‘xtab o‘tadi: “1871-yilga kelib kichik qatlamda haftasiga ikki marta o‘zbek, ikki marta qozoq tillarida bosib chiqarilgan. Gazetani chiqarishdan maqsad oddiy xalq orasida hukumat va ma‘lum hokimiyat haqida ma‘lumot berish bo‘lgan” [1].

Taniqli olim B.Do‘stqorayev mehnatida o‘zbekistondagi birinchi jurnallar haqida ham so‘z yuritadi. 1913-yildan avgust sanasidan Samarqandda “Oyna” jurnalining birinchi soni chiqdi. Bu jurnalning nusxalari Turkiston o‘quvchilaridan boshqa Kavkaz, Iroq, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiya mamlakatlariga borib yetdi.

O‘zbekiston jurnalistikasi tarixida taqdid qilishda o‘z o‘rniga ega olima Nazira Abduazizova bo‘lsa, dastlabki jurnallar haqida aytganda, shunday fikr bildiradi: “O‘zbek milliy bosma so‘zida jurnal bosmasiga Mahmudxo‘ja Behbudiy asos soldi, degan fikr bor. “Oyna” jurnalining birinchi soni 1913-yili 20-avgustda Samarqand shahrida chiqa boshladi. Jurnal, asosan, Abdurauf Fitrat, Siddiqiy, Xoji Muin, Akobir Shoman-sur, Muhammad Said va boshqalarning maqolalari o‘rin olgan. Keyingi yillari o‘zbek tilida “Al-Isloh”, “Kengash”, “Hurriyat” jurnallari chiqib turadi” [2].

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan mualliflarning yozuvlarida O‘zbekistonda dastlabki gazetalar bilan jurnallarning dastlabki maqsadi o‘lka haqida ideologik ushlab turish orqali, ularni har taraflama boshqarish haqida fikrlarini aniqlasak bo‘ladi. Shuningdek, o‘zbeklarning dastlabki jurnallari bilan gazetalar borish chiqarishiga, shu davrda jadidlar harakatining o‘rni o‘zgacha ekanligi ham tilga olinadi. Jadidchilar o‘zbek xalqining taffakurini uyg‘otish, ularni har taraflama dunyoviy bilimlardan xabardor qilish uchun o‘zbek tilidagi kitoblar bilan gazeta-jurnallarni bosib chiqarilgani ham alohida tahlil qilinadi.

O‘zbek jurnalistikasining bosma ishi rivojlanishi bir nechta bosqichlar asosida tadqiq etilgan, dastlabki bosqich Rossiya imperiyasi davri, oldingi davrlarda ham mustaqillik yillarida jurnalistika, shu bilan bir qatorda, bosma ishi ham rivojlangan. Bir qator olimlar shunday davrlarga bo‘lib tahlil qilganini ko‘rishimiz mumkin.

Fikrimizning dalili sifatida o'zbek adibi Muxtor Xudoyqulovning "Jurnalistikaga kirish" kitobidagi quyidagi jumlaning keltirib o'tsak: "XX asrning boshlarida Turkistonda milliy uyg'unish davri bo'ldi. Bosma ishi paydo bo'ldi. Bu davr ziyolilari jadidlar tarafidan chiqarilgan "Taraqqiy", "Xurshid", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Najot", "Samarqand", "Oyna", "Chayon" kabi jurnallar Turkiston xalqlari orasida madaniy tarixida katta ahamiyat kasb etdi" deb yozadi, yana bu davr bosmaxonalardagi maqolalarni "Turkistonda ozodlik, mustaqillik g'oyalarining paydo bo'lishiga va rivojlanishiga katta xizmat etdi", deb yozadi (3).

Yuqorida aytib o'tganimizday, qadimgi davrda jurnallarning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha o'zbek olimlari orasida salbiy fikrlarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, N.Abduazizovanning "Milliy jurnalistika tarixi" ilmiy qo'lyozmasida "Jurnal juda qiyin sharoitda, qizil imperiyaning katta mamlakat shovinizmi bosh ko'targan, madaniyat sohasida ideologiyalik kurash rivoj olgan, ziyolilar orasida g'oyaviy kurashlar rivojlangan bir davrda dunyoga kelgan edi. U 2000–3000 nusxa atrofida bosib chiqarilgan. Oldin oyiga ikki marta chiqarishga mo'ljallangan bosma ishlari qiyin ahvolda ekanligi, shu davrda bosma ishi boshidan o'tkazayotgan og'ir sharoit sababli oyiga bir marta bosib chiqariladigan bo'ldi" [4]. Bu fikr orqali muallif sovet hukumatining dastlabki yillari kommunistlik g'oyalarini xalq ongiga singdirish uchun jurnallardan (bu yerda "Inqilob" jurnali aytilyapti) foydalandi. Ya'ni, jurnallar shu davr g'oyasining bir bo'lagi desak ham bo'ladi. Shuningdek, olim X.Do'stmuhammad bo'lsa, shu davr bosma ishining g'oyasi bilan birga uning xalqqa majburlab bo'lsa-da, o'qitish va ularni qo'llab-quvvatlash uchun o'z mablag'ini ishlatgan. "Axborot so'zining mazmuni keng, lekin uni bozor, buyum, xarajat, sotib olish va xaridor tushunchalariga borib taqaladi, axborot, avvalo, bu – buyum! Bozorda sotiladigan tovar! Dunyo bozorida hech bir narsa majburan sotilmaydi, bozorning chaqqonligi ham, bahoni ham bozorning o'zi belgilaydi" [5].

Muallif o'z fikrlari orqali jamiyatda majburiy ravishda axborotni sotish orqali xalqni g'oyaviy majburan ushlab turish maqsadida, lekin erkin demokratik jamiyatda bo'lsa, jamiyat a'zolari axborotni o'zi tanlab, erkin turda sotib olish yoki o'qish kerak ekanligi bo'yicha tezisning to'g'ri ekanligiga guvohi bo'lamiz.

Agar fikrimizning jurnal teoriyasi yoki ishlab spesifikasi asosida tahlil qilsak, jurnallar ommaviy axborot vositalarining boshqa turlariga solishtirganda tor qatlamda auditoriya, soha bo'yicha o'z ishini olib boradi. Shuning uchun ham jurnallarning auditoriyasi unikal auditoriya sifatida qarashimiz mumkin. U auditoriyani xohlamagan jurnaliga yozil deb majburlash yoki logikaga to'g'ri emas. Demokratik jamiyat nazariyasi asosida aytsak, qiziquvchanlik asosida ixtisoslashtirishga majbur bo'ladi, buni to'g'ri qoliblashtirish bozor standartlarining biri hisoblanadi.

Axborotlar o'rtasida inson faktori hisobga olinmasligi masalalari o'zbek olimi F.P.Nesterenko tarafidan ham alohida atab o'tilgan: "Jurnalistikaning rivojlanish stereotiplari sababli to'xtab qoladi, ya'ni yangi davrda eski shablonlar qo'llanilgan vaqt. Bu bir qatorda axborotlarning berilishi, inson faktoriga e'tibor bermaslik, shuningdek, odamning bozor ekonomikasiga bo'lgan nuqtayi nazarlarni inobatga olmaslik. Ko'pgina korxonalar bilan birga firmalar, banklar minglab insonlarni ishga olib, ular ishlay boshlashadi. Jurnalistlarning vazifasi – vatandoshlarimizning hayotda o'rnini topishi, chet tajribasidan nimalarni o'rganish" [6].

Haqiqatdan, jurnal bosmalari o'sha davrda bir necha bosqichlarni bosib o'tishga majbur bo'ldi. Bu haqida N.Abduazizova o'zining "O'zbekiston jurnalistikasi tarixi"da shunday yozadi: "O'zbekiston mustaqilligini qarshilashda katta o'zgarishlar qilish mumkinligini ko'rsatib berdi. Buning yorqin ifodasi sifatida O'zbekistonning katta jurnallaridan "Sharq yulduzi" va "Fan va turmush" sahifalarida bosib chiqarilgan madaniy turmushga bog'liq maqolalarni ko'rsatishimiz mumkin. Jurnallarimiz madaniy turmush muammolarini o'zgacha tarzda ko'rsatib bera oldi. Milliy maqto'v tiklash harakati bilan davr signali birgalikda jiringladi. O'zbekistonda bosib chiqarilgan jurnallarda fashizm bilan bo'lgan urushdan so'nggi yillarda o'zbek milliy qadriyatlarini o'git-nasihatlash bo'lmadi, hatto bu muammo bor ekanligi haqida, umuman, so'z ochilmadi" [7].

O'zbekistonda jurnallarning g'oyaviy bosim ostida qolganligini muallifning keltirgan fikrlarida ham bilib olsak bo'ladi. Ya'ni, urushdan keyingi yillari adabiy jurnallar yangi sovet odamini qoliblashtirish degan shovinistlik g'oya asosida o'z kontentlarini yaratgan bo'lsa, mustaqillik orqali bu ham milliy sana, milliy adabiy me'roslarga bo'lgan hurmat adabiy jurnallarning sahifalarida maqolalar bilan adabiy asarlar ham ko'rinishda boshladi. Shunday ekan, jurnallarning mazmuni sovet hukumati bosimi ostida kontentli konsepsiyani qoliblashtirishga majbur bo'lgan. Bu fikrlarimizning dalilini, professor F.Mo'minovning quyida keltirgan fikri orqali bilsak ham bo'ladi: "Zamonaviy O'zbekiston bosma ishining tipologiyalik sohalari quyidagi faktlar asosida qoliblashti: Birinchidan, partiya-sovet bosmalari yo'q bo'ldi, ularning bazasida

yangi gazetalar bilan jurnallar paydo bo'ldi. Ikkinchidan, asta-sekin bo'lsa-da, mamlakat qarzdorlikdan o'zini-o'zi qarz bilan ta'minlash protsesi boshlandi. Uchinchidan, bosma so'zning yangi sistemada qoliblashtirishda imkoniyatlari inobatga olindi"[8].

To'g'ri, jurnallarning tipologik bo'linishida gazetalaridagi ayrim yuqorida ta'kidlab o'tilgan faktlar asosida qolishlashadi. Rivojlangan mamlakatlarda dastlabki davrlardayoq, bosma so'z, jurnallar auditoriyada qiziqishlari, talablari bilan bozor talablari asosida rivojlangan bo'lsada, sovet hukumati davrida O'zbekiston jurnallari ma'muriy-buyruqbozlik asosida o'z kontentlarini yaratishga majbur bo'ldi. Shuning uchun mustaqilligimiz davrlarida ko'pchilik jurnallar bozor talablari asosida ishlay olmay, muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bu, birinchidan, jurnal redaksiyasining bozor konyukturasi bilmegenligi bo'lsa, ikkinchidan, jurnallarning auditoriya qiziqishi bilan talablarini o'rganmay ishlaganligi bo'ldi.

**Xulosa.** O'zbekistonda jurnallarning rivojlanish tendentsiyalarini bir necha bosqichlar asosida rivojlanganligini atab o'tishga bo'ladi:

Birinchi bosqich: dastlabki jurnallarning paydo bo'lishi. Jurnallarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan faktlar – o'lkamizda, ya'ni, Turkiston o'lkamizda Rossiya imperiyasining zulmlarining ortishi va shuning uchun milliy g'oya shakllanib bosh ko'tarishi. Avvalo, jadidchilik harakatining boshlanishi, ya'ni, dastlabki "Oyna" jurnalining bosh maqsadi milliy adabiyot, madaniyatni xalqqa tanishtirish orqali milliy uyg'onish bo'ldi. Shu orqali milliy identivligini saqlab qolish g'oyasi mustahkamlandi.

Ikkinchi davr: urushdan keyingi yillar. Sovet hukumati ideologiyasining xuruj olgan davri, yangi sovet odamini qoliblashirish milliy jurnallar orqali. Jurnallar shu g'oyaning singdiruvchisi sifatida ko'rildi. Bu davrda jurnallari rus adiblarining mehnatlarini gavdalantirish orqali rus millatiga bo'lgan hurmatini qoliblashitirish g'oyasini oldiga qo'ydi.

Uchinchi davr: mustaqillikdan oldingi davr. Bu davr jurnallarda ko'proq milliy qahramonlar bilan dastlabki davrda o'zbek yozuvchi va shoirlarning asarlarida alohida o'rin beriladi. Oxir-oqibat millik o'zlik, milliy maqtanish rivojlantirib yubordi.

To'rtinchi davr: mustaqillikning dastlabki yillari. Bir tarafdan iqtisodiy to'ntarishlar sababli ko'pgina jurnallarning bozorda o'z o'rnini topa olmasligi, ikkinchi tarafdan, auditoriyaning qiziqishi va talablarini inobatga olgan jurnallarning o'z pozitsiyasini yaxshilab olish masalalari.

Beshinchi davr: internet tarmog'ining jurnallarga ta'sir etish davri. Bu davr faqat jurnallarga emas, ommaviy axborot vositalarining hammasiga birdek ta'sir o'tkazdi. Lekin bu davr hali ham davom etayotganligi sababligi to'liq teoriyalik asos yaratish qiyin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Дўстқораев Б. «Ўзбекистон журналистикаси тарихи» (1-қисм. 1870–1917 йил ноябрь). Дарслик, Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Т., 2009, 16-бет.
- (2). Абдуазизова Н. История национальной журналистики. «Sharq», Т., 2012, 47-бет.
- (3). Худойкулов М. Журналистикaga kirish (оқыў қолланба). Т., 2005, 19-бет.
- (4). Абдуазизова Н. Миллий журналистика тарихи (Генезис ва эволюция). Биринчи жилд, «Шарқ», 2008, 275-.
- (5). Дустмухаммад Х. Оммавий ахборот воситаларини ривожлантиришининг демократик андозалари. Т., «Ўзбекистон», 2015, 18–19-бетлар.
- (6). Нестеренко Ф.П. Четвертая власть. Какой ей быть? «Правда Востока», 1997, 3 декабря.
- (7). Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. Т., «Академия», 2002, 92-бет.
- (8). Муминов Ф.А. Современные тенденции развития средств массовой информации Узбекистана. В сб.: Роль средств массовой информации в переломные периоды XXвека. Т., фонд К.Аденауэра, 1998, с. 13.



Baydjanov Bekzod Xaitboyevich (Farg‘ona davlat universiteti “Pedagogika” kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); E-mail: baybekzod@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1580-8569>)

**TALABALARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

***Annotasiya.** Maqolada talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning dolzarbligi, huquqiy asoslari ochib berilgan. Muammo yuzasidan mamlakatimiz, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari va xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari hamda axborot xavfsizligini ta‘minlashga doir xorijiy tajribalar atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga, talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlanganligini aniqlash mezon va darajalari aniqlashtirilgan. Muammo yuzasidan xulosa va ilmiy-metodik tavsiyalar keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** internet, axborot, kompetentlik, axborot xavfsizligi, informatsion-analitik kompetentlik.*

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ**

***Аннотация.** В статье раскрывается актуальность, правовые основы развития информационно-аналитической компетентности у студентов. Представлен анализ исследований по данному вопросу, проведенных отечественными учеными, учеными стран СНГ и зарубежных стран. Подробно освещены основные направления государственной политики в области информатизации и зарубежный опыт обеспечения информационной безопасности. Уточняются критерии и уровни определения развитости у студентов информационно-аналитической компетентности. Представлены выводы и научно-методические рекомендации по данной проблеме.*

***Ключевые слова:** интернет, информация, компетентность, информационная безопасность, информационно-аналитическая компетентность.*

**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPING INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE IN STUDENTS**

***Annotation.** The relevance of developing informational-analytical competence in students, the legal basis is revealed in the article. An analysis of the research conducted by our country, Commonwealth of Independent States and foreign scientists on the issue is presented. The main directions of the state policy in the field of information and foreign experience in ensuring information security are covered in detail. At the same time, the criteria and levels for determining the development of informational-analytical competence in students have been defined. The conclusion and scientific-methodical recommendations on the problem are presented.*

***Key words:** Internet, information, competence, information security, information and analytical competence.*

**Kirish.** Uchinchi ming yillik global axborot tizimlari va telekommunikatsiya texnologiyalari yuksalish davri bo‘lib, ular inson faoliyatining har bir sohasiga kirib kelmoqda. Axborot makonining globallashtirishi butun dunyo rivojiga ta‘sir o‘tkazayotgani sababli, yosh avlodni zararli axborotdan himoya qilish va axborot xurujlariga qarshi turishga tayyorlash dolzarb vazifaga aylangan. Jumladan, AQSH, Fransiya, Germaniya va Rossiya davlatlarida “Xavfsiz internet” dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, ta‘lim oluvchilarda informatsion xavfsizlikni ta‘minlash, informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmi yaratilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyatni axborotlashtirishga yo‘naltirilgan davlat siyosati shakllantirildi. Bu siyosat doirasida axborot resurslari, zamonaviy texnologiyalar va axborot tizimlarini rivojlantirish uchun yetarlicha huquqiy asos yaratilib, global standartlarga mos milliy axborot tizimini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Bu jarayon, ayniqsa, yoshlarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Informatsion-analitik kompetentlik yoshlarni tanqidiy fikrlashga, axborotni izlash, tahlil qilish va saralash ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu orqali o‘ziga kelayotgan avlodni zararli axborot ta‘siridan himoya qilish, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini shakllantirish, va ularni global axborot makonida o‘zini ongli ravishda tutishga tayyorlash imkoniyati yaratiladi [2;50-b.]. Shuningdek, jamiyatni axborotlashtirish sharoitida talabalarda vatanparvarlikni, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini, ajdodlar merosiga aksiologik munosabatni

qaror toptirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada talabalarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlari va zararli axborotlar ta'siridan o'z-o'zini himoyalashning profilaktik tizimi ishlab chiqildi. Mazkur profilaktik tizimni mustahkamlash maqsadida mamlakatimizda qabul qilinayotgan me'yoriy-huquiy hujjatlarda strategik yondashuv qo'llanilmoqda. Mazkur yondashuv axborot sohasidagi turli tahdidlarga o'z vaqtida va samarali javob qaytarish, ayniqsa, yoshlar ongiga tahdid soluvchi zararli axborot oqimlarining oldini olish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Misol tariqasida yosh avlodni zararli axborotlardan himoya qilish uchun maktab va oliy o'quv yurtlarida informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish dasturlari joriy etilmoqda. Bu jarayonlarda o'quvchilarga internet va boshqa axborot resurslaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini singdirish, soxta ma'lumotlarni aniqlash va ularga nisbatan tanqidiy yondashish malakasini rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda.

Ayni paytda, talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish; talabalarda informatsion xurujlariga qarshi o'z-o'zini himoyalashning diagnostik-profilaktik tizimini takomillashtirish; talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini yoritib berish; informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini aniqlashtirish; talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish; talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi.** Mamlakatimizda ta'lim oluvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va axboriy tahdidlarga qarshi kurashuvchanlik ko'nikmalarini tarkib toptirish M. Abdujabborova, A. Aripdjanova, U. Begimqulov, U. Yoziyeva, A. Ismonova, B. Xodjaye, M. Quronov, Z. Qosimova, D. Safarova, Muhammad Amin Yahyo kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Psixolog olimlar E. G'oziyev, S. Jalilova, V. Karimova, N. Safayev, G'. Shoumarovlar tomonidan talabalarining o'quv-bilish faoliyatiga axborot ta'sirining psixologik jihatlari; axborot xavfsizligini ta'minlashning falsafiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy masalalari bo'yicha M. Abdullayeva, Z. Davronov, N. Dalimova, O. Davlatov, N. Jo'rayev, O. Raximov, J. Muxammadiyev, A. Mo'minov, I. Soliyev, B. Tuychiyev, J. Tulenov, B. To'rayev, G. G'affarovalar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish, talabalarda internet bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar M. Aripov, N. Muslimov, Sh. Sharipov, S. G'ulomov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida ham axborot xavfsizligini ta'minlash, yoshlarda axborot xavfsizligiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Y. Bogatiryova, A. Dokolin, V. Mixaylovskiy, N. Nosov, N. Nurmeyeva, S. Lomasko, T. Yaglom, A. Shesternin kabilarda axboriy tahdidlardan himoyalash va jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlariga oid ilmiy izlanishlarni olib borganlar.

Xorijlik olimlardan G. Atkinson, S. Dawn, Jon Lackie, Y. Masuda, Stamp Mark, M. Unland, Holkner Bernard kabilarning tadqiqotlarida talabalarda axboriy-analitik ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, R. F. Abdeyev, D. Bell, Dj. Gelbrejt, P. Druker, V. Inozemsev, M. Kastels, I. S. Mel'yuxin, A. Toffler, F. Uebsterlar axborot va axborot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlarni tadqiq etishgan. Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi bilan bog'liqlikda turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, biroq talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'tgan asrning ikkinchi yarmida axborot tizimlari va telekommunikatsiya texnologiyalari misli ko'rilmagan darajada rivojlanib, ular jamiyatning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Bu davrda axborot makonining globallashuvi butun dunyo taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan omilga aylandi. Xususan, mamlakatlar o'rtasidagi faol axborot almashuvi va odamlarning yangilikka bo'lgan ehtiyoji juda ortib ketdi.

Axborot texnologiyalarining tezkor rivoji jamoatchilik va davlat hayotida ko'plab yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Masalan, tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalar orqali onlayn maslahatlar va masofaviy diagnostika imkoniyatlari paydo bo'ldi. Shu bilan birga, ta'lim tizimida masofaviy o'qitish va raqamli platformalardan foydalanish global pandemiya sharoitida keng joriy etilib, yangi asr talablariga moslashtirildi.

Axborotning tezkor tarqalishi XXI asrda dunyo taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biriga aylandi. Shu sababli davlat boshqaruvida axborot tizimlari orqali tezkor qaror qabul qilish mexanizmlari joriy qilinmoqda, iqtisodiy sektorda esa onlayn savdo platformalari va raqamli to'lov tizimlari keng ommalashmoqda.

Mamlakatimizda jamiyatni axborotlashtirish davlat tomonidan qonuniy asosda qo'llab-quvvatlanmoqda. Axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, texnologiyalari va tizimlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu jarayonda zamonaviy xalqaro tamoyillar va standartlar inobatga olinadi. Shu asosda milliy axborot tizimini yaratish va uni global axborot makoniga moslashtirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Har bir shaxsning axborotni erkin olish va tarqatish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, shuningdek, axborot resurslaridan erkin foydalanishni ta'minlash demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Ushbu huquqlar fuqarolarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish, turli axborot manbalaridan foydalanish va bilimlarini kengaytirish imkoniyatini beradi. Jumladan:

–**qonunchilik asoslari:** mamlakatimizda axborotni erkin olish va tarqatish huquqlarini amalga oshirish uchun maxsus qonunlar va normativ hujjatlar ishlab chiqilgan. Misol uchun, "Axborot olish huquqi to'g'risida"gi qonun fuqarolarga davlat tashkilotlaridan axborot so'rash va olingan axborotni tarqatish imkonini beradi. Bu qonunlar, shuningdek, informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki ular fuqarolarni axborotga kirish imkoniyatlari bilan ta'minlaydi;

–**ochiq axborot resurslari:** davlat tashkilotlari axborot resurslarini ochiq va erkin tarzda taqdim etish orqali fuqarolarni zaruriy ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Masalan, davlat statistikasi portallari aholiga turli ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlar haqida ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu axborot manbalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi;

–**onlayn kutubxonalar:** axborot resurslaridan erkin foydalanishni ta'minlash maqsadida raqamli kutubxonalar va ma'lumotlar bazalari tashkil etilgan. Misol uchun, O'zbekiston Milliy kutubxonasi o'z resurslarini onlayn tarzda taqdim etib, fuqarolarni ilmiy adabiyotlar bilan tanishtirishda katta rol o'ynaydi. Ushbu platformalar axborotni izlash, tahlil qilish va saralash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhimdir.

–**axborot texnologiyalari:** raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi axborotning tezkor tarqalishini ta'minlaydi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar va bloglar orqali har kim o'z fikrlarini, g'oyalarini va tajribalarini keng ommaga taqdim etishi mumkin. Bu jarayonlar, shuningdek, yoshlarning axborot xurujlariga qarshi kurashish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ushbu jarayonlar jamiyatda axborot almashinuvi va kommunikatsiya madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi, shuningdek, axborot erkinligi prinsiplarini mustahkamlashga yordam beradi. Shunday qilib, informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, fuqarolarni axborotga asoslangan qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi va zamonaviy axborot muhitida ongli ravishda faoliyat yuritish imkonini beradi [4].

O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq, axborot xavfsizligi, axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati, shuningdek, axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Bu jarayonda shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari aniqlanadi. Bularni quyidagicha ko'rib chiqishimiz mumkin:

**1. Davlat siyosati.** Axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati fuqarolarni himoya qilish, ularga axborotdan erkin foydalanish imkoniyatlarini yaratish va axborot xurujlaridan himoya qilishni nazarda tutadi. Bu siyosat, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarning himoya qilinishi va axborot manbalarining ishonchliligi masalalarini o'z ichiga oladi.

**2. Boshqaruv organlari roli.** Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular axborot xavflarini tahlil qilish, ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Bu esa axborot xavfsizligi tizimining samaradorligini oshiradi.

**3. Fuqarolarning o'rni.** Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari ham axborot xavfsizligini ta'minlashda faol ishtirok etishlari muhimdir. Ularning roli axborot xavfsizligi masalalarini muhokama qilish va jamiyatda axborot xavfsizligini oshirish uchun targ'ibot qilishda ifodalanadi.

**4. Ijtimoiy munosabatlar.** Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va axborot sohasida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga

qaratilgan. Bu jarayonlar jamiyatda axborot almashinuvi va axborot xavfsizligi haqida ongli yondashuvni shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, axborot xavfsizligini ta'minlash shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonlarda har bir fuqaroning faol ishtiroki va mas'uliyati alohida o'rinda turadi [4].

Shu o'rinda Prezident Sh.Mirziyoyevning "Bugun yoshlar soxta aldovlarga uchib, o'z umrini xazon qilayotganini o'ylab, to'g'risi, tunlari uxlamay chiqaman. Axir, kechagina bu yoshlar o'zimizning qorako'zlar, birimizning mahalladoshimiz, birimizning o'g'limiz, birimizning qizimiz yoki jiyanimiz edi-ku! Ular qachon adashdi, qachon noto'g'ri yo'lga kirib ketdi? Biz nega g'afatda qoldik? Qachon, qayerda xatoga yo'l qo'ydik? Farzandlarimiz qachon begonalar qo'lga o'tib ketdi? Nima jin urdi-yu, ular o'z otasonasi, o'z yurtining dushmaniga aylanib qoldi?" [15], degan xitoblari hammamizni chuqur mulohaza qilishga da'vat etadi.

Axborot xuruji talabalarga nisbatan sodir bo'lishi, ularning fikrlash tarzi va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bunday xurujlarning salbiy siyosiy qarashlarni shakllantiruvchi omillarini pedagogik va psixologik jihatdan bartaraf etish zarur. Bular quyidagi bosqichlarda namoyon bo'ladi: **pedagogik-psixologik yondashuv; psixologik-profilaktik himoya; ijtimoiy-pedagogik faoliyat; talabalarni ishonchli axborot resurslari bilan tanishtirish.**

Umuman olganda, axborot xuruji talabalarga nisbatan jiddiy tahdid tug'dirishi mumkin, shu-ning uchun bunday xurujlarni pedagogik-psixologik jihatdan bartaraf etish, ularning rivojlanishi va ma'naviy salomatligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Axborot xuruji – bu inson va jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatishga, ularning xulq-atvorini o'zgartirish yoki saqlab qolishga qaratilgan jarayon. Axborot xurujining manbalari xilma-xildir, jumladan ommaviy axborot vositalari, internet, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat tashkilotlari, fondlar, shuningdek, kitoblar, filmlar, haykallar, rasmlar va boshqa ko'plab manbalar. Axborot xuruji obyektiga esa bir shaxs yoki ijtimoiy guruh, davlat bo'lishi mumkin.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi va insonlarning intellektual darajasining oshishi axborot xurujining mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa axborot-analitik kompetentlikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Insonlarning axborot xuruji va ularning ta'sirini tushunish qobiliyati, axborotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish malakasi axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, axborot xavfsizligi masalalari dolzarblashmoqda, bu esa siyosiy va ijtimoiy institutlarning fuqarolarning ma'naviy dunyosini mustahkamlashga qaratilgan e'tiborini kuchaytiradi. Axborot xurujining turli ko'rinishlari mavjud bo'lgani uchun, ularni chuqur o'rganish, tahlil qilish va ularga qarshi immunitetni shakllantirish juda muhimdir.

Ushbu tadqiqotda bir nechta metodologik yondashuvlar qo'llanildi, ularning har biri axborot-analitik kompetentlikni o'rganishda muhim ahamiyatga ega:

**1. Adabiyotlar tahlili.** O'zbekistonda va xorijda axborot-analitik kompetentlik hamda zararli axborotlar haqidagi mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu tahlil natijasida muayyan kontekstda axborot-analitik kompetentlik tushunchasining rivojlanishi, ta'lim tizimida qanday qo'llanilayotgani va qanday amaliyotlar mavjudligi o'rganildi.

**2. So'rovnomalar.** Talabalar orasida axborot-analitik kompetentlik darajasini o'rganish uchun keng qamrovli so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalarda 500 ga yaqin respondent-talabalar ishtirok etdi va ularning javoblari orqali axborotlarni aniqlash va tahlil qilish qobiliyati baholandi. So'rovnomalar yordamida talabalar tomonidan qabul qilinayotgan axborotlarning manbalarini, ishonchliligini va zararlilik darajasini aniqlashga harakat qilindi.

**3. Intervyular.** O'qituvchilar, psixologlar va axborot xavfsizligiga mas'ul bo'lgan mutaxassislar bilan o'tkazilgan intervyular orqali axborot-analitik kompetentlikni rivojlantirishda mavjud muammolar va ularning yechimlari haqida fikrlar yig'ildi. Ushbu intervyular davomida mutaxassislar o'z tajribalarini baham ko'rishdi va talabalarni qanday qilib faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan mas'uliyatli fuqarolar sifatida rivojlantirish kerakligi haqida o'z fikrlarini bildirdilar.

**Tahlil va natijalar.** Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni shakllantirish, o'z navbatida, shaxs axborot xavfsizligi bilan bog'liq bo'lib, shaxs axborot xavfsizligining kognitiv, faoliyatga doir va aksiologik komponentlari aniqlashtirildi. Mazkur komponentlar asosida so'rovnomalar shakllantirildi. Tajriba sinov ishlariga Farg'ona davlat universiteti, Termiz davlat universiteti hamda Namangan davlat Pedagogika institutining 492 nafar respondent-talabalarini jalb etildi.

Tadqiqot doirasida talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlanganligini aniqlashda yuqori (kreativ), o'rta (situativ-reproduktiv) va past (adaptiv) darajalarni belgilab olindi. O'tkazilgan so'rovnomalarning natijalari tahlil qilindi. Asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari natijalari talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning adaptiv darajasi 2,26 martaga kamayganligini ko'rsatadi. Aksincha, situativ-reproduktiv daraja 1,71 marta va kreativ daraja 1,91 martaga ortganligi haqidagi xulosaga kelish imkonini beradi.

**Xulosa va takliflar.** Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Globallashuv va axborotlashuv asri yoshlarga keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy, jismoniy va intellektual rivojiga salbiy ta'sir etuvchi xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu esa, talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillash-tirishga katta e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

2. Axborot xavfsizligini ta'minlash, eng avvalo, turli axborot manbalaridagi ma'lumotlarni tahlil etish, baholash va zararli axborotlarni aniqlash, talabalarni zararli axborotlar tahdididan o'z-o'zini va jamiyat a'zolarini himoya qilish, ularga qarshi kurashishga tayyorlashni talab etadi. Faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan bo'lajak mutaxassis sifatida talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga doir axboriy-huquqiy, axboriy-kognitiv, tashkiliy-pedagogik, ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalar tizimini tarkib toptirish lozim.

3. Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish, o'z navbatida, shaxs axborot xavfsizligi bilan bog'liq bo'lib, mazkur jarayonda kognitiv, faoliyatga doir va aksiologik komponentlar birli-gi va o'zaro aloqadorligini hisobga olish maqsadga muvofiq.

4. Tadqiqot davomida oliy ta'lim tizimiga doir asosiy o'quv-me'yoriy hujjatlar, xususan, pedagogika ta'lim sohasining Davlat ta'lim standarti va o'quv rejasida axborot xavfsizligiga doir maxsus fan, shuning-dek, shu maqsadlarga yo'naltirilgan to'garaklar pedagogika yo'nalishida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalarida mavjud emasligi aniqlandi. Shu jihatni hisobga olgan holda, pedagogika yo'nalishlarida "Axborot iste'moli madaniyati", "Axborot xavfsizligi", "Neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi" kabi elektiv kurslarni o'qitishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

5. Ilmiy-pedagogik izlanishlarning muhim tarkibiy asoslaridan biri tadqiqot metodologiyasi va me-todlari xisoblanadi. Ularni to'g'ri, oqilona tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganishlar natijasida "Skeptiklik metodologiyasi", "Tanqidiy va analitik tahlil" texnologiyalari talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi xulosaga kelindi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pedagogika ta'lim sohasining barcha bakalavriat yo'nalishlari uchun tanlov fanlari blokida "Ax-borot iste'moli madaniyati" modulini o'qitishni yo'lga qo'yish lozim.

2. Pedagogik-psixologik blokda fanlar dasturiga o'quvchilarda shaxsiy axborot xavfsizligi ko'nik-malarini shakllantirish va informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish bilan bog'liq mavzularni kiri-tish lozim.

3. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida axborotdan foydalanish erkinligi hamda axborot iste'molchisining huquq va majburiyatlari to'g'risidagi fakultativ va maxsus kurslarni maqsadli joriy etish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son.

(2). O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T., "Adolat", 2008, 290-bet.

(3). O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni. Axborot va axborotlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar to'plami. T., "Adolat", 2008, 290-bet.

(4). O'zbekiston Respublikasining "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. O'zbe-kiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003, 1-son, 2-modda; 2015, 52-son, 645-modda.

(5). "O'zbekiston Respublikasi axborot resurslarini tayyorlash va ularni ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarida, shu jumladan, internetda tarqatish tartibi to'g'risida"gi nizom. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlar to'plami. 2004, 19-son, 220-modda.

(6). O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, 4–5-sonlar, 108-modda; 2001, 1–2-sonlar, 23-modda; 2015, 52-son, 645-modda.

(7). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018. 06/18/5349/0792-son.

(8). Vazirlar Mahkamasining “Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikasiya xizmatlari sifatini yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 185-qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 20.02.2018. 06/18/5349/0792-son.

(9). Vazirlar mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikasiya texnologiyalari sohasida nazorat bo‘yicha inspeksiya to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi 318-qarori. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2018. 09/18/318/1108-son.

(10). 105th Congress Report House of Representatives 2d Session 105 775 Child online protection act October 5, 1998.

(11). Dawn S. Conrad, Note, Protecting Children from Pornography on the Internet: Freedom of Speech is Pitting and Congress May Strike Out, 9 RICH. J.L. & TECH. 2 (Winter 2002), at <http://jolt.richmond.edu/v9i2/Note1.html>.

(12). Badalov M. Yoshlar ongida hayotbaxsh g‘oyalar. “Huquq va burch” jurnali, T., 2014, 6-son, [www.huquqburch.uz](http://www.huquqburch.uz).

(13). Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. T., “Ma‘naviyat”, 2008, 176-bet.

(14). Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T., “O‘zbekiston”, 2009, 24-bet.

(15). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, muqaddas dinimizni sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 17-iyun.

(16). Nazarov N. Jamiyatda milliy-etnik jarayonlar rivojining siyosiy-faalsafiy tahlili. Siyos. fan. dok. ... diss., Toshken, DJQA, 2005, 355-bet.

(17). Гринин Л.Е., Каратаев А.В. Социальная микроэволюция и исторический процесс. “Философия и общество”, М., 2007, № 2, с. 19–24.

(18). Xodjajev B. Pedagogik aksiologiya. T., “Fan va texnologiya”, 2012, 168-bet.

(19). Davlatov O.G‘. Talabalarda axborot xavfsizligini ta‘minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ...diss., Toshkent, 2018, 177-bet.

(20). Baydjanov, Bekzod. “Compatibility of new renaissance pedagogy and jadid enlighteners’ views on education and information security”. Материалы конференции, 2021.

(21). Baydjanov, Bekzod. “Higher education prospects and issues of developing information security culture among students” (on the example of Fergana region). Материалы конференции, 2021.

**Asqarova Manzura Avazbekovna (Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi (DSc);**

**E-mail-kuldasheva80@bk.ru)**

## **ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGINI O‘QITISH JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIIY-METODIK JIHATLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish talablari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish va matnni tushunish kompetensiyalarini rivojlantirishda PISA xalqaro baholash dasturidan foydalanishning ilmiy va amaliy ahamiyati, **O‘zbekistonning PISA va PIRLS dasturidagi ishtiroki haqida ma‘lumotlar, PIRLS xalqaro baholash dasturlarining natijalariga erishishi uchun ko‘rsatkichlar yoritib o‘tilgan.***

***Kalit so‘zlar:** PISA, savodxonlik, bilim, kompetensiya, baholash, taraqqiyot, ko‘rsatkich, strategiya, daraja, samaradorlik.*

### **НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОЦЕНОЧНЫХ ПРОГРАММ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ**

***Аннотация.** В данной статье освещены требования к использованию международных оценочных программ в начальном образовании, научное и практическое значение использования международной оценочной программы PISA в развитии навыков чтения и понимания текста у учащихся начальных классов, информация об участии Узбекистана в программе PISA и PIRLS, показатели достижения результатов международных оценочных программ PIRLS.*

***Ключевые слова:** PISA, грамотность, знания, компетентность, оценка, прогресс, индикатор, стратегия, уровень, эффективность.*

## SCIENTIFIC METHODOLOGICAL ASPECTS OF USING INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS IN THE PROCESS OF TEACHING NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY

**Annotation.** *This article covers the requirements for the use of international assessment programs in primary education, the scientific and practical importance of using the International Assessment Program PISA in the development of reading and text comprehension competencies of Primary School students, information about Uzbekistan's participation in the program PISA and PIRLS, indicators for achieving the results of PIRLS international assessment programs.*

**Keywords:** *PISA, literacy, knowledge, competence, assessment, progress, indicator, strategy, level, efficiency.*

**Kirish.** Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish talablari-ga hamda ushbu dasturlarni qo'llash uchun mavjud resurslarni yaratish, mamlakatlar o'rtasida tadqiqotga oid tushunchalar, amaliy g'oyalar, o'rganishlar, strategiyalar bo'yicha tajribalar almashish, tadqiqotga tashkil etishga oid maslahatlar berish amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston uchun Avstriya jamoasi bilan PISA 2025 tadqiqotida "Buddy partner" sifatida hamkorlik qilish belgilangan. O'zbekistondagi ta'lim islohotlari PISA boshqaruv kengashining 55-Kongressida taqdim qilindi. Kongressda xalqaro ta'lim sifatini baholash tadqiqotlarida ishtirok etish ahamiyati, yaqin yillarda ta'limni transformatsiya qilish bo'yicha mamlakatlarning rejalari ko'rib chiqildi. Italiyaning Rim shahrida PISA boshqaruv kengashining 55-Kongressida dunyoning 70 dan ortiq mamlakat ta'lim sohasi rahbarlari ishtirok etayotgan tadbirda ta'lim sifatini baholashning xalqaro tadqiqotlari bo'yicha yaqin kelajakdagi rejalar muhokama qilindi.

Bu borada O'zbekiston oxirgi o'tkazilgan tadqiqotda, ya'ni, 2021-yilda ilk marotaba ishtirok etdi. Navbatdagi 6-davriylik 2026-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan. PISA dasturi esa 2000-yilda ilk tadqiqotini o'tkazgan bo'lib, har uch yilda (2003, 2006, 2009, 2012, 2015, 2018-yillarda va pandemiya tufayli 2021-yilda emas, balki 2022-yilda) tashkil etilgan. O'zbekiston ilk marotaba 2022-yilda ishtirok etdi. Navbatdagi 9-davriylik 2025-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan [1]. Bu esa milliy ta'lim tizimlariga ta'siri sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, Germaniyada birinchi PISA baholash natijalari "PISA zarbasi" deb nomlandi, ya'ni, ilgari qabul qilingan ta'lim siyosatiga mintaqaviy siyosat farqlari bilan ajralib turadigan davlatda oxir-oqibat barcha Landerlar tomonidan umumiy milliy standartlarni, hatto ularga rioya qilinishini ta'minlash uchun institutsional tuzilmani joriy etish to'g'risida kelishuvga erishildi. Aksariyat ishtirokchi mamlakatlarning siyosatchilari PISA samaradorligining muhim ko'rsatkichi deb bilishadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** PIRLS xalqaro dasturi bo'yicha, xususan, matnlarni o'zlashtirish darajalari haqida britaniyalik olimlar o'z tadqiqotlarida aytib o'tganlar. Jumladan, M.Medvell, N.Metyular tomonidan matnni o'qib o'zlashtirishda elektron o'qishni, J.Levin elektron so'zlashuv kitoblarini, A.Olofsson nutqni rivojlantiruvchi dasturiy ta'minotlarni samarali ekanligini ta'kidlab o'tgan [2]. Pedagog D.N.Roshenyaning fikriga ko'ra, tanlab o'qish ongli va ifodali o'qish malakasini shakllantirish, matn ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish, bolalarning ijodiy tasavvuri, nutqi va zehni o'stirishga va o'qishga bo'lgan motivni kuchaytirishga imkon beradi [3].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Xalqaro baholash dasturlarida ilk marta qatnashguncha **Germaniya** o'z ta'lim tizimini ilg'or va kamchiligi yo'q, deya baholab kelgan. Biroq bu davlat uchun natija kutilganday bo'lmagandan so'ng xatolar tahlil qilina boshlangan. Shunda Germaniya ta'lim tizimining nisbatan yopiqligi, tajriba almashish dasturlariga yetarli e'tibor qaratilmayotgani ma'lum bo'lgan. Shundan so'ng Germaniyada ta'lim bilan bog'liq butun tizim qaytadan ko'rib chiqilgan va alohida «PISA-shock» nomli dastur ishlab chiqilgan. Oradan 9 yil o'tgandan so'nggina, Germaniya PISA reytingida yuqorilay boshlaydi.

Bugun ta'lim tizimi dunyo bo'yicha eng oldingi ko'rsatkichlarni band qiladigan **Finlandiya**ning ham, dastavval, xalqaro baholash dastur natijalari juda yaxshi chiqmagan. Shundan so'ng Finlandiya faqat ko'rsatkichi yuqori maktablarga va o'quvchilariga emas, balki markazdan uzoqda joylashgan ta'lim muassasalariga ham alohida e'tibor berishni boshlagan.

**Yaponiya** esa 2006-yilda PISA dasturida birinchi marta qatnashganida ta'lim tizimida O'zbekiston-nikiga o'xshash tarzda o'quvchilardan, asosan, o'quv dasturida berilgan ma'lumotni yaxshi o'zlashtirishga ko'p e'tibor qaratayotgani ma'lum bo'lgan. O'shanda Yaponiya o'quvchilari fikrlashga va o'ylashga majbur qiladigan savollarga javob topishda qiynalayotgani kuzatilgan. Ushbu kamchilikni to'g'rilashga harakat qilingan.

**O‘zbekistonning PISA va PIRLS dasturidagi ishtiroki uchun budget va xalqaro tashkilotlardan mablag‘ ajratilmoqda.** O‘zbekiston PISAda birinchi marta ishtirok etayotgani uchun ham davlat budjetidan, ham xalqaro moliyalashtirish institutlaridan mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan. Masalan, davlat budjetidan alohida markaz tashkil etilgan bo‘lib, unda ishlayotgan xodimlar va boshqa xarajatlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Bu yiliga, taxminan, 3 milliard so‘mni tashkil qiladi.

PIRLS halqaro baholash dasturlarining natijalariga erishishi uchun quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish lozim:

– birinchidan, ushbu baholash dasturidan foydalanish maqsadlarini ishlab chiqish lozim. Maqsadlar keng tushunchalarni ifodalovchi mazmunli va muayyan matnlarni tahlil qilish yuzasidan bo‘lishi lozim. Masalan, o‘quvchilarning me‘yoriy rivojlanishini, o‘qish va mehnat qilish birligini ta‘minlash, ta‘lim jarayoniga muvofiqlashtirish maqsadlariga ega bo‘lishi, matnda aks ettirilgan ma‘no-mazmun va g‘oyalarni chuqurroq o‘rganishni o‘z ichiga oladi;

– ikkinchidan, matni o‘qishda kerakli jihatlarini sharhlab borish o‘qishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Matn o‘qishda fikrlarni mos keladigan dalillar bilan bog‘lashni talab qiladi. Demak, qo‘llanilgan tushunchalarni, shuningdek, dalillarning aniqligini va ahamiyatini sinchkovlik bilan o‘rganishni anglatadi;

–uchinchidan, tanqidiy o‘qishni rivojlantirish. Tanqidiy o‘qish matndagi dalillarni faol tarzda topib, tahlil qilishni nazarda tutadi. Demak, tanqidiy o‘qish bu materialni chuqur tushunish maqsadida o‘qish demakdir. Bu matni o‘qish jarayonida tahlil qilish va baholashni talab etadi. Bu xususida L.E.Tixonova “Badiiy asarni tanqidiy ravishda o‘qiyotganda, yozuvchining, aslida, nimani nazarda tutishini aniqlash muhim ahamiyatga egadir”, deya fikr bildirgan.

Bizning fikrimizcha, baholash dasturlarni o‘qish darslarida o‘quvchilarga kichik hikoya va ertaklardan, ikki xil variantda uyga vazifa berilib, berilgan vazifaga ko‘ra hikoya yoki ertak haqida savol-javoblar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu tizimli ishni bajarishga yordam beradi. Misol uchun, o‘quvchilarga savol-javoblar tashkillashtirilganda, ular aniq va tez javob berishga qodir bo‘ladi. Xalqaro baholash dasturlari tasavvurlarni bildirishda oldingi umumiy ma‘lumotlar bilan birgalikda, kreativlik tamoyillariga amal qilishi kerak. Bu esa o‘quvchilarning qobiliyatlari, talablari va ta‘lim muhiti mavjudligining muvofiqligini ta‘minlaydi. Baholash dasturlari amalga oshirilgandan so‘ng ma‘lumotlarni to‘plash va tahlil qilish mumkin. Ularning natijalari bo‘yicha yanginliklar va imkoniyatlar topish maqsadida birlamchi natijalarni tuzish mumkin. Xalqaro baholash dasturlarini qo‘llash davomida ularning to‘g‘riligini tekshirish va tahrirlash mumkin. Bu esa o‘quvchilarning matni o‘qiganligi natijasida uni qanday tushunganlik darajasini baholaydi. Bunda o‘quvchi matni o‘qish jarayonida o‘z fikrini mushohada qilib, fikrini erkin ayta olishi muhim hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta‘limda xalqaro baholash dasturidan foydalanishning samaradorligi shundaki, xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o‘quv dasturlarida mavjud bo‘lgan talablar doirasida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi. Namuna tariqasida mazkur PISA topshirig‘I tavsifiya etiladi.

**3-savol. Ichimlik suvi.** Tozalash jarayonining to‘rtinchi bosqichida suv xlorlanadi. Nima uchun suvga xlor qo‘shiladi?





---

---

**4-savol. Ichimlik suvi.** Aytaylik, suv sifatini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan suv tozalash insho-otlari xodimlari keyingi namunani yig'ishda tozalash jarayoni tugagandan so'ng suvda xavfli bakteriyalarni topdilar. Bunday holda, o'quvchilar bu suvni ichishdan oldin o'z uylarida nima qilishlari kerak?

---

---

Ona tili va o'qish savodxonligi ta'riflari jamiyat, iqtisodiyot va madaniyatdagi o'zgarishlarga qarab o'zgaradi. Hayot davomida o'rganish konsepsiyasi o'qish savodxonligi tushunchasini va unga qo'yiladigan talablarni kengaytiradi.

PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YIM)ning 1%ga o'sishini ta'minlaydi. PISA va PIRLS baholash dasturlarini so'nggi yillardagi vazifalarining asosiy jihati test sinovlari o'quvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi, bunda o'quvchining bilimlari asosiy o'rin tutmaydi, faqatgina o'quvchining ongini ishlatishni talab qiladi.

Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari shundaki, o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sezgi va idrokning faollashishi, berilgan muammolarni sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash, mu- loqot qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Hayot davomida o'rganish tamoyili asosida o'quvchilar maktab- da o'rganishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni to'liq o'zlashtira olmaydi. Samarali o'rganuvchi bo'lish uchun nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ular qanday hamda nima uchun o'rganilishi haqida xabardor bo'lishi lozim.

Ko'rsatib o'tilgan omillar matematika fanlarini o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'lib, uning darajalarini belgilab beradi. Quyida PISA, PIRLS testlarining to'rt darajasi ko'rsatilgan.

- 1-darajali testlar o'qituvchi tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida ularni bilim, malaka va ko'- nikmasini aniqlaydi. Aniq belgilangan algortmlar asosida hal qilinadigan testlar;

- 2-darajali testlar taqqoslash, qiyoslash talab qilinadigan testlar. O'qituvchi bergan ma'lumotlar aso- sida turlicha javob chiqarilishi mumkin bo'lgan testlar;

- 3-darajali testlar bir necha manbadan kerakli ma'lumotlarni topib, taqqoslab, qiyoslab, eng maqbul yechimi topiladigan testlar;

- 4-darajali testlar esa proekt ko'rinishidagi topshiriqlar hisoblanadi.

PIRLS testida o'quvchilarning qobiliyatlari eng yuqori darajada nazariy jihatdan to'rtta asosiy rivoj- lantirishni nazarda tutadi:

- matnda aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;

- oddiy xulosalar chiqarishga asoslanish;

- matn g'oyalari va ma'lumotlarini integratsiya qilish va sharhlash;

- matnning mazmuni va shaklini baholash. Ushbu to'rtta daraja o'quvchi qobiliyatlarining har bir matn uchun test savollarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [6].

PIRLS tadqiqotida ishlatadigan matnlarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, unga ko'ra, matnlarning PIRLS dasturida murakkabligiga qarab 500 dan 800 gacha, o'quvchilarning o'qish savodxon- ligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400–500 tagacha, taxminan, 1000 ta so'zdan iborat bo'ladi. PIRLS matnlari uchun aniqlik va izchillik muhim mezon hisoblanadi.

PIRLS tadqiqotida ishlatiladigan matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan.

Uzunligi: 1000 ta so'zgacha.

Mavzu: badiiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlantiriladi. Axborot matnlari o'quv materiallardan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak.

Til: 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, shuning uchun tarjima qulay bo'lishi muhimdir. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid so'z yoki jargon ishlatilmaydi hamda ortiqcha texnik ifodalar olib tashlanadi.

Mazmuni: matnning mazmuni 9–10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi, ay- rim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlanishi, shuningdek, matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi, hamda o'quvchi uchun unchalik tanish bo'lmasligi lozim.

Bog‘liqlik va ketma-ketlik: sujetning mantiqiy tuzilishiga rioya qilish muhimdir. Axborot matnda matnning tuzilishi va ma’lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog‘liqligini kuzatish shartdir.

PIRLS tadqiqotida o‘qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:

•eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – o‘quvchilar matnni yaxlit o‘zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog‘liq holda tushunadi. Muallifning g‘oyasini izohlashda o‘z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi;

•yuqori daraja (550 ball) – o‘quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib, o‘z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e’tibor qarata oladi;

•o‘rta daraja (475 ball) – o‘quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba’zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan, o‘z xulosalarini chiqaradi;

•quyi daraja (400 ball) – o‘quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo‘lgan xabarni ajratib oladi [5].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarda matnning mazmunini baholash qobiliyati o‘zgaradi: matnning to‘liq, batafsil shakli, chuqur ma’nosini matndan obyektiv yoki subyektiv nuqtayi nazardan qarash kerak. O‘quvchi matn muallifi tomonidan chizilgan dunyoning rasmini dunyoning o‘z rasmiga bog‘laydi, muallifning pozitsiyasiga betaraf qoladi, uni inkor etadi yoki qo‘shimcha tasdiqlarni topadi. O‘quvchi mualliflik g‘oyalarini boshqa manbalardan olingan g‘oyalar va ma’lumotlar bilan taqqoslaydi. Matnning rasmiy elementlarini baholash, ya’ni uning tuzilishi, o‘quvchi umumiy va janr xususiyatlari, fikrlar, his-tuyg‘ular, faktlar haqida yozma xabarlarni taqdim etishning verbal va noverbal usullari haqida o‘z bilimiga tayanadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** O‘quvchilar muallif uslubining afzalliklari va kamchiliklarini ta’kidlashlari mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar axborotni tahlil qilishda ularning qobiliyatlarini ishga solish muhim ekanligini yodda tutish kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashda berilgan tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). Sh.Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Toshkent, 2021.
- (2). О.Г.Авдеева. БОУ СОШ. № 210, Новосибирск, 2018.
- (3). Е.Л.Тихонова. Развитие функциональной математической грамотности учащихся в рамках проведения международного исследования PISA. <http://allforedu.ru/eto-interesno/pisa-test-matematika>.
- (4). Образовательная программа «Школа 2100» – качественное образование для всех: сб.мат./Под науч. ред. Д.И.Фельдштейна. Баласс, 2006.
- (5). Ю.А.Лунев, А.С.Чернышев, Ю.Л.Лобков, С.В.Сарычев. Психологическая школа молодежных лидеров. Москва, 2005, с. 75.
- (6). OECD.org/pisa/ – PISA xalqaro baholash dasturi sayti.

**Avazbekova Shohsanam Nurmat qizi (Biznes va fan universiteti o‘qituvchisi)**

### **TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA ILMIY XABARDORLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada. Boshlang‘ich ta’lim tizimida ilmiy xabardorlik kompetensiyasini rivojlantirishning dolzarb masalalari, o‘quvchilarning erkin va tanqidiy rivojlanish elementlari texnologiyasi, ilmiy dunyoqarashning asosiy xususiyatlari, ilmiy dunyoqarashning shakllantirish harakatlari, o‘quvchilarning kreativ fikrlash bosqichlari va faoliyati, ilmiy dunyoqarashning rivojlantirish usullari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy xabardorlik, kompetensiya, innovatsiya, intellektual salohiyat, fan-texnika, ehtiyoj, globallashuv, ijtimoiy ishlab chiqarish, xulosa, axborot.

### **МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ НАУЧНО-ОЗНАЧИТЕЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННОСТИ**

**Аннотация.** В статье рассмотрены актуальные вопросы развития компетентности научного сознания в системе начального образования, технология элементов свободного и критического развития учащихся, основные черты научного мировоззрения, действия по формированию научного мировоззрения, этапы и деятельность творческого мышления учащихся, методы развития научно-мировоззрения.

**Ключевые слова:** научное сознание, компетентность, инновации, интеллектуальный потенциал, наука и техника, потребность, глобализация, общественное производство, вывод, информация.

## METHODOLOGY FOR DEVELOPING SCIENTIFIC AWARENESS COMPETENCE IN NATURAL SCIENCE TEACHING

**Annotation.** In this article, current issues of development of competence of scientific awareness in the primary education system, technology of elements of free and critical development of students, main features of scientific worldview, actions of formation of scientific worldview, stages and activities of students' creative thinking, methods of development of scientific worldview are covered.

**Key words:** scientific awareness, competence, innovation, intellectual potential, science and technology, need, globalization, social production, conclusion, information.

**Kirish (Introduction).** Bugungi kun, bugungi davr, inqilobiy o'zgarishlar davri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Jahondagi globallashuv jarayonlari, innovasion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj, fan-texnika taraqqiyoti yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, o'rgangan bilimlarini tahlil qila olishi, muammoli vaziyatlarni yecha olishi, ularning oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyotni oshirish kabi ko'plab talablarni qo'ymoqda.

"Ta'lim sifatini oshirish, bolalarni o'qishga qiziqtirishning muhim omili, birinchi navbatda, yaxshi darslik" [1]. deya ta'kidladi Prezident Shavkat Mirziyoyev 29.12.2022 kuni "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir!" mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko'rgazmasi bilan tanishgan chog'ida. Yangi darsliklarni tayyorlashda PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlardagi namunaviy vazifalar asos qilib olingan. Darslik bilan birga, mashg'ulot daftarlari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar ham chop etilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Tabiiy fanlarning rivojlanishi va tabiatdagi hodisa va jarayonlarni o'rganish, tahlil qilish hamda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish rivojlantirish muammosi bo'yicha bir guruh olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, bunga Z.Sangirova tabiiy fanlarni o'qitishda kichik yoshdagi o'quvchilarda ilmiy savodxonlik va amaliy komponentiyalarning pedagogik shart-sharoitlarini o'rgangan [5]. G.I.Qosimova "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish metodikasi takomillashtirish" borasida ilmiy izlanishlar olib bordi. H.Haydarov, S.Nishonov Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof tabiat bilan tanishtirish ishlarini maktabgacha ta'lim yoshidan boshlamoq kerak, degan g'oyalarni yuritadi. S.I.Veksler, A.S.Bayramov, A.I.Lipkina, V.M.Sinelnikovning asarlarida o'quvchilarning mustaqil ravishda tushunish qobiliyatini rivojlantirish masalasini tadqiq etishgan. MDH olimlaridan L.Berg, I.Gerasimov, E.Girusov, N.Dubinina, Y.Izrael, A.Yablokov, Y.Xoxlova, I.D.Zverev, A.N.Zaxlebniy, S.K.Matrusov, I.A.Rikov, A.P.Sidelkovskiy, I.T.Suravegina, I.N.Ponomareva, I.V.Svetkovalar tomonidan boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiyaning pedagogik va metodik muammolari bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar [3].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tabiatshunoslik o'zining mazmuni va metodlari bilan o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Tabiiy fan tushunchasini samarali o'zlashtirishni ta'minlovchi metod bu tabiatni kuzatish metodi hisoblanadi. Kuzatishlar xulosasiga ko'ra, o'simlik, hayvon yoki biror hodisa haqida o'quvchida aniq tasavvurlar hosil bo'ladi. Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida dunyoni ilmiy tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga insonparvarlik munosabatini shakllantirish bu har bir pedagogning oldiga qo'ygan muhim vazifasidir.

Tabiatshunoslikni o'qitishda og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlardan foydalaniladi. Bu uchta asosiy manba uzoq vaqtdan beri ma'lum:

• hikoya, suhbat, tushuntirish va o'quv ma'ruzasi

og'zaki bayon

• ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajali bog'liq bo'lgan o'quv materiallari

ko'rgazmali

• amaliy ish, tajribalar, kuzatish va laboratoriya ishi

amaliy

1-jadval

– so‘nggi o‘n yilliklarda elektron manbai – video kompyuter tizimlari barqarorlashdi.

Tabiiy fanni o‘qitishda qanday usullardan foydalanish mumkin?

- to‘g‘ri ifodalash usuli;
- savol-javob usuli, namoyish usuli;
- munozara usuli;
- loyiha usuli.
- laboratoriyalash usuli;
- sayohat-kuzatish usuli;
- Case Stady usuli.

Hozirgi vaqtda ta‘lim paradigmalarda “bilimga asoslangan” kompetensiyaga asoslangan o‘zgarishlar mavjud. Bu ta‘lim tizimining, shu jumladan, maxsus (defektologik) tizimning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni emas, balki turli xil kompetensiyalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilishini nazarda tutadi [5].

“Kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv sharoitida aqli zaif boshlang‘ich maktab o‘quvchilarini tabiat bilan tanishtirishning asosiy shakli sifatida darsni loyihalash tamoyillari ham o‘zgarimoqda”, deya ta‘kidlaydi o‘z asarlarida rus yozuvchisi T.B.Маркова. Скворцова Галинанинг fikricha, o‘qituvchi, agar kerak bo‘lsa, pedagogik diagnostika asosida, vaziyatning o‘zgarishi sababli rejalashtirilgan tuzilmani o‘zgartiradi (allaqachon tugallangan bosqichlarga qaytadi, masalan, bosqichma-bosqich va motivatsion, yangilarini o‘z ichiga oladi yoki har qanday bosqichlarni istisno qiladi).

O‘qituvchi dars turi va uning didaktik maqsadi va bosqichlariga mos ravishda dars tuzilishini belgilaydi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv nuqtayi nazaridan quyidagi dars turlari ajratiladi:

2-jadval

Kompetensiyaga asoslangan darslarning tipologiyasi

Barkamollikka yo‘naltirilgan dars turi	Faoliyat maqsadi	Ta‘lim maqsadi	An‘anaviy tip	Dars shakllari
Yangi bilimlarni kashf qilish darsi	O‘quvchilarning yangi bilim olishga harakatlanish qobiliyatini rivojlantirish	Yangi mavzuni o‘rganish orqali konsepsiyani ishlab chiqish	Yangi bilimlar va yangi metodlarni o‘rganish darsi	An‘anaviy (birlashtirilgan), ekskursiya
Refleksiya darsi	Tuzatish-nazorat turini aks ettirish va tuzatish normasini amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish (faoliyatdagi o‘z qiyinchiliklarini bartaraf etish, ularning sabablarini aniqlash, qiyinchilikdan chiqish uchun loyihani qurish va amalga oshirish)	Yangi bilimlarni mustahkamlash, xatolar ustida ishlash va sabablarini aniqlash	Bilimlarni mustahkamlash uchun dars	Ekskursiya, laboratoriya ishlari
Trening nazorat darsi	O‘quvchilarning nazorat funksiyalarini bajarish qobiliyatini rivojlantirish	O‘rganilgan tushunchalar va algoritmlarni tekshiring	Bilimlarni nazorat qilish, baholash va tuzatish darsi	Nazorat ishi
Bilimlarni tizimlashtirish darsi	Mazmun va uslubiy yo‘nalishlarni qurishning nazariy asoslarini aniqlang	O‘rganilayotgan materialni tuzing va ti-zimlashtiring	bilimlarni kompleks qo‘llash darsi	Xulosa dars

Darsning tuzilishini o‘qituvchining o‘zi belgilashi va ta‘lim maqsadiga eng samarali va maqsadga erishadigan bosqichlarni o‘z ichiga olishi kerak. Dars usulni tanlashda o‘qituvchi ma‘lum sharoitlarda ushbu aniq usul eng katta tarbiyaviy, tuzatuvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ta‘sirga ega bo‘lishidan kelib chiqishi kerak [5].

Tabiiy fan darslarida turli xildagi metodlar orqali darsni tashkil qilish har bir o'qituvchi uchun samarali va sifatli dars jarayoniga aylanishi. shubhasiz. Hozirgi zamon ta'lim usullari xilma-xil, ko'p qirrali bo'lib, o'qituvchilar ana shu usullardan mashg'ulotlarda samarali foydalana olish mahoratlariga bog'liq. Noananaviy bo'lmagan dars shakllariga quyidagilar kiradi: rolli o'yinlar, tomosha darsi, ertak sujeti, bilimlarni takrorlash, fantaziya darsi, o'yin darsi, biznes o'yini, test darsi, sayohat darsi, davra suhbat yoki konferensiya, tanlov darsi, matbuot anjumani, ochiq fikr darsi, dars-tanlov, dars-dialog va h.k.lar kiradi.

1-metod. "1+1" metodi



Buning uchun bizga ikkita kub kerak. Har bir jabhada biron bir tabiiy narsaning nomi yozilgan: quyosh, havo, tuproq va boshqalar. Bolalar kubiklarni uloqtiradi, tuproq biriga, qush boshqasiga tushadi.

O'qituvchi: Sizning vazifangiz ushbu tabiiy obyektlar orasidagi aloqalarni topishdir. Kim topsa, harakat shunga o'tadi.

O'quvchi: Qurtlar tuproqda rivojlanadi, qushlar esa ularni yeyishadi, deb javob beradi.

O'qituvchi: Baliqlar suvda rivojlanadi, insonlar ularni yeyishadi.

O'qituvchi: O'simliklar suv, tuproq, havodan oziqlanadi, hayvonlar, insonlar ularni yeyishadi, 2-metod. "Yaxshi – yomon" o'yini.

Maqsad: Bolalarning tirik va jonsiz tabiat hodisalari, hayvonlar va o'simliklar haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

O'yin harakatlari: O'qituvchi yoki o'qituvchi bolalarga turli vaziyatlarni taklif qiladi va bolalar xulosa qiladilar, masalan:

O'qituvchi: "Kuzda ochiq quyoshli kun yaxshi yoki yomonmi?"

O'quvchi: Bu yaxshi, quyoshning chiqishi dala ekinlariga foydali.

O'qituvchi: "O'rmonda barcha bo'rilar, g'oyib bo'ldi – bu yaxshi yoki yomonmi?"

O'quvchi: Bu yomon, bo'rilar, o'rmonda bo'lmasa, aholi yashaydigan joyda bo'lishi mumkin.

O'qituvchi: "Har kuni yomg'ir yog'adi – bu yaxshimi yoki yomonmi?"

O'quvchi: Har kun yomg'ir yog'ishi yog'ishi, ba'zi o'simliklar o'sishi uchun foydali.

O'qituvchi: "Yerdagi barcha qushlar g'oyib bo'ldi – bu yomonmi yoki yaxshimi?"

O'quvchi: Bu yomon, chunki qushlar turli xil qurt-qumursqalarni yeydi.

Dars jarayonida fanga oid interfaol o'qitish usullarining afzalliklari: vizual idrok bir necha bor yaxshilanadi, o'quv materialini o'zlashtirish jarayoni sezilarli darajada soddalashtiriladi, o'quvchilarning bilish faoliyati faollashadi, ular nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tabiatni o'rganish jarayonida o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning samarali usullari kitob bilan ishlash (darslik, badiiy adabiyot, ilmiy adabiyotlar), tushuntirish (murakkab masalalarni izchil, mantiqiy, aniq bayon qilishning faol usuli) bolalar uchun ochiq, bolalarning ishtiroki, o'z kuzatishlari, eksperimentlar namoyishi va harakatlar namunalari, rasmlar bilan birlashtirilgan), sujet va illustrativ hikoyalar, didaktik she'rlar, loyiha faoliyati va boshqalar.

Kognitiv faoliyatni rag'batlantirish usullarini tashkil etish. o'quv faoliyati; jamoaviy faoliyatning turli shakllaridan foydalanish; aqliy hujum, ishbilarmonlik o'yinlari, aks ettiruvchi dars maydonini qurish kabi bir necha turlarga bo'linadi. Tabiat va uning resurslaridan oqilona foydalanish uchun mavjud tabiat qonuniyatlarini bilish, ekologik-geografik xususiyatlarini to'g'ri hisobga olish, ilmiy tamoyillardan obyektiv foydalanish hamda mos tadqiqot usullarini qo'llash natijasidagina yuqori samaradorlikka erishish mumkinligiga to'xtalib, konseptual, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ahamiyati katta o'rin tutadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, butun insoniyat oldida turgan muammolardan biri ilmiy tafakkur va ilmiy kashfiyotlarga asoslangan innovatsion yechimlarni talab etishi, shubhasiz. Bundan kelib chiqadiki, tabiiy fanlar bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashi va ilmiy tafakkuri muhim va dolzarb kompetensiya sanalib, tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadidir. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun, albatta, bolalar ko'z o'ngida jon-

li tabiatni ko‘ratish lozim. Buning tarkibiga rangtasvirlarga boy visual videoroliklar, ko‘rgazmali rasmlar hamda butun dunyo bo‘yicha o‘rganilayotgan olimlarning fikrlari, yandiliklari haqida o‘quvchilarga ma‘lumotlar berib borish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, darslarni noan‘anaviylik asosida olib borish bu har bir pedagog uchun yaxshi natijalar berishga imkon yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- (1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasi bilan tanishdi 2022/12/29.
- (2). Haydarov H., Nishonov S. Tabiatshunoslik asoslari va bolalarni atrof tabiat bilan tanishtirish. “O‘qituvchi”, T., 1992, 70-bet.
- (3). Qayumov A. Ekologiya asoslari va tabiatdan foydalanish. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Universitet,” 1997, 96-bet.
- (4). Ibragimov R. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarida bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari 2009.
- (5). Raximqulova M.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ekologik qadriyatlar asosida tarbiyalash. Ped. fan. diss., 2000.
- (6). A. Ismailov, Ahadov R. Ekologik ta‘lim-tarbiya. T., 1997.
- (7). Маркова Т.В. Использование компетентностно-ориентированных заданий в процессе изучения природы учащимися младших классов специальной (коррекционной) школы VIII вида. “Молодой ученый”, 2014, № 4.
- (8). Скворцова Г. Компетентностный подход: правила постановки учебных целей. Первое сентября, 2008, № 4.

**Doniyorova Gulrux Shoniyozovna (Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi;  
gulrukh.1989.12.05@gmail.com; UDK 8.81.81-13,81-139)**

#### **TALABALARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI DASTURIY VOSITALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH**

***Annotatsiya.** Ilm-fan va yuqori texnologiyalar taraqqiy etayotgan asrimizda har bir sohaning yetuk mutaxassisi bo‘lish uchun axborot texnologiyalaridan foydalana olish bilim va ko‘nikmalariga zaruriyat tug‘ilmoqda. Mazkur maqolamizda avtomobilsozlik yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyasini oshirishda dasturiy vositalarning turlari, ularning ahamiyati va ular orqali chet tilidan nutqiy malakani rivojlantirish usullari xususida so‘z boradi. Tadqiqot yuzasidan muallifning amaliy takliflari bayon etiladi.*

***Ключевые слова:** английский язык, коммуникативная компетентность, программный инструмент, автомобильная промышленность, информационные технологии, образование.*

**Дониёрова Гулрух Шониёзовна (исследователь Каршинского государственного университета;  
gulrukh.1989.12.05@gmail.com; UDK 8.81.81-13,81-139)**

#### **РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ ЧЕРЕЗ ПРОГРАММНЫЕ СРЕДСТВА**

***Аннотация.** В наш век, когда развивается наука и высокие технологии, необходимо обладать знаниями и навыками использования информационных технологий, чтобы стать зрелым специалистом в каждой области. В данной статье говорится о видах программных средств, их значении и методах развития навыков говорения на иностранном языке в повышении коммуникативной компетенции студентов автомобильных инженеров на английском языке. Изложены практические предложения автора по проведению исследования.*

***Ключевые слова:** английский язык, коммуникативная компетентность, программные средства, автомобилестроение.*

**Doniyorova Gulrux Shoniyozovna (Independent researcher at Karshi State university;  
gulrukh.1989.12.05@gmail.com; UDK 8.81.81-13,81-139)**

#### **DEVELOPMENT OF STUDENTS’ COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH THROUGH SOFTWARE TOOLS**

***Annotation.** In our century, when science and high technologies are developing, it is necessary to have the knowledge and skills to use information technologies in order to become a mature expert in every field. In the following article, the types of software tools, their importance, and methods of developing speaking skills in a foreign language in improving the communicative competence of automobile engineering students in English will be stated. The author’s practical suggestions regarding the research are presented.*

**Key words:** *English language, communicative competence, software, automotive industry, information technology, education.*

**Kirish.** Globallashuv jarayoni shiddat bilan rivojlanayotgan asrimizda chet tillarni o'rganish va o'rgatish dolzarb masalaga aylandi. Fan-texnika, muhandislik, ta'lim, biznes, ilg'or tadqiqotlar, bank, turizm va boshqa ko'plab sohalar xalqaro muloqot tili, ya'ni, ingliz tili orqali rivoj topmoqdaki ushbu til ko'nikmalarini mukammal egallamagan har qanday soha vakili nafaqat zamonaviy bilimlardan chetda qolmoqda, balki kasbiy faoliyat samaradorligida ham oqsamoqda. Shu sababli bugungi kunda noingliz zamonli davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham ushbu tilni o'rganish davlat siyosati darajasiga olib chiqilmoqda va bo'lajak kadrlarga xorijiy tildan malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish talablari yuklatilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-qaroriga muvofiq, "2022-yildan boshlab davlat organlariga ishga qabul qilish va yuqori lavozimga tayinlash uchun xorijiy tilni bilish talabgorga qo'yiladigan majburiy malakaviy ko'nikma sifatida belgilanish"i ta'kidlab o'tilgan. Demak, zamonaviy kadr deyilganda xorijiy tillarda, birinchi navbatda, ingliz tilida nafaqat kundalik mavzularda, balki kasbiy, mutaxassislik doirasida ham erkin ish faoliyati olib boruvchi shaxs tushuniladi.

**Mavzuga oi adabiyotlarning tahlili.** Jahonda shiddat bilan yangilanib borayotgan avtomobilsozlik sohasining bo'lajak mutaxassislari ham ingliz tili malakasiga ega bo'lishlari zamon talabiga aylanar ekan, pedagoglar tomonidan ushbu til ko'nikmalarini egallashning bir qancha usul va vositalari ishlab chiqilmoqda va metodistlar tomonidan eng muhim ko'nikma deb kommunikativ kompetensiya e'tirof etilmoqda. Penni Yur ta'kidlaganidek, "to'rtta asosiy til ko'nikmalari ichida eng asosiysi gapirish deb hisoblanadi chunki u til bilishning boshqa barcha ko'nikmalarini o'z ichiga oladi" [3;120-b.]. Chaney ning fikricha esa "nutq deb og'zaki va og'zaki bo'lmagan jarayon orqali ma'no yaratish va almashishga aytiladi" [1;87-b.]. Shuminning tadqiqot ishlarida gapirish, kommunikativ kompetensiyaga "yaxshi nutq qobiliyati so'zlarni yaratish harakatidir" kabi ta'riflarni ko'ramiz [4;204-b.]. Demak, xorijiy tilda gapirish bu ikkinchi tilni o'zlashtirishda kerak bo'lgan ishlab chiqarish qobiliyatidir. U ijtimoiy hayotda tildan to'g'ri foydalanish, ya'ni muloqot qobiliyatini talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada bo'lajak avtomobilsoz talabalarning ingliz tilidan kommunikativ ko'nikmasini rivojlantirishda dasturiy vositalardan foydalanish usullari qiyosiy va tahliliy o'rganiladi, axborot texnologiyalarini, ayniqsa, nutq jarayonini rivojlantiruvchi dasturiy vositalarni xorijiy til darslarida samarali qo'llash xususida ba'zi tahlillar yoritiladi.

**Tahlil va natijalar.** Nutqni o'rgatish faoliyati deyilganda ko'p yillar davomida ingliz tili o'qituvchilari shunchaki dialog yoki so'zlarni yodlash amaliyotini tushunishgan va qo'llab kelingan. Bugungi kunda esa ingliz tilida so'zlashuvni o'rgatish deb talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini yaxshilash jarayonini tushunish lozim chunki nutq faoliyati bu har qanday muloqot vaziyatlarida ijtimoiy va madaniy qoidalarni munosib qo'llay olish malakasi jamlanmasidir. Kommunikativ kompetensiyani mukammal rivojlantirish deyilganda tilning har to'rttala ko'nikmasini tinglab tushunish, yozuv, o'qish va gapirishni birday rivojlantirish tushuniladi. Bir necha o'n yilliklar oldin xorijiy til o'qituvchisining darsdagi asosiy o'quv quroli doska va bo'r bo'lgan bo'lsa, bugungi kun o'qituvchisida bir emas bir necha turdagi yangi texnologiyalarni qo'llash imkoniyati mavjud. Talaba interaktiv o'yinlar o'tkazishi, qiziqarli savol-javoblar, o'quvchining faolligini oshirishi, hatto tanqidiy fikrlashi mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, nofilologik oliy o'quv yurtlarida xorijiy til o'rganuvchi talabalarning til bilimlari, asosan, boshlang'ich darajada bo'ladi, bu esa o'qituvchidan yanada mas'uliyatli bo'lishlikni talab qiladi. Dasturiy vositalar orqali ta'lim jarayoni o'qituvchilarga dars vaqtdan yaxshiroq foydalanishga yordam beradi. Talabalarga uyda ko'rish uchun elektron ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyati beriladi, so'ngra muhokamada qatnashish va mashg'ulotlarni yakunlash uchun dars vaqtdan foydalaniladi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanilganda talaba o'zini yanada mustaqil, erkin his qiladi. 1-rasmda nomlari keltirilgan dasturiy vositalarning har biri muayyan bir til ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan va foydalanish nuqtayi nazaridan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Bugungi kunda eng ommaviy bo'lgan ba'zi dasturiy vositalar quyidagi rasmda aks ettirilgan (1-rasm).

**Duolingo** – bu 40 dan ortiq tillarni tez va qisqa muddatli darslar orqali o'rganish uchun qiziqarli va bepul dastur. Lug'at va grammatika ko'nikmalarini rivojlantirish uchun gapirish, o'qish, tinglash va yozishni mashq qildirish uchun qulay vosita hisoblanadi. Qulay foydalanuvchi interfeysli ushbu dastur dunyodagi birinchi raqamli til o'rganish ilovasiga aylandi. Har bir mavzuda qiziqarli mini-o'yin orqali yangi

soʻzlar va talaffuzni oʻrganish mumkin. Bugungi kunda ushbu ilovani 100 milliondan ortiq foydalanuvchi yuklab olgan.



### 1-rasm. Xorijiy tilni oʻrgatishga qaratilgan baʼzi dasturiy vositalar.

**ELSA Speak** – bugungi kundagi axborot texnologiyalari dunyosida eng ommaviylashgan ingliz tili talaffuzi boʻyicha dastur boʻlib, u til oʻrganuvchilarning soʻzlarni, jummalarni yoki suhbatlarni talaffuz qilish usullarini tinglab, aniq xatolarni aniqlaydi va talaffuzdagi xatolar haqida real vaqtda, toʻgʻri fikr-mulohazalarini qanday yaxshilash boʻyicha aniq takliflar bilan taʼminlaydi. Mutaxassislar karyera oshirish va ingliz tilida ravon gapirish uchun oʻzlarining kasbiy sohalari bilan bogʻliq ingliz tilida soʻzlashuvni mustahkamlash uchun tengsiz yordamchi boʻla oladi.


**Open English** platformasida esa ingliz tilida soʻzlashuvchi oʻqituvchilar bilan 27/7 rejimida jonli, onlayn ingliz tili darslariga imkon yaratadi. Uning xususiy texnologiyasi talabalarning individual xorijiy til ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

Avtomobilsozlik sohasining boʻlajak mutaxassislari uchun ham yuqoridagi kabi dasturiy vositalar orqali ingliz tilini oʻrganish bir qancha qulayliklarga ega. Misol tariqasida “Car parts” mavzusini oldigan boʻlsak, oʻqituvchi platformaga oldindan joylagan, avvalo, rasmi koʻrinishdagi maʼlumotlar oʻrganib chiqiladi. Avtomobil ehtiyot qismlari audiosi eshittiriladi. Kerakli soʻzlar yod olinishi uchun rasmga qayta murojaat qilinadi. Soʻngra yodlangan soʻzlarni kontekstda mustahkamlash uchun videotopshiriq bajariladi. Videoni tushunishda qiyinchilik yuzaga kelsa, pauza qilinib yoki qaytadan koʻrish imkoniyati mavjud. Quyida “Avtomobil ehtiyot qismlari” “Car parts” mavzusini online oʻzlashtirish uchun tavsiya qilinadigan resurslardan namuna keltirildi (2-rasm).

### Lesson 3. Car parts.

Video assignment: <https://www.youtube.com/watch?v=4LuluhCiJIA>

*Name the parts of the car*



### 2-rasm. “Car parts” mavzusiga ishlangan rasmi topshiriq.

Shu kabi topshiriqlar misol uchun Canva platformasida joylangan va bajarilgan boʻlishi vazifani bajarilganlik darajasini aniqlash uchun oʻqituvchida baholash funksiyasi ham mavjud. Bu esa bilimni sistemali va onlayn baholash demakdir. Bunday interaktiv usulda ingliz tilini oʻrgatish ham oʻqituvchi uchun ham talaba uchun qulaylik tugʻdiradi.

**Xulosa va takliflar.** Misol uchun, dasturiy vositalardan foydalanilgan dars mashgʻulotlarida kamdan kam talaba zerikish hosil qiladi, aksincha, darsga qiziqarli mashgʻulot sifatida yondashadi. Modulli platformalar koʻrinishida darslarni oʻzlashtirish mumkin boʻlgan dasturiy vositalar ingliz tilini maxsus maqsadlarda oʻqitish (ESP) nuqtayi nazaridan ham samarali hisoblanadi. Bunda anʼanaviy auditoriyadagi mashgʻulotlardan farqli ravishda, darslar yozib olinishi, takroriy darslar imkoniyati, eng muhimi, talabada mustaqil ishlash koʻnikmasini shakllantirib boriladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Chaney, A.L., & Burk, T.L. Teaching Oral Communication in Grades K-8. Boston: Allyn and Bacon. 1998, 87-bet.
- (2). Doniyorova G.Sh. Avtomobilsozlik yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda dasturiy vositalarning ahamiyati. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. № S/2 (4), 2024.
- (3). Penni Yur. A Course in Language Teaching, Practice and Theory. Cambridge, Cambridge University Press. 1996, 120 p.
- (4). Shumin, K. (2002). Factors to Consider: Developing Adult EFL Students' Speaking Abilities. In J. C. Richards, & W.A. Renandya (Eds.), Methodology in Language Teaching (pp. 204–211), University Press.
- (5). Tira Nur Fitria. "Teaching English for specific purposes to the students in English language teaching" Journal of English Teaching Adi Buana, Vol. 05, № 01, April 2020.

Ne'matova Samiyaxon (Namangan viloyat pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi (PhD);  
E-mail:samiyaxon88@mail.ru; UO'K 37.37.378.22)

### PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini tashkil etishda xorijiy tajribalar, rivojlangan davlatlardagi malaka oshirish jarayoni va ularning qiyosiy tahlillari, xorijdagi malaka oshirish tashkilotlarining ayrim jihatlari yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* kattalar ta'limi, andragogik tamoyillar, hayot davomida ta'lim, sertifikat, "kamsition" yondashuvi, shaxsiy murabbiylik, post-ta'lim, master-klass, moderatsiya, kredit-modul tizimi, o'qituvchi portfoliosi, masofaviy va muqobil ta'lim.

#### ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ И ЕГО СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

*Аннотация.* В данной статье освещен зарубежный опыт организации системы подготовки учителей, процесс обучения в развитых странах и их сравнительный анализ, некоторые аспекты организации подготовки учителей за рубежом.

*Ключевые слова:* образование взрослых, андрагогические принципы, непрерывное обучение, сертификат, «камсиционный» подход, персональный коучинг, пост-обучение, мастер-класс, модерация, кредитно-модульная система, портфолио учителя, дистанционное и альтернативное образование.

#### FOREIGN EXPERIENCES ON TEACHER TRAINING AND THEIR COMPARATIVE ANALYSIS

*Annotation.* In this article, foreign experiences in the organization of the teacher training system, the process of training in developed countries and their comparative analysis, some aspects of training organizations abroad are covered.

*Key words:* adult education, andragogic principles, lifelong learning, certificate, "kamsition" approach, personal coaching, post-education, master class, moderation, credit-module system, teacher's portfolio, distance and alternative education.

**Kirish.** Jahon mamlakatlarida o'tkazilgan xalqaro tajribalar tahlilidan ko'rishimiz mumkinki, mamlakatning dunyo miqyosdagi o'rni fan, texnologiya, ta'lim sifatini oshirish, iqtisodiyot, inson kapitali va yuqori malakali kadrlar salohiyatini rivojlantirishga asoslanadi.

Xorijiy davlatlar va Respublikamizda ta'lim sohasining tarixiy rivojlanishi bosqichlari, pedagoglar malakasini oshirish tizimi rivojlanish dinamikasini o'rganish va retrospektiv tahlil etish, mazkur yo'nalishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'rni va salohiyatiga ijodiy, tanqidiy baho berish imkoniyatini yaratadi. Xususan, xalqaro miqyosda o'qituvchilar malakasini oshirish va uzluksiz ta'limning muhim yo'nalishlari bo'yicha ko'plab tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Jumladan, UNESKOning ta'lim instituti (Gamburg), Xalqaro ta'limni rejalashtirish instituti (Parij);  
–kattalar ta'limi Yevropa Assotsiatsiyasi (EAEA – European Assosiation for the Education of Adultst, Bryussel sh.);

–xalqaro ta'lim instituti (AQSH), Uzluksiz va Kattalar ta'limining Amerika assotsiatsiyasi (AAACE – American merican Assosiation for Adult and Continuing for Education, AQSH);

–kattalar ta'limining Milliy instituti (Buyuk Britaniya);

–kasbiy ta'limni rivojlantirish bo'yicha Yevropa markazi (CEDEFOP 2013);

–keksalar ta'limi bo'yicha Germaniya instituti – Leybnits nomidagi Hayot davomida ta'lim olish Markazi (DIE [11]);

–kattalar ta’limining Shveysariya tashkiloti;

–Rossiya Federatsiyasidagi diplom olgandan keyingi ta’limning Davlatlararo assotsiatsiyasi, Uzluk-siz kattalar ta’limining Moskva Markazi, Ta’lim xodimlarini kasbiy qayta tayyorlash va malakasini oshirish Akademiyasi (Moskva sh.), Novosibirsk, Pskov, Krasnoyarsk, Sankt-Peterburg va boshqa shaharlarda kattalar ta’limining Hududiy assotsiatsiyalari faoliyat ko’rsatmoqda [1;37-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** O’qituvchilar malakasini oshirish bo’yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo’lib, pedagoglarni tayyorlash, ularni kasbiy va shaxsiy jihatdan takomillashtirish, shu bilan birga, o’qituvchiga xos pedagogik muammolarni qanday hal etish masalalari N.V.Kuzmina [6], V.G.Slastenin [11], A.X.Munavarov [9], M.Ochilov [10], B.B.Ma’urovlar [7] ishlarida tadqiq qilingan.

Xorijiy davlat olimlaridan D.Bartram [2], H.Sakamoto [3], W.Hutmacher [4], P.Jarvis [5] va boshqalarning tadqiqotlarida pedagog mutaxassislarining kasbiy layoqatini rivojlantirish strategiyalari, malaka oshirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, pedagogning o’zini-o’zi kasbiy rivojlantirish masalalari yoritib berilgan. Yoshi kattalarning ta’lim olishi hayot davomida ta’lim olishning muhim tarkibiy qismidir va hozirda ta’limning bu turi butun dunyoda inson va jamiyatning muammolarini yechishda muhim rol o’ynamoqda.

Xususan, Yevropa iqtisodini rivojlantirishga qaratilgan yangi “Yevropa – 2020 strategiyasi” hamda oliy ta’limda yagona Yevropa tizimini shakllantirish va jarayon erkinligini ta’minlashga yo’naltirilgan “Bologna jarayonlari”dan ko’zlangan asosiy maqsadlardan biri ham malakali mutaxassislar tayyorlash hamda ularning ishlab chiqarishdagi faolligini oshirish, iqtisodiyot va jamiyatdagi barqarorlik, uzluksiz ta’lim (lifelong learning) mexanizmlarini takomillashtirishning yangi dasturlari va texnologiyalarining amaliyotga tatbiq etilishi dolzarb vazifa sifatida qaraladi[8].

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** “Malaka oshirish” atamasi mavjud tizimni ifodalovchi so’z sifatida qo’llanilib kelsa, xalqaro tajribada “kasbiy rivojlanish” [12] (professional development) ma’nosida qo’llanilishini aytib o’tishimiz mumkin.

Yevropa davlatlarida malaka oshirish tizimining turli ko’rinishda:

–ta’lim darajasidagi farqlar;

– muqarrar va qo’shimcha ta’lim;

– mashg’ulot turi – davomiylilik va predmetlar bo’yicha tashkil qilinganligi bilan tavsiflanadi.

Ayrim davlatlarda (Avstriya, Belgiya, Finlyandiya, Niderlandiya, Portugaliya, Shotlandiya, Ispaniya, Shvetsiya) malaka oshirish, asosan, rivojlanishning ikki bosqichida amalga oshiriladi. Dastavval, norasmiy va ko’ngilli ravishda, shundan so’ng, ikkinchi bosqichda aniq tizimli, muqarrar ravishda bo’ladi. Odatda, ta’lim barcha darajadagi maktablarda bir vaqtda olib boriladi (Avstriya, Germaniya, Norvegiya, Portugaliya, Shotlandiya).

Shveysariyada Kattalar ta’limi federatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan SVEB sertifikat Shveysariyaning “trenerlar tayyorlash” (Ausbildung der Ausbildenden) modulli tizimining birinchi bosqichi bo’lib hisoblanadi. Sertifikat, kattalar ta’limi sohasida faoliyat olib boradigan o’qituvchilar uchun, butun Shveysariya bo’yicha tan olinadigan tayanch malaka kurslarini taklif etadi. Sertifikat olish uchun 90 soatlik o’quv vaqtini o’z ichiga olgan ta’lim dasturlarida ishtirok etish kerak bo’ladi. 165 soat mustaqil o’qish uchun beriladi. Bundan tashqari, 150 soatdan kam bo’lmagan kattalar ta’limi sohasida o’qituvchilik ish tajribasiga ega bo’lishi kerak [12;5-b.].

Yaponiyada malaka oshirish tizimi ayrim o’quv yurtlari, pedagogik mahorat muassasalari, murabbiylik institutlarida: kunduzgi, kechki, sirtqi kurslar va muntazam ravishda tayyorgarlikning asosiy shakllari sifatida tashkil etilgan. Tinglovchilar yil davomida ma’lum bir belgilangan vaqt mobaynida ma’ruza, seminar, vebinar hamda onlayn muloqotlarda ishtirok etadilar. Kasb ta’limi uchun davomiyligi ixtisosliklar tabiatiga qarab 1 yildan boshlanadi [13].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tahlillarimiz shuni ko’rsatadiki, xorij mamlakatlarida ham pedagog kadrlarning malakasini oshirish va kasbiy rivojlantirish masalasi ilmiy g’oyalarni ishlab chiqish, zamonaviy madaniy-ma’rifiy sharoitlarga mos keladigan tushunchalar va modellarni yaratish dolzarb muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Ta’kidlash joizki, davlat bu jarayonda o’qituvchilar malakasini oshirishni qonuniy ravishda rag’batlantiradigan muhim rol vazifasini bajaradi. Tadqiqot jarayonida turli mamlakatlarda ilg’or o’quv tizimlarini tahlil qilish, ularning o’ziga xos jihatlari haqida xulosa qilishimizga imkon berdi (1-jadval).

## Xorijiy davlatlarda malaka oshirish jarayonining tashkil etilishi

Davlatlar	Malaka oshirish jarayonining o'ziga xosligi	Yetakchi malaka oshirish tashkilotlari
AQSH	O'qituvchilar malakasini oshirish jarayoni: shaxsiy murabbiylik, ilmiy tadqiqot malakasini oshirish. Modulli texnologiyalar. Professional sheriklik texnologiyalari asosida tashkil etilgan. Ushbu tizim o'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan "kamsition" yondashuvi (falsafiy, ijtimoiy-gumanitar, ijtimoiy-psixologik, etnopediya, tijorat moduli, fan-metodik modullari)ga asoslanadi.	Pittsburg davlat universiteti
Rossiya	Malaka oshirish tizimi: post-ta'lim; post-ta'lim tizimida nazariy va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro bog'liqligi va interstitsiyenti; kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etishning tarkibiy shakllarining o'zgaruvchanligi va moslashuvchanligi; ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-ilmiy, badiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, va shaxsiy yo'naltirilgan texnologiyalarni diversifikatsiya qilish kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi [14].	"Ta'lim akademiyasi", ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti
Fransiya	O'qituvchilarning kasbiy faoliyati davomida ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish kurslarida ishtirok etishlari uchun (36 hafta) kredit ajratiladi. Ularga kurslarga o'z ixtiyori bilan qatnashish huquqi berilib, mashg'ulotlarga qatnashuvi ta'lim bo'yicha tuman inspektorati tomonidan rag'batlantiriladi.	Versal akademiyasi huzuridagi o'qituvchilarni malakasini oshirish milliy instituti
Germaniya	O'qituvchilar malakasini oshirish jarayoni moderator tomonidan turli muddatlarda (har ikki yilda bir marotaba): master-klass, qayta tayyorlash bo'yicha seminarlar, qisqa muddatli kurslar, pedagogik konferentsiyalar, pedagogik nazorat, moderatsiya, "Uzluksiz ta'lim modeli", "Gamburg modeli" asosida tashkil etiladi.	Germaniya Federativ Respublikasining "O'qituvchilar uyushmasi", "Finlyandiya akademiyasi"
Koreya	Malaka oshirish jarayoni davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinib, o'qituvchilar har yili kamida 108 soat, I darajali maktab o'qituvchisi sertifikatini olishi uchun esa har yili yozgi yoki qishki ta'til davrida jami 180 soatlik malaka oshirish dasturida qatnashishlari shart etib belgilangan.	"Ta'limni rivojlantirish" instituti, "O'quv dasturlari va baholash" instituti

Tahlillarimiz asosida ayrim rivojlangan davlatlardagi malaka oshirish tizimi o'rganilganda, o'qituvchi kasbiy kompetentligini takomillashtirishda malaka oshirishning o'ziga xosligi, ya'ni ehtiyojlarga asoslangan holda tashkil etilishi, "hayot davomida ta'lim" tamoyilini joriy etilganligi, o'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan "kamsition" yondashuvga asoslanganligi bilan ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Demak, xorijiy davlatlarda tashkil etilgan malaka oshirish tizimini tahlil qilib, mamlakatimizdagi mavjud malaka oshirish jarayonini jahon standartlariga mos ravishda takomillashtirish, integrativ hamda innovatsion yondashuv asosida tashkil etish ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilanadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosalar va tavsiyalarni berib o'tamiz.

**Xulosalar:**

–rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirish;

–kasbiy rivojlantirishga oid eng maqbul vazifalarni aniqlash;

–chet davlatlarda stajirovka va chet el tajribasini o'rganish;

–yangi ishlab chiqarish algoritmlari va texnologiyalarini rivojlantirish;

–ehtiyotlarga asoslangan kasbiy rivojlanish tizimini joriy etish.

**Tavsiyalar:**

–o'z-o'zini boshqarish tizimini takomillashtirish;

–malaka oshirishning masofaviy va boshqa muqobil shakllarini keng tashkil etish;

–kredit-modul tizimini joriy etish;

–o'qituvchi portfoliosini yaratish;

–o'qituvchilarni sifatli takomillashtirish bo'yicha nazariy kontsepsiyani ishlab chiqish amaliyotga samarali tatbiq etish kabi vazifalarni belgilaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Андрощук Н.А. Развитие профессиональной компетентности учителей в педагогическом сообществе. Автореф. дисс...канд.пед.наук, Санкт-Петербург, 2016, 37 с.
- (2). Bartram D. The Great Eight Competencies: A Criterion-Centric Approach to Validation. Article in Journal of Applied Psychology 90(6):1185–203, November, 2005.
- (3). Hoskins Sakamoto, B. The myth of the perfect teacher. B.Hoskins Sakamoto [Электронный ресурс]. Teaching Village, электронный журнал, режим доступа: <http://www.teachingvillage.org/2012/10/19/>(дата обращения: 23.11.2012).
- (4). Hutmacher W. Key competencies for Europe. Report of the Symposium Bern, Switzerland 27–30 March, 1996, Council for Cultural Co-operation (CDCC) a Secondary Education for Europe. Strasburg, 1997.
- (5). Jarvis, P. Adult Education and Lifelong Learning: Theory and Practice. P.Jarvis. 3d. edition. London and New York, RoutledgeFalmer, Taylor and Francis Group, 2004, 382 p.
- (6). Кузмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. М., 2001.
- (7). Маъмуров Б.Б. Бўлажак ўқитувчиларда акмеологик ёндашув асосида таълим жараёни лойиҳалаш кўникмаларини ривожлантириш тизими. Пед.фан.док....дисс. автореф., Т., 2018, 32-бет.
- (8). Медник Е.А. Профессиональные сообщества и их роль в повышении квалификации педагогов. Профессиональное образование в России и за рубежом. 2015, № 2, с. 56–59. <http://www.lib.csu.ru/>
- (9). Мунаваров А.Х. Педагогика. Учеб.пособие для пединститутов, Тошкент, “Ўқитувчи”, 1996, с. 360.
- (10). Очилов М. Ўқитувчи одоби ва назокати. Т., “Ўқитувчи”, 2008, 43-бет.
- (11). Слостенин В.А., Чижикова Г.И. Введение в педагогическую аксиологию. М., “Владос”, 2005, 282 с.
- (12). [https://www.dvvinternational.de/fileadmin/files/Inhalte\\_Bilder\\_und\\_Dokumente/Materialien/Curriculum\\_globALE/Curriculum\\_globALE\\_2nd\\_Edition\\_Uzbek.pdf](https://www.dvvinternational.de/fileadmin/files/Inhalte_Bilder_und_Dokumente/Materialien/Curriculum_globALE/Curriculum_globALE_2nd_Edition_Uzbek.pdf) <https://dvv-international.de/>
- (13). <http://uil.unesco.org/event/international-consultative-meeting-tegrated-governance-lifelong-learning>;  
<http://dgp.uz/>;
- (14). <http://www.runovschool.ru/individual>.

**Xudaybergenova Navrizbiyke Qanat qizi (Nukus davlat Pedagogika instituti 1-bosqich tayanch doktoranti;  
xudaybergenovanawrizbiyke@gmail.com;**

### **ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

***Annotatsiya.** Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish texnologiyasi ko‘rib chiqilgan. Mavzuning dolzarbligi zamonaviy ta‘lim jarayoni sharoitida maktab o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasi darajasini oshirish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi samarali metodikalarni tahlil qilish va joriy etishdan iborat. Tadqiqotda adabiyotlar sharhi, eksperimental tadqiqot va tahliliy yondashuv usullaridan foydalanilgan. Tajriba-sinov turli sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazildi, bu esa nutqiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishdagi o‘ziga xosliklar va qiyinchiliklarni aniqlash imkonini berdi. Natijalar interfaol metod va texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini sezilarli darajada yaxshilashni ko‘rsatadi. O‘quv jarayoni samaradorligiga yo‘naltirilgan o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar muhokama qilinadi. Maqolada o‘qitishning yangi usullarini integratsiyalash muhimligi ta‘kidlangan va nutqiy savodxonlikni rivojlantirish sohasidagi keyingi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar taklif etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** nutqiy kompetensiya, og‘zaki nutq, yozma nutq, o‘qish savodxonligi, o‘qitish metodikasi, interfaol metodlar, ta‘lim jarayoni, nutq ko‘nikmalari.*

### **ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ УСТНОЙ И ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧТЕНИЯ**

***Аннотация.** В статье рассматривается технология развития устной и письменной речи учащихся на уроках родного языка и читательской грамотности. Актуальность темы обусловлена необходимостью повышения уровня речевой компетенции школьников в условиях современного образовательного процесса. Цель исследования заключается в анализе и внедрении эффективных методик, способствующих развитию речевых навыков. В работе используются методы обзора литературы, экспериментального исследования и аналитического подхода. Эксперимент проводился с участием учащихся разных классов, что позволило выявить особенности и трудности в освоении речевых навыков. Результаты показывают, что применение интерактивных методов и технологий значительно улучшает как устную, так и письменную речь учащихся. Обсуждаются практические рекомендации для преподавателей, направленные на эффективность учебного процесса. Статья под-*

черкивает важность интеграции новых методов обучения и предлагает направления для дальнейших исследований в области развития речевой грамотности.

**Ключевые слова:** речевая компетенция, устная речь, письменная речь, читательская грамотность, методика обучения, интерактивные методы, образовательный процесс, речевые навыки.

## TECHNOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' ORAL AND WRITTEN SPEECH IN NATIVE LANGUAGE AND READING LESSONS

**Annotation.** The article examines the technology of developing students' oral and written speech in native language lessons and reading literacy. The relevance of the topic is determined by the need to improve the level of speech competence of schoolchildren in the context of the modern educational process. The aim of the research is to analyze and implement effective methods that contribute to the development of speech skills. The work employs methods of literature review, experimental research, and an analytical approach. The experiment was conducted with the participation of students from different grades, which allowed for the identification of features and difficulties in mastering speech skills. The results show that the use of interactive methods and technologies significantly improves both the oral and written speech of students. Practical recommendations for teachers aimed at the effectiveness of the educational process are discussed. The article emphasizes the importance of integrating new teaching methods and offers directions for further research in the field of speech literacy development.

**Keywords:** speech competence, oral speech, written speech, reading literacy, teaching methodology, interactive methods, educational process, speech skills.

**Kirish.** Zamonaviy dunyoda muloqot va savodxonlik ko'nikmalari ham shaxsiy, ham kasbiy sohalar-da muvaffaqiyatli faoliyat yuritishning kalitiga aylanmoqda. Samarali hamkorlik uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda og'zaki va yozma nutq muhim rol o'ynaydi. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, interfaol o'qitish usullaridan foydalanish va o'qish savodxonligiga e'tibor berish ta'lim sifatini yaxshilash va o'quvchilarni kelajakdagi chaqiriqlarga tayyorlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, o'qitishning dolzarb yondashuvlari, shuningdek, o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda pedagoglarning rolini ko'rib chiqish zarur [7;39–40-b.]. Ushbu mavzuning dolzarbligi ta'lim jarayonlarini takomillashtirishga bo'lgan qiziqishning ortib borishi va o'qitish usullarini zamonaviy talab va sharoitlarga moslashtirish zarurati bilan bog'liq. Texnologiyalarning tez evolyutsiyasi va o'zgaruvchan ta'lim standartlari ta'limga yondashuvlarni doimiy ravishda yangilash zaruratini keltirib chiqaradi, bu esa ushbu sohadagi tadqiqotlarni juda muhim qiladi [1;17–18-b.].

**Adabiyotlar tahlili.** Muhim tushunchalar L.Vigotskiy, A.Leontev va M.Baxtin kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ular bolalarning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishida muloqot va nutq faoliyatining rolini ta'kidlaganlar. Nutqni shakllantirish masalalari so'zlarning ma'nosini tushunish, grammatika, sintaksis va matn kabi psixolingvistik jihatlar bilan chambarchas bog'liq. Nutqni rivojlantirish usullari va texnologiyalari. Og'zaki va yozma nutqni o'stirishga qaratilgan turli pedagogik yondashuvlar mavjud bo'lib, ular kommunikativ, faoliyatga asoslangan va muammoli ta'lim usullarini o'z ichiga oladi [2;36–37-b.]. Bularning har biri o'ziga xos tarzda nutqiy ko'nikmalar va o'qish savodxonligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Kommunikativ usul gapirish, yozish, tinglash va o'qish amaliyotiga alohida e'tibor qaratadi. O'qish savodxonligi. O'quvchilarning o'qish savodxonligini shakllantirish umumiy nutqiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, annotatsiya, qayta hikoya qilish va tanqidiy idrok kabi matnni tushunish strategiyalariga ega bo'lish ham og'zaki, ham yozma nutqni yaxshilashga yordam beradi. P.Davidov va D.Elkoninlarning ishlarida savodxonlikni o'qitishda tizimli yondashuv zarurligi ta'kidlanadi [4;73–75-b.]. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) faol qo'llaniladi. Bunga interfaol dasturlar, yozma mashqlar uchun onlayn platformalar va og'zaki nutq ko'nikmalarini o'rgatish uchun mobil ilovalardan foydalanish kiradi. Amaliy misollar. Loyiha faoliyati, bahs-munozara, esse, o'yin texnologiyalari kabi turli innovatsion metodikalar o'quvchilarga ona tilida ham yozma, ham og'zaki nutqni rivojlantirish imkonini beradi. Bu metodlar o'quvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etishga yo'naltirilgan bo'lib, materialni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, maktab o'quvchilarida nutqiy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumtoz yondashuvlarni o'qish savodxonligini va tilni faol egallashni oshirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar va metodikalar bilan integratsiyalashni talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ta'lim nafaqat qat'iy qoidalar, balki yondashuvlarda moslashuvchanlikni talab qiladigan murakkab jarayondir. O'qitish metodologiyasi ta'lim maqsadlariga erishishga qaratilgan

turli usul va metodlardan foydalanishni nazarda tutadi. O'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladigan metodologiyaning asosiy jihatlari keltirib o'tsak.

**Interfaol metodlar.** Dialoglar, guruh muhokamalari, o'yinlar va o'zaro ta'sirning boshqa shakllaridan foydalanish o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishi uchun zamin yaratadi. Masalan, keys metodi o'quvchilarga real vaziyatlarni tahlil qilish, yechim topish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki jamoada ishlash va asosli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

**Loyiha bo'yicha o'qitish.** Loyiha ishi o'quvchilarni mustaqil izlanishga va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga undaydi. Loyihalar doirasida jamoaviy ishlash nafaqat o'quvchilar o'rtasidagi gorizontaal aloqalarni, balki hamkorlik va mas'uliyat ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bundan tashqari, loyihaviy ta'lim turli fanlardan bilimlarni birlashtirishga imkon beradi, bu esa ta'limni yanada yaxlit va ahamiyatli qiladi.

**Texnologiyalar va raqamli resurslar.** Ta'limda zamonaviy texnologiyalar asosiy rol o'ynaydi. Interfaol doskalar, o'quv ilovalari va onlayn platformalar kabi vositalarning integratsiyasi o'quv jarayonini barcha o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va qulay qiladi. Raqamli resurslar materialni tavsiya etishning turli usullarini taqdim etadi va individual ehtiyojlarga moslashishi mumkin, bu har bir o'quvchiga ta'limning eng mos usulini topishga imkon beradi.

**Tabaqalashtirilgan yondashuv.** O'quvchilarning individual xususiyatlari va tayyorgarlik darajalarini hisobga olish o'qitish metodologiyasining muhim jihatidir. Tabaqalashtirilgan yondashuv ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, har kimga o'z sur'atida rivojlanish imkonini beradi. Bu nafaqat motivatsiyani oshiradi, balki o'quvchilarning hissiy qulayligiga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, materialni yanada chuqurroq o'zlashtirishga olib keladi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy ta'limda nafaqat o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish, balki erishilgan natijalarni muntazam ravishda baholash muhimdir. Muloqot qilish qobiliyati, yetakchilik qobiliyati va hissiy intellekt – bu guruh loyihalari, munozaralar va sinfdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish orqali rivojlantirish mumkin bo'lgan kompetensiyalardir. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish o'quvchilarni jamoada samarali o'zaro ta'sirga va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvga tayyorlaydi. O'quv jarayonidan qoniqqanlikni so'rovnomalar va anketa so'rovlari orqali baholash mumkin.

O'quvchilar va o'qituvchilarning yuqori darajadagi qoniqishi ta'lim jarayoni, o'qitish metodikasi va o'quv materiallarining ijobiy qabul qilinishini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich ta'lim dasturlarini takomillashtirish va moslashtirish imkonini berib, qimmatli fikr-mulohazalarni taqdim etadi.

**Xulosa.** Tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, qo'llanilgan o'qitish metodlari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu yaxshilanishlar, ayniqsa, ularning o'z g'oyalari aniq va ishonchli bayon qilish, shuningdek, konstruktiv muloqot olib borish qobiliyatida seziladi. Tadqiqot natijalari asosida ishonch bilan xulosa qilish mumkinki, interfaol o'qitish metodlari o'quvchilarning jalb etilishi va ishtirok etish darajasini oshirishga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, ularning kommunikativ ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Olingan natijalar og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat o'quvchilarning o'quv yutuqlari uchun, balki ularning kelajakdagi kasbiy o'sishi uchun ham juda muhimdir. Shunday qilib, interfaol o'qitish metodlari orqali og'zaki va yozma nutqni faol rivojlantirish nafaqat ta'lim jarayonini boyitadi, balki o'quvchilarda butun kasbiy va shaxsiy hayoti davomida talab qilinadigan muhim hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Абдурахмонов, Ш. (2017). Ёш ўқувчиларда китоб ўқиш қобилиятини шакллантириш. Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёти.
- (2). Bakhtin, M.M. (1981). The dialogic imagination. Four essays. Austin: University of Texas Press.
- (3). Выготский, Л.С. (1986). Мышление и речь. Москва, “Лабиринт”.
- (4). Давыдов, П.В. (2000). Теория развивающего обучения. Москва, издательство “Педагогика”.
- (5). Ғофуров, Т.Т. (2009). Болаларда нутқни ривожлантириш методикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”.
- (6). Леонтьев, А.А. (1977). Деятельность. Сознание. Личность. Москва, “Политиздат”.
- (7). Каримов, А.К. (2015). Ўқувчиларда ўқув ва ёзиш компетенцияларини ривожлантириш. Тошкент, “Фан” нашриёти.
- (8). Саидов, Ш.А. (2018). Ўқитувчилар учун нутқ ўстириш усуллари. Самарқанд, Самарқанд Давлат университети нашриёти.

**Sohibov Dilshod Beknazarovich (Buxoro davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti)**  
**BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA**  
**TAYYORLASHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv rejasidagi “Metodika” hamda “Mutaxassislik” fanlarini hajmi ke-ngaytirish va umumiy o‘rta ta‘lim maktabi bilan oliy ta‘lim o‘rtasidagi o‘quv dasturlarini paradigmatik ra-vishda doimiy sinxromlab borish muammolari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** informatika, axborot texnologiyalari, matematika, kompyuter, metodika, kompetentlik.*  
**Сохибов Дилшод Бекназарович (базовый докторант (PhD) Бухарского государственного педагогического института)**

**ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ (IT)**  
**К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются проблемы расширения объема “методичес-ких” и “специальных” дисциплин в учебном плане образовательных направлений высших учебных заведений, готовящих будущих учителей информатики, и постоянной парадигмальной синхрониза-ции учебных программ между общеобразовательной школой и высшим образованием.*

***Ключевые слова:** информатика, информационные технологии, математика, компьютеры, методология, компетентность.*

**Sohibov Dilshod Beknazarovich (Bukhara State Pedagogical Institute base doctoral student)**  
**PROBLEMS AND SOLUTIONS OF TRAINING FUTURE COMPUTER SCIENCE (IT)**  
**TEACHERS FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY**

***Annotation.** This article examines the problems of expanding the scope of “methodological” and “special” disciplines in the curriculum of educational directions of higher educational institutions training future teachers of computer science, and the constant paradigmatic synchronization of curricula between secondary schools and higher education.*

***Keywords:** computer science, information technology, mathematics, computers, methodology, com-petence.*

**Kirish.** Hozirgi kunda bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomil-lashtirish, soha mutaxassislarining raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida turli mexanizmlarni ishlab chiqishga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bugungi globallashuv jarayonida oliy ta‘lim tizimi oldiga o‘z ilmi, aqliy imkoniyatlariga tayanadigan, malakali pedagog kadrlarni tayyorlash zarurligi, ilmi, yetuk mutaxassislarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda yurtimizda oliy ta‘lim muassasalarida xalqaro ta‘lim standartlari asosida oliy mala-kali pedagogik kadrlarni tayyorlash maqsadida zamon talablariga javob beruvchi, o‘quv mashg‘ulotida foy-dalanish uchun pedagogik dasturiy vositalar va so‘nggi rusumdagi laboratoriya jihozlari va kompyuter tex-nikalari bilan boyitish, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirib borish, sohani to‘liq raqamlashtirishni joriy etish orqali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash muhim sanaladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Yurtimiz olimlaridan J.D.Saidovning ilmiy ishlarida, bo‘lajak in-formatika o‘qituvchilarida ma‘lumotlar bazasini yaratish kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-pe-dagogik, pedagogik, ergonomik shart-sharoitlari boshqarish, tashkil etish, loyihalash, texnologik, metodik pedagogik funksiyalarini va moslashuvchanlik, qo‘llash, nazorat qilish, savodxonlik bo‘yicha elektron-di-daktik vositalar funksiyalariga tizimli-mazmuniy hamda dasturiy-metodik muvofiqlashtirish asosida aniq-lashtirilgan bo‘lib, boshqarish kabi baholash darajalariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

F.Sh.Shirinovning dissertatsiya ishida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining elektron-metodik ta‘-minot yaratish kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari elektron ta‘lim resurslaridan foydalanishning uslubiy-didaktik ta‘minoti tizimini, o‘quv-ilmiy resurslarni yaratishga qo‘yiladigan metodik hamda kasbiy faoliyat olib borishga tayyorligini aniqlovchi adekvat baholash mezonlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan rivojlantiruvchi aloqador parametr va indikatorlarni strategik prognozlash hamda strukturaviy tizimlashti-rish asosida takomillashtirilgan.

R.Q.Mallayevning “Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya ishida imkoniyatlari tabaqalashgan yondashuvlarga ko‘ra ta-yanch, bazaviy va maxsus kompetensiyalarni bosqichma-bosqich ta‘limiy maqsadga muvofiqlashtirish hamda kasbiy motivatsiya va intellektual qobiliyatlar uyg‘unligini ta‘minlashga dinamik ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Mamlakatimizda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni talablaridan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim tizimida jahon andozalari talablariga javob beruvchi yqori malakali raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Malakali pedagog mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liq. Ayniqsa, hozirgi kunda tobora yangilanib borayotgan axborotlarni ta'lim oluvchilar ongiga yetkazish va ularni shakllantirish nihoyatda murakkab jarayon hisoblanib, o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Pedagogika sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Bugungi kunda pedagogika oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talabalarining o'qish jarayoniga alohida nazar tashlamoq lozim. Chunki maskur o'quv yurtlarini tamomlagan talabalar aksariyati maktab yoki texnikumlarda bo'lajak soha vakillariga ta'lim va tarbiya berishadi. Agar pedagog kadrlarning o'zida bor bo'lgan bilimni o'quvchiga yetkazish qobiliyati yetarlicha bo'lmasa, u holda oliy o'quv yurtlariga kirgan bitiruvchilar o'z sohalari bo'yicha puxta bilimga ega bo'lishlari birmuncha qiyinlashadi. Ayniqsa, bugungi rivojlanayotgan davrda "Informatika" fani o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklanmoqda. Chunki bugun hech bir soha yo'qki, axborot texnologiyalariga yondashilmagan bo'lsin. Shunday ekan, bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning o'quv rejalarida bor bo'lgan metodika hamda mutaxassislik fanlarini hajmini kengaytirish lozim. Bugunga qadar ushbu fan vakillari "Matematika va informatika" va hozirda "Amaliy matematika" ta'lim yo'nalishlarida ta'lim olib kelishmoqda. Vaholanki, ushbu ta'lim yo'nalishini tamomlagan kadrlar maktab, litsey yoki texnikumlarda matematika fani bilan birga informatika fanidan ham dars berish huquqiga egadirlar (bu malaka talablarida ham ko'rsatilgan). Ammo ushbu ta'lim yo'nalishiga informatika fani bo'yicha mutaxassislik fanlarini hajmi qisqaligi bilan birga, uning umumiy o'rta ta'lim maktabi informatika va axborot texnologiyalari fani mavzulari bilan to'liq bog'lanmagan. Bundan tashqari, mustaqil ta'lim jarayoniga ham alohida e'tibor qaratmoq lozim. Chunki aksariyat hollarda talabalar mustaqil ta'limni shunchaki biror taqdimot shaklida yoki qog'ozga tushirib shunchaki hemis platformasiga yuklab qo'yishyapti. Aslida, mustaqil ta'lim bu talabani mustaqil izlanishi va kelajakdagi faoliyatida yangi bilimlarni mustaqil o'rganib, uni o'quvchilarga yetkazib berish darajasida shakllangan bo'lishi zarur.

Ma'lumki, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish, bu ularning kelajakda o'z ixtisosligi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishining asosi hisoblanadi. Talaba ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda olgan bilimlar asosida mustaqil bir muammoni yechish rejasini tuzib va reja asosida uni amalga oshira olishi talabani professional rivojlanishiga ijodiy yondasha olishiga va o'zini intellektual rivojlantirishiga asos bo'la oladi. Aksariyat hollarda, talabalar har bir darsdan zaruriy darajadagi bilimni olishga harakat qilishadi. Lekin, agar mustaqil ish jarayoni to'g'ri tashkil qilinsa, talabalarining mustaqil ish qilishi uchun yetarli shart-sharoit yaratilsa, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish imkoniyati yaratilsa, talabalarining fanni mustaqil ravishda o'zlashtirishi bilim olishning tub asosi bo'ladi.

**Tahlil va natijalar.** O'zi talabalarining mustaqil o'quv ishi deganda nimani tushunish kerak? Umuman olganda, bu bo'lajak mutaxassislarining tafakkurini tarbiyalash bilan bog'liq har qanday faoliyat desa bo'ladi. Talabani bilish faolligini oshirib, mustaqil fikrlashga chorlaydigan auditoriyadagi va auditoriyadan tashqari, shuningdek, o'qituvchining rahbarligida yoki uning ishtirokisiz bajaradigan mashg'ulotlar yig'indisiga aytish mumkin.

Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish, talabani mustaqil ishlashiga undovchi motivlarni aniqlash, ularning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Chunki axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi zamonda barcha ma'lumotlarni auditoriya mashg'ulotlari paytida talabalarga to'liq yetkazib bo'lmaydi.

Bugungi kunda aksariyat talabalarimiz elektron darsliklardan foydalanib kelmoqdalar. Buning natijasida talabalarining kutubxonalardan foydalanishlari keskin qisqarib bormoqda. Bu esa talabalarining kitobga bo'lgan muhabbatini, kitobga oshnoligini, unga qiziqishlarini so'ndirib bormoqda. Buning uchun eng avvalo talabalarga adabiyot bilan ishlashni o'rgatish lozim.

Bundan tashqari, pedagogik oliy o'quv yurtlarida pedagogik amaliyotni to'g'ri tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– talabani pedagogik faoliyatga ongli, qiziquvchanlik bilan qatnashishini shakllantirish, pedagogik kasbga muhabbat hissi bilan qarash, hurmatini rivojlantirish va mustahkamlash ijtimoiy, maxsus, pedagogik va psixologik fanlarni chuqur o'rganishga yordam berish;



–bo'lajak o'qituvchining yangi jamiyat talablariga, shuningdek, mutaxassisning shaxsiy xususiyatlariga javob beradigan kasbiy mahoratlarini egallashga yordam berish;

–talaba tomonidan institut auditoriyasida egallangan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash, ularni o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlar jarayonida mohirona foydalanishga o'rgatish;

–talabalarni o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarini nazorat qilish va tanlash uquvi bilan qurollantirish;

–talabalarni o'quvchilarning bilim faoliyatini jadallashtiruvchi har xil usul va metodlarni ko'rgazma-li texnik vositalarni, an'anaviy va noan'anaviy dars va tarbiya turlarini foydalanishga jalb qilish;

–bo'lajak o'qituvchilarni sinf rahbari faoliyatini bajarishga har tomonlama tayyorlash.

**Xulosa qilib aytganda**, bo'lajak informatika fani o'qituvchilarini tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasidagi "Metodika" hamda "Mutaxassislik" fanlari hajmini kengaytirish bilan birga, umumiy o'rta ta'lim maktabi bilan oliy ta'lim o'rtasidagi o'quv dasturlarini paradigmik ravishda doimiy sinxromlab borish va pedagogik amaliyotni to'g'ri tashkil etish bu har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

[1]. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.

[2]. Zaripov N. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda webfreelance faoliyati//центр научных публикаций (BuxDU.uz). 2021, 3-j, 3-son.

[3]. Зарипов Н.Н. Использование иностранного опыта в обучении информатике и информационным технологиям в школе. "Проблемы современного образования", 2020, №. 6, с. 213–218.

[4]. Ergashov, M., Sadullayev, I. (2024, may). Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar va yangi tendensiyalarning ilmiy-metodik tahlili. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 580–584).

[5]. Садуллаев, И.Ш., Абдувахадов, А.А. (2021). Электронные информационные образовательные ресурсы как фактор обеспечения качества образования. Вестник науки и образования, (8-3 (111)), с. 71–73.

[6]. Сохибов, Д. (2023). О квадратичном стохастическом операторе с неподвижной точкой. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), с. 747–752.

[7]. Мамуров, Б.Ж., Шарипова, М.Ш., & Сохибов, Д.Б. (2021). О неподвижных точках одного квадратичного стохастического оператора В S. Проблемы науки, (4 (63)), с. 13–16.

[8]. Мамуров, Б.Ж., Сохибов, Д.Б. (2021). О типах неподвижных точек одного квадратичного стохастического оператора. Наука, техника и образование, (2–2 (77)), с. 10–14.

**Jumamuratov Allamurat Polatovich (Nukus Innovatsion instituti "Dasturiy injiniring va raqamli iqtisodiyot" kafedrası dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); e-mail: allamurat@bk.ru)**

#### **ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA MULTIAGENT TIZIMINI YARATISH**

***Annotatsiya.** Maqolada elektron ta'lim muhitida multiagentli tizimlardan foydalangan holda o'quv jarayonini optimallashtirish, shaxsiylashtirilgan va samarali o'qitish imkoniyatlarini ko'rib chiqilgan. Multiagentli tizim orqali o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, qiziqishlari va ehtiyojlarini real vaqtda kuzatish hamda ularga mos o'quv dasturlarini avtomatik ravishda shakllantirish orqali ta'lim jarayonini yanada sifatli qilish maqsad qilingan.*

***Kalit so'zlar:** elektron ta'lim, multiagent tizimi, ta'lim jarayoni, individuallashtirilgan ta'lim, talabalar faoliyatini kuzatish.*

**Жумамуратов Алламурат Полатович (Нукусский Инновационный институт, кафедра "Программный инжиниринг и цифровая экономика", доктор философии (PhD) по педагогическим наукам (PhD), и.о.доцент; e-mail: allamurat@bk.ru)**

#### **СОЗДАНИЕ МУЛЬТИАГЕНТНОЙ СИСТЕМЫ В ЭЛЕКТРОННОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ**

***Аннотация.** В статье рассматриваются возможности оптимизации учебного процесса с использованием мультиагентных систем в электронной образовательной среде, а также создания условий для персонализированного и эффективного обучения. Целью является повышение качества образовательного процесса посредством автоматического формирования учебных программ, соответствующих уровню успеваемости, интересам и потребностям учащихся, с возможностью отслеживания этих параметров в реальном времени.*

**Ключевые слова:** электронное обучение, мультиагентная система, образовательный процесс, индивидуализированное обучение, мониторинг деятельности студентов.

**Jumamuratov Allamurat Polatovich (Nukus Innovation Institute “Chair of Software engineering and digital economy Acting Assistant Professor Doctor of Philosophy (PhD) in pedagogical sciences; e-mail: allamurat@bk.ru)**

### **CREATING A MULTI-AGENT SYSTEM IN AN E-LEARNING ENVIRONMENT**

**Annotation.** *This article discusses the optimization of the learning process in an e-learning environment using multi-agent systems, providing personalized and effective teaching opportunities. Through the multi-agent system, the aim is to enhance the quality of education by monitoring students' levels of comprehension, interests, and needs in real-time, thereby automatically creating suitable educational programs tailored to each individual.*

**Key words:** *E-learning, multi-agent system, learning process, individualized education, student activity monitoring.*

**Kirish.** Elektron ta'lim sohasida talabalar sonining ko'payishi, ularning ehtiyojlarini individual darajada qondirish zarurati va ta'lim sifatini oshirish zaruriyati o'quv jarayonlarini avtomatlashtirishni kun tartibiga olib chiqdi. Multiagent tizimlar ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalarni rag'batlantirish va ularning faoliyatini real vaqtda kuzatish imkonini beradi. Bu yondashuv elektron ta'lim muhitida yanada samarali va moslashuvchan o'qitish tizimlarini yaratish imkonini beradi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini samaradorligini oshirish va jarayonni avtomatlashtirish dolzarb hisoblanadi, chunki bu yangi bilimlarni tezkor va samarali yetkazish imkonini beradi.

An'anaviy ta'lim tizimlarida talabalar uchun bir xil o'quv dasturlari taqdim etilishi sababli individual ehtiyojlarga moslashuvchanlik yetarli emas. Bu esa o'quv jarayonida talabalar uchun ta'lim sifatini pasaytiradi va o'qituvchilarning vaqt va kuch sarflashiga olib keladi. Elektron ta'lim muhitida talabalar faoliyati va ehtiyojlarini real vaqtda kuzatish, shaxsiy o'quv rejalarini yaratish kabi jarayonlar o'qituvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi va ko'p vaqt talab etadi. Shu sababli elektron ta'lim platformalarini individuallashtirish va avtomatlashtirishga qaratilgan tizimlarga ehtiyoj katta.

Multiagent tizimlar yordamida o'quv jarayonini individuallashtirish va avtomatlashtirish mazkur muammolarni yechishga yordam beradi. Ushbu tizimlar har bir talabaning bilim darajasi, qiziqishlari va o'zlashtirish qobiliyatlarini inobatga olib, individual o'quv dasturlarini ishlab chiqadi va ta'lim jarayonini optimallashtiradi. Bu esa talabalarni o'z qobiliyatlariga mos holda ta'lim olishiga, ularning ta'limga qiziqishini oshirishga va o'qituvchilar uchun vaqt tejalashga olib keladi. Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirish va o'quv jarayonini samarali boshqarish uchun elektron ta'lim muhitida multiagentli tizimlarni joriy etish zarurdir.

Elektron ta'lim muhiti o'qitish jarayonini internet va raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiradigan ta'lim muhitidir. Bunday muhit o'qitishning barcha bosqichlarida o'quvchilar va o'qituvchilar uchun imkoniyatlarni kengaytiradi, ta'lim jarayonini individuallashtirishga va unga erkinlik berishga yordam beradi. Bu muhitda talaba va o'qituvchilar joylashuvdan qat'iy nazar, bir-biri bilan doimiy aloqada bo'lishlari, resurslardan foydalanishlari va turli masofaviy va interaktiv metodlarni qo'llashlari mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Multiagentli tizimlar (MAS) sun'iy intellektning muhim sohalaridan biri bo'lib, turli vazifalarni bajarish uchun o'zaro aloqada bo'lgan va muayyan maqsadga yo'naltirilgan bir nechta agentlar majmuasini ifodalaydi. Wooldridge va Jennings tomonidan multiagent tizimlarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, unda agentlarning avtonomligi, o'zaro hamkorlik qilish qobiliyati va maqsadlarga yo'naltirilganligi asosiy xususiyat sifatida ta'kidlanadi [4]. Ushbu nazariy tamoyillar elektron ta'limda individuallashtirilgan yondashuvni amalga oshirish uchun mustahkam asos yaratadi.

Individuallashtirilgan ta'lim tizimlarini loyihalash bo'yicha tadqiqotlar talabalar ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv jarayonini amalga oshirishga qaratilgan. Brusilovsky va Millan o'z ishlarida individuallashtirilgan ta'lim tizimlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish jarayonlarini yoritadi [1]. Ushbu yondashuv elektron ta'lim muhitida talabalar individual qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Individuallashtirilgan o'quv jarayonlari va individual yondashuv talabalarni o'zlashtirish darajasini oshirishi mumkinligini tasdiqlagan bir qator tadqiqotlar mavjud. Individuallashtirilgan ta'lim tizimlari ta'lim oluvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos tarzda ta'limni tashkil etishga qaratilgan. Bunday tizimlar orqali o'quv jarayonini individuallashtirish, talabaning bilim darajasi, o'qish sur'ati, o'zlashtirish usullari kabi omillarni inobatga olib, ularga mos keluvchi o'quv materiallarini taqdim etish mumkin. Individuallashtirilgan ta'lim, dastlab, o'qituvchilarning talabalar bilan bevosita ishlash uslublari orqali amalga oshirilgan. Keyinchalik, texnologiyalar rivojlanishi bilan masofa-

vii ta'limda ham shaxsiy yondashuvni qo'llash imkoniyati kengaydi. Bugungi kunda ushbu tizimlarning rivojlanishiga sun'iy intellekt (AI), mashinani o'rganish (ML), katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash (Big Data) kabi texnologiyalar asosiy o'rin tutadi. Ular orqali individuallashtirilgan ta'limni avtomatlashtirish va optimallashtirish yo'nalishlari amalga oshirilmoqda

Multiagent tizimlardagi agentlarning roli va ularning samarali o'zaro aloqasi tizim samaradorligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Rao va Georgeff tomonidan ishlab chiqilgan BDI (Belief-Desire-Intention) modeli agentlarning mantiqiy va samarali o'zaro hamkorlik qilish imkonini beradi [2]. Ushbu modelning ta'lim tizimlarida qo'llanishi o'quvchilar faoliyatini kuzatish, baholash va ularning qobiliyatlariga mos ravishda o'quv materiallarini taqdim etishga imkon beradi.

Talabalar faoliyatini kuzatish va ularning o'zlashtirish darajasini aniqlash masalasi elektron ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan ta'lim nazariyalari individuallashtirilgan yondashuvning ahamiyatini ko'rsatadi, bu esa talabalarni qobiliyat va ehtiyojlariga qarab o'qitishni rag'batlantiradi [3]. Zamonaviy ta'lim tizimlarida multiagentli tizimlar yordamida talabalar o'qish faoliyati tahlil qilinib, ularga mos dasturlar taklif etilishi yuqori natijalarga olib keladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish orqali ma'lumotlar to'planadi. Bu usul ta'lim jarayonida multiagentli tizimlar va shaxsiylashtirilgan ta'lim haqida talabalar va o'qituvchilarning fikrlarini aniqlashga xizmat qiladi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi.

Suhbat va kichik guruhlar yordamida o'qituvchilarning tajribalarini va shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimlarining foydaliligini o'rganish. Ushbu usul orqali o'qituvchilarning multiagentli tizimlar haqidagi fikrlari va ta'lim jarayonidagi amaliyotlari tahlil qilindi. Multiagentli tizimlar modelini ishlab chiqarish. Multiagentli tizimlarni ta'lim jarayonida qo'llash uchun maxsus model va algoritmlar ishlab chiqiladi. Bu model talabalar ehtiyojlarini inobatga olgan holda shaxsiylashtirilgan o'quv materiallarini taklif etadi va baholash tizimini avtomatlashtiradi.

**Tahlil va natijalar.** Yaratilgan model va algoritmlar yordamida amaliy eksperimentlar o'tkazish. Talabalar guruhlariga bo'linadi va ularga multiagentli tizimlar yordamida individual topshiriqlar taqdim etiladi. Bu bosqichda o'quvchilarning muvaffaqiyat darajasi, faoliyat ko'rsatkichlari va motivatsiyasi o'rganiladi. Olingan ma'lumotlar statistik metodlar yordamida tahlil qilinadi. Talabalar natijalari va ularning o'zlashtirish darajalari o'rganiladi. Ushbu tahlil natijalari multiagentli tizimlar yordamida shaxsiylashtirilgan ta'limning samaradorligini baholash uchun foydalanildi.

Tadqiqot natijalari tahlil qilinib, multiagentli tizimlar yordamida ta'lim jarayonining optimallashtirishidagi muammolar va yechimlar keltiriladi. Olingan natijalar asosida kelajakda shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimlarining rivoji va multiagentli tizimlarning ta'lim jarayonida qo'llanishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Onlayn so'rovnomalar, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish uchun statistik dasturlar va modelni amalga oshirish uchun dasturlash tillari qo'llanildi.

**Xulosa va takliflar.** Elektron ta'lim muhitida multiagentli tizimlardan foydalanish ta'lim jarayonini individuallashtirish, optimallashtirish va talabalar faoliyatini real vaqtda kuzatish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, o'quv jarayonidagi barcha ishtirokchilar uchun ko'proq individual yondashuv imkoniyatlarini ta'minlaydi. Multiagentli tizimlar turli vazifalarni bajarish uchun o'zaro aloqada bo'lib ishlaydigan bir nechta avtonom agentlar majmuasi sifatida tasvirlanadi. Har bir agent o'ziga xos vazifalarni bajaradi, o'z maqsadlariga erishish uchun mustaqil qarorlar qabul qiladi va boshqa agentlar bilan ma'lumot almashadi. Bu tizimlar, asosan, murakkab muammolarni hal qilish va ta'lim jarayonini optimallashtirish kabi sohalarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Mazkur tadqiqotda elektron ta'lim muhitida multiagentli tizimlardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, multiagentli tizimlarning joriy etilishi ta'lim jarayonida talabalar faolligi va o'zlashtirish darajasini oshiradi, shuningdek, o'qituvchilarga samarali tavsiyalar berishda yordam beradi. Tadqiqot bo'yicha tavsiyalarimiz quyidagicha:

1. Talabalar o'quv jarayoniga yanada qiziqishini oshirish uchun ta'lim muassasalarida multiagentli tizimlar platformalarini keng joriy etish.
2. Elektron ta'lim platformalarini yanada samarali ishlatish uchun texnik infratuzilmani modernizatsiya qilish va talabalar uchun qulay sharoitlar yaratish zarur.
3. Multiagentli tizimlardan to'liq foydalanish uchun o'qituvchilarni o'qitish va ularga treninglar tashkil etish, maxsus qo'llanma va amaliy mashg'ulotlar taqdim etish lozim.
4. Multiagentli tizimlarning samaradorligini o'lchashda statistik tahlil usullaridan foydalanishni davom ettirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Brusilovsky, Peter & Peter, & Millán, Eva & Eva. (2007). User Models for Adaptive Hypermedia and Adaptive Educational Systems. 4321. 10.1007/978-3-540-72079-9\_1.
- (2). Rao, Anand & Georgeff, Michael. (2000). BDI agents: From theory to practice.
- (3). Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: the Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
- (4). Wooldridge, M., and Jennings, N.R. (1995), "Intelligent agents: theory and practice", Knowledge Engineering Review, Vol. 10, № 2, pp. 115–152.

**Joldasbaeva Arzayim Temirbaevna (Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrasida doktoranti; UDK 811.111:371)**

### INGLIZ TILI DARSLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ kompetensiyasi va uning xususiyatlari tizimli va har tomonlama yoritilgan. Chet tilida kommunikativ kompetensiya va muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirish va rivojlantirish bilan bog'liq g'oyalarni taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, bilim, ta'lim, motivatsiya, kompetensiya, rivojlanish, kasbiy bilim, strategiya, nazariy material, muvaffaqiyat, mahorat, mas'uliyat.

### ВАЖНОСТЬ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация.** В данной статье системно и всесторонне освещена коммуникативная компетентность учеников, направленная на совершенствование и развитие, ее особенности. Представлены идеи и предложения, связанные с успешным проведением и развитием коммуникативной компетентности и общения на иностранном языке.

**Ключевые слова:** способности, знания, образование, мотивация, компетентность, развитие, профессиональные знания, стратегия, теоретический материал, успех, умение, ответственность.

### IMPORTANCE OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LESSONS

**Annotation.** In this article, the communicative competence of pupils aimed at improvement and development, its specific features, is described in a systematic and comprehensive way. Ideas and suggestions related to the successful communication and development of communicative competence in a foreign language are presented.

**Key words:** Ability, knowledge, education, motivation, competence, development, professional knowledge, strategy, theoretical material, success, skill, responsibility.

**Kirish (Introduction).** Davlatimizda o'quvchilarning kommunikativ kompetentligi bo'yicha, asosan, chet tilin o'rganuvchilar uchun bu ko'nlikmani har tomonlama o'rganishga alohida e'tibor qaratilib kelmoqda. Shuning uchun ham hozirgi kunda ta'lim, fan va ishlab chiqarish integraciyasining yangi shakllarini talab qiladi va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, kelajakda tajriyabali chet tili o'qituvchilarni shakllantirish bosh vazifalarning biri sifatida belgilaydi. Shuning uchun ham kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiqotlar orqali yoritib berish kerak. Ayniqsa, pedagogika sohasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammolari va ahamiyati bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish muammosi ko'plab faylasuflar, pedagoglar va psixologlar tomonidan o'rganilgan. O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari V.A. Adolf, T.G. Braje, E.F. Zeera, I.A. Zimnyaya, N.V. Kuzmina, M.I. Lukyanova, A.K. Markova, A.M. Novikova, G.S. Trofimova, G. Bernxard, V. Bloom, X. Markus, R. Sterner va boshqalar tomonidan chuqur tahlil qilingan. Ammo o'rganilayotgan tilning ilmiy adabiyotlarda yetarlicha keng ifodalanishiga qaramay, uning qo'llanishida ham, ta'rifi ham bir to'xtamga kelinmagan. Demak, uning rivojlanish yo'llarini ajratib ko'rsatish zarurdir.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini o'rganishning uslubiy tamoyillarini asoslashda quyidagilar metodologik bazasi sifatida quyidagilarni ko'rsatishga bo'ladi. Kommunikativ kompetensiyaning to'rtta asosiy komponenti mavjud: grammatik kompetensiya, sotsiologik kompetensiya, nutqiy kompetensiya va strategik kompetensiya.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Kompetensiya bilim, motivatsiya va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiya ta'rifi turli xil va mos ijtimoiy sharoitlarda tildan grammatik jihatdan to'g'ri foydalanish qobiliyatidir. Kommunikativ kompetensiya modeli muloqotning funksional qismlari bilan shug'ullanadi. U xuddi shunday til tizimidan to'g'ri foydalanish bilan bog'liq. Oddiy qilib aytganda, kommunikativ kompetensiya odamning boshqa birovi bilan qanchalik samarali muloqot qilishi mumkinligini anglatadi. "Kommunikativ kompetensiya" til va tildan foydalanish qoidalarini bilish hamda bunday bilimlardan hayotiy vaziyatlarda samarali va o'rinli foydalanish malakasi sifatida qaraladi. Kommunikativ kompetensiya – bu kommunikativ maqsadlarga ijtimoiy jihatdan mos keladigan tarzda erishish qobiliyati. U tashkillashtirilgan va maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni, tegishli kontekstda mos va samarali ko'nikmalarni tanlash va qo'llash qobiliyatini o'z ichiga oladi. U og'zaki va og'zaki bo'lmagan xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Dell Hymes bu atamani, dastlab, 1966-yilda Noam Xomskiyning ishlash va malaka o'rtasidagi qarama-qarshiligining tanqisligiga qarshi munosabat bildirganida kiritgan. Xomskiy ingliz tilini tahlil qilish bilan mashhur amerikalik tilshunos edi. Hymes kompetensiyaning mavhum tushunchasiga murojaat qilish uchun kommunikativ kompetensiyaning etnografik tadqiqotini bildirdi. U odamlarning noyob vaziyatlarda turlicha gapirishini aniqladi.

Kommunikativ kompetensiya modeli Maykl Kanale va Merrill Swain kommunikativ kompetensiya modelini ishlab chiqdilar, u to'rtta alohida komponentdan iborat. Grammatik, lingvistik, sotsiolingvistik, nutqiy strategik. Lingvistik kompetenciya grammatika, lug'at va sintaksisni tushunish bilan bog'liq. Bunga tinch belgilari, imlo va talaffuz ham kiradi. Kommunikativ kompetensiyaning ushbu uslubi, asosan, maktablarda qo'llaniladi. O'quvchilar ko'pchilik ingliz tili darslaridan o'tish uchun so'z yasalishi, zamonlar, tovush o'zaro ta'siri, birikmalar, so'z iboralari, ma'nolari va jumla tuzilishini boshqaradigan qoidalarni bilishlari kerak. Sotsiolingvistik kompetensiya tegishli tilni boshqaradigan qoidalarni anglatadi. Bu, kerak bo'lganda, xushmuomalalik va rasmiyatchilikdan foydalanishni va hamma vaziyatlarda ham bir xil gapirmasligini tushunishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, o'qituvchi kunduzi o'z shogirdlari bilan tun oxirida eriga nisbatan boshqacha gapirishi mumkin. Xuddi shunday, o'smirning keksa buvisiga qaraganda do'stlari bilan boshqacha gapirishi mumkinligini tushunishi sotsiolingvistik qobiliyatning namunasidir. Nutq kompetensiyasi kengroq kontekstni qanday izohlashni va tilning uzunroq qismlarini qanday qurishni bilishni anglatadi, shunda qismlar izchil bir butunlikni tashkil qiladi. Grammatik kompetensiya til kodini o'zlashtirish bilan bog'liq. Bu Xomskiy ta'riflaganidek, lingvistik kompetensiya. Bu kompetensiya o'zlashtirishni anglatadi, ya'ni, lingvistik kodning, leksik, morfologik, sintaktik va tan olish qobiliyati tilning fonologik tavsifi va bu xususiyatlarni ishlab chiqarish uchun manipulyatsiya qilish so'zlar va jumladir. Grammatikani bilish ma'lum bir nazariya bilan bog'liq emas. Biror kishi til qoidalari qanday ishlashini tushuntirib, ko'rsata olsa, u tilning grammatik malakasini egallaganligini anglatmaydi. Bu grammatik kompetensiyaning diqqat markazida ekanligini anglatadi grammatikani ishlab chiqish va tushunish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga bevosita bog'liq gaplar va gaplarning lug'aviy ma'nolarini anglatadi.

Bu kompetensiyani tavsiflash uchun boshqalardan ko'ra tanlangan yoki nazariya qanday yo'llar bilan grammatika ikkinchi yoki chet tilini o'rgatish uchun bevosita tegishli (Canale, 1983:7). Sotsiolingvistik kompetensiya: Suhbatlar, nutqlar, elektron pochta xabarlari, gazeta maqolalarini yaratish uchun so'zlar, iboralar va jumlar haqida. Nutq kompetensiyasi suhbatlar, intervyular va hisobotlar kabi janrlar bilan tanishishni ham anglatadi (Connor & Mbaye, 2002). Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, nutqiy qobiliyatli ma'ruzachi yoki yozuvchi ma'lum bir janrga mos keladigan matnni tuzish uchun so'zlar, iboralar va jumalarni tartibga solishga qodir. Diskurs keng ma'noda tilning ijtimoiy sharoitlarda qo'llanilishini bildiradi. Nutq kompetensiyasining ikkita asosiy jihati – bu muloqotga kirishish, uyg'unlik (Celce-Murcia, Dörnyei & Thurrell, 1995).

Uyushish deganda fikrni bog'lash uchun bog'lovchi iboralar, masalan, bog'lovchi yoki qo'shimcha so'z birikmalaridan foydalanish tushuniladi. Muvofiq matn mantiqiy bo'lgan matndir. Ushbu konsepsiya g'oyalar yoki hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat va muammoni hal qilish kabi aniq va mantiqiy ko'rsatuvchi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Kommunikativ faoliyatning turlari o'quvchini boshqa o'quvchilar, shuningdek, dastur va jamiyatdagi odamlar bilan gaplashishga va ularni tinglashga undaydigan va talab qiladigan har qanday faoliyatni o'z ichiga oladi. Kommunikativ faoliyat haqiqiy maqsadlarga ega: ma'lumotni topish, to'siqlarni yo'q qilish, o'z-o'zini gapirish va madaniyatni o'rganish.

Til kompetensiyalari ingliz tilini o'zaro bog'liq bo'lgan to'rtta ko'nikmada qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni bildiradi: gapirish, tinglash; o'qish va yozish. Hamkorlikdagi ta'lim – bu o'quvchilar topshiriq, loyiha yoki topshiriq ustida ishlash uchun birlashtiriladigan o'qitish turi. Nutq malakasi og'zaki nutq so'zlash uchun tilni o'zlashtirishning butun majmuasidir, ya'ni talabalar tegishli grammatik va og'ir vazii-

yatda o'z-o'zidan gapira oladilar. Bundan ko'rinib turganidek, kommunikativ kompetentlik shaxslar bilan o'zaro zarur aloqalarni o'rnatish va barqarorlikni saqlash qobiliyati hisonlanadi. Kommunikativ kompetentlik bolajak o'qituvchining kasbiy komponentligini ko'rsatuvchi omildir. Sababi, hozirgi kunda yaxshi mutaxassis bo'lishning o'zi yetarli emas. Bugungi natija uchun jamoat bo'lib ishlay olish, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish, o'z fikrlarini boshqalarga tushunarli qilib ayta olish, ma'lumotlarni ziddiyatlarsiz qabul qilish, ziddiyatlarni yo'q qilishga urinishlar, hissiyotlarini nazorat qila olish kabi fazilatlariga ega bo'lgan yaxshi kasb egasi bo'lishi kerak. Kommunikativ kompetentlik G.S.Trofimova tomonidan o'rganilib chiqilgan bo'lib, "shaxsning insonparvarlik g'oyalari asoslangan va kommunikativlik faoliyatlarining unumdorligini ta'minlashga qaratilgan shaxslarning shaxslararo aloqalarini tajribasi rivojlanish darajasiga bog'liq bo'ladi". Kommunikativ kompetensiyaning ko'p qirrali tuzilishi nafaqat yaxshi til tayyorgarligini, balki o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchi xalqning tarixi, madaniyati va etnopsixologiyasini bilishdan ham dalolat beradi. Boshqa tilda so'zlashuvchilar bilan to'liq va muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun haqiqiy shaxsni rivojlantirish va takomillashtirish kerak. Madaniyatlararo muloqot kommunikativ kompetensiyaning muhim jihati hisoblanadi, chunki u madaniy chegaralar bo'ylab samarali muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarga ularning muloqotiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan turli xil madaniy nuqtai nazarlar va amaliyotlarni ochib berishlari kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilarga ingliz tilida so'zlashuvchi madaniyatlarda muloqotni asoslaydigan madaniy me'yorlar va qadriyatlarini o'rgatishlari kerak. Bu o'quvchilarga o'zlarining ijtimoiy-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishga va ko'p madaniyatli sharoitlarda samarali kommunikator bo'lishga yordam beradi. Funksional tildan foydalanish kommunikativ kompetensiyaning muhim jihati hisoblanadi, chunki u muayyan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun tildan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarga ularning ehtiyojlari va qiziqishlariga mos keladigan til funksiyalarini o'rgatishga e'tibor qaratishlari kerak. Bunday yondashuv o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini egallashini ta'minlaydi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilar o'quvchilarga kommunikativ qobiliyatlarini oshirish uchun turli kontekst va vaziyatlarda funksional tildan foydalanish imkoniyatini berishlari kerak. O'rganuvchilar o'zlarining lingvistik va ijtimoiy-pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun real hayotiy vaziyatlar va kontekstlarni aks ettiruvchi haqiqiy til ma'lumotlariga duchor bo'lishlari kerak. Shu sababli o'qituvchilar o'quvchilarga turli xil til funktsiyalari, tuzilmalari va uslublarini ochib beradigan videolar, audioyozuvlar, haqiqiy matnlar va muhokamalar kabi turli xil til kiritish manbalarini taqdim etishlari kerak. Bundan tashqari, o'quvchilar o'zlarining bilim darajasi, qiziqishlari va tilni o'zlashtirishni osonlashtirish uchun ehtiyojlariga mos keladigan til ma'lumotlaridan foydalanishlari kerak. Ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u til kiritish, o'zaro ta'sir, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish, funksional tildan foydalanish va madaniyatlararo muloqotni o'z ichiga oladi. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishni osonlashtirish uchun o'qituvchilar o'quvchilarni yo'naltirishi kerak. O'quvchilarga haqiqiy til ma'lumotlari, amaliyot uchun imkoniyatlar bilan ta'minlashga qaratilgan o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish, funksional tildan foydalanishni o'rgatish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'quvchilarni ingliz tilida muloqot qilish va o'z g'oyalari, fikrlari va his-tuyg'ularini ifoda etishga undaydigan kommunikativ sinf muhitini yaratishi kerak. Ushbu omillar mavjudligi bilan o'quvchilar o'zlarining kommunikativ qobiliyatlarini tezroq va samaraliroq rivojlantirishlari mumkin, bu ularga turli kontekst va vaziyatlarda samarali muloqot qilish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Засеева, Л.Т. Компетентностный подход в философии образования. Автореф. дис. канд. филос. наук, 09.00.08.
- (2). Muhamadjonovna, S.D. (2020). The development of sociolinguistic competence of future English language teachers through computer technologies. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(3), p. 147–150.
- (3). Bell, Roger T, *Sociolinguistics*, Batsford, London, 1976.
- (4). Cannale, Michae, *From Communicative Competence to Communicative Language Pedagogy*, in Richards Jack C and Schmidt Richard (eds) *W, Language and Communication*, Longman, London, 1983.
- (5). Hymes, D, *Towards Ethnographies of Communication: The Analysis of Communicative Events*, in Giglioli Pier Paolo (eds), *Language and Social Context*, Penguin Book, London, 1983.
- (6). Connor, U., Halleck, G., Mbaye, A. (2002).
- (7). Celce-Murcia, Dörnyei & Thurrell, 1995.

Ibragimova Nazokat Mukhtarovna (Nukus davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti;  
e-mail: nazokatibragimova0307@gmail.com)

## INGLIZ TILI BO‘YICHA DAVLAT TA‘LIM STANDARTI, O‘QUV DASTURLARI VA DARSLIKLARINI SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH NUQTAYI NAZARIDAN TAHLILI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘rta ta‘lim maktablarining 7-, 8-, va 9-sinflar uchun mo‘ljallangan ingliz tili darsliklarida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sotsiolingvistik kompetensiya A2 darajadagi o‘quvchilarni kundalik ijtimoiy muhitda to‘g‘ri muloqot qilishga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Tahlilda darsliklar mazmuni, topshiriqlar, madaniy vakillik va nonverbal muloqot jihatlari ko‘rib chiqilib, bu borada tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** sotsiolingvistik kompetensiya, A2 daraja, madaniy tasvir, nonverbal muloqot, rasmiy va norasmiy nutq, topshiriqlar tahlili, mazmun tahlili, madaniyatlararo muloqot, ta‘lim islohotlari, CEFR.

### АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО СТАНДАРТА, УЧЕБНЫХ ПРОГРАММ И УЧЕБНИКОВ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ПЛАНЕ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

**Аннотация.** В данной статье анализируются возможности развития социолингвистической компетенции в учебниках английского языка, предназначенных для 7, 8 и 9 классов средних школ. Социолингвистическая компетенция имеет важное значение для подготовки учащихся уровня А2 к эффективному общению в повседневной социальной среде. В анализе рассматриваются содержание учебников, задания, культурная репрезентация и невербальное общение, а также даны рекомендации по этим аспектам.

**Ключевые слова:** социолингвистическая компетенция, уровень А2, культурная репрезентация, невербальное общение, формальная и неформальная речь, анализ заданий, анализ содержания, межкультурная коммуникация, образовательные реформы, CEFR.

### ANALYSIS OF THE STATE EDUCATIONAL STANDARD, CURRICULA, AND TEXTBOOKS FOR ENGLISH LANGUAGE IN TERMS OF FORMING SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE

**Annotation.** This article analyzes the opportunities for developing sociolinguistic competence in English language textbooks designed for 7th, 8th, and 9th grades in secondary education schools. Sociolinguistic competence is crucial for preparing A2 level students for effective communication in everyday social environments. The analysis covers the content of the textbooks, tasks, cultural representation, and nonverbal communication, with recommendations provided in these areas.

**Keywords:** sociolinguistic competence, A2 level, cultural representation, nonverbal communication, formal and informal speech, task analysis, content analysis, intercultural communication, educational reforms, CEFR.

**Kirish.** Sotsiolingvistik kompetensiya tilni turli ijtimoiy sharoitlarda to‘g‘ri ishlatish qobiliyatini anglatadi. A2 darajadagi o‘quvchilar uchun Yevropa umumiy til ko‘nikmalari doirasi (CEFR)ga muvofiq, bu ko‘nikmalar ichiga umumiy ijtimoiy ifodalarni tushunish va qo‘llash, rasmiy va norasmiy uslublarni ajrata olish hamda asosiy madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari kiradi. Sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish samarali til o‘rganish uchun zarur bo‘lib, bu o‘quvchilarga turli ijtimoiy muhitlarda samarali muloqot qilish imkoniyatini beradi.

O‘zbekistonda yaqinda qabul qilingan ta‘lim islohotlari ingliz tilini o‘rganayotgan o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydi. 2012-yilda e’lon qilingan Prezident qarori „Chet tillarini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida“ darsliklarni yangilash va metodikalarni xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini belgilaydi [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-qarorida “Chet tillarini mukammal o‘rganish uchun videolar, o‘yinlar, ko‘ngilochar dasturlar, filmlar va boshqa o‘quv materiallarini yaratishni tashkil etish, til bo‘yicha asosiy ko‘nikmalarni shakllantirish” ta’kidlangan“ [2]. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligining O‘zbekiston barkamollik uchun ta‘lim dasturi hamkorligi natijasida, 2021-yilda mamlakat maktablarida Cambridge nashriyoti asosida ishlab chiqilgan darsliklar joriy etildi. Ushbu darsliklar CEFR talablariga muvofiqlashtirilgan bo‘lib, 7–11-sinf darsliklari “Prepare” deb nomlanadi. Darsliklar Student’s book, Workbook, Teacher’s book, har bir darsga audio va videofayllar va testlardan tashkil topgan [3].

Ushbu maqolada 7-, 8-, va 9-sinf ingliz tili darsliklarining A2 darajadagi o‘quvchilarda sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilgani tahlil qilinadi. Tahlil maz-

mun, topshiriqlar, tilni foydalanish, madaniy tasvir va noverbal muloqot jihatlari bo'yicha amalga oshiriladi va sotsiologiyistik elementlarni yaxshilash uchun tavsiyalar beriladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sotsiologiyistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponenti hisoblanadi, bu Canale va Swain tomonidan tavsiflangan [4]. U tilni turli ijtimoiy sharoitlarda to'g'ri ishlatish, rasmiy va norasmiy uslublardan foydalanish, madaniy nozikliklarni tushunish va muloqotni samarali boshqarish qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Hymes ta'kidlaganidek, til o'rganish faqat grammatik bilimlar bilan cheklanmay, balki "qachon, qaerda va qanday" til ishlatishni bilishni ham o'z ichiga olishi kerak [5].

CEFRga ko'ra, A2 darajadagi o'quvchilar asosiy ijtimoiy muloqotni boshqarishlari kerak, masalan, so'rovlar so'rash, uzr so'rash va muloyimlik bilan gapirish [6]. Ular madaniy normalarni tushunishlari va noverbal muloqot elementlarini qo'llay olishlari lozim.

Bizni ilmiy tadqiqot ishimiz 7–9-sinf o'quvchilarini o'z ichiga olgan bo'lib, ularning ingliz tilidan bilimi davlat ta'lim standarti bo'yicha A2 darajasida bolishi kerak. "Ingliz tili xorijiy til sifatida o'qitiladigan 1–11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan standarti" 2013-yili ta'xis etilib, 2020-yil 1-sentabrda o'z kuchini yo'qotgan bo'lib, unda A2 darajadagi o'quvchilarning sotsiologiyistik kompetensiyasi quyidagicha keltirilgan: "O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlar xalqlari madaniyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lish hamda ba'zi masalalarning tilga bog'liqligini anglash, masalan, salomlashish odati, murojaat shakllari, xushmuomalalikning asosiy me'yorlari va hokazo. Ijtimoiy vaziyatlarda imo-ishoraning ahamiyati" [7]. Dasturda sotsiologiyistik kompetensiya haqqida qisqacha malumot berilgan bo'lib, dars mavzulari, qanday baholash yoki tavsiyalar berilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yozishda quyidagi nazariy metodlar qo'llanildi: mazmuniy tahlil: darsliklardagi sotsiologiyistik kompetensiya xususiyatlarini tizimli o'rganish uchun; taqqoslash metodi: 7-, 8- va 9-sinflarda sotsiologiyistik kompetensiya rivojlanishini taqqoslash uchun, adabiyotlar sharhi: CEFR, O'zbekistonning ta'limga oid qarorlari va tegishli tadqiqotlar nazariy asoslarini kiritish uchun; deduktiv metodi: sotsiologiyistik kompetensiyaning umumiy nazariyalarini darslikdagi maxsus elementlarga qo'llash uchun, tasviriy metod: darsliklardagi til ishlatish, topshiriqlar va madaniy mazmunni tasvirlash va talqin qilish uchun.

**Tahlil va natijalar. Darsliklarning tahlili. 1. Mazmun tahlili.** Bu bo'limda darsliklarda A2 darajadagi o'quvchilarining sotsiologiyistik kompetensiyasini rivojlantirish uchun mos mazmun mavjudligini tahlil qildik.

**7-sinf. Unit 1: Sports and Games (p. 14)** o'quvchilarga o'z sevimli sport turlarini muhokama qilishni o'rgatadi, „What's your favorite sport?“ va „I like football“ kabi asosiy ijtimoiy ifodalarni o'z ichiga olgan. Ushbu mashqlar sotsiologiyistik kompetensiyani rivojlantirish uchun mos bo'lsa-da, rasmiy va norasmiy nutqning murakkabligi yetarli darajada qamrab olinmagan.

**Unit 5: Moments in History (p. 36)** tarixiy voqealarni keltiradi, bu o'quvchilarga madaniy normalarni muhokama qilish uchun asos bo'lishi mumkin, lekin zamonaviy madaniy amaliyotlar bilan bog'liqlik kamroq ko'rsatilgan.

**8-sinf. Unit 11: Eating Out (p. 68)** o'quvchilarga restoranlarda suhbatlashishni rol o'ynash orqali mashq qilish imkonini beradi. Bu bo'limda „Could I have...?“ va „Thank you“ kabi ifodalar mavjud bo'lib, ular sotsiologiyistik kompetensiyani rivojlantirish uchun muhim. Biroq turli ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlardagi ovqatlanish odatlari chuqurroq o'rganilishi mumkin edi.

**Unit 14: Getting Around Town (pg. 84)** yo'nalishlar so'rash va berish bo'yicha mashqlar beradi, bu sotsiologiyistik ko'nikmalarning muhim qismi hisoblanadi, lekin rasmiy va norasmiy uslublar yetarlicha yoritilmagan.

**9-sinf. Unit 9: Sports, Games, and Activities (p. 54)** sport haqida murakkab dialoglar orqali o'quvchilarga turli sport turlari va ularning madaniy farqlarini muhokama qilish imkonini beradi. Bu bo'lim rasmiy va norasmiy muloqot uslublarini taqqoslashni kengroq kiritishi mumkin edi.

**2. Mashqlar tahlili.** Darsliklarda keltirilgan topshiriqlar sotsiologiyistik kompetensiyani shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

**7-sinf. What a Great Job! (p. 40)** o'quvchilarga ularning orzu qilgan kasblarini muhokama qilish uchun intervyu o'tkazishni rol o'ynash orqali mashq qilish imkonini beradi. Biroq, topshiriqlar asosan skriptlangan bo'lib, haqiqiy hayotiy suhbatlar moslashuvchanligi yetishmaydi.

**8-sinf. Unit 12: The Latest Technology (p. 72)** texnologiyalarni sotib olish bo'yicha dialoglarda o'quvchilarga muloyim savollarni mashq qilish imkonini beradi. Biroq rasmiy va norasmiy uslublarning qo'llanishi bo'yicha aniq ko'rsatmalar yetishmaydi.



**9-sinf.** Unit 11: *City Living* (p. 64) o'quvchilarga yo'nalishlar so'rash va muloyim tarzda so'rovlar so'rashni talab qiladigan topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Rol o'ynash faoliyatlari haqiqiy hayotiy muloqotni samarali tarzda simulatsiya qiladi, lekin bu bo'limda shahar hayoti madaniy farqlari ko'proq yoritilishi mumkin edi.

**3. Tildan foydalanish.** Sotsiolingvistik kompetentsiyaning muhim qismi tilni rasmiy va norasmiy sharoitlarda to'g'ri ishlatishdir.

**7-sinf.** Darsliklardagi dialoglar muloyim ifodalarni (masalan, "Can you help me?") ishlatadi, ammo rasmiy va norasmiy uslublariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan, bu esa o'quvchilarning turli ijtimoiy kontekstlarda muloqot qilish qobiliyatini cheklaydi.

**8-sinf.** *Unit 11: Eating Out* (p. 68) oziq-ovqat bilan bog'liq muammolarni muloyim ifodalar bilan birgalikda rasmiy va norasmiy nutqni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muloyim so'rovlar va tasodifiy suhbatlarni mashq qiladilar.

**9-sinf.** *Unit 12: Films* (p. 68) dialoglarida filmlar haqida muhokama qilish, takliflar berishda muloyim tilda gapirishni qo'llashga e'tibor qaratiladi. Biroq bu dialoglar yanada murakkab ijtimoiy muloqotlarga kengaytirilishi mumkin.

**4. Madaniy tasvir.** Madaniy mazmun ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar va ularning muloqot normalarini tushinishda muhim ahamiyatga ega.

**7-sinf.** Madaniy tasvir kam, *Unit 5: Moments in History* (p. 36) tarixiy shaxslarni qisqacha tanishtiradi, ammo chuqur madaniy tahlil yo'q.

**7-sinf.** *Unit 14: Scotland* (p. 88) Shotlandiyada hayotga oid madaniy ma'lumotlarni beradi, ammo ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlardagi madaniy xilma-xillikni kengroq muhokama qilishni talab qiladi.

**9-sinf.** *Unit 16: Languages of the World* (p. 90) o'quvchilarga turli tillar va madaniyatlarni tanishtiradi, lekin tilni ishlatishda noverbal muloqot yoki madaniy nozikliklar haqida gapirmaydi.

**5. Noverbal muloqo.** Noverbal muloqot, masalan, imo-ishoralar va ko'z bilan aloqa sotsiolingvistik kompetentsiyaning muhim qismi bo'lib, darsliklarda bu elementlar yetarli darajada yoritilmagan. Uchta sinf bo'yicha ham noverbal muloqotga alohida e'tibor berilmagan. Bu muhim nuqta, chunki imo-ishoralar, shaxsiy masofa va ko'z bilan aloqa haqida tushuncha olish samarali muloqot uchun zarurdir.

7-sinfda asosiy salomlashuvlardan 9-sinfda murakkab suhbatlargacha bo'lgan vazifa murakkabligi va ijtimoiy muloqotni oshirishda rivojlanish ko'rsak bo'ladi. Biroq sotsiolingvistik kompetentsiyaga e'tibor biroq cheklangan, rasmiy va norasmiy nutq yoki madaniy nozikliklarni o'rganishga kamdan-kam holdarda to'g'ri keladi.

Darsliklarda ishlatilgan topshiriqlar va til A2 darajadagi o'quvchilar uchun, umuman, mos bo'lib, oddiy lekin samarali ijtimoiy muloqotlarni taqdim etadi. Biroq 9-sinfda ba'zi topshiriqlar, masalan, *Unit 12: Films* (p. 68) kabi, til va madaniy mazmunning murakkabligi sababli yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab qilishi mumkin. Kitob to'liq ingliz tilida yo'zilgan va o'qituvchi tomonidan o'rgatilishga mo'ljallangan bo'lib o'quvchi mustaqil o'qib tushinishga qiynaladi.

### Tavsiyalar

1. **Noverbal muloqotni kengaytirish.** Noverbal muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yanada ko'proq mashqlar kiritilishi lozim, masalan, imo-ishoralar va jismoniy tilni o'rganish.

2. **Rasmiy va norasmiy tilni qo'shish.** O'quvchilarning rasmiy va norasmiy til sharoitlarini boshqarishlariga yordam berish uchun aniq topshiriqlar va dialoglar kiritilishi kerak.

3. **Madaniy tasvirni kengaytirish.** Turli ingliz tilida so'zlashuvchi madaniyatlar va o'zbek madaniyatiga oid taqqoslashlar qo'shilishi kerak.

4. **Topshiriq.**

5. **Misoli.** Mavjud topshiriq (Grade 8, Unit 11: *Eating Out*, p. 68). Restoranda suhbatlashishni rol o'ynash.

**O'zgartirilgan topshiriq.** Noverbal muloqotga (masalan, tabassum, bosh chayqash) alohida e'tibor berish va o'quvchilarni rol o'ynash paytida imo-ishoralarni qo'llashga rag'batlantirish.

**Xulosa.** Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, 7-, 8-, va 9-sinf ingliz tili darsliklari sotsiolingvistik kompetentsiyani rivojlantirish uchun bir qator imkoniyatlar taqdim etadi, ammo noverbal muloqot va madaniy tasvir jihatida bo'shliqlar mavjud. Rasmiy va norasmiy tilni to'g'ri o'rgatish, shuningdek, madaniy mazmunni kengaytirish orqali ushbu darsliklar A2 darajadagi o'quvchilarni haqiqiy ijtimoiy muloqotga tayyorlashda yaxshiroq imkoniyatlar yaratishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2012). Chet tillarini o'qitish tizimini yanada takomillash-tirish choralari to'g'risida Prezident qarori.
- (2). <https://lex.uz/docs/-5426736>
- (3). USAID & Cambridge University Press. (2021). EFL Prepare Student's Book for Grades 7, 8, and 9. Cam-bridge University Press.
- (4). Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language tea-ching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), p. 1–47.
- (5). Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J.B. Pride & J.Holmes (Eds.), *Sociolinguistics* (pp. 269–293). Penguin.
- (6). Council of Europe “Common European framework of reference for languages: learning, teaching, asses-sment companion volume with new descriptors,” Available from <https://rm.coe.int/cefr-companion volume-with-new-descriptors- 2018/1680787989> [Accessed 11, December 2022].
- (7). <https://lex.uz/docs/-2165717?ONDATE=10.04.2017>

**Jumamuratova Sevara Saparbaevna (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat Pedagogika instituti “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi o‘zbek tili ixtisosligi” 2-kurs doktoranti; e-mail: [sjumamuratova@list.ru](mailto:sjumamuratova@list.ru))**  
**O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA LINGVOMADANIY YONDASHUVNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada lingvomadaniy kompetensiyaning mazmuni, nazariy asoslari va lingvomadaniy kompetensiyaning til ta'limida tutgan o'rni, lingvomadaniy yondashuvning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida atroflicha to'xtalgan. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullari haqida ma'lumot berilgan.*

***Kalit so'zlar:** lingvomadaniyat, lingvomadaniy kompetensiya, til, ta'lim, pedagogika, psixologiya.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА  
ЛИНГВОКУЛЬТУРНОГО ПОДХОДА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ**

***Аннотация.** В данной статье подробно рассматриваются содержание, теоретические основы лингвокультурной компетенции, роль лингвокультурологической компетенции в языковом образовании, педагогические и психологические особенности лингвокультурологического подхода. Предоставляется информация об эффективных методах развития лингвокультурной компетенции.*

***Ключевые слова:** лингвистическая культура, языковая компетентность, язык, образование, педагогика, психология.*

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF LINGUISTIC-CULTURAL APPROACH IN UZBEK LANGUAGE EDUCATION**

***Annotation.** In this article, the content, theoretical foundations of linguistic and cultural competence, the role of linguistic and cultural competence in language education, and the pedagogical and psychological features of the linguistic and cultural approach are discussed in detail. Information is provided on effective methods of developing linguistic and cultural competence.*

***Key words:** Linguistic culture, linguistic competence, language, education, pedagogy, psychology.*

**Kirish.** Hozirgi kunda lingvomadaniy yondashuv bo'yicha dunyo til ta'limida, ayniqsa, rus tili ta'limida eng rivojlangan tarmoqlardan biri bo'lib, bu sohada bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari, ko'plab ilmiy asarlar chop etilgan. “Lingvomadaniyat” so'zi til va madaniyat so'zlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Ushbu sohada nafaqat til, balki madaniyat, psixologiya, pedagogika, didaktika kabi fanlarni ham qamrab oladi.

Buyuk allomamiz Forobiy ham o'z ilmiy izlanishlari davomida o'rta asrlarda birinchilardan bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad vazifalari haqida ko'plab asarlar yaratdi. Bu ta'limotda madaniyatli jamiyatning ko'p masalalari, ya'ni, mamlakatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, ma'rifat, diniy ishonch, urush va tinchlik, mehnat, pedagogika va psixologiyaga oid qarashlari mavjud.

**Adabiyotlar tahlili.** Lingvokulturologiya antroposentrik tilshunoslikning rivojlangan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning taraqqiyotida V.V.Vorobyov [1], V.M.Shaklein [2], V.N.Teliya [3], V.A.Maslova [4] kabi olimlarning hissasi katta. Hozirgi kunda o'zbek til ta'limida ham bir qator ishlar ma'lum. Jumladan, N.Mahmudov [5], D.Xudoyberganova [6], Sh.Usmonova [7]larning ilmiy tadqiqotlari o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatning rivojiga katta hissa qo'shdi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual salohiyatini o'stirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, til ta'limida kompeten-

siyaviy yondashuv orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish, lug'at boyligini oshirish masalalari A.G'ulomov, K.Qosimova, S.Matchonov, B.To'xliyev, R.Niyozmetova, Sh.Yusupova, B. Abdullayeva, R.Yo'ldoshev, T.Ziyadova, A.Hamroyev, T.Yusupova, Sh.Yuldasheva, N.Sh.Turdiyev, K. Mavlonova, G.Yusupovalarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etilayotgan muammoning ba'zi qirralari ochib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologik asosini til va madaniyatning uyg'unligi, ya'ni lingvomadaniy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, lingvomadaniy, komponent va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Talabalarning lingvistik va madaniy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish bugungi raqamli resurslar rivojlangan davrda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Asosiy e'tibor, raqamli resurslar o'quv jarayonini qanday yaxshilashi hamda talabalarning til va madaniy ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkinligiga qaratilgan. Raqamli resurslardan foydalangan holda, o'qituvchilar o'rganish tajribasini oshirishlari va talabalarga til va madaniy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishlari mumkin. Lingvistik va madaniy kompetensiyalar bir-biriga bog'langan dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda va raqamli vositalar ularni takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. U lingvistik va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishning an'anaviy usullarini taqqoslaydi. Maqsad talabalarning malakasini oshirishda raqamli resurslarning samaradorligini ta'kidlashdir.

Til va madaniyat birgalikda rivojlangani uchun ularning vazifalari va genezisini turli xil metodlar yordamida tushuntirish qiyin. Shuning uchun o'qitish jarayonida bir-birini to'liqtiruvchi va davom ettiruvchi bir qancha metodlardan foydalanish tavsiya qilinadi. Bu, albatta, o'quvchilarning psixologiyasiga yaxshi ta'sir qiladi.

O'qituvchi lingvomadaniy yondashuv asosida dars tashkil qilish uchun psixologik va pedagogik bilimlarga egaligi juda muhim. Sababi o'qituvchining pedagogik mahorati, so'zlashuv madaniyati, nutqining sofliigi va ravonligi, o'quvchilar bilan aloqa munosabati, pedagogik nutq texnikasini egallaganlik darajasi o'quv mashg'ulotlarini olib borish paytida juda muhim unsurlar hisoblanadi. Lingvomadaniy yondashuvni amalga oshirish uchun o'qituvchi quyidagi bilimlarga ega bo'lishi va qo'llashi talab etiladi:

– yangi va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalana olishi;

– o'qituvchi o'z fanini juda a'lo darajada bilishi;

– o'quvchilarni mustaqil fikrlashni o'rgatishi;

– mavzuni sodda, tushunarli tilda tushuntirishi;

– dars maqsadini o'quvchilarning grammatik bilimi bilan birgalikda, ularning tafakkur va dunyoqarashini kengaytirishga qaratishi;

– o'quvchilarni o'z ustida ishlashga da'vat etish va ilmiy izlanishga chorlashi;

– interfaol darslarni tashkil etishi;

– darsni jamiyat va davrning talabida kelib chiqib tashkil qilishi lozim.

Yuqoridagilarga amal qilingan holda, yangi pedagogik texnologiyadan kutilgan maqsad va natijalarga erishish mumkin.

So'z va grammatik vositalarni izoh bergan holda, nutqqa olib kirish zamonaviy texnologiyaga sayqal bag'ishlaydi. Nutq sof bo'lishi uchun harakat, asosan, o'qituvchi nutqida o'z aksini topishi kerak. O'qituvchi interfaol dars jarayonida o'quvchining diqqat markazida bo'ladi va uning barcha aytgan so'zlari qanday bo'lsa, shundayligicha ularga yetib boradi. Agar o'qituvchi yuqoridagi unsurlarga ahamiyat bermasa, o'quvchilar bilimiga, tafakkuriga, xarakteriga salbiy ta'sir qilishi mumkin. O'qituvchi nutq borasida hamмага o'rnak bo'lib, o'z mahoratini, innovatsion usullarni mahorat bilan namoyish etadi [7;9-bet].

O'quvchilarni darsni qay darajada o'zlashtirish bevosita o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq. O'qituvchi, avvalo, quyidagicha o'z pedagogik vazifalarini belgilab olishi zarur:

– ta'lim maqsadlarini tahlil etish;

– o'quv predmeti mazmunini aniqlash;

– ta'lim oluvchining dastlabki bilim darajasini aniqlash;

– o'quvchining psixologik holatini hisobga olish.

Ushbu vazifalarga amal qilinsa o'qituvchi lingvomadaniy yondashuv asosida darsni tashkil etgan hisoblanadi.

Fiziologiya va ruxshunoslik ilmlarining ta'kidlashicha, inson hech qachon birday iqtidorli bo'lib tug'ilmaydi, uning bilimlarini qabul qilish, tushunish va xotirasida saqlab qolish qobiliyati har turli bo'ladi. Bunday imkoniyatlar har kimda har xil bo'lib, ular yosh qo'shilishi bilan o'zgarib, maxsus mashqlar orqali ularni takomillashtirsa bo'ladi. Shu fikrlardan kelib chiqsak, dars berishdan oldin har bir o'qituvchi ta'lim

oluvchilar ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni yaxshi bilishi shart. Undan tashqari, u har bir bolaning bilimlarni qabul qilish va xotirasida saqlab qolish qobiliyatini, shu kungacha to'plagan bilimlarining turi va hajmidan xabardor bo'lishi lozim. Shundagina uning o'quvchilarga ko'rsatgan pedagogik ta'siri samara beradi [8;42-b.]. Chindan ham o'qitish jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyati, qiziqishi, xarakteridan kelib chiqib yondashish kerak.

Ta'lim jarayonida quyidagi tamoyillarga amal qilgan holda dars tashkil qilinsa, o'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani yanada rivojlantirgan bo'lamiz: faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik, bilimlarning mustahkam bo'lishi, ilmiylik, nazariya va amaliyotning bog'liqligi. Bu tamoyillarning ichida ko'rgazmalilik tamoyili juda muhim. Sababi, ko'rgazmalilik tamoyili o'quv materialini yaxshi o'zlashtirish uchun verbal va noverbal ko'rgazmalilik foydalanish bilan bog'liq tamoyil hisoblanadi. Verbal ko'rgazmalilik og'zaki yoki yozma shakldagi matn so'zi, boverbol ko'rgazmalilikka esa sxemalar, turli xil illustratsiyalar va hokazolar kiradi.

Lingvomadaniy yondashuvning asosiy maqsadlari quyidagicha:

- o'quvchilarda o'quv mashg'ulotlari davomida til va madaniyatga doir so'zlarni o'rgatish;
- lingvomadaniy so'zlarni o'quvchilar nutq jarayonida tushungan holda qo'llashini o'rgatish;
- lingvomadaniy so'zlarni o'rgatish orqali o'quvchilarda aqllilik, odoblilik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, Vatanga muhabbat, insonparvarlik kabi ijtimoiy sifatlarni shakllantirish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta'lim-tarbiya jarayonida qatnashuvchi barcha subyektlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lishi lozim. Agar biri ikkinchisini to'liqtirmasa, belgilangan maqsad va vazifalar bajarilmaydi, dars samarasiz bo'ladi.

**Xulosa.** Lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish uchun o'qituvchi o'zbek tili grammatikasini yaxshi bilishdan tashqari, pedagogika, psixologiya, metodika, madaniyatshunoslik kabi sohalaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak. Aks holda, ko'zlangan maqsad va vazifalar o'z samarasini bermaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Воробьев В.В. Лингвокультурология. М., изд-во РУДН, 2008.
- (2). Шаклеин В.М. Лингвокультурологический аспект общеславянского культурного наследия. Славянские языки и культуры в современном мире. М., "МАКС Пресс", 2009.
- (3). В.Н.Телия. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., "Языки русской культуры", 1996.
- (4). Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие для студ.высш.учеб. заведений, М., Издательский центр "Академия", 2001.
- (5). N.Mahmudov. O'xshatishlar–obrazli milliy tafakkur mahsuli. "O'zbek tili va adabiyoti", Toshkent, 3-son.
- (6). D.Xudoyberganova. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini. Toshkent, 2015.
- (7). Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik, Toshkent, 2019.
- (8). H.To'rayev, K.Eshquvvatov, F.Boynazarov. Yangi pedagogik texnologiya asoslari. Falsafa va huquq instituti nashriyoti, Toshkent, 2007.
- (9). Bo'ri Ziyomhammadov. Pedagogika. Toshkent, 2006.

#### Avezbayeva Jamila (Berdaq nomidagi QQDU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida assistenti) NASRIY ASARLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARNING ADABIY-ESTETIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya.** Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida nasriy asarlarni o'qitishdan maqsad ma'naviy yetuk, estetik jihatdan sezgir shaxsni tarbiyalash, badiiy adabiyot orqali o'quvchilarning adabiy-estetik kompetensiyalarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** kognitiv faoliyat, adabiy-estetik tarbiya, idrok turlari, individual tafovutlar, eksperimental o'qitish, konseptual yondashuv, ta'lim integratsiyasi.

#### Авезбаева Жамила (КГУ имени Бердаха, ассистент кафедры узбекского языка и литературы) ФОРМИРОВАНИЕ ЛИТЕРАТУРНО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧЕНИКОВ ПУТЕМ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРОЗАИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

**Аннотация.** В статье рассматривается цель преподавания прозаических произведений в общеобразовательной школе – воспитать духовно зрелую, эстетически чувствительную личность, сформировать литературно-эстетические компетенции учащихся посредством художественной литературы.

**Ключевые слова:** познавательная деятельность, литературно-эстетическое воспитание, типы восприятия, индивидуальные различия, экспериментальное обучение, концептуальный подход, образовательная интеграция.

Avezbayeva Jamila (Assistant teacher of the Department of Uzbek language and literature of Karakalpak State University named after Berdak)

## FORMATION OF LITERARY AND AESTHETIC COMPETENCIES OF STUDENTS BY TEACHING PROSE WORKS

**Annotation.** The article discusses the purpose of teaching prose works in general secondary schools is to educate a spiritually mature, aesthetically sensitive person, to form literary and aesthetic competences of students through fiction.

**Key words:** cognitive activity, literary-aesthetic education, types of perception, individual differences, experimental teaching, conceptual approach, educational integration.

**Kirish (Introduction).** Adabiy-estetik tafakkur shaxsni har tomonlama kamol toptirish omili sifatida soʻz sanʼatining tarbiyaviy taʼsirini amalga oshirish shartlaridan hisoblanadi. Ziyoli kishilar tajribasi sanʼatning mazmunini oʻzlashtirish, muallif fikri va qahramonlar tuygʻularini his qilish uchun ham muhim. Ilmiy (konseptual) va badiiy (majoziy) tafakkur kognitiv faoliyat bilan chambarchas bogʻliqlikda oʻzaro taʼsirlashadi.

Adabiyotning inson ruhiyati, dunyoqarashi, xulq-atvori, nutqiy rivojlanishi, oila va jamiyatdagi oʻrniga taʼsirini keng koʻlamda koʻrib chiqish, adabiy taraqqiyotni badiiy-estetik tarbiya tushunchasiga “tarkibiy qism” sifatida kiritish lozim. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari adabiyot darslari mazmuni, oʻqitish usullari, avvalo, milliy va jahon adabiyoti namunalari qanday va nima maqsadda oʻqitish hamda badiiy asarlarning tanlanishiga bogʻliq. Adabiyot oʻqitishdan maqsad maʼnaviy yetuk, estetik jihatdan sezgir shaxsni tarbiyalash, degan fikr qayta-qayta taʼkidlanadi. Bunda kitobxonni tarbiyalash maqsadi emas, balki badiiy adabiyot orqali uning zamiridagi maʼnaviy boylikni oʻzlashtirish vositasi, yoʻli ham muhim hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Adabiyotning “insonshunoslik” degan taʼrifi koʻpchilikka maʼlum, biroq uning maʼnosi nafaqat dunyoni va insonni bilish, balki ongini ilgʻor gʻoyalar taʼsirida oʻzgartirish orqali atrof-olamga, hayotga, oʻzlikni anglashga toʻgʻri yoʻnaltirish hamdir. “Modomiki, badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon ekan, badiiy adabiyot ham ongga aloqador hodisadir. Faqat bunda bilishning sanʼatga xos yoʻldan boriladi – adabiyot badiiy obraz vositasida ifodalaydi. Shunga binoan, adabiyot ikkiyoqlama hodisa, u sanʼatga ham, ijtimoiy ongga ham birdek aloqador” [1;33-b.].

Yevropa va AQSH maktablarida adabiyotni oʻqitish maqsadi sanʼatning yosh avlodga taʼsiri muammosini maxsus oʻrganish orqali namoyon boʻladi. Bunda yoshlarni estetik tarbiyalash, badiiy asarlarni idrok etishning faolligi va chuqurligi; axloqiy-ijtimoiy tarbiyalash; aqliy gigiyena; sheʼriy nutq bilan tanishtirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, qoʻl mehnati, jismoniy tarbiya, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bogʻliq amaliyot koʻzda tutiladi. Oʻrganilayotgan badiiy asarlarni tahlil qilish va baholash jarayonida oʻquvchilarning bilim, koʻnikma, malaka va qobiliyatlarini shakllantirish faoliyati maqsadlari ustunlik qiladi. AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya kabi rivojlangan davlatlarda adabiyot kursining asosiy maqsadi ona tilini barcha funksiyalari va uslublarida oʻzlashtirish, faol nutq koʻnikmalarini egallash, til orqali badiiy fikrning oʻziga xos xususiyatlariga kirib borishdir. Shu bois adabiyotni oʻrganish jarayonida tarbiya, taʼlim va rivojlanish oʻrtasidagi munosabatlar muammosi muqarrar ravishda yuzaga chiqadi. Bu jihatlarni adabiyotni boshqa fanlar bilan uzviylikda oʻrganish misolida ham koʻrsatish mumkin.

Shaxs, ijtimoiy ong va xulq-atvorni maqsadli shakllantirish sifatida tushuniladigan adabiyot oʻquvchilarni nafaqat taʼlim-tarbiya jarayonida, balki hayotini oilasi va jamiyatda ham munosib tashkil etish yoʻllarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Fikrimizcha, adabiy taʼlim mazmuniga uning muayyan yoʻl bilan oʻrganiladigan va har biri maxsus oʻqitish usullari, jumladan, ijodiy faoliyat tajribasini talab qiladigan barcha elementlarini kiritish zarur. Lekin individual tafvutlar, idrok turlari, tabiiy moyillik va boshqa muammolar jadal ildiz otayotgan hozirgi davrda ularni aniq hal qilish talab etiladi. Adabiy taʼlimning ana shu asosiy maqsadi XIX asr oxirida fransuz maktablarida tashkil etilgan va “matnni tushuntirish” nomi bilan keng tarqalgan metodik tizimda amalga oshirilgan. Xuddi shu jihat Germaniyadagi gimnaziyalar uchun nemis tili dasturida adabiyotni oʻrganish maqsadini ifodalaydi. Bunda badiiy asar matni ustida ishlash, asosan, oʻquvchilarning nutqini rivojlantirish vazifalariga boʻysunadi. Xususan, bolaning nazariy fikrlashini rivojlantirish (“mavhumdan konkretga koʻtarilish”. V.V.Davidov); aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi (P.Y.Galperin) kabi qarashlar eksperimental oʻqitish tizimlarida adabiyotni oʻrganish masalasining shunga mos ravishda hal qilinishi olib keladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** So‘nggi vaqtlarda ayrim metodist va adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘quvchilarning muallif, muallif shaxsi, muallif nuqtayi nazari, kitobxon javobi, faol o‘qitish kabi murakkab sintetik adabiy-nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish, badiiy asarlar tahlili va talqiniga doir xorij tajribalariga asoslanib, milliy ta‘limni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilmoqda [2; 160-b.]. O‘quvchilarda adabiyotga ongli estetik munosabatni shakllantirish jarayonining tipik yosh chegaralarini aniqlashda rivojlanish psixologiyasi va shaxs psixologiyasi ma‘lumotlari alohida o‘rin tutadi. Erta yoshlik davrida insonning dunyoqarashi jadal va chuqur shakllana boshlaydi. Unda axloqiy e‘tiqodlar tizimi tarkib topadi, badiiy didi, fan va san‘atga moyilligi hamda qiziqishlari aniqlanadi. Umumiy va maxsus qobiliyatlar intensiv ravishda rivoj topadi. O‘ziga va atrofida qilargalarga nisbatan tanqidiy munosabati shakllanadi, faol va mas‘uliyatli fuqaroga aylana boradi.

O‘quvchilarning adabiy-estetik kompetensiyalarini shakllantirishda ular o‘quv dasturiga muvofiq o‘rganadigan va mustaqil o‘qiydigan asarlari mazmun-mohiyati e‘tiborga olinadi. O‘tmish mumtoz va zamonaviy adabiy namunalarida o‘quvchilar voqelikning xilma-xil bog‘lanishlari aksini ko‘radilar, ya‘ni, hayotni obrazli takrorlash orqali bilib oladilar. Ular lirik va falsafiy nasr, fuqarolik va muhabbat lirikasi, klassik va zamonaviy dramaturgiyaning turli janrlariga mansub asarlar bo‘lishi mumkin. Bu asarlarda shaxs hayoti tasviri o‘ta murakkabligi, zamon va makon munosabatlari shartli “siljish”lari, voqelik o‘ziga xos ko‘rinishda ochib berilishi, psixologik teranligi, uslubiy shakllarga boyligi yosh kitobxonning adabiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko‘tarish uchun muhim materialdir.

Mumtoz adabiyotni o‘qib-o‘rganish, albatta, katta yoshdagi o‘quvchilar tafakkuri va nutqining rivojlanishi bilan bog‘liq. Og‘zaki va badiiy tasvirda so‘z o‘zining predmetga bog‘liqligida namoyon bo‘ladi, lekin boshqa mavzu mazmuni bilan kontekstual munosabatlarda keng badiiy umumlashmalarni ifodalaydi. Shu bois badiiy obrazni og‘zaki, chuqur va adekvat idrok etish faqat kitobxon-o‘quvchi nutqining zarur darajasida, so‘z bilan ifodalangan yuqori turdagi umumlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lgan holda ham mumkin. O‘quvchi idroki sezgir erda o‘smirlik davrida bu jarayonni ilmiy asoslangan holda boshqarish bosqichlarini imkon qadar to‘g‘ri aniqlash maqsadida batafsil va tabaqalashtirilgan o‘rganish talab etiladi. So‘nggi o‘n yil ichida umumta‘lim maktablarida adabiyot o‘qitish haqidagi bahslar ko‘plab gazeta-jurnallar, ko‘rsatuv va eshittirishlarda doimiy mavzuga aylandi. Munozaralarda badiiy asarni bevosita idrok etish masalalari ham, mazmuni, hatto adabiy ta‘limga bo‘lgan ehtiyoj ham muhokamaga tortiladi. Xususan, bu borada adabiyotshunos Z.Mirzayeva tomonidan o‘zbek adabiyotini o‘qitishning xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlana olmayotganligi sabablari quyidagicha izohlanadi.

*Birinchi*dan, adabiy ta‘lim, jumladan, badiiy asarni o‘qitish yoki o‘rganishga qaratilgan muayyan konseptual yondashuvlarning nazariy asoslari yaratilmayotganligi;

*ikkinchi*dan, fan va ta‘lim integratsiyasi faqat qog‘ozlarda qolib ketayotganligi, metodika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar amaliyotga izchil tatbiq etilmayotganligi, aniqroq qilib aytganda, adabiy ta‘lim va pragmatizm o‘rtasidagi aloqaning butkul uzilib qolganligi;

*uchinchi*dan, yaratilayotgan tadqiqotlar adabiy ta‘limning faqat ichki imkoniyatlari bilan cheklanganligi, milliy adabiy ta‘lim muammolari rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi o‘qitishning ilg‘or tajribalari, boy ilmiy nazariy fikrlar, yondashuvlarning qiyosiy tahliliga asoslanilmaganligi va ayrim holatlarda samarasiz o‘qitish usullari qobiqlaridan chiqib keta olmaslik holatlari va yana bir qator bizga noma‘lum sabablar” [3;26–34-b.].

Bizningcha, so‘nggi sabablar qatoriga ilg‘or o‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilayotgan badiiy asarlarni tushunishga doir yondashuvlarni ommalashtirish tajribasi oqsayotgani, o‘quvchilar adabiyotni faqat kelgusida o‘qishni nufuzli oliygohda davom ettirish uchungina o‘qiyotganini yoki bugungi kunda ma‘lum ma‘noda moddiy rag‘bat ilinjida mutolaa qilayotganini ham kiritish mumkin. Aslida, o‘quvchiga kitobdan tuyg‘ularini ko‘rkamlashtirish, o‘qiganlaridan ma‘naviy-estetik zavq ola bilish, asarda tasvirlangan voqelikdan tegishli xulosa chiqarish orqali katta hayotga o‘zini tayyorlash maqsadida foydalanish muhimligini anglatish bosh maqsad hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Professor Q.Yo‘ldoshev “Zamonaviy filologik ta‘limning yetakchi tamoyillari” haqidagi chiqishida o‘qitishdagi muammolar ildizini ko‘rsatar ekan, bu borada quyidagi xulosalarga keladi: “O‘quvchi muayyan miqdordagi fan haqiqatlarini o‘zlashtirib oladigan obyekt emas, odam-u olamda ro‘y beradigan har qanday voqea-hodisa va holatga o‘z nuqtayi nazari bilan sog‘lom munosabatda bo‘la oladigan shaxs sifatida shakllantirilishi kerak... Maktab adabiyoti uchun adib yoki asarning mavqeyi yoki mashhurliigi emas, balki o‘quvchi ma‘naviyatida shakllantirilishi lozim bo‘lgan ezgu axloqiy sifatni yuzaga keltirishga xizmat qilish darajasi muhim” [4;12–13-b.].

Darhaqiqat, barcha davrlarda ham so‘z san‘ati sifatida adabiyotning rivojlanishi va o‘ziga xosligi ha-

qida tizimli bilimga ega bo'lish masalasi dolzarb sanalgan. Endilikda adabiy asarlarni o'qish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirish; o'quvchilarni kitobga qiziqtirish orqali qahramon va muallifga hamdardlik hissini uyg'otish kifoyaligi haqidagi fikrlar ilgari surilmoqda. Badiiy asarni o'quvchining tayyor bo'lmagan dastlabki idrokiga asoslangan holda, to'liq tahlil qilish, metodistlar fikriga ko'ra, bitta vazifaga – xatolarni tuzatish, birinchi o'qishdan keyin o'quvchilar tomonidan e'tiborga olinmagan va tushunilmagan jihatlarni to'ldirishga bo'ysunadi. Ammo kitobxonlikda ajdodlar tajribalarini o'zlashtirmasdan, badiiy va ijtimoiy hayotga baho bermasdan turib, o'quvchining haqiqiy fikr mustaqilligiga erishish mumkin emas. Fikr mustaqilligi bevosita qalb va ruhiyat tarbiyasi bilan uyg'unlikda kechadi. Zero, bu borada Forobiyning quyidagi fikrlari o'rindir: “Bolada katta imkoniyatlarga ega ko'ngil bor. U his-tuyg'uga, tafakkur orqali anglash xususiyatiga ega. Hissiyot va tafakkur bilan jismlar tushuniladi” [5;79-b.]. Metodist olim R.Keldiyorovning izlanishlarida ham mazkur fikrga yaqinlik kuzatiladi: “Ehtiyot bo'ling, qalb bor” [6;52-b.].

**Annatsiya.** Ushbu ishda ingliz va o‘zbek maqollarining o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi, ularning mavzulari, tuzilishi va madaniy ahamiyati o‘rganildi. Ikkala tildagi maqollar bir-biriga o‘xshash holda sabr, mehnatsevarlik, donolik va halollik kabi universal qadriyatlarni aks ettiradi. Biroq farqli jihatlari madaniy kontekst va tuzilishida namoyon bo‘ladi: o‘zbek maqollari ko‘proq agrar va jamoaviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan bo‘lsa, ingliz maqollari shaxsiy yutuqlar va pragmatizmni ko‘proq ta‘kidlaydi. Shuningdek, o‘zbek maqollari, ko‘pincha, she‘riy va ritmik tuzilishga ega bo‘lsa, ingliz maqollari

sodda va qisqaligi bilan ajralib turadi. Mazkur tadqiqot har ikki xalqning madaniy va lingvistik xususiyatlarini yorqin namoyon etadi.

**Kalit soʻzlar:** ingliz maqollari, oʻzbek maqollari, madaniy qiyoslash, til farqlari, mavzuli tahlil, tuzilish, metafora, jamoaviylik, individualizm, dunyoqarash.

**Сотвалдиева Хилола Мусиновна (Ферганский государственный университет, кафедра практического курса английского языка, доцент; E-mail: 1969xilola@gmail.com)**

### **СХОДСТВО И РАЗЛИЧИЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ**

**Аннотация.** Данная работа посвящена сравнению английских и узбекских пословиц, с акцентом на их сходства и различия в тематике, структуре и культурном значении. Английские и узбекские пословицы часто отражают общие темы, такие как мудрость, терпение, трудолюбие и честность, что говорит об универсальных человеческих ценностях. Однако различия проявляются в культурном контексте: узбекские пословицы более ориентированы на коллективизм и сельскохозяйственную жизнь, подчёркивая важность общинных и моральных ценностей, в то время как английские пословицы акцентируют индивидуальные достижения и прагматизм. Кроме того, узбекские пословицы зачастую обладают ритмической и поэтической структурой, тогда как английские пословицы более краткие и прямолинейные. Этот сравнительный анализ выявляет культурные и языковые особенности, формирующие мировоззрение и ценности каждой из культур.

**Ключевые слова:** английские пословицы, узбекские пословицы, культурное сравнение, языковые различия, тематический анализ, структура, метафора, коллективизм, индивидуализм, мировоззрение.

**Sotvaldieva Khilola Musinovna (Fergana State University, associate professor in the department of Practical English Course Phone; E-mail: 1969xilola@gmail.com)**

### **SIMILARITIES AND DIFFERENCES OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS**

**Annotation.** This paper explores the similarities and differences between English and Uzbek proverbs, focusing on their themes, structure, and cultural significance. Both languages share common thematic elements such as wisdom, patience, work ethic, and honesty, which reflect universal human values. However, differences emerge in the cultural context and structure of proverbs. Uzbek proverbs often reflect an agrarian, collectivist society, emphasizing community and moral virtues, while English proverbs tend to focus on individual success and pragmatism. Additionally, Uzbek proverbs are typically more rhythmic and poetic, whereas English proverbs are more concise and straightforward. This comparative analysis highlights the cultural and linguistic characteristics that shape the worldview and values of each society.

**Key words:** English proverbs, Uzbek proverbs, cultural comparison, linguistic differences, thematic analysis, structure, metaphor, collectivism, individualism, worldview.

**Kirish (Introduction).** Maqollar har bir xalqning madaniyati, urf-odatlari va dunyoqarashini ifodalovchi muhim til birliklaridan hisoblanadi. Ular avloddan avlodga oʻtib, xalqning hayotiy tajribasini, oqilona maslahatlarini toʻplaydi. Har bir xalqning maqollari oʻziga xos boʻlgani bilan, ularning ayrim oʻxshash va umumiy tomonlari ham mavjud. Ingliz va oʻzbek xalqlari turli madaniyatlarga mansub boʻlsa-da, ularning maqollari orqali ayrim umumiyliklarni va farqlarni koʻrish mumkin. Maqollar har bir millatning koʻp asrlik hayotiy tajribasini, aql-idrokini va maʼnaviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim xalq ijodiyoti turlaridan biridir. Maqollar orqali odamlar hayotning turli jabhalaridagi bilim va donolikni qisqa, taʼsirchan ifodalar bilan yetkazishgan. Ingliz va oʻzbek maqollari ham turli ijtimoiy, madaniy va tarixiy voqealarning mahsuli sifatida oʻziga xoslikka ega. Ushbu maqola ingliz va oʻzbek maqollarining oʻxshash va farqli tomonlarini tahlil qilishga qaratilgan. Mazkur tadqiqot orqali madaniy kontekst, tuzilishi va qiymatlar orqali ikki tildagi maqollar oʻrtasidagi oʻziga xosliklar oʻrganiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Ingliz va oʻzbek maqollari boʻyicha adabiyotlarda turli tadqiqotlar mavjud. Masalan, Karl Sendburg kabi tadqiqotchilar ingliz maqollarining tarixiy rivojlanishini va ularning jamiyatdagi taʼsirini oʻrganganlar. Oʻzbek maqollari boʻyicha esa A.Qayumov va T.Shukurov kabi olimlar xalq ijodiyotidagi maqollarning maʼnaviy ahamiyati va ularning oʻzbek adabiy tiliga taʼsirini tadqiq qilganlar. Shuningdek, maʼqullik va axloq-odob masalalarida maqollarning oʻrni ham muhokama qilingan. Har ikki adabiyotda maqollarning ijtimoiy qadriyatlarni saqlash va avlodlarga yetkazish vositasi sifatidagi oʻrni taʼkidlangan.

Ingliz va oʻzbek maqollarini qiyosiy oʻrganish boʻyicha bir qator olimlar izlanishlar olib borishgan. Ular orasida tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega.

I. N.Jabborov oʻzining maqollardagi madaniy va maʼnaviy umumiylikni oʻrganish boʻyicha ishlarida ingliz va oʻzbek maqollari oʻrtasidagi bevosita oʻxshashliklarning sababini umuminsoniy qadriyatlar bilan



bog'laydi. U maqollarning turli xalqlardagi ma'naviy, axloqiy vazifalari bir xil bo'lib, ular inson tajribasi natijasida yuzaga kelganini ta'kidlaydi.

2. Sh.Sharafova o'zining "Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik" nomli asarida maqollarning mazmuni va ularning amaliy qo'llanilishi turli madaniyatlarda qanday shakllanishi va o'xshash jihatlarining asosiy manbalari haqida izlanishlar olib boradi. U maqollarning turli tillardagi farqlari, ko'pincha, madaniy farqlar bilan izohlanishini ta'kidlaydi.

3. A.Bandisen o'zining "Proverbs: A Cross-Cultural Perspective" asarida maqollarni madaniyatlararo qiyosiy tahlil qiladi. Uning fikricha, maqollar xalqlarning tarixiy va ijtimoiy hayotini o'zida aks ettirib, ularni tushunish uchun tarixiy va madaniy kontekstni bilish muhim hisoblanadi. U maqollarning to'g'ri tarjimasini o'sha xalqning madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlaydi.

4. G.Mirzayev o'zbek va ingliz maqollari o'rtasidagi semantik o'xshashliklar haqida tadqiqot o'tkazgan. Uning tadqiqotiga ko'ra, ko'pgina maqollarda hayot haqidagi umumiy tushunchalar, masalan, mehnat, aql, do'stlik kabi mavzular har ikki tilda bir xil ma'noga ega. Biroq, ularning ifoda vositalari va ishlatilishida katta madaniy farqlar mavjud.

5. C.Mieder ham maqollar semantikasi bo'yicha tadqiqotchi bo'lib, "The Wisdom of Many: Essays on Proverbs" nomli kitobida maqollarning turli madaniyatlardagi o'xshash va farqli jihatlarini o'rgangan. U maqollar orqali madaniyatni o'rganishni taklif etadi va har bir maqol ma'lum bir madaniy xususiyatga ega bo'lib, uni to'g'ri tushunish uchun mos kontekstga e'tibor qaratish zarurligini qayd etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).** Ushbu tadqiqotda kontent-tahlil usulidan foydalanib, ingliz va o'zbek tillaridagi turli maqollar o'rganib chiqildi. Ular ma'nosi, tuzilishi va metaforalari bo'yicha qiyoslab tahlil qilindi. Tadqiqotda har bir tildan 50 tadan maqol tanlab olindi va ularning mazmun va kontekst jihatidan o'xshashliklari hamda farqlari o'rganildi. Maqollar ma'nosi, qolipi va ular orqali yetkazilgan g'oyalar negizida tahlil qilindi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tahlil shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek maqollari bir qancha o'xshashliklarga ega. Masalan, ikkala tilda ham hayotga bog'liq sabr-toqat, halollik, mehnat va vaqt qadri kabi umuminsoniy qadriyatlar ifodalangan. Masalan:

- o'zbek maqoli: "Sabr – mevasi shirin";
- ingliz maqoli: "Patience is a virtue".

Biroq, farqli jihatlari ham mavjud. O'zbek maqollari, ko'pincha, jamoaviylik va oilaviy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan bo'lsa, ingliz maqollari ko'proq individualizm va shaxsiy yutuqlarga e'tibor qaratadi. Shuningdek, o'zbek maqollarida ritmik va she'riy tuzilish ko'proq uchrasa, ingliz maqollari sodda va qisqaligi bilan ajralib turadi:

- o'zbek maqoli: "Yaxshilik qil, daryoga tashla";
- ingliz maqoli: "What goes around, comes around".

Maqollar har bir xalqning o'ziga xosligiga bog'liq holda shakllangan bo'lib, ularning mazmuni, qoidalari va ishlatilishida madaniy farqlar kuzatiladi. Masalan, bir xalqdagi hayotiy voqealar va tajribalar boshqa xalqlardagiga qaraganda boshqacha anglashilishi mumkin. Shu boisdan ingliz va o'zbek maqollari o'rtasidagi farqlarni va o'xshashliklarni aniqlash muhim hisoblanadi. Madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida ularni to'g'ri tushunish va tarjima qilishda murakkabliklar kelib chiqishi mumkin.

Madaniyatlar orasidagi farq va o'xshashliklarni inobatga olgan holda, maqollarning mazmuniy tahlili hamda ularning to'g'ri tarjimasiga e'tibor qaratish zarur. Tarjimada maqollarning to'g'ridan to'g'ri mazmuni emas, balki ularning mohiyati va vazifasi aks ettirilishi lozim. Shundagina turli xalqlar o'rtasidagi maqollarni to'g'ri tushunish va madaniyatlararo aloqalarni yaxshilash mumkin bo'ladi.

**Xulosa va takhlflar (Conclusion /recommendations).** Yukoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, ingliz va o'zbek maqollari xalqlar madaniyatining o'zgacha va o'xshash jihatlarini yaqqol aks ettiradi. Mazmun va shakl jihatidan ularning farqlari madaniy farqlarga bog'liq bo'lsa, ayrim umumiyliklar inson hayotidagi umumiy qadriyatlarning yaqinligini ko'rsatadi. Madaniyatlararo muvoqotni yaxshilash uchun maqollarning mohiyati va vazifasini tushunishga, shuningdek, ularning to'g'ri tarjimasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ingliz va o'zbek maqollarining o'xshash va farqli tomonlarini o'rganish madaniy meros va jamiyatning qadriyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ikkala xalqning maqollari ham hayotiy saboqlar, madaniy qimmatlar va ijtimoiy qoidalarni saqlashda muhim o'rin tutadi. Bunda o'zbek maqollarida jamoaviylik va umuminsoniy qadriyatlar ifodalangan bo'lsa, ingliz maqollari shaxsga doir muvaffaqiyat va pragmatizmni ta'kidlaydi. Kelgusidagi tadqiqotlarda ikki xalqning boshqa janrlardagi folklor turlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Жабборов, Н. (2015). Мақолларда маданий ва маънавий умумийлик. Тошкент, "Фан".
- (2). Шарафова, Ш. (2018). Тил ва маданият ўртасидаги ўзаро боғлиқлик. Тошкент, Ўзбекистон Давлат университети нашриёти.
- (3). Bandisen, A. (2004). Proverbs. A Cross-Cultural Perspective. Cambridge: Cambridge University Press.
- (4). Мирзаев, Г. (2019). Семантик ўхшашликлар ва фарқлар: ўзбек ва инглиз мақоллари. Самарқанд, СамДУ нашриёти.
- (5). Mieder, W. (1989). The Wisdom of Many: Essays on Proverbs. Madison: University of Wisconsin Press.
- (6). Қаюмов А., "Ўзбек халқ мақоллари". Тошкент, 2010.
- (7). Сэндбург К. "The American Proverbs and Their Origins". London, 1995.
- (8). Шукуров Т. "Халқ ижодиётидаги маънавий қадриятлар", Тошкент, 2012.
- (9). Mieder W. "Proverbs: A Handbook". Greenwood Press, 2004.

**Rahimova Mehribon Allayarovna (Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti  
1-bosqich tayanch doktranti)**

### **INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI SODDA VA QO'SHMA GAPLARDA MUMKINLIK KATEGORIYASI (MAY, MIGHT, CAN, COULD) IFODALANISHINING SINTAKTIK TAHLILI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tilidagi sodda va qo'shma gaplarda mumkinlik kategoriyasini ifodalagan modal fe'llar qiyosiy tahlil qilinadi. Xususan, may, might, can, could modal fe'llarining asosiy fe'l bilan birikib, sodda va qo'shma gaplarda ishlatilish holatlari ikki til doirasida ko'rib chiqiladi.*

***Kalit so'zlar:** modallik, semantik tuzilmalar, predikat, predikativ leksika, modal konstruktsiya, til birligi, modal iboralar, mumkinlik kategoriyasi, sintaktik tahlil, semantik tahlil.*

**Рахимова Мехрибон Аллаяровна (Ургенчский государственный университет,  
факультет иностранных филологий, 1-й курс докторант)**

### **ВЫРАЖЕНИЕ КАТЕГОРИИ ВОЗМОЖНОСТИ В ПРОСТЫХ И СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЯХ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ (MAY, MIGHT, CAN, COULD) СИНТАКСИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ**

***Аннотация.** В этой статье будет проведен сопоставительный анализ модальных глаголов, выражающих категорию возможности в простых и сложных предложениях английского и узбекского языков. В частности, будут рассмотрены случаи употребления модальных глаголов may, might, can и could в сочетании с основными глаголами в простых и сложных предложениях в обоих языках.*

***Ключевые слова:** модальность, семантические структуры, предикат, предикативная лексика, модальная конструкция, языковое единство, модальные выражения, категория возможности, синтаксический анализ, семантический анализ*

**Rahimova Mehribon Allayarovna (Urganch State University, Faculty of Foreign Philology,  
1st-year PhD student)**

### **THE SYNTACTIC ANALYSIS OF EXPRESSING THE CATEGORY OF POSSIBILITY IN SIMPLE AND COMPOUND SENTENCES IN ENGLISH AND UZBEK (MAY, MIGHT, CAN, COULD)**

***Annotation.** This article will conduct a comparative analysis of modal verbs that express the category of possibility in simple and compound sentences in English and Uzbek. Specifically, it will examine the usage of the modals may, might, can, could in combination with main verbs in both simple and compound sentences in the two languages.*

***Key words:** modality, semantic structures, predicate, predicative lexicon, modal construction, linguistic unity, modal expressions, category of possibility, syntactic analysis, semantic analysis.*

**Kirish (Introduction).** Ushbu maqolaning maqsadi va vazifasi. Ushbu ishda taqdim etilgan tahlil an'anaviy ingliz grammatikalarida tavsiflangan modal yordamchi fe'llarning qanday yo'llar bilan modallik ma'nosini ingliz va o'zbek tillarida ifodalab kelishini keng yoritib berish. Maqolaning vazifasi ingliz va o'zbek tilidagi sodda va qo'shma gaplarda qo'llanilgan mumkinlik kategoriyasini ifodalab kelgan can, could, may, might modal fe'llarining predikat vazifasida kelish holatlari ikki til doirasida semantik va stilistik tahlil qilinadi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, modallik nutqda gapiruvchilarga voqea holatining imkoniyatlariga nisbatan o'z munosabatlarini ifoda etishga imkon beradigan bir jihat, haqiqat yoki realik darajasini yetkazishda muhim rol o'ynaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Ushbu ishda mumkinlik mulohazaning

modallik kategoriyasi sifatida, mumkinlikning umumlashgan ma'nosining bo'lishi ehtimol tutilgan barcha nozik farqlari bilan tushunchaviy kategoriya sifatida ko'rib chiqiladi, ular mumkinlikni haqiqatga aylanishining ma'lum jihatlari va lahzalari bilan munosabatdor bo'ladi. "Mumkinlik va haqiqat (voqelik) – bu bizni qurshab turgan obyektiv borliq harakatining va taraqqiyotining qandaydir bir-biriga bog'liq ikkita ma'lum jihatlardir... Harakatning bu abadiy jarayonida ma'lum mumkinliklarning haqiqatga aylanishi uzluksiz yuz beradi" [1;151-b.]. Mumkinlik mulohaza modelligining kategoriyasi sifatida gapda ifodalangan potensial harakatni bayon qilishni ko'zda tutadi. Ingliz tilida mumkinlik tushunchasi ikkita so'z bilan ifodalanadi: hamma ishlatadigan *possibility* so'zi bilan va *potentiality* termini bilan. Ikkala so'z – lotin tili-dan o'zlashtirib olingan, u yerda ular "power which is potential" ma'nosini bildirar edilar [2;520-b.]. Tadqiqot ko'rsatdiki, *potential* termini hozirgi ingliz tilida "possible as opposed to actual" ma'nosida qo'llaniladi [3;236-b.], identifikator-so'z, u mumkinlik g'oyasini eng umumiy shaklda ifodalaydigan tushuncha. Ushbu maqolaning vazifasiga mumkinlikning/potentiality/ning asosiy modal ma'nolarining hamma turini aniqlash (ta'riflash) kiradi [4;10-b.].

Mumkinlik modalligi/boshqa modalliklar kabi/tilda predikativ asosda amalga oshadi, bu modallik xabarning o'zining mavjudligining sharti hisoblanadi. [5;9-b.]. Mumkinlik modalligi – bu kesimda amalga oshadigan ma'lum modal ma'nolarning to'plamidir, bu subyektning mulohaza predikati bilan aloqasining xarakterini va mazmunini tasdiqlovchi modallikning mantiqiy tabiatining o'zidan kelib chiqadi. Modallik ma'nolarning kompleksi sifatida tilde, eng avvalo, fe'ning leksik ma'nosida va xabarning vazifasini amalga oshiruvchi predikativ vazifadagi so'zlarning semantikasida ifodalanganligi sababli, mumkinlikni ifodalashning material vositalari sifatida, birinchi navbatda, ushbu tushunchani ifodalashning predikativ vositalarini tadqiq qilish zarur tuyiladi.

"Modallik kategoriyasining morfologik yo'llar bilan ifodalanishida german tillarida ham mayllar asosiy til vositasi sifatida katta rol o'ynaydi. Masalan, ingliz tili an'anaviy grammatikasida uchta mayl bor (aniqlik, buyruq va istak mayllari). Mayl kategoriyasining modallik xususiyati va uning qo'llanishi haqida ingliz tili mutaxassislari o'z fikrlarini ilmiy va amaliy jihatdan bayon qilishgan. J.Yakubovning fikricha, «modallik, umuman, gapning biror bo'lagiga tegishli bo'lmasdan, balki u gapning umumiy mazmunini qamrab olish xususiyatiga ega. Predikativlik aloqasi gapning mazmunini aniqlab keladi, ammo u hech qachon gapning ma'lum bir qismiga emas, balki uning umumiy mazmuniga tegishli bo'ladi. Ammo, bizningcha, modallik xususiyati so'zlovchining o'z gapiga bo'lgan munosabatini tavsiflamaydi" [6;83-b.].

"Modallik gapdagi voqealikka ifodalovchi muallifning munosabati bilan bog'liq" [6;452-b.] yoki boshqacha qilib aytganda, "muallifning holat to'g'risidagi potensial baholashga bo'lgan munosabati" bilan bog'liq [6;234-b.]. Modal fe'llar bir nechta modallik turlarini, masalan, ehtimollik, imkoniyat, zarurat, majburiyat va boshqalarni ifodalashi mumkin. Modal fe'llar kontekstga qarab turlicha semantik qiymatlarga ega bo'lishi sababli, ularning qo'llanilishi berilayotgan xabarning taklif qiymatini belgilaydi. Biroq, ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, ilmiy matnlarda noto'g'ri modal fe'llardan foydalanilganda, ularning ishonchlilik qiymati pasayadi. Shuning uchun ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan olimlar uchun ba'zi ta'lim materiallari o'quvchilarning ilmiy topilmalar va xulosalarni noaniq deb tushunishidan saqlanish uchun "may", "might" va "could" kabi modal fe'llardan qochishni tavsiya etadi. Shunga qaramay, modal fe'llar ilmiy muloqotda juda keng tarqalgan bo'lib, ular ilmiy maqolalarda barcha so'zlarning taxminan 1%ni tashkil etadi va biotexnologiya, kimyo va fizika magistrlik dissertatsiyalaridagi deyarli barcha fe'llarning 8.1% ni egallaydi. Butlarning ta'kidlashicha, modal fe'llar mualliflarga "natijalardan qanday xulosa chiqarish legitim ekanligi, nimalar bo'lishi mumkin yoki kerakligi, qanday hodisalar ba'zan, umuman, kuzatilishi mumkinligi va boshqalar" haqida ma'lumot berishida muhim omildir. Modal fe'llarning umumiy ingliz tilida, ilmiy maqolalarida va boshqa rasmiy ilmiy yozuvlarda qo'llanilishi keng o'rganilgan bo'lsa-da, olimlar va ilmiy kommunikatorlarning bu subyektivlik, farazlar va shaxsiy bo'lmaganlikni qanday qilib jamoatchilik bilan ilmiy muloqotda ifodalanishi hali o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilm-fanni rivojlantirish, uning dolzarb muammolarini ilmiy tahlil etish to'g'risidagi asarlari, F.Bryuno, V.V. Vinogradov, V.G.Gak, V.Z.Panfilov, Y.S.Stepanov, A.V.Bondarko, Y.E.Kordi va J.A. Yakubovlarning nazariy mulohazalari tadqiqotimiz uchun metodologik asos qilib olindi. Mavzuni yoritishda mantiqiy-semantik, qiyosiy-tipologik, analiz va sintez, distributiv, transformatsion, strukturaviy-semantik va funksional tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Fe'llar o'rtasidagi semantik aloqalarning mavjudligi so'zni, uning mazmunini tashkil qiluvchilarga ajratishni namoyon qiluvchi lug'at ta'riflarini tahlil qilish metodi orqali aniqlanadi. Semantik tashkil qiluvchilarni ajratishning asosiy manbasi bo'lib qarab chiqila-

yotgan Fe'llarning izohli lug'atlardagi ta'riflari, yordamchi manba bo'lib sinonimlar lug'atlarining ma'lumotlari xizmat qiladilar. Shu bilan birga, ma'noni minimal diskret elementlarning semantik tashkil qiluvchilarning to'plami (kompleksi) deb qarab chiqishni ko'zda tutuvchi komponent tahlil prinsipi eng muhim rol o'ynaydi. Fe'llarning semantik aloqasini aniqlash uchun tanlab olingan leksikaning semantikasidagi umumiy komponentlarning mavjudligini aniqlash yetarlidir. Fe'llar o'rtasidagi semantik aloqa ham bitta so'zni boshqasining ta'rifiga kiritish orqali ham bu so'zlarning ta'riflaridagi umumiy komponentlar orqali aniqlanadi. Shu bilan birga, maydonning barcha konstituentlarini aniqlash uchun asos identifikator-fe'llar "may", "might" va "could" potential ma'noni ifodalaydi, bu identifikator-fe'llar mumkinlikning har xil nozik farqlarini so'zlarning umumkategorial ma'nosini aniqlash uchun o'ziga xos o'lchov asbobi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek adabiyoti namunalari misolida mumkinlik ma'nosini ifodalovchi modal fe'llarning predikativ leksika bilan ifodalanishini quyidagi misollar yordamida sintaktik va semantik jihatdan tahlil qilib, ular orasidagi o'xshashliklarni va farqli tomonlarni ko'rib chiqamiz.

*You may depend upon it. Bunga bemaolol tayanishingiz mumkin.*

Yuqoridagi gapda **may** "siz tayanishingiz mumkin" degan ma'noda ishlatilgan, ya'ni bu ishonchli narsa degani. **May** modal fe'li asosiy fe'lining oldidan keladi va harakatning ehtimoligini yoki ruxsatini bildiradi. Sintaktik nuqtayi nazardan, modal fe'l asosiy fe'lining imkoniyat darajasini yoki ruxsatini ifodalaydi. U doim asosiy fe'l bilan ishlatiladi va faqat bosh fe'ldan oldin keladi. **May** so'zi bu yerda ehtimollikdan tashqari muloyim ifodani yaratish uchun qo'llanilgan. Gap "siz bunga tayanishingiz mumkin" degan ma'noni bildiradi. Gapning sintaktik tuzilishi ancha oddiy va quyidagi tartibda qurilgan:

Ega (You) + kesim (may+depend upon)+to'ldiruvchi (it).

Bu an'anaviy gap tuzilishiga mos keladi, modal fe'l orqali harakatning ehtimoli ifodalansa, asosiy fe'l gapning asosiy harakatini ko'rsatadi.

1) O, I **could** weep forever! Oh, men bir umr ko'z yosh to'kishim **mumkin**.

Yuqoridagi misolda "could" modal fe'l sifatida ishlatilgan bo'lib, harakatning ehtimoligini, mumkinligini ifodalaydi. Modal fe'l odatda asosiy fe'l bilan birgalikda ishlatiladi va asosiy fe'lga imkoniyat yoki potensial ma'nosini beradi.

Sintaktik jihatdan "could" ega (I) va asosiy fe'l (weep) bilan bog'lanib, gapning modal holatini yaratadi. "Weep" bu gapdagi asosiy fe'l bo'lib, harakatni ifodalaydi. Bu fe'l yig'lash (cry) harakatini bildiradi va bu yerda gapiruvchining mumkin bo'lgan his-tuyg'ulari haqida so'z yuritiladi. Sintaktik jihatdan "weep" asosiy fe'l bo'lib, ega va modal fe'l bilan birgalikda gapning markaziy harakatini ifodalaydi. "Weep" gapning predikati vazifasini bajaradi. Sintaktik tahlil natijasida "O, I **could** weep forever!" jumlasida oddiy tuzilishga ega: Ega (I) + kesim (could+weep) + payt holi (forever). Bu yerda undov so'z "O" emotsional ohang yaratish uchun ishlatilgan va gapning asosiy qismlariga grammatik jihatdan bog'lanmagan.

1) **How can one live like that? Inson shunday yashashi mumkinmi?**

Ushbu gap sintaktik tahlilga ko'ra, so'roq gap va savolning mantiqiy mazmuni shunday yashash tarzining imkoniyati haqida so'raydi. Bu yerda gapda shaxsning biror muayyan holat yoki sharoitda qanday yashashi mumkinligi haqida savol berilmoqda. **Can** modal fe'li bu gapda harakatning imkoniyatini bildiradi va "mumkin" so'zi bilan ifodalanadi. Bu so'zning semantik vazifasi imkoniyat yoki ehtimollikni ko'rsatadi. Ya'ni, bu so'z orqali gapda aytilayotgan holatning mumkin bo'lish darajasi haqida so'ralyapti.

Payt holi (How)+kesim (can)+ega (one)+kesim (live)+ravish holi (like that)?

Gapning sintaktik tuzilishiga ko'ra, **can** modal fe'li gapda **asosiy fe'l** bilan bog'liq va **kesimning** bir qismi hisoblanadi. Yuqoridagi gap ma'nosiga ko'ra, modal fe'l yashash imkoniyatiga shubha yoki ajablaniшни ham ifodalaydi;

3) The soldiers **might** come any day, they could destroy everything. Askarlar hohlagan payti kelishlari, hamma narsani vayron qilishlari mumkin.

Berilgan gapning **sintaktik tahlili** ikki qismlik murakkab gap sifatida amalga oshiriladi, chunki ikkita mustaqil gap bir-biri bilan bog'langan. Har bir qismni alohida tahlil qilib chiqamiz.

The soldiers might come any day – birinchi gapda might modal fe'li mumkinlik, ehtimollik ma'nosini ifodalab kelgan, ya'ni, askarlar har qanday kunda kelishi mumkinligi haqida gapirilmoqda. **Might come** birgalikda **kesimni** tashkil etadi va harakatning ehtimoliy tarzda sodir bo'lishini bildiradi;

4) They **could** destroy everything – ikkinchi mustaqil gapda **modal fe'l could** harakatning imkoniyati yoki ehtimolini bildiradi. **Could** yordamchi fe'li asosiy fe'l (destroy) bilan birgalikda kesimni tashkil etadi va askarlar hamma narsani vayron qilishlari mumkin deb tarjima qilinadi. Gap umumiy mazmunan kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tahdid yoki xavfni bildiradi. Semantik jihatdan, gapda harakat sodir

bo'lishi ehtimoli haqida taxmin qilinmoqda. Umuman olganda, gap o'zida aniq harakat sodir bo'lishidan ko'ra, unga bo'lgan xavotir va ehtimollikni ifodalaydi;

5) If it rains tomorrow, we **might** have to cancel the picnic. Agar ertaga yomg'ir yog'sa, sayohatni qoldirishimizga to'g'ri keladi.

Mazkur gap shart ergash gapli qo'shma gap bo'lib, ikki qismdan shartli qism (if clause) va natija qismi (main clause) dan tashkil topgan. Qo'shma gap „If it rains tomorrow“ (Agar ertaga yomg'ir yog'sa) qismidan boshlanadi va shartni ifodalaydi. Gapda hozirgi zamonni ifodalovchi zamon ishlatilgan bo'lsa-da, voqea-hodisa kelajak zamonda bo'lishi kutilmoqda;

6) „We **might** have to cancel the picnic“ jumlasida gapning bosh, mustaqil qismi bo'lib gapdagi „might“ modal fe'li ehtimollikni ko'rsatadi, „have to“ esa zaruratni ifodalaydi. Bu ikkita element birga kelganda, kelajakdagi shartli vaziyatni va bu vaziyatga qarab qanday harakat qilish kerakligini aks ettiradi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, ingliz va o'zbek tillaridagi modal fe'llar o'rtasida qiyosiy tahlil, ularning qo'llanilishi, semantik, grammatik va pragmatik jihatlarini o'z ichiga oladi. Har ikki tilda modalitetni ifodalash usullari va ularning kontekstdagi roli o'ziga xosdir, bu esa tilning tuzilishi va muloqot madaniyatiga ta'sir qiladi. Modal fe'llar ko'pincha ehtimollik, ruxsat, majburiyat yoki qobiliyatni ifodalaydi. Ular yordamchi fe'l sifatida ishlatiladi va asosiy fe'l bilan birgalikda keladi va gapning predikatini tashkil qiladi. Modal ifodalar ko'proq qo'shma fe'l (masalan, „qilsa bo'ladi“, „qilmasam bo'lmaydi“) orqali ifodalanadi. O'zbek tilida modal ifodalarning zamon, shart va shaxsga bog'liq holda ko'plab variatsiyalari mavjud. Modal vositalar, ko'pincha, aniqlik darajasiga ega (masalan, „might“ ehtimoliy, „must“ esa majburiyatni bildiradi). Bu, o'z navbatida, gaplarning ma'nosini kuchaytiradi. Modal fe'l va asosiy fe'l orasidagi munosabat, strukturaviy jihatdan aniq belgilangan. Modal fe'l, albatta, yordamchi sifatida qo'llaniladi. Modal ifodalar, ko'pincha, qo'shma tuzilmalar orqali amalga oshiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

- (1). Категории материалистической диалектики. М., 1976, с. 151.
- (2). Em. Klein. A comprehensive etymological dictionary of the English language. Amsterdam, 1966–1967, p. 520.
- (3). Eric Partridge. Usage and Abusage. Penguin Reference Books. 1973, p. 236.
- (4). Ломаев Б.Ф. Парадигматические и синтагматические характеристики предикативной лексики, выражающей модальность возможности в современном английском языке. Автореф. дис. . канд. филол. наук, Калининский гос. ун-т, 1974, с. 10.
- (5). Хлебникова И.Б. Сослагательное наклонение (как общелингвистическая проблема). Калинин, Калининский ГПИ им. М.И.Калинина, 1971, с. 9.
- (6). Yaqubov J.A. Modallik kategoriyasining mantiq va tilda ifodalanish xususiyatlari. T., 2006, 83-bet.
- (7). John Lyons. Semantics. “University of Cambridge”, 2012, p. 452.
- (8). Leech G., Svartvik J.A Communicative Grammar of English (3rd ed.), Routledge, 1975, p. 45.

**Kushmanov Jasur Baxodirovich (Urganch davlat univeristeti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd),**

**Yo'ldosheva Maftuna Ravshanbek qizi (Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti;  
maftun.0771@gmail.com)**

#### **O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA ZOONOMIK FRAZELOGIZMLAR TADQIQI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola o'zbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlarni o'rganishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotda ikki til orasidagi frazeologizmlar o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar tahlil qilinadi. Maqola, tilshunoslikda frazeologizmlarning ahamiyatini ta'kidlab, madaniy va til o'rtasidagi bog'liqlikni yoritadi. Tadqiqot natijalari tarjimonlar va til o'rganuvchilari uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** zoonomik frazeologizmlar, o'zbek tili, ingliz tili, madaniy bog'liqlik, tilshunoslik, frazeologik tadqiqot, tarjima nazariyasi.

#### **ИССЛЕДОВАНИЕ ZOONИМИЧЕСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ**

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению зоонимической фразеологии в узбекском и английском языках. В данном исследовании анализируются сходства и различия фразеологизмов двух языков. В статье подчеркивается значение фразеологизмов в языкознании и проливается свет

на взаимоотношения культуры и языка. Результаты исследования могут быть полезны переводчикам и изучающим языки.

**Ключевые слова:** зоономическая фразеология, узбекский язык, английский язык, культурная связь, лингвистика, фразеологическое исследование, теория перевода.

### STUDY OF ZONOMIC PHRASEOLOGISMS IN UZBEK AND ENGLISH

**Annotation.** This article focuses on the study of zoonomic phraseology in Uzbek and English languages. This study analyzes the similarities and differences between the phraseologisms of the two languages. The article highlights the importance of phraseologisms in linguistics and sheds light on the relationship between culture and language. The results of the study can be useful for translators and language learners.

**Key words:** zoonomic phraseology, Uzbek language, English language, cultural connection, linguistics, phraseological research, translation theory.

**Kirish.** Frazeologizm – bu ikki yoki undan ortiq soʻzlarning oʻziga xos maʼno beradigan, umumiy tushunchani ifodalovchi barqaror birikmasi. Frazeologizmlar oʻziga xos semantik yaxlitlikka ega boʻlib, ularning har bir komponenti alohida maʼno anglatmaydi yoki oʻz maʼnosini yoʻqotadi. Ular, odatda, xalq orasida keng tarqalgan va maʼlum bir til yoki madaniyatga xos boʻlib, koʻpincha, obrazli yoki qiyosiy maʼnolarni oʻz ichiga oladi.

Oʻzbek tilida “yurak yutmoq” frazeologizmi “jasorat koʻrsatmoq”, “qoʻrqmaslik” maʼnosini anglatadi. Ingliz tilidagi “to kick the bucket” frazeologizmi esa “vafot etmoq” maʼnosini beradi. Bu iboralar oʻz tarkibiy qismlarining maʼnosidan koʻra, bir butun holda oʻziga xos obrazli maʼnoni ifodalaydi [1;606–607-b.].

Frazeologizmlar har bir tilning boyligi boʻlib, ular xalqning tarixiy, madaniy, va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bogʻliqdir. Zoonomik frazeologizmlar, yaʼni, hayvonlarga oid frazeologik birliklar har bir millatning dunyoqarashi, hayot tarzini ifodalaydi va ularning madaniyatini yoritishda muhim rol oʻynaydi. Oʻzbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlar orasidagi farqlar va oʻxshashliklar mazkur maqolaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Bu til birikmalarining oʻrganilishi, xalqaro tilshunoslikda madaniy bogʻliqlikni chuqur anglash va tarjima nazariyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada oʻzbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlarning lingvistik va madaniy jihatlari qiyosiy tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ushbu maqolaning adabiyotlar tahlili qismi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil tilshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va frazeologiya boʻyicha mavjud ilmiy adabiyotlarni chuqur oʻrganishni talab qiladi. Shu jumladan, oʻzbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlar haqida yozilgan asarlar, monografiyalar, maqolalar va dissertatsiyalarni tahlil qilish orqali ularning kelib chiqishi, tuzilishi, semantikasi va qiyosiy tahlil masalalari haqida batafsil maʼlumot beriladi.

Avvalo, frazeologizmlar va zoonomizmlar boʻyicha klassik asarlar oʻrganiladi. Ingliz tilidagi frazeologizm nazariyasining yetakchi olimlari sifatida Charlz Fillmor, Rayzman Reji va V.V.Vinogradovning asarlari diqqatga sazovor. Ushbu adabiyotlar ingliz tilidagi frazeologik birliklarning tuzilishi va funksiyalari, ularning semantik xususiyatlari haqida keng qamrovli maʼlumot beradi.

Tahlilning yana bir muhim jihati bu zoonomik frazeologizmlarning qiyosiy-tahliliy oʻrganilishi bilan bogʻliq. Bunda oʻzbek va ingliz tillarida uchraydigan zoonomik frazeologizmlar oʻrtasidagi semantik va funksional farqlar va oʻxshashliklar aniqlanadi. Shuningdek, frazeologizmlarning madaniy kontekstga bogʻliq holda shakllanishi va ularning milliy xususiyatlari alohida tahlil qilinadi.

Shuningdek, frazeologik birliklar va zoonomizmlarning tarjima jarayonidagi oʻrni va qiyinchiliklari ham muhokama qilinadi. Ingliz tilidagi zoonomik frazeologizmlarni oʻzbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar, ularning ekvivalentlarini topish va ularni adekvat tarzda ifodalash masalalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tarjima jarayonida madaniyatlararo farqlar va ularning taʼsiri ham koʻrib chiqiladi [2;190–191-b.].

Oʻzbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlarning tahlili zamonaviy tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik sohalaridagi tadqiqotlar bilan boyitiladi. Adabiyotlar tahlili qismi bu maqolaning ilmiy asosi boʻlib, u frazeologik birliklarning madaniy va semantik xususiyatlarini, ularning oʻziga xosligini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ushbu tahlil orqali maqola oʻquvchilarga oʻzbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlar haqida toʻliq va aniq tasavvur bera oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolaning tadqiqot metodologiyasi qismi tadqiqotning ilmiy asoslari, qoʻllanilgan usullar va tadqiqot jarayonining tashkil etilishi haqida maʼlumot beradi. Ushbu boʻ-

limda tadqiqotning obyekti va predmeti, tadqiqot usullari, materiallar hamda tahlil qilingan ma'lumotlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlar tanlanadi. Tadqiqot predmeti esa ushbu frazeologizmlarning tuzilishi, semantikasi, funksional xususiyatlari va madaniy kontekstdagi o'rganilishi hisoblanadi. Frazeologizmlarning zoonomik turiga urg'u berilgan bo'lib, hayvon nomlari ishtirokidagi barqaror iboralar o'rganiladi. Misol uchun, "bo'ri" va "qo'y", bu hayvonlarning o'rtasida farq salbiy va ijobiylik uchun ham, qo'y, ko'pincha, yuvosh, beozor rolni ijro etadi, bo'ri esa, aksincha. Bizning quyida keltirgan jadvalimizda ham ushbu hayvonlar ishtirok etgan ibora taqdim etilgan [3].

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlar to'plandi va ularning tuzilishi, semantik xususiyatlari deskriptiv (ta'riflovchi) usul yordamida tahlil qilindi. Bu usul orqali frazeologizmlarning grammatik va semantik jihatlari haqida umumiy ma'lumot berildi.

1. Qiyosiy-tahliliy usul. O'zbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlarning o'xshash va farqli jihatlari aniqlash uchun qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul frazeologizmlarning ikki tilda qanday ifoda qilinishini, ularning semantik yuklamalari va madaniy konnotatsiyalarini aniqlashda yordam berdi.

2. Etnolingvistik tahlil. Zoonomik frazeologizmlarning madaniy va milliy xususiyatlarini o'rganishda etnolingvistik tahlil qo'llanildi. Bu usul orqali frazeologizmlarning kelib chiqishi va ularning milliy madaniyatdagi o'rnini aniqlash mumkin bo'ldi.

3. Kontekstual tahlil. Frazeologizmlarning turli kontekstlarda qanday qo'llanilishini o'rganish uchun kontekstual tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul frazeologizmlarning mazmuni va ular orqali ifodalayotgan fikrning turli kontekstlarda qanday o'zgarishini o'rganishga imkon berdi.

4. Statistik tahlil. Tadqiqot davomida o'zbek va ingliz tillarida uchraydigan zoonomik frazeologizmlar soni, ularning turli janrlardagi qo'llanishi, sinonim va antonim frazeologizmlar o'rtasidagi nisbati statistik tahlil yordamida o'rganildi.

**Materiallar va manbalar.** Tadqiqotda o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik lug'atlar, badiiy adabiyotlar, xalq og'zaki ijodiyoti namunalari, hamda ilmiy tadqiqotlar asosiy material sifatida qo'llanildi. Ingliz tilidagi zoonomik frazeologizmlar uchun Oksford frazeologik lug'ati, Kembrij frazeologik lug'ati kabi manbalar asos sifatida tanlandi. O'zbek tilidagi zoonomik frazeologizmlar esa, o'zbek frazeologik lug'ati, xalq maqollari va matallarini o'z ichiga olgan manbalar orqali o'rganildi.

**Tadqiqot jarayoni.** Tadqiqot jarayonida, avvalo, zoonomik frazeologizmlar to'plandi va ularning semantik tahlili o'tkazildi. So'ngra, qiyosiy tahlil yordamida ikkala tildagi frazeologizmlarning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning madaniy konnotatsiyalari izohlandi. Shu bilan birga, frazeologizmlarning turli kontekstlarda qo'llanishi va ularning tarjima jarayonidagi xususiyatlari ham o'rganildi.

Tadqiqot metodologiyasi qismi tadqiqotning ilmiy asosi bo'lib, uning natijalarining haqqoniyligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu metodlar yordamida tadqiqot natijalari puxta va ishonchli bo'lib chiqdi [4;2-3-b.].

#### Tahlil va natijalar

Inglizcha frazeologizm	Ma'nosi	O'zbekcha frazeologizm	Ma'nosi
A wolf in sheep's clothing	Xiyonatkor, ikkiyuzlama	Qo'y terisiga o'ralgan bo'ri	Xiyonatkor, ikkiyuzlama
To kill two birds with one stone	Bir ish bilan ikkita foyda olish	O'q bilan ikki quyonni urmoq	Bir ish bilan ikkita foyda olish
A dark horse	Yashirin iste'dodli odam	Suv ostidan suv kechib chiqqan ot	Ko'p narsa yashirgan odam
Let the cat out of the bag	Sirni oshkor qilish	Og'izdan lop etib chiqib ketmoq	Sirni oshkor qilish
The lion's share	Eng katta ulush	Sherning ulushi	Eng katta ulush
To smell a rat	Xiyonatni sezish	Ishqilib, kal xoin bo'lmasin	Xiyonatni sezish
To be like a fish out of water	Noqulay vaziyatda bo'lish	Suvdan chiqqan baliqday bo'lmoq	Noqulay vaziyatda bo'lish
To have ants in one's pants	Bezovta bo'lish	Ignani uchida o'tirgandek	Bezovta bo'lish
Crocodile tears	Soxta yig'i	Timsoh ko'z yoshlari	Soxta yig'i

To be a sitting duck	Himoyasiz, oson nishonga aylanish	Himoyasz qolmoq	Himoyasiz, oson nishonga aylanish
----------------------	-----------------------------------	-----------------	-----------------------------------

**Farqlar.** Madaniy nuqtayi nazar. Har ikkala til ham hayvonlarni ishlatib, insoniy xususiyatlar va holatlar haqida gapiradi, lekin turli madaniy kontekstlar tufayli hayvonlar har xil ijobiy yoki salbiy ma'nolarda ishlatilishi mumkin.

Tarixiy ta'sir. Ingliz tilidagi frazeologizmlar, ko'pincha, Angliya va G'arb tarixidan kelib chiqqan, o'zbek tilidagi frazeologizmlar esa Markaziy Osiyo va o'zbek xalqining turmush tarzidan ilhom olgan.

Hayvonlarning turlari. Ba'zi frazeologizmlar o'z tilidagi an'anaviy hayvonlar bilan bog'liq. Masalan, "ant" (chumoli) va "mushuk" ikki tilda turlicha ishlatilishi mumkin.

Bu misollar o'zbek va ingliz tillaridagi zoonomik frazeologizmlarning qanchalik o'xshash va farq qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Har ikkala tilning o'ziga xos madaniyati va tarixiy tajribasi tufayli bu frazeologizmlar turlicha ifodalangan [5;246–250-b.].

**Xulosa va takliflar.** Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz tillarida zoonomik frazeologizmlar qiyosiy tahlil qilingan bo'lib, ikki tilda ham hayvonlar obraziga asoslangan iboralarning keng tarqalganligi aniqlangan. Ushbu frazeologizmlar milliy madaniyat va an'analarning o'ziga xosligini aks ettirgan holda, muayyan vaziyatlarda inson xarakteri va turmush tarzini ifodalashda qo'llaniladi. Ingliz va o'zbek tilidagi zoonomik frazeologizmlar, ko'pincha, o'xshash kontekstlarda ishlatilsa-da, ularning ba'zilar turlicha ma'nolar va obrazlar orqali talqin qilinadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til o'rganishda frazeologizmlarning madaniy va tarixiy ildizlarini tushunish muhimdir. Zoonomik frazeologizmlar ikki tilda ham muloqotda foydalanish uchun boy madaniy ma'lumot manbayi hisoblanadi.

1. Tilshunoslik sohasida tadqiqotlar davom ettirilishi. Zoonomik frazeologizmlarning kelib chiqishi va ularning madaniy kontekstdagi o'rnini chuqurroq o'rganish zarur. Bu esa frazeologizmlarni to'g'ri va samarali ishlatishga yordam beradi.

2. O'quv dasturlariga kiritish. Ingliz va o'zbek tillarini o'rganishda zoonomik frazeologizmlarni o'quv dasturlariga kiritish til o'rganuvchilarga nafaqat lug'at boyligini oshirish, balki madaniy farqlarni ham tushunishga imkon yaratadi.

3. Frazeologizmlar lug'atini yaratish. Ingliz va o'zbek tillaridagi zoonomik frazeologizmlarni o'z ichiga olgan ikki tilli lug'atni yaratish foydali bo'ladi. Bu lug'at til o'rganuvchilar, tarjimonlar va lingvistlar uchun muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

4. Madaniy almashinuvlar. Frazeologizmlar orqali madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish uchun madaniy almashinuv dasturlarini rivojlantirish lozim. Bu, o'z navbatida, til va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tushunishga hissa qo'shadi.

5. Zamonaviy texnologiyalar yordamida tadqiqotlar: Zoonomik frazeologizmlarni o'rganishda zamonaviy kompyuter lingvistikasi va korpus texnologiyalaridan foydalanish frazeologik birliklarning avtomatik tahlili va klassifikatsiyasini soddalashtiradi [7].

6. Bu takliflar orqali zoonomik frazeologizmlarning tilshunoslikdagi o'rni va ulardan samarali foydalanishni yaxshilash mumkin. Bu nafaqat til o'rganuvchilar, balki tarjimonlar va lingvistlar uchun ham katta ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Tojiboev Z. and Uktamova M., Comparative Study of Phraseological Units in English and Uzbek Languages. FSU C., June, 2024.
- (2). Majitova A.T. Phraseological Units and Their Cultural Aspects in English and Uzbek. Tashkent, UzSWLU, 2021.
- (3). Jones, S. (2015). Animal Metaphors in English: A Comparative Study. Their Use and Meaning. London, Routledge.
- (4). Iskandarova N.T. Linguacultural features of the Concept of Phraseology in Uzbek and English. "Экономика и социум", № 5 (108), 2023
- (5). Thompson, G. (2014). The Impact of Cultural Context on the Interpretation of Animal Idioms. New York, Springer.
- (6). Khudayberdieva Z. Comparative Analyses of Phraseological Units in the English and Uzbek. T., 2024, <https://kelajak.bunyodkori.uz>
- (7). Smith, R. (2020). Comparative Phraseology. Animal-Based Expressions in English and Other Languages. Oxford: Oxford University Press.



**Qodirova Munisa Erkinjon qizi (Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti;  
E-mail: Munisakadirova98@mail.ru)**

### **BADIIY NUTQDA SAN'ATGA OID TERMINLARNING FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz adabiyotining nodir asarlaridan bo'lmish Willa Catherning "Song of the Lark" asari misolida badiiy nutqda san'atga oid terminlarning funksional va semantik xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Asar ichidagi san'at terminlari qanday kontekstda qo'llanilishi, ularning badiiy matndagi semantik vazifalari va san'at sohasidagi asosiy tushunchalarni o'quvchiga qanday yetkazishini o'rganish asosiy maqsad qilib olingan. Shuningdek, maqolada san'at terminlarining badiiy nutqda qanday qilib yangi semantik ma'nolar bilan boyishi va o'zaro aloqador tushunchalar orqali matnni yanada chuqurroq o'quvchi idrokiga yetkazishi tahlil etiladi.*

***Kalit so'zlar:** badiiy nutq, san'at terminalogiyasi, semantik tahlil, funksional xususiyatlar, Yilla Keser, to'rg'ay qo'shig'i, musiqiy terminlar.*

**Kodirova Munisa Erkinjon kizi (doktorant Termezskogo gosudarstvennogo universiteta;  
E-mail: Munisakadirova98@mail.ru)**

### **ФУНКЦИОНАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С ИСКУССТВОМ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ**

***Аннотация.** Данная статья посвящена анализу функциональных и семантических особенностей терминов, связанных с искусством, в художественной речи на примере одного из выдающихся произведений английской литературы – романа Уиллы Кэсер «Песня жаворонка». Основной целью исследования является изучение того, как употребляются термины искусства в контексте произведения, их семантические функции в литературном тексте, а также то, каким образом они передают основные понятия искусства читателю. В статье также рассматривается, как художественная речь может обогащаться новыми семантическими значениями через термины искусства и связанные с ними концепции, делая восприятие текста глубже.*

***Ключевые слова:** художественная речь, терминология искусства, семантический анализ, функциональные особенности, Уилла Кэсер, песня жаворонка, музыкальные термины.*

**Kodirova Munisa Erkinjon kizi (Doctoral student of Termez State University; E-mail:  
Munisakadirova98@mail.ru)**

### **FUNCTIONAL-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF ARTIFICIAL TERMS IN ARTISTIC SPEECH (BASED ON THE MATERIAL OF "SONG OF THE LARK" BY WILLA CATER)**

***Annotation.** This article is dedicated to analyzing the functional and semantic features of art-related terms in literary discourse, with a focus on Willa Cather's "Song of the Lark" one of the prominent works of English literature. The primary aim of the study is to examine how art terms are used within the context of the work, their semantic roles in the literary text, and how they convey key artistic concepts to the reader. The article also explores how art-related terms enrich literary language with new semantic meanings and deepen reader comprehension through related concepts.*

***Key words:** literary discourse, art terminology, semantic analysis, functional features, Willa Cather, Song of the Lark, musical terms.*

**Kirish (Introduction).** San'at va tilning o'zaro aloqasi turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi uzluksiz hamkorlikning asosiy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. San'at terminologiyasi har bir davrda texnologiyalar, ijtimoiy jarayonlar va ilmiy yutuqlarning o'zgarishi bilan rivojlanib boradi. Buyuk amerikalik yozuvchi Willa Catherning "Song of the Lark" asari san'at terminlarining badiiy nutqdagi funksional va semantik xususiyatlarini o'rganish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu asarda musiqiy rivojlantirish markaziy o'rinda turib, muallif unda qahramonning ruhiy va ijodiy sayohatini aks ettiradi. Asar tilidagi san'at terminlari nafaqat ma'no jihatidan, balki badiiy matnning semantik boyligi orqali ham o'quvchining qalbiga yanada chuqurroq kirib borishga xizmat qiladi [1;76-b.].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Terminalogiya, xususan, sohaviy terminalogiya sohasida nafaqat jahonda, balki yurtimizda ham bir qator tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borib, o'z tadqiqotlari orqali sohada yechilishi lozim bo'lgan muommalarni bartaraf etganlar. Jumladan: Respublikamizda A.Hojiyev [1], G.S.Hojiyeva [2], G'.Ismoilov [3], U.Tursunov [4], F.Sh.Qodirova [5]; xorijiy mamlakatlarda esa O.N.Nadolskaya [6], N.B.Kuzmina, D.Drobinina, A.Doza, Y.Sorokin, M.Cabre, H. Felber, W.Flood va boshqalar terminologiya sohasiga oid muhim izlanishlarni amalga oshirganlar.

Dunyoda J.S.Rosowski [7], A.Rominess [8] va Sh.O'Brienlar [9] Willa Catherning ijodi hamda uning asarlarini tahlil qilganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Badiiy asardagi san’atga oid terminlarning funksional va semantik tahlil jarayonida badiiy matnda keltirilgan terminlarni yig’ish, ularning semantik va kognitiv tahlilini, shuningdek, har bir terminning alohida funksional ko’rinishini o’rganishda turli tahlil metodlaridan foydalaniladi. Semantik tahlil metodi yordamida terminlarning asardagi ma’no-mazmuni, ularning qahramonlar rivojiga ta’siri va o’quvchi idrokiga qanday yetkazilishi yoritiladi. Funksional tahlil esa san’at terminlarining badiiy nutqda qanday vazifalarni bajarishini o’rganishga qaratilgan. Terminlar badiiy asarda qahramonlar o’rtasidagi muloqotda qanday rol o’ynashi va matnni tushunishda qanday hissa qo’shishini tahlil qilishga ko’maklashadi [6;260-b.].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Quyida keltirilgan jadval orqali Willa Catherning “Song of the Lark” asarida keltirilgan san’atga oid terminlarning semantik tahlili natijalari bilan tanishib chiqishimiz mumkin:

San’atga oid termin	Uning badiiy asarda qo’llanilishi	Semantik mazmuni	O’zbek tiliga tarjimasi
Aria	“Thea stood at the piano, singing an aria from Lucia di Lammermoor. Her voice seemed to fill the room, and for the first time, she felt the true power of her vocal abilities” (p. 102).	Operada solistning kengaytirilgan vokal chiqishi uchun ishlatiladi.	Ariya
Opera	“Archie asked Thea if she had ever thought of singing in the opera, and she admitted that it had been a dream of hers since childhood” (p. 187).	Musiqqa san’atining bir turi, murakkab vokal mahoratni talab etadi.	Opera
Orchestra	“Thea felt the orchestra behind her, supporting her voice, and for a moment, she was part of something much larger than herself” (p. 299).	Musiqiy jamoa haqida gapiriladi, bu termin Thea orkestr oldida chiqish qilayotganda qo’llaniladi.	Orkestr
Mezzo-soprano	“Thea’s voice had developed into a powerful mezzo-soprano, capable of expressing a wide range of emotions” (p. 245).	Thea o’z ovozinining diapazonini muhokama qilganda ishlatiladi.	Mezo-soprano
Vibrato	“Her teacher advised her to work on her vibrato, explaining that it would give her voice more richness and depth” (p. 98.)	Musiqiy termin bo’lib, vokal texnikasi va ovoz chiqishi vaqtida ovozning titroq qilishi sifatida qo’llaniladi.	Vibrato
Symphony	“The symphony was grand and complex, and Thea marveled at how each instrument contributed to the overall sound” (p. 214).	Orkestr asari haqida gapilganda ushbu termin qo’llaniladi.	Simfoniya

Badiiy asarda qo’llanilgan terminlarning funksional tahliliga o’tar ekanmiz, tahlilimiz, asosan, terminlarni stilistik-kontekstual funksiyasiga qaratilganligini ta’kidlab o’tishimiz lozim. Quyida ushbu tahlil natijalari keltirib o’tilgan:

**Aria** – hissiy cho’qqi ifodasi. Kontekstual jihatdan qahramonning vokal yuksalishining timsoli sifatida qo’llaniladi.

**Opera** – qahramonning vokal yuksalishini kontekstual jihatdan ramziy tarzda namoyon qiladi.

**Tenor** – ovozning stilistik jihatdan ta’sirchanligini va qahramonning musiqiy ilhomlanishini ifodalaydi.

**Kondaktor** – rahbarlik va boshqaruv terminologiyasi. Kontekstda ijodiy yo’naltiruvchi sifatida ishlatiladi.

**Symphony (simfoniya)** – musiqiy uyg’unlik va ko’p qirrali san’at. Stilistik jihatdan yuksaklik va keng qamrovli ifodaning timsoli [2;138-b.].

Leksik-semantik jihatdan terminlar, asosan, musiqiy asarlar va vokal imkoniyatlarni ifodalaydi. Masalan, *aria*, *sonata*, *symphony* kabi terminlar katta musiqiy ijrolarni o’zida ifodalaydi va san’atning keng ko’lamli hamda chuqur ma’noli ekanligini ta’kidlaydi. Stilistik jihatdan esa bu terminlar qahramonning ijodiy jarayoni va rivojlanishini hissiy darajada izohlashga xizmat qiladi. Misol uchun, *vibrato* qahramonning vokal mahoratini ifodalaydi, *mezzo-soprano* esa uning ovoz diapazoni va ifodaviy kuchini ko’rsatib beradi [3;32-b.].

**Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations).** Xulosa sifatida aytganda, san'at terminlari nafaqat texnik tushunchalar sifatida, balki ularning hissiy va ma'noli jihatlari orqali qahramon musiqiy sa-yohatining bir qismi sifatida tushuniladi. Shuningdek, ushbu terminlar asarning umumiy g'oyaviy maqsa-dini to'liq ochib berishga xizmat qiladi. San'atga oid terminlarning lingvistik va semantik jihatlari bu ter-minlarni nafaqat neologizm sifatida qarashga, balki ularning o'ziga xos badiiy funksiyalarini ham kengroq tadqiq etishga undaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- (1). Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002, 168-bet.
- (2). Xojiyeva G.S. Sanatga oid terminlarning leksik-semantik va milliy-madaniy taxlili (fransuz va o'zbek til-lari misolida): filol.f.f.d. (PhD). ... diss. aftoref., Buxoro, 2023, 54-bet.
- (3). Ismailov G'. O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lishi. Fil.f.n.. diss... , Toshkent, 2011, 24-bet.
- (4). Tursun U. O'zbek terminalogiyasi. Toshkent, 1933.
- (5). Qodirova F.Sh. Ingliz va o'zbek tillaridagi tasviriy san'at va dizaynga oid terminlarning lingvokulturologik xususiyatlari. Fil.f.f.d. (PhD). ... diss. avtoref., Toshkent, 2021, 51-bet.
- (6). Надольская О.Н. Музыкальная лексика: константы и переменные. Научный альманах. 2017, № 5-2 (31), с. 260–262.
- (7). Rosowski S.J. The Voyage Perilous: Willa Cather's Romanticism. University of Nebraska Press, 1986, 154 p.
- (8). Romines A. The Home Plot: Women, Writing & Domestic Ritual. London, University of Massachusetts Press, 1992, 210 p.
- (9). O'Brien Sh. Willa Cather: The Emerging Voice. UK: Oxford University Press, 1987, 286 p.

#### **Jo'rayeva Maftuna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universitetining mustaqil izlanuvchisi) SIYOSATCHILAR BILAN INTERVYU OLIB BORISH TEXNOLOGIYALARI**

***Annotatsiya.** Siyosatchilar bilan intervyu olib borish texnologiyalari bugungi kunda jamoatchilik va media uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada siyosatchilarning fikrlarini o'rganish va ularga savollar berish jarayonida foydalaniladigan zamonaviy usullar ko'rib chiqiladi. Intervyu jarayonining samarador-ligini oshirish uchun analitik metodlar, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlarning roli muhokama qi-linadi. Ushbu texnologiyalar orqali kommunikatsiya jarayonini yanada takomillashtirish va siyosiy soha-dagi o'zgarishlarga tezkor javob berish imkoniyati yaratiladi.*

***Kalit so'zlar:** siyosatchilar, intervyu, texnologiyalar, kommunikatsiya, analitik metodlar, raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar.*

#### **ТЕХНОЛОГИИ ПРОВЕДЕНИЯ ИНТЕРВЬЮ С ПОЛИТИКАМИ**

***Аннотация.** Технологии проведения интервью с политиками имеют жизненно важное зна-чение для общественности и СМИ в настоящее время. В этой статье рассматриваются современ-ные методы, используемые для изучения мнений политиков и задавания им вопросов. Обсуждается роль аналитических методов, цифровых платформ и социальных сетей в повышении эффектив-ности процесса интервью. Эти технологии предоставляют возможности для улучшения коммуни-кационных процессов и быстрого реагирования на изменения в политической среде.*

***Ключевые слова:** политики, интервью, технологии, коммуникация, аналитические методы, цифровые платформы, социальные сети.*

#### **TECHNOLOGIES FOR INTERVIEWING POLITICIANS**

***Annotation.** The technologies for conducting interviews with politicians are crucial for public enga-gement and media today. This article examines modern methods used to explore politicians' opinions and pose questions to them. The role of analytical methods, digital platforms, and social media in enhanc-ing the effectiveness of the interview process is discussed. These technologies provide opportunities to improve communication processes and respond swiftly to changes in the political landscape.*

***Keywords:** politicians, interview, technologies, communication, analytical methods, digital plat-forms, social media.*

**Kirish (Introduction).** Intervyu – bu siyosatchi uchun o'z g'oyalarini jamiyatga yetkazish uchun imkoniyat, siyosiy faoliyatning ko'plab vazifalarini hal qiluvchi muhim aloqa shakli, ya'ni, siyosatchining o'rnini aniqlash va shakllantirish, e'tiborni dolzarb muammolar va ularni hal qilish yo'llariga qaratish, ta-rafdorlarni safarbar qilish, muxoliflarga ta'sir o'tkazish va hokazo. Mohiyatiga ko'ra, intervyularni to'g'ri

bera olish siyosatchining asosiy qobiliyatlaridan biridir. Ammo ko‘plab siyosatchilar (vazirdan tortib, ho-kim, deputatlargacha) bu borada o‘z tajribasi yo‘qligi va jurnalistning yaqqol ustunligini anglab, bu imko-niyatdan foydalanishdan bosh tortadilar. Ayniqsa, jurnalistlar uchun o‘zbek siyosatchilaridan intervyu olish juda qiyin masala. Siyosatchilardan intervyu olish texnologiyalarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiqidan kelib chiquvchi xulosalar jurnalistlarga to‘g‘ri intervyu olish, siyosatchilarga to‘g‘ri intervyu berish uchun zarur bilim va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lish imkonini beradi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Intervyu janri bo‘yicha tadqiqot olib borgan G‘arb olimlaridan E.Fixtelius, D.Rendal, rossiyalik tadqiqotchilardan V.Strelsov, V.I.Antonova, G.Lazutina, A.Tertichniy, M.Lukina, M.Kim, S.Belonovskiy, G.Melnik, A.Teplyashina [1], o‘zbekistonlik olimlardan M.Xudoyqulov, F.Nesterenko, Q.Ernazarov, Y.Mamatova, H.Saidov, N.To‘xliyevalar [2] to-monidan yozilgan ishlarda intervyuning axborot olish usuli va janr sifatidagi xususiyatlari keng va atrof-licha o‘rganilgan. Ularda intervyuning o‘ziga xos janr ekanligi, uning turlari va unga qo‘yiladigan talablar OAVda e‘lon qilingan turli ko‘rinishdagi intervyular misolida tadqiq etilgan. Shuningdek, Mariya Lukina-niing “Intervyu texnologiyasi” kitobida bayon etilgan intervyuga aniq tayyorgarlik ko‘rish bosqichlari muallif tomonidan batafsil o‘rganilgan.

Jurnalistika psixologiyasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar R.Xarris, A.Andreyeva, V.Kuzin, S.Roshin, o‘zbek olimlaridan M.Ahmedova, N.Toshpo‘latovalarning asarlarini o‘rganish orqali ushbu janr-niing psixologik xususiyatlarini tahlil etildi [3].

Ommaviy axborot vositalari va siyosat o‘rtasidagi yaqin va murakkab munosabatlar siyosiy nutq va media nutqi o‘rtasidagi chegarani aniq belgilashga imkon bermaydi. Siyosiy va ommaviy axborot vosita-larining kesishishiga ba‘zi olimlar: siyosiy media nutqi (I.M.Kobozeva, S.S.Reznikova, K.V.Nikitina, O.F.Avtoxtudinova, Y.Y.Cherkasov, A.A.Shchipitsyna), siyosiy jurnalistik nutq (O.V.Demidov), omma-viy axborot vositalarining siyosiy nutqi (L.A.Kudryavtseva) alohida e‘tibor qaratgan (4).

Siyosiy intervyu tushunchasi mohiyatini ochib berish uchun Chudinov A.P., Sheygal Y.I., Yuri-na M.V., Projoga A.V., Mkrtychyan T.Y., Mixalskaya A.K. kabi olimlar qo‘llanmalaridan foydalanildi (5).

**Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqotni o‘tkazish davomida tahlil, kontent tahlil, qiyosiy tahlil, so‘rovnoma, kuzatuv, umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Siyosiy intervyuning maqsadi, ma‘lum bir siyosiy g‘oya-ni tushuntirish va targ‘ib qilishdir. Intervyu oluvchi jurnalist bo‘lib, uning vazifasi muloqot qiluvchilar rol-larining o‘zgarishini kuzatishdir. Bunday intervyuda siyosatchi tashabbusni qo‘lga kiritishga harakat qiladi. Suhbatdosh siyosatchining nutqi qabul qiluvchi tomonidan idrok etilishini ta‘minlashga intiladi. Siyosatchi unga o‘z pozitsiyasini oqlash imkoniyati berilishini kutmoqda. Siyosiy intervyuning yakuniy maqsadi ichki va tashqi siyosat bilan bog‘liq asosiy masalalar bo‘yicha auditoriya tushunishiga erishishdir.

Siyosiy intervyu tushunchasini olimlar turlicha talqin qilishgan. T.Y.Mkrtychyan siyosiy intervyuni keng va tor ma‘noda tushunish mumkin, deb ta‘kidlaydi. Keng ma‘noda, “siyosiy intervyu” nomi o‘zining siyosiy mavzusi bilan bog‘liq bo‘lib, jurnalist o‘zi uchun fikri qiziqarli va dolzarb bo‘lib ko‘ringan har qan-day odam bilan siyosat haqida gaplashishi mumkin. Tor ma‘noda, siyosiy intervyu-dialog jurnalist va siyo-satchi o‘rtasidagi suhbatdir”. U so‘nggi tushunchaga e‘tibor beradi [6]. Tor tushunchani N.I.Lavrinova ham qabul qiladi, uni suhbatdoshning shaxsiyati va suhbat mavzusi nuqtayi nazaridan belgilaydi. U siyosiy intervyuni “jurnalist va siyosatchi o‘rtasidagi va siyosat haqidagi suhbat” sifatida baholaydi [7].

A.V.Projoga siyosiy intervyuni “savol-javob birligining o‘ziga xos modellaridan tashkil topgan dia-log janri” deb hisoblaydi. Uning fikricha, “siyosiy intervyu – bu umumiy niyatlar bilan birlashtirilgan yaxlit matn” [8]. U o‘z e‘tiborini siyosiy intervyuga xos bo‘lgan dialogik qurilish xususiyatlariga qaratadi.

Rossiyalik tadqiqotchilar intervyuni uchta holatda siyosiy deb atashadi: 1. Agar u jurnalistni qiziqtir-gan har qanday suhbatdosh bilan siyosat haqida suhbat bo‘lsa. 2. Jurnalist va siyosatchi o‘rtasidagi suhbat bo‘lsa. 3. Siyosatchi bilan va siyosat haqida suhbat bo‘lsa.

Bizningcha, siyosiy intervyu quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi.

**1. Kommunikativ maqsad.** Intervyu oluvchi siyosiy axborotni ommaviy auditoriyaga yetkazish, si-yosatchilarning pozitsiyalarini oydinlashtirishni ko‘zlaydi. Siyosatchilar esa jamoatchilik fikriga ta‘sir etish, shaxs, siyosiy partiyalar va hukumat imijini shakllantirishga intiladilar.

**2. Muloqotchilarning nutqiy rollari.** Ma‘ruzachilar va tinglovchilar, savol va javoblarni boshlab, axborot muloqoti jarayonida doimiy ravishda bir-birini almashtiradilar.

**3. Kommunikatorlarning nusxalari hajmi.** Axborot suhbatini davomida nusxalar hajmi bo‘yicha qat‘iy cheklolar yo‘q. Siyosiy intervyuda siyosatchining mulohazalari hajmi suhbatdoshnikidan ancha kat-ta.

**4. Suhbat mavzusining spontanligi.** Axborot muloqotining mavzulari tinglovchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Siyosiy intervyu uchun suhbat mavzusini tanlash, uni joylashtirish va bir mavzudan ikkinchisiga o'tish suhbatdosh tomonidan nazorat qilinadi.

**5. Spikerlarning rollarini o'zgartirish qoidalari.** Axborot suhbatida, suhbat mavzusini o'zgartirish vaqtida ma'ruzachi suhbatning navbatdagi ishtirokchisini tanlash yoki o'z bayonotini davom ettirish huquqiga ega. Siyosiy intervyu davomida ma'ruzachilar rollarining o'zgarishi suhbatdosh tomonidan nazorat qilinadi.

**6. Vaqt va makon cheklangan.** Axborot muloqotining vaqti va joyi ko'pincha belgilanadi. Shu bilan birga, siyosiy intervyu, odatda, ovoz yozish studiyasi, radioeshittirish yoki televideniya studiyasi kabi belgilangan joyda o'tkaziladi. Bundan tashqari, siyosiy intervyular vaqt jihatidan qat'iy tartibga solinadi.

**7. Dramaturgiya.** Axborot suhbatida tabiiy suhbatdir, siyosiy intervyu uchun ssenariy qat'iy belgilangan, oldindan o'ylab topilgan va kelishilgan.

Xitoy ommaviy axborot vositalarida siyosiy intervyu tayyorlashda bir qator qoidalarga rioya qilish talablari amal qiladi.

1. Siz maxfiy narsalarni oshkor qila olmaysiz. Masalan, tor doiradagi odamlarga ma'lum bo'lgan ma'lumotlar qonun hujjatlarida belgilangan muddatda oshkor etilishi mumkin emas. "Davlat sirlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunni va boshqa maxfiy qoidalarni buzishga yo'l qo'yilmaydi. Nutqni nazorat qilish, ya'ni, nima deyish mumkin, nimani aytish mumkin emas va qay darajada nazorat qilish kerak. Xitoy Xalq Respublikasining davlat sirlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunining 27-moddasi (1998-yil, 2010-yil qayta ko'rib chiqilgan) tegishli maxfiy qoidalarga quyidagi holatlarda rioya qilish kerak: davriy nashrlarni, kitoblarni, audio va videolarni tahrirlash, mahsulotlar nashr etish va qayta chop etish, elektron nashrlar.

2. Ommaviy aholining siyosiy axborotning ochiqligi, foydalanish imkoniyati va shaffofligi huquqini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ommaviy aholining siyosiy ma'lumotlarning oshkorligi, ochiqligi va shaffofligiga bo'lgan huquqlarini ta'minlash talabi Xitoy Xalq Respublikasi hukumati ma'lumotlarini oshkor qilish to'g'risidagi nizomda ko'rsatilgan.

3. Nashr etilgan ma'lumotlarning ishonchligi kafolatlangan bo'lishi kerak. 2011-yilda Xitoy Xalq Respublikasi Matbuot va nashriyot bosh boshqarmasi tomonidan yolg'on ma'lumot tarqatganlik uchun javobgarlik to'g'risidagi Nizom qabul qilingan. Qoidalar 5 bandni o'z ichiga oladi, unda yolg'on ma'lumot tarqatganlik uchun javobgarlik quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ko'zda tutilgan: intervyu paytida jurnalistlar uchun asosiy qoidalar, axborotni boshqarish organlarining lavozim majburiyatlari, noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatganlik uchun yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish va ularni hal qilish tartibi.

4. Siyosiy partiyalar yoki organlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijobiy tomonlarini ilgari surish, shaxs, siyosiy partiyalar va organlar imijini shakllantirish talab etiladi. "Partiyalarni boshqarish qobiliyatini kuchaytirish to'g'risida"gi qarorida shunday deyilgan: "Jamoatchilik fikrini mahkam ushlab turish, unga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish, ommaviy axborot vositalari ustidan partiyaviy nazorat tamoyilini qo'llab-quvvatlash, partiyaviy boshqaruv qobiliyatini oshirish zarur.

Mutaxassislarning siyosatchilardan intervyu olish qonun-qoidalarga doir tavsiyalarini quyida ko'rib chiqamiz. Misol uchun, BBC News Onlinening boshqaruvchi muharriri, hozirda dunyo bo'ylab jurnalistlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha faoliyat yuritayotgan mediatrener Devid Brever "Siyosatchilar bilan suhbatlashishning nafis san'ati bor", [9] deydi va buni jurnalistlarga o'rgatish uchun quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqqan:

1. Tomoshabinlar manfaati uchun intervyu oling.
2. Siyosatchining motivatsiyasini tushuning.
3. Oddiy bo'ling.
4. Maqsaddan chetlashmang.
5. Oldindan bitimlar qilmang.
6. Ochiq fikrda bo'ling.
7. Siyosatchilarning savoldan qochishlariga yo'l qo'ymang.
8. Oxirgi so'z jamoatchilikni xabardor qilishiga ishonch hosil qiling [10].

O'zbekistonlik jurnalistlar siyosiy mavzu doirasida, nari borsa, vazir, hokimlar bilan suhbatlasha oladi, asosan, deputatlar bilan intervyu tashkil etiladi. Prezidentlar bilan intervyu uyushtirish esa juda qiyin. O'zbekistonda kam sonli jurnalistlarga bunday imkoniyatga ega bo'lishgan. "Yangi O'zbekiston" gazetasini bosh muharriri Salim Doniyorov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevdan, Uza muxbiri Asliddin Suyunov Eron Islom Respublikasi Prezidenti Sayid Ibrohim Raisiydan, "Xalqaro Pess

Klub” loyihasi muallifi Sherzodxon Qudratxo‘ja Turkiya Prezidenti Rajab Toyib Erdug‘ondan intervyu olganini, garchi rasmiy tarzda bo‘lmasa-da, Beruniy Alimovning Qirolicha Yelizaveta bilan suhbatlashganini bunga misol sifatida keltirish mumkin.

Biz, odatda, tayyor intervyuni ko‘ramiz, ammo uning kadr orti jarayonlari haqida bilmaymiz. Beruniy Alimov Britaniya Qirolichasi Yelizaveta bilan 22 yoshida uchrashgani, u bilan ko‘rishish uchun 40 kun tayyorgarlik ko‘rilgani haqida gapirib berar ekan, qirolicha qanchalar kuchli siyosat yuritmasin, u aslida yumshoq ko‘ngil, uyatchan, tortinchoq, samimiy va bag‘rikeng ayol ekanligini kashf etgani haqida eslaydi. U bilan tasodofiy kechgan uchrashuv yarim soatli suhbatga aylanib, unda O‘zbekistonda kechayotgan islohotlar, o‘zgarishlar, O‘zbekiston–Buyuk Britaniya aloqalarining kelajagi haqida fikr almashinilgan edi [11].

Sherzodxon Qudratxo‘janing taassurotlari esa yosh jurnalistlarga motivatsiya ulashish bilan birga, siyosatchilar bilan qanday intervyu olib borish kerakligi haqidagi qimmatli bilimlarni taqdim etadi: “2003-yil dekabrda O‘zbekistonga o‘sha vaqtdagi Turkiyaning Bosh vaziri Rajab Tayip Erdo‘g‘anning davlat tashrifi bo‘lgan edi. Tashqi va ichki siyosatda kuchga to‘lgan, juda taniqli, mashhur siyosatchidan men “Axborot plyus” mualliflik dasturi doirasida intervyu olishga ruxsat so‘ragandim, bunga matbuot xizmati rozilik berdi.

Men o‘shanda dunyodagi yorqin siyosatchi sifatida tanilayotgan Rajab Tayip Erdo‘g‘anning shaxsiga juda qiziqqanman. Nihoyat, uzun yo‘lakdan yengil qadamlar bilan kelayotgan Turkiya Bosh vaziri Rajab Tayip Erdo‘g‘anni ko‘rdim va qarshi oldim. Har doimgidek suhbatdoshimni kuzatdim. Sezishimcha, ko‘zlarining tagida toliqish alomatlari bor edi. U charchaganini sezdirmaslikka harakat qilardi. Lekin ko‘zida jo‘shqinlik kuzatilardi.

– İyi geceler Efendim! (Xayrli tun, Afandim).

– İyi geceler Efendim! (Xayrli tun), – dedi javoban janob Erdo‘g‘on.

– Yorulmadınız mı? Sayın Başbakan – (Charchamadingizmi hurmatli Bosh Vazir).

– Sen de yorulmadın mı? (Sen ham charchamadingmi?) (Erdo‘g‘on rostdan ham charchamagan, holahvol so‘raganimda javoblari dadil chiqdi).

– Ben gencim (men yoshman), – dedim.

Erdo‘g‘on: syen dye genç ben dye genç! (sen ham yosh, men ham yoshman), –dedi jiddiy qarab. U tikka turganimni ko‘rib, ko‘zi bilan ishora qilib, “hech muammo yo‘q o‘tir”, – dedi.

O‘ziga ishongan jurnalist uchun ko‘p hollarda vaziyatni boshqarish, kema kapitani sifatida shturvalni o‘z qo‘liga olish koni foyda. Ammo buning uchun professionallik va bilim zarur. Davlat protokoli xizmati tomonidan 10 daqiqa ajratilgan uchrashuvda men Turkiya to‘g‘risida, o‘zbek-turk do‘stligi, qo‘shma hamkorlik to‘g‘risida 40–45 daqiqa chamasi bemalol suhbatlashdim. Suhbatni na davlat protokoli xodimi, na tansoqchi buza oldi. Ammo, oson bo‘lmadi. Chunki men katta davlat, ya‘ni, o‘sha paytdagi 75 mln.lik aholisi bor mamlakatning rahbari bilan, dunyoning siyosiy sahnasida nomi chiqib kelayotgan siyosiy arbob bilan bir o‘zim edim. Mening yoshim o‘sha paytda bor yo‘g‘i 29 da. Janob Erdo‘g‘an esa 49 yoshda kuchga to‘lgan, xarizmatik lider edi. Men bildimki, bu paytda bo‘shashib bo‘lmaydi. Ertami, kechmi, mehmon charchaganmi, yo‘qmi men intervyu uchun kurashishim kerak. Intervyu Erdo‘g‘onga yoqqani uchun meni “Do‘rmon”ning katta darvozasigacha shaxsan o‘zi kuzatib qo‘ydi, xayrlashayotganda qo‘limni siqib “çok teşekkürler, rahmat”, dedi.

Talabalarga maslaklarim. Intervyularda odatiy savollardan qochib noodatiy savollar berish, oddiy asalomu alaykunning yoniga kayfiyatni ko‘taradigan samimiy iboralar va so‘zlar qo‘shish muvaffaqiyatni oshiradi. Qirol va qirolichalardan intervyu olish jurnalist uchun juda qiyin. Chunki siz nafaqat uning balki o‘sha mamlakatning tarixini puxta bilishingiz, u davlatning urf-odatlarini, qonunlari haqida ma‘lumotga ega bo‘lishingiz muhim. Chunki sizning birgina noto‘g‘ri savolingiz, qirolicha bilan suhbatda sizning madaniyatli yoki madaniyatsizligingiz, tajribali mutaxassis, aksincha, diletantligingizni yaqqol ko‘rsatadi.

Ehtimol, o‘zimizni yoshi kattalardek tutishga harakat qilmasdan, yoki Bosh Vazirdan intervyu olishga mahoratim yetadi deya chiranmay, yoshlarcha va samimiy qilgan muomalam janob Erdo‘g‘onga o‘z yoshligini eslatgandir. Asosiy mavzudan tashqari yodimda qolgani u ham men bilan siyosatchi yoki mendan yoshi ancha katta odam sifatida emas, yaqin kishisi bilan miriqib suhbat qurgandek bo‘lgan. Jurnalist suhbatdoshini his qilishi uchun uning tarjimaiholini chuqur bilishi, hayotiy kechinmalarini, iztiroblarini va bosib o‘tgan yo‘lini bilishi kerak. Biroz gardikamlik, o‘ziga ishonch va dadillik ham ortiqchalik qilmaydi.

Har qanday suhbatda kommunikatsiya o‘rnatish uchun jurnalist o‘zini erkin va samimiy tutishi juda muhim” [12]. (Toshkent, 2003-yil, dekabr).

Bunday tavsiyalar, shubhasiz, siyosatga qizuvchi jurnalistlar uchun foydali bo'ladi. Siyosiy intervyuning nozik nyuanslari ham shunda ko'rinadiki, bunday vaqtda hech bir nazariya sizga yordam bermaydi. Bu tavakkal o'yinda faqatgina tajriba va chuqur bilim bilan yutib chiqish mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev jurnalistlarning so'z erkinligi va OAVning senzurasiz ishlashiga yo'l ochib bergan davridan boshlab, o'zbek jurnalistlari ham siyosatchilarni savolga tuta boshladi. Xususan, Sodiq Safoyev, Abdulaziz Komilov bilan bo'lgan intervyularning qiymati shundaki, xalqimizning siyosiy savodxonligini oshirish, har bir siyosiy yangilikning mohiyatini sodda va tushunarli tarzda yetkazish, nafaqat mamlakatimiz, balki jahon siyosiy sahnasidagi voqealarni chuqur anglab yetish imkonini beradi. Bu, avvalo, jamiyatdagi siyosatga nisbat ishonchsizlik va beparvolik ruhini tarqatadi hamda demokratik davlat barpo etishning zarur elementi bo'lib xizmat qiladi.

Siyosatchi Sodiq Safoyev bilan intervyu uyushtirish O'zbekiston uchun amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar mohiyatini anglashni o'rgatsa, ko'p yillar Tashqi ishlar vaziri bo'lgan Abdulaziz Komilov O'zbekistonning tashqi siyosatda tutgan o'rni, jahon mamlakatlari bilan hamkorligi, siyosiy rejalarining mohiyatini tushuntirishga harakat qiladi. Demak, jurnalist siyosatchidan intervyu olayotganda uning lavozimi, xizmat faoliyati, bilim darajasidan kelib chiqib yondashsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tahlillardan ayonki, milliy mediamakonda siyosatchilar bilan bog'liq intervyular deyilganda, asosan, vazir, hokim va deputatlar bilan suhbatlar yaqqol ko'zga tashlandi. Barcha rasmiy medialardan tortib, xususiy saytlargacha o'z statusini oshirish uchun taniqli siyosatchilar: kam ko'rinadigan vazirlar, shov-shuvlarga sabab bo'layotgan hokimlar, xalq keng muhokama qilayotgan deputatlar, umuman olganda, jamiyat katta qiziqish bildirayotgan amaldorlardan intervyu uyushtirishni yangi uslub sifatida qo'llamoqda.

Sobiq deputat Rasul Kusherbayevning xalq ishonchini qozonishiga medialar yordam berdi. Uning jurnalistlarga bergan har bir intervyusi katta "prosmotr"ga, qizg'in muhokamalarga sabab bo'ladi. Bu uning parlament hayoti va deputatlar faoliyatidagi muammolarni ochiq aytib berishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, jurnalistlar tomonidan berilgan hech bir javob "yopiq" qolmasligi bilan izohlanadi. Chunki shunday rasmiy mulozimlar borki, imkon qadar, savolning javobini "aylantirib", balandparvoz so'zlar va "qilinyapti, bajarish rejalashtirilayapti" tarzidagi shablon so'zlar bilan suhbatni boyitishga harakat qilishadi.

Mutaxassislar siyosatchilar bilan intervyu tashkil etishda quyidagilarni tavsiya etishadi: "Deputat bilan suhbat jarayonida, albatta, ko'tarilayotgan mavzuni yaxshi bilishingizni ko'rsating, oldindan tayyorlangan savollaringizni dadil va ishonch bilan bering. Agar jurnalist o'ta jahldor bo'lsa, suhbatdoshi javob berishdan bosh tortishi, o'z fikrini erkin bayon qilmasligi mumkin. Shu bilan birga, yolvorish ohangida berilgan savollarga deputat kinoya bilan javob berishi mumkin. Agarda suhbat deputat faoliyatini ayblashdan boshlansa, suhbatdoshi butun intervyu davomida savollarga ehtiyotkorlik bilan javob beradi. Suhbat jarayonida boshni ko'tarmay suhbatdoshingiz aytganlarini yon daftarga yozib olish emas, aksincha, unga qarab, suhbatni jonli olib borish ko'proq natija beradi" [13].

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, siyosiy intervyu O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy ommaviy axborot vositalari kontekstiga mos keladi va ommaviy axborot vositalarining xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Ularning eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Siyosiy intervyuning maqsadi ma'lum bir siyosiy g'oyani ko'rib chiqish, tushuntirish va targ'ib qilishdir. Shu bilan birga, suhbatdosh siyosatchi o'zi vakillik qilayotgan partiya imijini shakllantirishni maqsad qilgan.

2. Intervyu oluvchi, ko'pincha, jurnalist bo'lib, uning vazifasi muloqotchilarning rollari o'zgarishini nazorat qilishdir. Bunday intervyuda siyosatchi tashabbusni qo'lga kiritishga intiladi.

3. Suhbatdosh siyosatchining nutqi qabul qiluvchi tomonidan idrok etilishini ta'minlashga intiladi. Siyosatchi o'z pozitsiyasini bildirish imkoniyati berilishini kutmoqda.

4. Siyosiy intervyuning yakuniy maqsadi yetakchilarning g'oyalarini tushuntirish va yetkazish, tinglovchilar bilan o'zaro tushunishni shakllantirish, siyosiy faoliyatning asosiy vektorlari, mamlakat barqarorligini saqlash va mamlakat manfaatlarini himoya qilish uchun kurash bo'yicha kelishuvni shakllantirishdir.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Kuzatuvlardan shunday xulosa qilish mumkin. Xalq ishonchiga kirgan ko'p sonli rasmiy nashrlarda berilishi kerak bo'lgan siyosiy intervyular, afsuski, erkin konteks – You Tube platformasida ko'p uchramoqda. Intervyularni blogerlar olib bormoqda.

Xususan, intervyu janrida blog yuritayotgan jurnalist Krill Altman mualliflik "Alter Ego" loyihasi orqali quyidagi siyosatchilar bilan suhbat qurishga erishdi: Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyeva, Senat raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyev, Mass Mediani qo'llab-quvvatlash agentligining sobiq rahbari Komil Allamjonov, vazirlar: Alisher Sultonov, Sherzod Shermatov, deputatlar: Alisher Qodirov,

Rasul Kuserboyev, eng yosh senator sifatida Alisher Sa'dullayev, sobiq hokim va tadbirkor Jahongir Ortixo'jayev, elchilar Tilo Klinner, Szyan Yan, Tim Torlao, Daniyel Rozenblyum va boshqalar.

Hozircha Krill Altman ko'p sonli o'zbekistonlik siyosatchilar bilan intervyu olishni uddalagan yagona jurnalist bo'lib turibdi. Bu O'zbekistonda blogerlar uchun har qanday eshik ochiqligini ifoda etsa, amaldorlarning rasmiy nashrlar qolib blogerlarga intervyu berishayotgani medialar hamon eski qoliplardan voz kecholmayotganini anglatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Мельник Г.С. Основы творческой деятельности. Питер, 2006; Лукина М.М. Технология интервью. М., "Аспект-пресс", 2008; Антонова В.И. Региональная пресса в системе российской журналистики типология и жанрообразование. Саранск, изд-во Мордов. ун-та, 2006; Тertychnyy A.A. Жанры периодической печати. М., "Аспект-пресс", 2000; Рендал Д. Профессионализм сари тўрт кадам. Амалий кўлланма, Тошкент, «Extremum-press», 1994.
- (2). Saidov N., To'xliyeva N. Reportyorlik mahorati. Toshkent, 2008; Mamatova Y.M., Sulaymanova S.N. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida. O'quv qo'llanma, T., «Extremum-press», 2015.
- (3). Toshpo'latova N. Jurnalistika psixologiyasi. T., 2013, "S" nashriyoti, 184-bet.
- (4). <https://medialing.ru/politicheskoe-intervyu-kak-zhanr-diskursa-smi/>
- (5). Чудинов А.П. Политическая лингвистика. М., „Наука“, 2007; Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. М., „Гнозис“, 2004; Щипицына А.А. Соотношение дескриптивных и оценочных прилагательных в британском политическом медиа-дискурсе. Полит. исслед. 2007, № 2, с. 93–99; Юрина М.В. Коммуникативные стратегии партнеров в политическом интервью: на матер. современной прессы ФРГ. Дис. ... канд. филол. наук, Самара, 2006; Мкртчян Т.Ю. Речевое поведение журналистов в политическом теле- и радиointervью: на матер. рус. и англ. яз. Автореф. дис....канд. филол. наук, Ростов-н-Д, 2004; Прожога А.В. Реализация причинно-следственных отношений в неофициальном и официальном диалоге: на материале английского языка. Дис. ... канд. филол. наук, Саранск, 2002; Михальская А.К. Политическое интервью как речевой жанр. Риторическая культура в современном обществе. Тезисы IV междунар. конф. по риторике. М., Ин-т рус. яз. им. А.С.Пушкина, 2009.
- (6). Мкртчян Т.Ю. Речевое поведение журналистов в политическом теле- и радиointervью. На матер. рус. и англ. яз. Автореф. дис. ... канд. филол. наук, Ростов-на-Дону, 2004.
- (7). Лавринова Н.И. Текстовая актуализация речевого поведения коммуникантов в политическом интервью: на материале современного английского языка. Автореф. дис. ... канд. филол. наук, СПб., 2010.
- (8). Прожога А.В. Реализация причинно-следственных отношений в неофициальном и официальном диалоге. На материале английского языка. Дис. ... канд. филол. наук, Саранск, 2002.
- (9). Brewer D. How to interview politicians. Article. 2019. <https://mediahelpingmedia.org/basics/how-to-interview-politicians/>
- (10). Brewer D. How to interview politicians. Article. 2019. <https://mediahelpingmedia.org/basics/how-to-interview-politicians/>
- (11). Beruniy Alimovning "UzReport TV"ga bergan intervyusi. 2022. <https://www.youtube.com/watch?v=HKGrAe7xiB0>
- (12). Sherzodxon Qudratxo'jayevning ijtimoiy tarmoqdagi sahifasiga joylagan postidan olindi.
- (13). Nurmatov N., Qosimova N. Saylov jarayonlarini yoritishda ommaviy axborot vositalarining roli. Jurnalistlar uchun amaliy qo'llanma, T., "O'zbekiston", 2014, 110-bet.

**Шарипова Азиза Абдуманаровна (ф.ф.д. (PhD), доцент; 1212azik@mail.ru)**  
**ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СИНОНИМОВ**  
**АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ: АНАЛИЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ**

***Аннотация.** В статье рассматриваются такие темы, как определение и классификация понятия стилистического синонима, отражение лингвокультурологических особенностей стилистических синонимов в переводе, роль и значение стилистических синонимов в повышении эффективности адекватного перевода.*

***Ключевые слова:** лингвистика, синонимы, стилистические синонимы, перевод, эквивалентность, адекватность, альтернативность.*

**Sharipova Aziza Abdumanapovna (t.f.n. (PhD), dotsent; 1212azik@mail.ru)**  
**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA STILISTIK SINONIMLARNING TIPOLOGIK**  
**XUSUSIYATLARI: TAHLILI VA TASNIFI**

***Annotatsiya.** Maqolada stilistik sinonim tushunchasining ta'rifi va tasnifi, stilistik sinonimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tarjimada aks ettirish, adekvat tarjima samaradorligini oshirishda stilistik sinonimlarning o'rni va ahamiyati kabi mavzular muhokama qilinadi.*



*Kalit so‘zlar: tilshunoslik, sinonimlar, stilistik sinonimlar, tarjima, ekvivalentlik, adekvatlik, muqobillik.*

**Sharipova Aziza Abdumanapovna (PhD, Associate Professor; 1212azik@mail.ru)**

## **TYPOLOGICAL FEATURES OF STYLISTIC SYNONYMS IN ENGLISH AND UZBEK: ANALYSIS AND CLASSIFICATION**

**Annotation.** *The article examines such topics as the definition and classification of the concept of a stylistic synonym, the reflection of linguocultural features of stylistic synonyms in translation, the role and significance of stylistic synonyms in increasing the effectiveness of adequate translation.*

**Keywords:** *linguistics, synonyms, stylistic synonyms, translation, equivalence, adequacy, alternative-ness.*

**Введение.** В лингвистике, начиная с середины прошлого века, в лингвистической литературе уделяется внимание изучению синонимов и их классификации. Однако тот факт, что синонимы не внесены в единую систему, разные взгляды на них привели к возникновению разных подходов в классификации синонимов.

В 1950-е годы XX века В.Виноградов разделил синонимы на идеографические и стилистические синонимы. По его мнению, идеографические синонимы различаются нюансами значения, а стилистические синонимы различаются по использованию в разных областях [1;3–30 с.]. Мнение В.Виноградова о типологическом разделении синонимов на стилистические синонимы и идеографические синонимы поддерживается большинством лингвистов.

**Литературный обзор.** Очевидно, что П.Черемесин и А.Уфимцева сосредоточили своё внимание на определении разницы между стилистическими синонимами и идеографическими синонимами. Ведь эти два типа синонимов близки друг другу и в то же время отличаются друг от друга.

Классификация синонимов не ограничивается идеографическими и стилистическими синонимами. J. Filipes делил синонимы на такие типы, как контекстуальные, диалектные, исходя из их экспрессивности, функционально-семантических, социальных признаков [2;201–203 p.]. Ф.Хаусман обосновал тот факт, что синонимы различаются по употреблению в устной и письменной речи и отличаются стилистическим аспектом [3;91–93 p.]. Понятно, что в лингвистике мало работ, дающих полную классификацию синонимов. К таким работам можно отнести исследования Л.Васильева [4; 23 с.]. Лексические синонимы он разделяет на: 1) синонимы, различающиеся интеллектуально и по содержанию; 2) синонимы, различающиеся по формальной структуре; 3) синонимы, различающиеся по своим относительным признакам. Первый тип синонимов делится на идеографические (относящиеся к понятию), экспрессивные (предметно-образные и эмоционально-образные) и смешанные синонимы. Ко второму типу синонимов учёный включил стилистические, дистрибутивные и частотные синонимы. К третьему типу синонимов относятся лексические, лексико-словообразовательные и лексико-фонетические синонимы [5;25–26 с.].

Учитывая семантические и стилистические различия синонимов, М.Задорожный различал синонимы абсолютные, семантические, стилистические и семантико-стилистические. Он установил, что стилистический признак играет важную роль в классификации синонимов [6;48 с.].

**Методология исследования.** В исследовании использовались описательный, сравнительно-типологический, лексико-семантический, контекстуальный, концептуальный, трансформационный методы, моделирование, метод компонентного анализа.

**Анализ и результаты.** Своеобразие языка и специфика перевода в разных культурах создают особые трудности при переводе.

Перевод – это точное воспроизведение содержания и стиля оригинала на другом языке [7;15 с.]. При переводе единство содержания и стиля воссоздаётся на основе другого языка и таким образом формируется новое единство, специфичное для языка перевода. При переводе конкретного текста с одного языка на другой на основе языка перевода создаётся текст на другом языке. При переводе необходимо не только сохранить содержание оригинала, но и обратить внимание на стилистическое воздействие текста. Чтобы в полной мере выразить содержание оригинала в переводе, необходимо по возможности максимально сохранить в нём стилистические средства.

По мнению Л.Митякиной и Е.Ереминой, перевод таких стилистических средств, как метафора, метонимия, аллегория, аллюзия, требует от переводчика высокого мастерства [8;28 p.]. В большинстве переводов труднее всего сохранить метафорические единицы. Использование синонимов и их вариантов позволяет сохранить содержание перевода. Когда нет возможности сохранить в пе-

реводе слова, использованные в переносном смысле, можно также отразить только его содержание. Например, *У асли дадамнинг қалин ўртоғи бўлган* (А.Мухтор). (*He was close friend of my father*).

Словарное значение слова «*close*», использованного в данном примере, – «*яқин*», но это слово сочетается со словом «*friend*» и переводится как «*қалин ўртоқ*». Словосочетания в контексте также могут уточнить перевод, тем самым гарантируя, что перевод точно соответствует оригиналу.

Стилистические синонимы следует использовать уместно при переводе метафорических заимствований. У переводчика не возникает затруднений, когда есть альтернатива английской метафоре на узбекском языке. Но в некоторых случаях исходная метафора не существует в переводном языке, это наблюдается в следующих метафорах: *a bloodbath, mindgames, a nutcase, a sun-trap*; во фразеологических метафорах (выраженных с помощью союзов *and/or*): *swings and roundabouts, life and soul, rain or shine*; в открытых метафорах (иногда метафора может обозначать несколько образов). В этих случаях переводчик использует эквиваленты слов. Например: *Сарой аҳли кундузги иш кучларидан бўшаб ҳужраларига қайтқанлар, қўб ҳужралар кечлик ош пишириши ила машғул, шунинг учун кундузгига қараганда сарой жонлиқ: кишиларнинг шақиллашиб сўзлашишлари, хохолоб кулишишлари саройни кўкка кўтаргудек* [9;31-b.]. (*Compared to the still daylight hours, a lively atmosphere permeated the caravanserai: it was as if the rooftops themselves were lifted to the sky by the raucous banter and the merchants' roaring laughter*) [10;32-b.].

В исследовании также освещён вопрос перевода заимствованных единиц методами метонимии и синекдохи на английском и узбекском языках. В узбекском языке в предложении «*Бир пиёла ичдим*» вместо слова чай используется слово *пиёла*, означающее, что чай наливают в пиалу. В английском языке метонимический перевод образован словом *glass* (стакан): *to drink a glass* – стакан ичмоқ.

В английском языке родные братья и сёстры обозначаются словами *siblings*. В узбекском языке в пословице «*Эт билан тирноқни ажратиб бўлмас*» (*There's no stronger bond than that between siblings*) слова *эт* и *тирноқ* означают *близких родственников, отца и сына, родных братьев*. В этом примере наблюдается явление синекдохи. Если в английском языке неотделимые части тела выражаются словами «*siblings*», то в узбекской культуре – словами «*плоть*» и «*ноготь*».

Подразумевается, что при переводе заимствований, пословиц, поговорок, афоризмов и т.п. следует учитывать их лингвокультурные особенности. Рассматривая пословицы и поговорки как целостную единицу, в переводе приводят их синонимы или эквиваленты. Иногда английский вариант узбекской пословицы не может быть её полным эквивалентом или синонимом. Например, пословица «*Устоз отангдан улуғ*» отражает особенность, присущую лишь узбекской культуре.

Иногда реалии определённой культуры отражаются в пословицах представителей этой культуры и приобретают переносный смысл. Например, в пословице «*Бош омон бўлса, дўппи топи-лар*» задействовано слово *тюбетейка*, которое является символом национальной одежды узбеков. В этой пословице подчёркивается, что самое необходимое для человека, самое большое богатство – это его здоровье. В английском языке есть похожие пословицы: *He who enjoys good health is rich, though he knows it not*.

Итак, стилистические средства в переводе должны отвечать следующим требованиям: 1. Смысловая совместимость. 2. Грамотность. 3. Лексическая и стилистическая совместимость.

Сходство содержания – ещё один важный аспект при переводе оригинального текста. В нём переводчик обращается к наиболее подходящим эквивалентам исходного текста на переводимом языке. Текст перевода должен иметь то же значение, что и исходный текст.

Перевод синонимов и синонимических сочетаний включает условие сохранения стилистических особенностей исходного текста. На лексическом и лексико-семантическом уровне необходимо использовать различные переводческие трансформации (замена слова, опущение слова, добавление слова, обобщение, конкретизация и т. д.). Это позволяет обеспечить высокий уровень соответствия оригиналу.

Иногда наряду с литературными словами в тексте наблюдаются исторические слова, поэтические слова, диалектные слова, неологизмы, термины. Важно обратить внимание на стилистические различия при их переводе. Например:

Оригинал: *The Dursleys were what Wizards called Muggles (not a drop of magical blood in their veins), and as far as they were concerned, having a wizard in the family was a matter of deepest shame.*

Перевод: *Негаки, табиатан Магл саналадиган Дурслларнинг фикрича, оилада сеҳргар бўлиши – абадий доғ бўлиб қоладиган уят, иснод ва шармандалиқдир* (Маглар – қонида бирор томчи ҳам сеҳргарлик қони бўлмаган одамлар) [11;22–26-b.].

Чтобы усилить содержание словосочетания *a matter of deepest shame* «глубокий позор» в тексте для узбекского читателя, переводчик использовал слова *абадий доғ бўлиб қоладиган уят, иснод ва шармандалиқ* стилистических синонимов, соответствующие добавлению слова и стилистическим синонимам.

Понятно, что при переводе важную роль играют стилистические трансформации, обеспечивающие адекватность (альтернативность) текста.

Эквивалентность – одно из основных понятий переводоведения. Эквивалентность – это постоянный уровень соответствия между оригиналом и переведённым текстом независимо от контекста для конкретного времени и места.

Альтернативность – это сходство семантического, структурного и функционального аспектов между исходным текстом и переведённым текстом. Она происходит при обмене языковыми единицами, похожими друг на друга и заменяющими друг друга, между исходным и переведённым текстом. Например, перевод, выполненный путём выбора одного из нескольких синонимов, является альтернативным переводом. Альтернативность в основном используется при переводе фразеологизмов, пословиц, мудрых изречений.

Адекватность – это тип соответствия. Адекватный перевод – это довольно сложный процесс, в ходе которого переводчик превращает эквивалентный перевод в адекватный перевод, исходя из своего уровня лингвистических и традиционных знаний и творческих способностей. Как отметил В. Комиссаров, в ряде случаев адекватный перевод означает «правильный перевод» [12;117–128 с.]. По мнению Г. Одиловой, эквивалентность – это близость на синтаксически-семантическом уровне; а адекватность – это перевод, совместимый с прагматикой рецептора, базовыми знаниями, художественным мышлением и размерностями восприятия художественного образа [13;54–65-b.].

Можно сделать вывод, что эквивалентность является полной лингвистической альтернативой в переводе; а адекватность – это перевод, сохраняющий равный прагматический баланс, включающий экстралингвистические факторы. Но следует отметить, что адекватность – понятие относительное, то есть перевод не будет на сто процентов адекватен оригиналу.

Примечание, комментирование, интерпретация, образный перевод и методы калькирования также играют важную роль в переводе. Эквивалентов стилистических синонимов очень мало, поэтому использование вышеперечисленных способов их передачи при переводе гарантирует эффективный результат. Например:

Оригинал: *Маълумки, ҳар бир ишининг ҳам янги – ибтидоий даврида талай камчиликлар билан майдонга чиқиши, аҳлларининг этишмаклари ила секин-секин тузалиб, такомулга юз тутиши табиий бир ҳолдир. Мана шунинг далдасида ҳавасимда жасорат этдим, ҳаваскорлик орқасида кечатурган қусур ва ҳатолардан чўчиб турмадим. Мозийга қайтиб иш кўриш хайрлик, дейдилар. Шунга кўра, мавзўни мозийдан, яқин ўткан кунлардан, тарихимизнинг энг қирлик, қора кунлари бўлган кейинги «хон замонлари»дан белгуладим* (А.Қодирий).

Перевод: *One could say that people can only further advance their skills through slow, methodical development and through meeting their shortcomings face to face at the outset of their endeavor. My wish has been to put this aphorism to test and not shrink in fear from my many failures and setbacks, which are of-ten attached to one so overly enthusiastic.*

*They say that history will teach us the mistakes of the past. With that in mind I have drawn upon the darkest and filthiest days of our history, not so long ago, mind you, that being the epoch of the khans.*

Единицы *ҳавасимда жасорат этдим, ҳаваскорлик*, применённые в оригинале, в переводе даны в виде *wish to test and not shrink in fear*. Слова *қусур қусур* (*камчилик, нуқсон*) и *хато* (*қусур, гуноҳ*) [14;390 p.], относящиеся к синонимическому ряду, поясняются в толковом словаре английского языка словами *failures (breakdown, fail) and setbacks (problem, difficulty)* [15;124–132-b.]. Чтобы обеспечить стилистическую окраску оригинала, переводчик выразил словосочетания *энг қирлик, қора кунлар* словосочетаниями *the darkest and filthiest days, ya'ni the darkest days*, словосочетание *энг қирлик кунлар* присуще устной речи в английском языке и передано словосочетанием *filthiest days*, имеющим очень сильный негативный оттенок. Подразумевается, что буквальным эквивалентом словосочетания «*энг қирлик кунлар*» в английском языке является словосочетание «*desecrated days*», принадлежащее литературному пласту.

**Заключение/Рекомендации.** Итак, необходимо обращать внимание на лингвокультурные особенности стилистических синонимов при переводе. Однако точные эквиваленты таким словам найти сложно, поэтому при переводе используются такие методы, как примечание, комментирование и интерпретация. Ведь качество и адекватность перевода зависят от умелого использования соответствующих методов.

#### Список использованной литературы:

- (1). Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова. "Вопросы языкознания", М., 1953, № 5, с. 3–30.
- (2). Filipец J. Ceská Synonyma z hlediska stylistiky a lexikologie. Praha, 1961, p. 201–203.
- (3). Hausmann Fr.J. Einführung in die Benutzung der neufranzösischen Wörterbücher (Romanische Arbeitsshefte 19.). Tübingen, 1977, p. 91–93.
- (4). Васильев Л.М. Проблема лексического значения и вопросы синонимии / Лексическая синонимия. Сборник статей. Л., 1967, с. 23.
- (5). Васильев Л.М. Проблема лексического значения и вопросы синонимии / Лексическая синонимия. Сборник статей. Л., 1967, с. 25–26.
- (6). Задорожный М.И. Максимум-стратегия и эконом-стратегия (Принцип экономии трудовых усилий в концепции Е.Д.Поливанова и членение непрерывного потока речи на слова). ВЕСТНИК ВГУ, серия лингвистика и межкультурная коммуникация, 2001, № 2, с. 48.
- (7). Рецкер Я.И. Учебное пособие по переводу с английского языка на русский. М., 1982, с. 15.
- (8). Митякина Л.В., Еремина Е. Некоторые особенности стилистических приёмов перевода. [http:// study-english.info/article046.php](http://study-english.info/article046.php)
- (9). Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. Toshkent, "Info Capital Group", 2017, 31-bet.
- (10). Жоанна Кетлин Роулинг. Гарри Поттер ва махфий хона (перевод Ш.З.Долимова). 2021.
- (11). Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз., М., "Выш. шк.", 1990, с. 117–128.
- (12). Ш Сирожиддинов, Г Одилова. Бадий таржима асослари. М., Тошкент, "Мумтоз сўз", 2011, 54–65-бетлар.
- (13). O'zbek tilining izohli lug'ati (A.Madvaliyev tahriri ostida). (2006–2008), 390-bet.
- (14). <https://dictionary.cambridge.org/>

**Masharipov Jakhongir Axmedovich (PhD student of UrSU)**

### THE ROLE OF THE APPROACH OF SEMANTIC FIELD IN SCRUTINIZING TERMINOLOGY

